


Russkaya literatura

V. K. Olesha



Uch
baqaloq



Rus adabiyoti durdonalari

YURIY KARLOVICH
OLESHA



Uch
baqaloq

Romanlar

Toshkent – «O‘ZBEKISTON» – 2021

UO*K 821.161.1-31 ✓

KBK 84(2Ros=Rus)

O-48 ✓

Rus tilidan

Qodir MIRMUHAMEDOV va Anvar NAMOZOV
tarjimai

Olesha, Yuriy Karlovich

Uch baqaloq [Matn]: romanlar /Y.K. Olesha. – Toshkent: «O‘zbekiston»
NMIU, 2021. – 224 b.

ISBN 978-9943-7605-5-4

Yuriy Karlovich Oleshaning bolalar uchun yozgan «Uch baqaloq» ertak-romani jahon xalqlari tillariga tarjima qilingan. Shu kitob asosida yaratilgan balet, kinofilm millionlab tomoshabinlarning sevimli asariga aylangan. Zulm, istibdod, haqsizlik avj olgan Uch Baqaloq mamlakatining mehnatkashlari donishmand doktor Gaspar, mohir dorboz Tibul, mard qurolsoz Prospero, tadbirkor qizaloq Suok kabi qahramonlar bilan birgalikda boyonlar saltanatiga qarshi bosh ko‘taradilar...

1927-yili yozilgan «Hasad» romani Y.Olesha ijodining eng yuqori cho‘qqisi bo‘lib, XX asr rus adabiyotining durdona asarlaridan biri hisoblanadi. Asarda inqilobdan keyingi Rossiyada «ortiqcha odam»ga aylanib qolgan ziyoli insonning fojiali taqdiri hikoya qilinadi.

ISBN 978-9943-7605-5-4

© Y.K. Olesha, 2021

© Q. Mirmuhamedov, A. Namozov (tarj.), 2021

© «O‘zbekiston» NMIU, 2021





BIRINCHI QISM

DORBOZ TIBUL

I BOB. DOKTOR GASPAR ARNERINING BEHALOVAT KUNI

Sehrgarlar zamoni o'tib ketgan. Ehtimolki, sehrgarlar aslida bo'lishmagandir ham. Balki, ularning hammasini odamlar kichkina bolalarga ertak bo'lsin deb, ichlaridan to'qib chiqarishgandir. Lekin hayotda shunday mohir ko'zboyloqchi-fokuschilar bo'lganki, ular merov odamlarni juda ustalik bilan laqillata olganlar, natijada shu nayrangbozlarni hamma afsungar va sehrgar deb atay boshlagan.

Shunaqa bir doktor bo'lgan edi. Uning ismi Gaspar Arneri edi. Go'l odamlar, bekorchi o'yinqaroqlar, chalamulla talabalar ham uni sehrgar deb hisoblashlari mumkin edi. Aslida esa bu doktor shunaqangi ajoyib buyumlar yasardiki, ularni chinakam mo'jiza desa bo'lardi. Lekin u hamma laqma odamlarni ahmoq qilib yuruvchi sehrgar va firibgarlarga sira ham o'xshamas edi.

Doktor Gaspar Arneri olim edi. Uni salkam yuzta ilmdan xabari bor desa bo'ladi. Xullasi kalom, butun mamlakatda Gaspar Arneridan donishmandroq, bilimdonroq odam yo'q edi.

Uning olimligini tegirmonchi ham, askar ham, xonimlar ham, ministrlar ham – hamma bilardi. Maktab bolalari bo'lsa, uning to'g'risida butun boshli qo'shiq to'qib, ko'cha-ko'yda kuylab yurishardi; u qo'shiqning naqaroti bunday edi:

*Yulduzlarga qanday uchmoqni,
Shum tulkini qay xil tutmoqni,
Toshni qanday eritmoqni ham
Bilar bizning doktor Gaspar, ha!¹*

¹ She'rlarni M.Mirzayev tarjima qilgan.

Yoz kunlarining birida, iyun oyining juda bahavo bir kuni doktor Gaspar Ameri o'simlik va qo'ng'izlarning ayrim turlarini terish va tutish uchun uzoq sayrga chiqmoqchi bo'ldi.

Doktor Gaspar Ameri ancha yoshga borib qolgan keksa odam edi; shuning uchun u shamoldan, yomg'irda ivib qolishdan qo'rqr va uydan chiqayotganida bo'yniga qalin sharf o'rar, ko'ziga changdan saqlanadigan ko'zoynak taqar, qoqilib ketmaslik uchun qo'liga hassa ushlab olar va umuman, sayrga zo'r ehtiyotkorlik bilan hozirlik ko'rardi.

Bu safar havo juda yaxshi edi: oftob charaqlab nur sochardi; o'to'lanlar shunaqangi yam-yashil ediki, hatto ularning shirin ta'mini og'zingda ham his etarding, osmonda qoqio't momiqlari uchib yurar, qushlar chug'urlashardi: yengil shabboda bamisoli balda kiyiladigan ko'ylakning etaklari singari yelpinardi.

– Mana bu yaxshi bo'ldi, – dedi doktor, – lekin shunga qaramay, plashni olish kerak, nimagaki yoz havosi beqaror bo'ladi. Yomg'ir yog'ib yuborishi mumkin.

Doktor uy xodimasiga ro'zg'or ishi bo'yicha farmoyish berdi, «huh»lab ko'zoynagini artdi, jomadonga o'xshab ketuvchi yashil charm qoplangan qutichasini qo'liga oldi-da, yo'lga chiqdi.

Eng xushmanzara joylar shahar tashqarisida, Uch Baqaloq Qasri joylashgan yerda edi. Doktor ko'proq shu yerlarga kelib turardi. Uch Baqaloq Qasri kattakon bir bog'ning qoq o'rtasida qad ko'targan edi. Bog' gir aylangan chuqur zovur bilan o'ralgan bo'lib, bu zovurning har yer-har yeriga qop-qora temirdan osma ko'priklar qurilgan edi. Ko'priklarni saroy soqchilari pat qadalgan qora kleyonka shlapa kiygan gvardiyachilar qo'riqlab turardilar. Bog'ning atrofi esa yerning to osmon bilan tutashgan joyigacha gul-chechaklar chaman bo'lib o'sgan o'tloqlar, daraxtzorlar va ko'llar bilan qoplangan edi. Bu yerlar juda yaxshi sayrgoh edi. Bu yerda o'to'lanlarning eng alomat turlari o'sar, eng antiqa qo'ng'izlar g'o'ng'illab uchar va eng xushvoz qushlar sayrashardi.

«Yo'q, piyoda borish uchun u yer uzoq. Yaxshisi, shahar darvozasigacha boraman-da, u yerda izvosh yollayman. Qasr bog'igacha meni shu izvosh olib borib qo'yadi», – deb o'yladi doktor.

Shahar darvozasi oldida bugun odamlar har doimgidan ko'proq edi.

«Iye, bugun yakshanbami? – deb gumonsiradi doktor. – Yo'q, undaymas-e. Bugun seshanba-ku».

Doktor olomonga yaqinroq bordi.



Butun maydon odamlar bilan liq to'lgan edi. Doktor bu yerda yashil qaytarma yoqali, kulrang movut kamzul kiygan hunarmandlarni; rangi so'niq dengizchilarni; egniga guldor nimcha kiygan o'ziga to'q shaharliklarni va ularning yubkalari atirgul butalariga o'xshab ketuvchi xotinlarini; graflarni; quti ko'targan baqqollarni; muzqaymoqchi-yu kabobchilarni; cho'pdek ozg'in sayyor artistlarni, go'yo quroq ko'rpadan tikilgandek yashil, sariq va olachipor rangli libos kiygan artistlarni; sho'x malla kuchuklarning dumidan tortib o'ynovchi jajji bolakaylarni ko'rdi.

Odamlar shahar darvozasi oldida uymalashib turardilar. Balandligi xuddi uyday keladigan ulkan darvoza taqa-taq yopiq.

«Nega darvoza yopiq ekan?» – deya ajablendi doktor.

Olomon shovqin solar, hamma baqirib-chaqirar, so'kinar, lekin bi-ror aniq gap eshitib bo'lmasdi.

Doktor qo'lida baq-baqaloq moshrang mushuk ushlab turgan bir ju- von oldiga borib undan so'radi:

– Marhamat qilib tushuntirib bersangiz: nima bo'lyapti o'zi bu yer- da? Nega odam buncha ko'p, nima sababdan ular bunchalik bezovta, nega darvoza yopiq?

– Gvardiyachilar odamlarni shahardan chiqarishmayapti...

– Nega chiqarishmayapti?

– Darvoza yopilmasidan oldin bir guruh odamlar shahardan chiqi- shib, Uch Baqaloq Qasriga yo'l olishgan edi, endi bular ham chiqib ularga yordam berishmasin, deb berkitib qo'yildi...

– Men hech nimaga tushunmayapman, xonim, shuning uchun meni afv etgaysiz...


– Voy, nahotki eshitmagan bo'lsangiz, axir bugun qurolsoz Prospe- ro bilan gimnastikachi Tibul Uch Baqaloq Qasrini hujum bilan qo'lga olish uchun xalqni boshlab ketishdi-ku.

– Qurolsoz Prospero?

– Ha, o'rtoq... Devor baland, uning naryog'ida gvardiyachi o'qchilar poylab yotishibdi. Endi hech kim shahardan chiqa olmaydi. Qurolsoz Prospero bilan ketgan odamlarni bo'lsa, saroy gvardiyasi qirib tashlay- di.

Chindan ham, uzoqdan bir necha o'q ovozi gumburlab eshitildi.

Ayol baroq mushukni qo'lidan tushirib yubordi. Mushuk yerga xuddi bir zuvala xamirdek «shalp» etib tushdi. Olomon faryod ko'tardi.



«Demak, men bu g'oyat muhim voqeadan bexabar qolibman, – dedi o'zicha doktor. – Rost, men bir oydan buyon xonamdan tashqariga chiqmagan edim. Eshikni ichidan berkitib olib ishlagan edim. Men ham voqeadan g'aflatda qolibman...»

Bu payt yana ham olisroqdan zambarakning gumburlagan ovozi eshitildi. Bu gumbur-gumburning aks sadosi xuddi koptokdek sakrab-sakrab shamol esgan tomonga olislab ketdi. Bundan nafaqat doktor qo'rqib bir necha qadam orqaga tisarildi, balki butun olomon cho'chib, o'zini har yoqqa otdi. Bolalar yig'lab yuborishdi; kaptarlar qanotlarini patillatib gurra uchishdi; itlar pisib olganча ingray boshlashdi.

To'p sadolari momaqaldiroqdek dahshatli gumburlardi. Olomon butun maydonni boshiga ko'tarib shovqin soldi. Odamlar darvozaga yopirilib kelib qichqira boshlashdi:

– Prospero! Prospero!

– Yo'qolsin Uch Baqaloq!

Doktor Gaspar butunlay gangib qoldi. Olomon orasida uni tanib qolishdi, chunki ko'pchilik uni ilgariyam ko'rgan-bilgan edi. Ayrim odamlar, go'yo undan panoh axtarganday, undan yordam kutgandek u tomon tashlandilar, ammo doktorning o'zi yig'lamoqdan beri bo'lib sarosimaga tushgandi.

– Nima bo'lyapti u yoqda? Qanday bilsa bo'larkin-a, darvozadan tashqarida nimalar bo'layotganini? Balki xalq g'alaba qozonayotgandir yo bo'lmasa, allaqachon hammani qirib tashlashgandir.

Shu choq o'ntacha odam maydonga kelib tutashgan uchta tor ko'cha tomonga yugurib ketdi. Bu ko'chalar muyulishida bir uy bo'lib, uning tepasida baland va ko'hna minora qad ko'targan edi. Boshqa odamlar qatori doktor ham minoraga chiqishga qaror qildi. Uning pastki qavatida hammomga o'xshab ketuvchi kirxona bor edi. U yer xuddi yerto'ladagidek qop-qorong'i. Minoraga shu yerdan aylanma zina orqali chiqish kerak edi. Tor-tor darchalardan tushib turgan yorug'lik zinani g'ira-shira yoritir, shuning uchun odamlar bu zinadan juda sekin va qiynalib-qiynalib ko'tarilishardi, buning ustiga, zinaning ancha-muncha pillapoyalari va tutqichlarining ko'pgina qismi tushib, uzilib ketgan edi. Shunga ko'ra, minoraning eng yuqori qavatiga chiqish doktor Gaspar uchun qanchalik mashaqqatli va hayajonli bo'lganini tasavvur qilish qiyin emas. Har holda yigirmanchi pillapoyaga oyoq qo'ygan zahoti uning:

– Voy, yuragim qinidan chiqib ketay deyapti, buning ustiga poshnamni yo'qotib qo'ydim! – deb chinqirgan ovozi eshitildi.

Doktor plashini-ku maydonda turganida, zambarak o'ninchi marta gumburlagandayoq yo'qotib qo'ygan edi.

Minora boshida atrof tosh devorcha bilan o'ralgan kichkinagina maydoncha bor edi. Bu yerdan kam deganda ellik kilometrlik masofadagi manzara ko'zga tashlanardi. Garchi bu manzarani tomosha qilish nihoyatda huzurli bo'lsa ham, hozir buning mavridi emas edi. Hamma to'qnashuv bo'layotgan tomondan ko'zini uzmas edi.

– Menda durbin bor. Men doim o'zim bilan sakkiz qavat shishali durbin olib yuraman. Mana, – dedi doktor va charm g'ilofni yechib, ichidan durbinni ola boshladi.

Durbin shu zahoti qo'lma-qo'l bo'lib ketdi.

Doktor Gaspar yam-yashil vodiya son-sanoqsiz odamlar to'dasini ko'rdi. Ular shahar tomon yugurib kelishardi. Ular qochib kelishayotgan edi. Odamlar uzoqdan rang-barang bayroqchalarga o'xshardilar. Ular orqasidan otliq gvardiyachilar bostirib kelishayotgan edi.

Doktor Gaspar, bularning hammasi sehrlil fonus ichidagi suratga o'xsharkan, deb o'yladi. Quyosh charaqlab turar, o't-o'lanlar tovlanardi. Portlagan bombalar xuddi bir parcha paxtani eslatardi, ularning alangasi esa go'yo olomonga kimdir ko'zgu orqali oftob shu'lasini tushirayotganday lip-lip yonib o'chardi. Otlar ikki oyoqlarini ko'tarib kishnashar, chirpirak bo'lib aylanishardi.

Bog' ham, Uch Baqaloq Qasri ham sutdek oppoq tutunga burkandi.

– Ular qochishyapti!

– Ular qochib kelishyapti... Xalq yengildi!

Qochib kelayotgan xaloyiq shaharga yaqinlashib qoldi. Odamlar to'p-to'p bo'lishib har yer-har yerga yotib-yotib qola boshladiki, bu manzarani kuzatayotgan kishining ko'ziga go'yo yam-yashil o'tloqqa osmondan rang-barang latta yog'ilganday bo'lib tuyulardi.

Maydon tepasidan bomba chiyillab uchib o'tdi.

Kimdir qo'rqib ketib, qo'lidagi durbinni tushirib yubordi. Bomba portladi, shunda minora boshida turgan odamlarning hammasi uymalashib, zinadan pastga tusha boshladi.

Bir chilangarning charm fartugi allanimaga ilinib qoldi. U orqasiga o'girildi-yu, qandaydir mudhish manzaraga ko'zi tushib, butun maydonni boshiga ko'tarib dod soldi:

– Qochinglar! Ular qurolsoz Prosperoni tutib olishdi! Ular hozir shaharga bostirib kirishadi!

Maydonda to's-to'polon boshlandi. Darvoza oldida uymalashib turgan olomon gurra orqaga tashlandi va tor ko'chalarga qarab tiraqaylab qocha boshladi. Otishmadan hamma gangib qolgan edi.

Doktor Gaspar bilan yana ikkita odam minoraning uchinchi qavatida to'xtab qolishdi. Ular minoraning qalin devoridagi torgina darchadan tashqariga qaray boshladilar.

Ulardan faqat bittasi tashqariga bosh suqib qarashi mumkin edi, qolganlar faqat bir ko'z bilangina mo'ralay olardi. Lekin bir ko'z uchun ham tashqarida yuz berayotgan hodisa yetarli darajada dahshatli edi.

Bahaybat temir darvoza lang ochildi. Shu payt uch yuztacha odam birvarakayiga darvozadan yopirilib kirib keldi. Bular yashil qaytarma yoqali kulrang movut kamzul kiygan hunarmandlar edilar. Ular qora qonga bo'yolib, gup-gup yiqildilar. Otliq gvardiyachilar ularni bosib-yanchib o'tardilar. Ular qilich chopishar, miltiq otishardi. Sariq patlar hilpirar, qora kleyonka shlapalar yaltirar, otlar qip-qizil og'izlarini katta-katta ochar, ko'zlarining paxtasini chiqarar va har yoqqa og'izlaridan ko'pik sochardilar.

– Qaranglar! Qaranglar! Prospero! – deb chinqirdi doktor.

Qurolsoz Prosperoning bo'yniga sirtmoq solib sudrab kelardilar. U har qadamda yiqilar, yana o'rimdan turib olar edi. Uning malla sochlari patila-patila bo'lib ketgan, yuzi qon, bo'ynida yo'g'on sirtmoq bor edi.

– Prospero! Prosperoni asirga olishdi! – deb chinqirdi doktor.

Xuddi shu payt kirxonada bomba portladi. Minora bir tebranib qiyshaydi, shu ko'yi bir zum turdi-da, so'ng gumburlab qulab tushdi. Endi ikkinchi poshnasini ham, hassasi bilan jomadonchasi-yu, ko'zoynagini ham yo'qotgan doktor o'mbaloq oshib yiqildi.

II BOB. QATL KUNDASI¹

Doktor shuncha balanddan yiqilsa ham xayriyat, shikast yemadi, boshi ham yorilmadi, oyoqlari ham butun qoldi. Lekin shunga qaramay, doktor Gaspar Arneridek keksayib qolgan odam uchun bunday

¹ O'limga mahkum etilgan odamning boshini chopish uchun qo'yilgan to'nka.

balanddan qulash ancha noxush edi-da. Har qalay, doktor qo'rquvning zo'ridan hushini yo'qotib qo'ydi.

U hushiga kelganida kech kirgan edi. Doktor chor atrofga ko'z yugurtirib chiqdi.

– Attang! Mana, ko'zoynagim ham sinibdi. Ko'zoynaksiz yaxshi ko'radigan odam ko'zoynak taqqanda ko'zi qanday xiralashsa, mening ham ko'zim endi ko'zoynaksiz shunaqa xiralashadi. Juda chatoq bo'ldi-da. Odamning g'ashiga tegarkan.

Keyin doktor oyoq kiyimining poshnalari uzilib tushganini ko'rib g'o'ldiray boshladi:

– O'zim shundoq ham pakana odam edim; endi bo'yim yana to'rt enlik pasayadigan bo'ldi, balki sakkiz enlik pasayib ketarman, negaki, ikki poy botinkamning poshnasi ko'chib, yo'qolib qolgan-ku... Yo'q, undaymas-ov, faqat to'rt enlik pasayaman, albatta.

U g'isht parchalari ustida cho'zilib yotardi. Minora deyarli butunlay qulab tushgan edi. Devorning uzun va tor qismi xuddi molning kurak suyagidek dikkayib turardi. Juda-juda olisdan musiqa ovozi kelardi. Bu quvnoq vals ohangini shamol uzoq-uzoqqa uchirib ketganidan u goh eshitilib, goh eshitilmay qolardi. Doktor boshini ko'tardi. Tepasida qora bo'g'otlarning xarilari osilib turardi. Kechki och zangori osmonda yulduzlar g'ira-shira miltillardi.

– Musiqa qayerda chalinyaptiykin? – deb ajablandi doktor.

Endi u plashsiz junjiy boshladi. Maydon tomondan «tiq» etgan tovush eshitilmasdi. Doktor qalashib yotgan tosh-u g'ishtlar orasidan inqillab-sinqillab chiqib oldi. U keta turib yo'l-yo'lakay allakimning so'loqmonday keladigan etigiga qoqilib ketdi. Bir chilangar to'sin ustida ko'ndalangiga cho'zilib yotar, uning xira ko'zlari osmonga baqraygan edi. Doktor uni turtib ko'rdi. Lekin chilangar turishni istamasdi.

Shunda doktor shlapasini boshidan olgani qo'lini ko'tardi. Chunki chilangar o'lgan edi:

– Shlapam ham yo'qolibdi. Endi qayga borsam ekan?

U axiyri maydondan chiqib ketdi. Har yer-har yerda odamlar cho'zilishib yotardi; doktor ularning har biri tepasida to'xtab, engashib qarardi, lekin bu odamlarning katta-katta ochilgan ko'zlarida yulduzlar aksini ko'rardi, xolos. Doktor kaftini ularning peshonasiga qo'yardi. Shunda u odamlarning peshonalari muzlab qolganini va qorong'ida qorayib ko'ringan qon tegib namiqqanini payqardi.

– Ana xolos! – deb pichirlardi doktor. – Demak, xalq yengilibdi-da... Endi nima bo'ladi?

Yarim soatdan keyin u odamlar gavjum joyga yetib oldi. Juda charchagan, qorni ham ochgan, chanqagan edi. Bu yerda shahar odatdagi qiyofada edi.

Doktor uzoq yo'l yurib toliqqanidan chorrahada to'xtab dam ola boshladi va: «Taajjub! Bu yerda rang-barang chiroqlar yonyapti, izvoshlar g'iz-g'iz o'tib turibdi, oynaband eshiklar jiring-jiring qilib ochilib-yopilyapti. Yarim doira derazalar oltindek tovlanyapti. Anavi yoqda, qator tizilgan ustunlar yoqalab juft-juft bo'lib tansa tushishmoqda. U yerda bazmi jamshid avjida. Zulmat qoplagan ko'l ustida rang-barang xitoy fonuslari chayqaladi. Odamlar kecha qanday yashashgan bo'lsa, hozir ham o'sha-o'sha. Nahotki bugun ertalab yuz bergan falokatdan bexabar bo'lishsa? Nahot ular o'q va zambarak ovozlari, odamlarning dod-faryodlarini eshitmagan bo'lishsa? Xalq sardori qurolsoz Prosperoning qamoqqa olinganidan nahotki bu odamlar bexabar bo'lishsa? Balki men o'sha mudhish voqealarning hammasini tushimda ko'rgandirman?» – deb xayolidan o'tkazdi.

Uch shoxli fonus yonib turgan muyulishda yo'lka yoqalab izvoshlar tizilishib turardi. Gulchi qizlar gul sotishardi. Izvoshchilar gulchi qizlar bilan gurunglashardilar.

– Uning bo'yniga sirtmoq solishib, shaharning hamma ko'chalaridan sazoyi qilib olib o'tishdi. Boyaqish!

– Endi uni temir qafasga solib qo'yishibdi. U qafas Uch Baqaloqning Qasrida turganmish, – dedi boshiga tasmali havorang silindr kiygan semiz izvoshchi.

Shu payt bu yerga bir xonim qizchasini yetaklab keldi – u gul olmoqchi edi.

– Kimni qafasga solishibdi? – deya sinchkovlik bilan so'radi xonim.

– Qurolsoz Prosperoni. Gvardiyachilar uni asirga olishdi.

– Voy, xudoga shukur-e! – dedi xonim.

Qizcha hiqillab yig'lay boshladi.

– Nega yig'layapsan, tentak qiz? – deya ajablendi xonim. – Qurolsoz Prosperoga achinyapsanmi? Achinish kerak emas unga. U bizga yomonlik qilmoqchi bo'lgan edi. Mana bu gullarni qara, qanday chiroyli...

Yirik-yirik atirgullar suv va yaproqlar to'la idishlarda xuddi oq-qushlar singari ohista suzib yurardi.

– Mana senga uchta atirgul. Achinma ularga. Ular isyonchilar. Agar ularni qafasga solishmasa, bizning uylarimizni, kiyim-boshlarimizni, hatto gullarimizni ham tortib olishib, o'zimizni qirib tashlashardi.

Shu mahal bu yerdan bir bola g'izillab o'tib qoldi. U avval xonimning yulduzsimon gullar tikilgan plashining etagidan, keyin qizchanning kokilidan tortdi.

– Hechqisi yo'q, grafinya! – deb qichqirdi bola. – Qurolsoz Prospero qafasda bo'lsayam, dorboz Tibul ozodlikda!

– Voy, yaramas bola-yey!

Xonim jahl bilan yer depsingan edi, sumkachasi qo'lidan tushib ketdi. Gulfurush qizlar xaxolab kulib yuborishdi.

Semiz izvoshchi bu g'ala-g'ovurdan foydalanib, xonimga izvosh tavsiya qildi.

Xonim qizchasi bilan izvoshga chiqib jo'nab qoldi.

– Shoshma, hoy bolakay! – deb qichqirdi bir gulfurush qiz bolaga. – Beriroq kel-chi! Bilganlaringni bizga ham aytib ber.

Ikki izvoshchi yerga tushishdi-da, yelkapo'shi besh qavat uzun chakmonlarining etaklariga chalishib, gulfurush qizlar oldiga kelishdi.

«Mana bu qoyilmaqom qamchi ekan! Qamchimisan-qamchi!» – deb o'yladi bola, izvoshchi qo'lida o'ynatib turgan qamchiga ko'z tashlarkan. Bola ham xuddi shunaqa qamchini orzu qilardi-yu, lekin ko'p sabablarga ko'ra bunga erisholmas edi.

– Boya nima deding? – deb so'radi izvoshchi do'rillagan ovoz bilan. – Dorboz Tibul ozodlikda dedingmi?

– Shunaqa deyishyapti. Men portga borgan edim...

– Gvardiyachilar uni o'ldirishmagan degin? – so'radi ikkinchi izvoshchi ham do'rillagan ovoz bilan.

– Yo'q, otaxon... Hoy, go'zal qiz, menga bitta gulingdan ber!

– Shoshma, tentak. Sen, yaxshisi, bo'lgan voqeani bir boshdan gapirib ber...

– Xullas, bunday... Oldiniga hamma uni o'ldiga chiqarib qo'ygan edi. Keyin uni o'lganlar orasidan qidirib topisha olmabdi.

– Ehtimol, uni kanalga tashlab yuborishgandir? – deb so'radi izvoshchi.

Bir gado kelib gapga aralashdi.

– Kimni kanalga tashlashibdi? – so‘radi u. – Dorboz Tibul mushuk bola emas. Cho‘ktirib bo‘psan uni. Dorboz Tibul tirik. U qochib qutulib qoldi!

– Gaping yolg‘on, naynov! – dedi izvoshchi.

– Dorboz Tibul tirik! – deya mag‘rur qichqirishdi gulfurush qizlar.

Bola bitta atirgulni o‘marib, ura qochib qoldi. Ho‘l gul bargidagi suv tomchilari doktorning yuziga sachradi. Doktor xuddi ko‘z yosh singari achchiq suv tomchilarini yuzidan artdi va gadoning gapini eshitish uchun to‘daga yaqinroq bordi. Shu mahal yuz bergan bir voqea suhbatning beliga tepdi. Ko‘chada g‘ayrioddiy bir namoyish paydo bo‘ldi. Oldinda mash‘ala ushlagan ikki nafar otliq kelardi. Mash‘alalar xuddi olovli soqoldek hilpirardi. Ular orqasidan gerbli qora kareta ohista borardi.

Kareta ketidan esa duradgorlar kelardi. Ular yuz kishi edi.

Ular yenglarini shimarib olib bo‘yinlariga fartuk taqib ishga shay bo‘lib borardilar, qo‘ltiqlariga arra, randa, qutilar qistirib olgan edilar. Bu izdihomning ikki yonida, otliq gvardiyachilar turnaqator tizilib kelayotgan edi. Ular chopishni xohlab o‘ynoqlayotgan otlarning jilovidan tortib borardilar.

– Bu nima o‘zi? – deya bezovta bo‘la boshladi ko‘cha-ko‘ydagi odamlar.

Gerbli qora karetda Uch Baqaloq Kengashining a‘zosi o‘tirardi. Gulfurush qizlar qo‘rqib ketishdi. Ular kaftlarini iyaklariga qo‘ygancha Kengash a‘zosini kuzatardilar. Uning boshi karetaning oynaband eshigidan ko‘rinib turardi. Ko‘cha charog‘on qilib yoritilgan. Kengash a‘zosining yasama soch kiygan qora boshi xuddi jon-sizdek chayqalib borardi. Shuning uchun kareta ichida xuddi qush qo‘nib o‘tirganday tuyulardi.

– Chetlaninglar! – deb qichqirishardi gvardiyachilar.

– Duradgorlar qayoqqa ketishyapti? – deb so‘radi bir gul sotuvchi qizcha gvardiyachilar boshlig‘idan.

Shunda gvardiyachi qizchanning yuziga engashib shunaqa dag‘-dag‘a bilan shang‘illab berdiki, sho‘rlik qizchanning sochlari go‘yo qattiq shamol esgandek, tikkayib ketdi:

– Duradgorlar qatl kundasi qurgani ketishyapti! Tushundingmi? Ular o‘nta qatl kundasini qurishadi!

– A!

Qizchanning qo'lidagi gul solingan idish tushib ketdi, gullari ko'cha bilan bitta bo'ldi.

– Ular qatl kundasi qurgani ketishyapti! – deb takrorladi dahshatga tushgan doktor Gaspar.

– Kunda! – deb baqirdi gvardiyachi, yuzini o'girib, xuddi etikka o'xshab ketuvchi mo'ylovi ostidan tishlarini irshaytirib. – Hamma isyonchilarga kunda quramiz! Hammalarining boshini tanalaridan judo qiladilar! Uch Baqaloq hokimiyatiga qarshi bosh ko'tarishga jur'at qilganlarning hammasini qirib tashlaymiz!

Doktorning boshi aylanib, ko'zi tinib ketdi. U o'zini hushidan ketib yiqilayotganday seza boshladi.

«Men shu bir kunning o'zida judayam ko'p azob chekdim, – dedi u o'ziga o'zi, – buning ustiga, qornim juda ham och, yana qattiq charchaganman. Tezroq uyimga bormasam bo'lmaydi».

Darhaqiqat, doktor dam olishi kerak edi. U bugun yuz bergan hamma hodisalardan, barcha ko'rgan, eshitganlaridan shunchalik hayajonga tushgan ediki, hatto o'zining minora bilan birga qulab tushganiga, shlapasi, plashi, hassasi va poshnalarini yo'qotib qo'yganiga ham e'tibor bermadi. Albatta, eng yomon tomoni ko'zoynagining yo'qolib qolgan edi.

U izvosh yollab uyiga jo'nab ketdi.

III BOB. YULDUZ MAYDONI

Doktor uyiga qaytayotgan edi. U hashamatli zallardan ham ravshanroq yoritilgan judayam keng asfalt ko'chalardan o'tib borardi. Ko'zoynagini yo'qotib qo'yganligidan ko'chani kunday yoritib turgan chiroqlar marjoni xuddi osmon-u falakda miltillab turgandek tuyulardi. Ko'zni qamashtiruvchi fonuslar, baqirlab qaynab turgan sut to'ldirilgan sharlarga o'xshardilar. Fonuslar atrofida har turli qanotli hasharotlar g'ujg'on o'ynar va chiroqning taftidan nobud bo'lib tutday to'kilardi. Doktor sohilda qad rostlagan tosh devor yoqalab izvoshda ketib borardi. Bu devorning har yer-har yerida bronzadan yasalgan sherlar panjalarida qalqon ushlab, uzun tillarini chiqarib turishardi. Pastda, anhorda esa qatrondek qop-qora va yaltiroq suv lim-lim bo'lib ohista oqardi. Shu suv sathida butun shaharning aksi to'nkarilib ko'rinar, cho'kar, suv bilan oqib ketayotgandek bo'lardi-yu, ammo hech oqib ketolmas, fa-

qat nafis, oltin tangachalarga bo'linib, erib ketardi. Doktor do'mpaygan bukri ko'priklardan o'tib borardi. Pastdan yo narigi qirg'oqdan qaragan odamga bu ko'priklar bamisoli hujumga o'tish oldidan temir yelkasi-ni bukchaytirib olgan bahaybat mushukka o'xshardilar. Bu yerda har bir ko'prik og'zida soqchilar turishardi. Askarlar do'mbiralalar ustiga o'tirib, trubka chekishar, qarta o'ynashar va yulduzlarga boqib kappa-kappa eshashardi.

Doktor bularning barini kuzatib, g'o'ng'ir-g'o'ng'ir gaplarga quloq solib o'tib borardi.

Ko'cha-ko'ydan, uylardan, qovoqxonalarning ochiq derazalaridan, ko'ngilochar bog'larning panjaralari ortidan kuylanayotgan qo'shiqlar-ning ayrim so'zlari eshitalardi:

Chapdast, tanti Prospero
Domga ilindi bexos,
Endi temir qafasda
O'ltirar u qurolsoz.

Shirakayf bir olifta yigit bu qo'shiqqa jo'r bo'ldi. Bu oliftaning puli judayam ko'p, pulidan ham yuzidagi sepkillari ko'p bo'lib, uning badavlat bir xolasi yaqinda olamdan o'tgan edi. Xolasining shu oliftadan boshqa birona ham qarindoshi bo'lmagani uchun, uning butun boyli-giga shu yigit merosxo'r bo'lgan edi. Mana shuning uchun ham u xalq ommasining boylarga qarshi bosh ko'targanidan norozi edi, albatta.

Hayvonot bog'ida katta tomosha ko'rsatilayotgan edi. Taxtalardan yasalgan sahnada yunglari hurpaygan uchta beso'naqay maymun Uch Baqaloq hukmdorga taqlid qilib o'yin tushardi. Foksteryer¹ mandolina chalardi. Yelkasiga oltinrang quyosh, qorniga zarrin oy tasviri tikilgan to'q qizil kiyim kiygan masxaraboz musiqaga jo'r bo'lib she'r o'qirdi:

Bamisoli uch niq bug'doy qop –
Ag'darildi uchta Baqaloq!
Ular uchun qorindan o'zga
Muhim tashvish ko'rinmas ko'zga!
Hushyor bo'ling, Baqaloqlar, siz,
Ko'p taltaymang, bitdi kuningiz!

¹ Foksteryer – bo'yi pakana ov iti.

– Bitdi, bitdi kuningiz! – deb chug‘urlab yuborishdi birdan chor atrofda qo‘nib turgan soqoldor to‘tiqushlar.

Shiddatli shovqin-suron ko‘tarildi. Har xil qafaslarda yotgan turli-tuman hayvonlar butun hayvonot bog‘ini boshlariga ko‘tarib, vovullay, irillay, bo‘kira, chiyillay boshladilar.

Sahnadagi maymunlar betoqat bo‘lishib o‘zlarini har yoqqa ura boshladilar. Ularning qo‘llari qayerda-yu, oyoqlari qayerda – bilib bo‘lmasdi. Keyin ular tomoshabinlar orasiga sakrab tushib, tiraqaylab qocha boshladilar. Olomon orasida ham g‘avg‘o ko‘tarildi. Hammadan ham, xo‘ppa semiz baqaloq odamlar ko‘proq shang‘illashardi. Yuzlari lavlagidek qizarib ketgan bu semiz odamlar g‘azabdan butun vujudlari qaqshab, shlapalarini, qo‘llaridagi durbinlarini masxarabozga ota boshladilar. Bir semiz xonim soyabonini silkigan edi, yonida turgan boshqa bir baqaloq xotinga tegib ketib, uning boshidan shlapasini uchirib yubordi.

– Voy, voy, voy! – deb chiyilladi qo‘shni ayol qo‘llarini boshiga ko‘targancha, chunki uning boshidan shlapasi bilan birga yasama sochi ham uchib ketgan edi.

Buning ustiga-ustak, qochib ketgan maymun ham xonimning kal boshiga shapatilab o‘tgan edi, xonim hushidan ketib yiqilib tushdi.

– Ha-ha-ha!

– Ha-ha-ha! – deb qotib-qotib kula boshladi olomonning bir qismi – ancha ozg‘inroq va soddaroq kiyingan odamlar. – Qoyil! Yashavor! Bopla ularni! Yo‘qolsin Uch Baqaloq! Yashasin Prospero! Yashasin Tibul! Yashasin xalq!

Shu mahal kimningdir:

– Yong‘in! Shaharga o‘t ketdi... – deya baqirgan ovozi baralla eshitildi.

Odamlar bir-birlarini bosib-yanchib, o‘rindiqlarni ag‘darib, darvoza tomon otildilar. Qorovullar har tomonga qochib ketgan maymunlarni tutishga tushdilar.

Izvoshchi orqasiga o‘girildi-da, qamchisi bilan uzoqqa ishora qilib doktorga dedi:

– Qarang, gvardiyachilar ishchi mahallalariga o‘t qo‘yishyapti. Ular dorboz Tibulni qidirib topishmoqchi...

Shahar uzra, to‘p-to‘p bo‘lib turgan baland-past qora uylar ustida pushti rang shafaq mavjlanardi.

Doktor tushgan izvosh shaharning Yulduz deb nomlanuvchi eng asosiy maydoniga yetganida to'xtab qoldi, chunki undan nari-ga o'tishning imkoni yo'q edi. Bu maydonga kiraverishdagi ko'cha og'zida son-sanoqsiz izvoshlar, foytunlar, otlqlar, piyodalar tiqilib ketgan edi.

– Nima gap? – deb so'radi doktor.

Hech kim hech nima deb javob bermadi, chunki hamma maydonda bo'layotgan voqeaga mahliyo edi. Izvoshchi ham o'rindig'idan tikka turib, o'sha tomonga qaray boshladi.

Bu maydonni Yulduz maydoni deb atashlariga sabab bor edi. Uning tevarak-atrofi balandligi, shakli bir xil uylar bilan qurshalgan, tepasi oynaband gumbaz bilan qoplangan edi, shu sababli u judayam ulkan sirk-ka o'xshab ketardi. Gumbazning qoq o'rtasida, judayam balandda dun-yoda eng kattakon fonus yonib turardi. Bu tasavvur qilib bo'lmaydigan darajada katta shar edi. Temir gardishdan belbog'i bo'lgan, juda yo'g'on simga osilgan bu sharsimon fonus Saturn sayyorasiga o'xshab ketardi. Uning shu'lasini shunaqayam charog'on, yer yuzidagi bironta ham shu'laga sira o'xshamas ediki, odamlar bu fonusga Yulduz deb antiqa nom qo'yishgan edi. Keyinchalik butun maydonni ham Yulduz deb ataydigan bo'lishdi.

Maydonning o'zida ham, maydon yaqinidagi uylarda ham, ko'chalarda ham hech bir chiroq yoqishning hojati yo'q edi. Maydon tevarak-atrofidagi hamma tor ko'chalarni, hamma uylardagi barcha hujra-yu qaznoqlarni ham mana shu Yulduz yoritib turardi. Bu yerda yashovchi odamlarda hech qanday chirog'-u shamlarga ehtiyoj yo'q edi.

Izvoshchi o'zidan oldinda turgan izvoshlar, foytunlar osha, arava-kashlarning silindr kiygan boshlari osha (bu silindrlar dorixonachilar pufagiga o'xshab ketardi) qaray boshladi.

– Nimalarni ko'ryapsiz? Nima bo'lyapti o'zi u yoqda? – deya bezovtalanib so'radi doktor, izvoshchining orqasidan mo'ralarkan. Le-kin kichkinagina jussali doktor hech nima ko'ra olmas, buning usti-ga, ko'zida ko'zoynagi ham yo'q edi-da, axir. O'zingiz bilasiz-ku, ko'zoynaksiz olisni mutlaqo ko'ra olmasdi boyaqish.

Izvoshchi ko'rganlarini unga batafsil gapirib tur

Mana bu ko'rgan narsalar:

Maydon judayam g'ala-g'ovur edi. Bu ulkan doira maydonning har yer-har yerida to'p-to'p odamlar u yoqdan bu yoqqa zir yugurishardi. Go'yo bu doira maydon misoli oto'yin singari aylanayotganga o'xshardi. Odamlar yuqorida bo'layotgan voqeani yaxshiroq ko'rish uchun bir joydan ikkinchi joyga gur-gur ko'chishardi.

Juda balandda charaqlab yonib turgan bahaybat fonus ko'zlarni xuddi oftobdek qamashtirar edi. Odamlar boshlarini baland ko'tarib, ko'zlari ustiga kaftlarini soyabon qilib osmonga qarar edilar.

– Ana u! Ana! – degan qichqiriqlar eshitilardi.

– Ho'v, ana, qaranglar! Bu yoqqa!

– Qani? Qani?

– Yuqoriroqqa qara!

– Tibul! Tibul!

Yuzlab odamlarning ko'rsatkich barmoqlari chap tomonga cho'zildi. U tomonda olti qavatli oddiy bir uy turardi. Lekin uning hamma qavatidagi derazalar lang ochilgan edi. Har bir derazadan odamlarning boshlari chiqib turardi. Bu boshlar turlicha qiyofada edi: ba'zilar popukli tungi qalpoq kiygan, boshqa birlari pushti rang chepets¹ kiygan, gajaklari kerosin rangida edi; uchinchilari qiyiq ro'molcha o'ragandilar; shoirlar, rassomlar, aktrisalardan iborat kambag'al yoshlar yashaydigan yuqori qavatdan quyuc tamaki tutuni orasidan xushchaqchaq, mo'ylovsiz basharalar, zarrin sochlari yal-yal tovlanib, yelkalaridan qanot singari o'sib chiqqanday ko'rinuvchi ayollarning boshlari ko'rinardi. Odamlari xuddi qushlarga o'xshab rang-barang boshlarini lang ochiq derazalardan chiqarib turgan bu uy sa'valarga g'ij-g'ij to'la ulkan qafasga o'xshab ketardi. Hamma boshlar bo'yinlarini qulayroq qayirib va jasadlarini sal bo'lmasa derazadan otilib chiqib, to'ppa-to'g'ri tosh ko'chaga tushib chilparchin bo'lish xavfi darajasida tashqariga chiqarib, o'z tepalaridagi tomida yuz berayotgan qandaydir juda alomat bir voqeani ko'rishga urinardilarki, kishi ko'zgu bo'lmasa o'z qulog'ini ko'ra olmaganidek, ular ham bu manzarani aslo ko'ra olmasdilar. O'z uylarida turib, o'z tomlarida bo'layotgan voqeani ko'rmoqchi bo'lgan odamlar uchun maydonni boshiga ko'tarib g'avg'o qilayotgan olomon o'sha ko'zgu vazifasini bajardi. Olomon hamma narsani ko'rib turar,

¹ *Chepets* – ayollarning bosh kiyimi.

baqirib-chaqirar, qo'llarini siltardi: birovlar terisiga sig'may xursand bo'layotgan bo'lsa, birovlar qattiq g'azablanardi.

Tomda kichkinagina bir odam yurardi. U tomning qiyalab tushgan yeridan asta-sekin, ehtiyotlik bilan dadil yurib kelardi. Uning oyog'i ostida tunuka taraqlardi.

Sirkda dor ustida o'ynagan dorboz sariq rang xitoy soyaboni yordamida muvozanat saqlaganidek, tom boshidagi bu odam ham qo'lidagi plashini silkitib muvozanat saqlab bormoqda.

Bu odam gimnastikachi Tibul edi.

Xalq qichqirardi:

– Otangga rahmat, Tibul! Balli, Tibul!

– Bo'sh kelmayсан! Saylda dorda qanday yurganingni esla.

– Yo'q, u yiqilmaydi! Mamlakatimizda unga teng keladigan mohir gimnastikachi yo'q...

– Bu ish unga cho't emas. Dorda yurishga qanchalik mohir ekanligini o'z ko'zimiz bilan ko'rganmiz...

– Balli, azamat Tibul!

– Qoch, oshna! Sen omon qolishing kerak! Prosperoni qutqarishing kerak!

Boshqa birovlar darg'azab edi. Ular mushtlarini silkitishardi:

– Qochib qutulib bo'psan, yaramas masxaraboz!

– Lo'ttiboz!

– Isyonchi! Seni xuddi quyonni otganday otib tashlashadi.

– Shoshmay tur! Biz hali seni tomdan tortib tushib, kundada boshingni chopamiz. Ertaga o'nta kunda qurilib bitadi!

Lekin Tibul o'zining xatarli yo'lida davom etardi.

– Qayoqdan paydo bo'ldi u? – deb so'rashardi odamlar. – Qanday kelib qoldiykin bu maydonga? Tomga qanday chiqib qoldiykin?

– U gvardiyachilar qo'lidan qochib kelgan, – deb javob qilishardi boshqalar. – U qochib ketib, ko'zdan g'oyib bo'lgan edi, keyin uni odamlar shaharning turli yerida uchratishibdi. U tomma-tom o'tib kelgan bu yerga. U xuddi mushukdek epcil. Hunari hozir judayam ish berdi unga. Axir butun mamlakatga zo'r dorboz, deb dovrug'i bekorga ketmagan-ku!

Maydonda gvardiyachilar paydo bo'lishdi. Bekorchi tomoshabinlar maydon yonidagi ko'chalarga tiraqaylab qocha boshlashdi. Tibul tom chekkasidagi to'siqdan oshib o'tib, bo'g'otga oyoq qo'ydi. U plash

tashlangan qo'lini yoydi. Yashil plash xuddi bayroqdek hilpiray boshladi.

Xaloyiq sayl va yakshanbalik sayl paytidagi tomoshalarda uni mana shu plash bilan sariq, qora uchburchak matodan quroq qilib tikilgan mana shu triko kiyimda ko'rishga odatlanib qolgan edi.

Endi bo'lsa juda balanda, shisha gumbaz ostida kichkinagina, xipcha va olachipor bo'lib ko'rinayotgan Tibul xuddi uyning oppoq devoridan o'rmlab ketayotgan sariq ariga o'xshardi. Uning plashi hilpiragan chog'da esa go'yo sariq ari yaltiroq yashil qanotlarini yoyayotgandek tuyulardi.

– Mana, hozir qulab tushasan, masxaraboz! Hozir seni otib tushirishadi! – deb qichqirdi xolasidan meros olgan sepkilli olifta yigit.

Gvardiyachilar Tibulni otish uchun qulay joy tanlashdi. Ofitser tashvishli qiyofada u yoqdan bu yoqqa zir yugurardi. U to'pponchasini qo'liga olib olgan. Etigi poshnasiga taqilgan shpor'lar xuddi konkiga o'xshash uzun-uzun edi.

Butun maydon suv quygandek jimjit bo'lib qoldi. Doktor yuragini changalladi, shu topda uning yuragi vaqirlab qaynab turgan suvdagi tuxumdek irg'ishlardi.

Tibul bir zungina tom labida turib qoldi. U maydonning qaramaqarshi tomonidagi tomga o'tib olishi kerak edi. O'tib olsa, marra uniki edi – unda bu Yulduz maydonidan ishchilar mahallalariga qochib ketishi mumkin.

Ofitser maydonning qoq o'rtasidagi sariq va havorang gullar ochilib turgan gulpushtaga turib oldi. Bu yerda doira tosh kosa ichidan otilib chiqayotgan favvora va shu favvora suvi bilan lim-lim to'lgan hovuz bor edi.

– To'xtanglar, – dedi ofitser askarlarga, – men o'zim otib tushiraman uni. Butun polkda merganlikda menga yetadigani yo'q. Qanaqa otish kerakligini mana, mendan o'rganinglar.

Maydon atrofidagi to'qqizta uydan gumbazning qoq o'rtasidagi Yulduzga qarab to'qqizta yo'g'on po'lat sim tortilgan edi, simlar yo'g'onlikda dengizchilarning arqonidan qolishmasdi.

¹ *Shpor* – otliq askarlar otning biqiniga niqtash uchun etik poshnasiga taqadigan temir tepki.

Go'yo charaqlab shu'la sochib turgan Yulduz – fonusdan maydon uzra to'qqizta qora nur taralgandek tuyulardi.

Bu mahal Tibul nimalarni o'ylayotgani bizga ma'lum emas. Balki u mana bunday qarorga kelgandir: «Men yarmarkalarda arqon ustida qanday yurgan bo'lsam, hozir ham maydon ustidan tortilgan mana bu simdan yurib narigi tomonga o'taman. Men yiqilmayman. Mana bu sim to'g'ri fonusga qarab tortilgan, fonusdan esa maydonning narigi tomonidagi uyga ham sim tortilgan. Agar men shu ikkita sim ustidan yurib o'tsam, narigi tomondagi uyning tomiga chiqib olaman-u, qutulib ketaman».

Bu payt ofitser to'pponchani ko'tarib, Tibulni mo'ljalga ola boshladi. Tibul tom labidan yurib sim tortilgan yerga yetib keldi, devordan ajradi va sim ustidan fonus tomon yura boshladi.

Olomon hayratga keldi.

Tibul chaqqonlik va ehtiyotlik bilan oyoq qo'yarkan, qo'llarini yoygancha chayqalib goh juda sekin yurar, goh birdan chopqillab ketardi. Har bir daqiqada u yiqilib tushayotganday bo'lardi. Mana, endi uy devorida uning soyasi paydo bo'ldi. U fonusga yaqinlashgan sari soyasi devor bo'ylab pastga tusha boshladi va pastga tushgan sari nursizlanib kattalasha bordi.

Uning tagidagi maydon bamisoli jahannamdek chuqurlikda edi.

U fonusga boradigan yo'lining yarmiga yetganida sukutga cho'mgan maydonda ofitserning ovozi eshitildi.

– Hozir otaman. U to'g'ri hovuzga kelib tushadi. Bir, ikki, uch!

O'q ovozi gumburladi.

Tibul yo'lida ketaverdi, lekin ofitser negadir shaloplab hovuzga ag'anab tushdi.

U o'lgan edi.

Gvardiyachilardan birining qo'lidagi to'pponcha og'zidan zangori tutun chiqayotgan edi. Ofitserni shu askar otib tashlagan edi.

– Itdan tarqagan! – dedi gvardiyachi. – Sen xalqning do'stini o'ldirmoqchi eding. Men bunga yo'l qo'ymadim. Yashasin xalq!

– Yashasin xalq! – deya jo'r bo'lishdi unga boshqa gvardiyachilar ham.

– Yashasin Uch Baqaloq! – deb baqirisha boshlashdi bularning dushmanlari.

Ular maydonning har tomoniga sochilib ketib, sim dor ustidan ketib borayotgan odamga qaratib o'q uza boshladilar.

Tibulning fonusga yetishiga ikki qadam qolgan edi. U fonus shu'lasidan ko'zini to'sishga harakat qilib, plashini silkitardi. O'qlar uning yonginasidan vizillab o'tardi. Olomon xursandligidan qiyqirardi.

– Paq! Puq!

– Tegmadi!

– Ur-ra! Tekkizolmadi!

Tibul, nihoyat, fonus atrofini o'ragan gardishga o'tib oldi.

– Mayli! – deb qichqirishardi gvardiyachilar. – U hali narigi tomonga o'ta boshlaydi... Yana sim ustidan yuradi-ku. Ana o'shanda uni otib tushiramiz!

Shu payt hech kimning xayoliga kelmagan bir voqea yuz berdi. Fonus yorug'ida qorayib ko'rina boshlagan olachipor kiyingan Tibul fonusning temir halqasiga o'tirib oldi-da, qandaydir bir murvatni buradi. nimadir sharaqlab ketdi-yu, shu zahoti fonus o'chdi-qoldi.

Hech kim bir og'iz so'z aytishga ulgurmadi. Maydon endi xuddi yerto'ladagidek judayam qorong'i va jimjit bo'lib qoldi.

Yana bir daqiqadan keyin esa juda-juda balandda yana bir nima taqillab, jaranglab ketdi. Zim-ziyo gumbaz ostida kichkinagina, xiragina chor burchak darcha ochildi. Hamma shu darcha orqali osmonning bir bo'lagini va ikkita kichkinagina yulduzchani ko'rди. Keyin mana shu darchadan qora bir narsa tirmashib chiqdi va shisha gumbaz ustidan kimningdir shipillab o'tgan oyoq tovushi eshitildi.

Gimnastikachi Tibul Yulduz maydonidan tuynuk orqali qochib ketgan edi.

Otlar otishmadan va to'satdan qorong'i bo'lib qolganidan hurkib ketishdi.

Natijada doktor tushgan izvoshning ag'darilib ketishiga sal qoldi. Aravakash ot jilovini keskin burib, doktorni orqa ko'chalardan olib ketdi.

Shunday qilib, doktor Gaspar Ameri g'ayrioddiy kun va g'ayrioddiy kechani o'z boshidan kechirib, nihoyat uyiga qaytib keldi. Uni uy bekasi Ganimed xola ostonada kutib oldi. Xola judayam qattiq hayajonda edi. To'g'ri-da: doktor juda uzoq vaqt yo'q bo'lib ketgan edi! Ganimed xola kaftlarini bir-biriga urib, oh-voh qilib, boshini sarak-sarak qilgan-cha derdi:

– Voy, sho‘rim, ko‘zoynagingiz qani? Sinib qoldi? Voy, doktori tushmagur-e! Plashingiz qayoqda qoldi bo‘lmasa? Yo‘qotib qo‘ydingizmi? Oh, oh!..

– Ganimed xola, men yana ikkala poshnamniyam sindirib tashlab keldim...

– Voy, o‘lmasam, bu ko‘rgilik ham bormidi?!

– Bugun undan ham og‘irroq falokat yuz berdi, Ganimed xola: qurolsoz Prosperoni asirga oldilar. Uni temir qafasga solib qo‘yishganmish.

Ganimed xola kunduzgi bo‘lgan voqealardan bexabar edi. U to‘plar gumburini eshitgan. shahar tepasida yong‘in shu‘lasini ko‘rgan edi. Qo‘shni xotin unga Sud maydonida yuzta duradgor isyonchilarni qatl etish uchun kundalar yasashayotganini aytgan edi.

– Men judayam qo‘rqib ketdim. Hamma derazalarning qopqalarini yopdim-da, hech qayoqqa chiqmasdan sizni kutib o‘tirdim. Hadeganda kelavermadingiz. Judayam xavotir oldim. Tushlik ovqatingiz sovib qoldi, kechlik taomingiz ham sovidi, sizdan bo‘lsa darak yo‘q...

Tong otib qolgandi. Doktor yotgani hozirlik ko‘ra boshladi.

U o‘rgangan yuzta ilin orasida tarix fani ham bor edi. Uning charm muqovali kattakon daftari bo‘lib, doktor mana shu daftarga yuz bergan muhim voqealar haqida o‘z mulohazalarini yozib borardi.

– Har qanday vaziyatda hain saranjom bo‘lish kerak, – dedi doktor barmog‘ini ko‘tarib.

Shundan keyin, doktor garchi juda qattiq charchagan bo‘lsa ham, o‘sha charm muqovali daftarini olib, stuliga o‘tirdi-da, yoza boshladi:

«Hunarmandlar, konchilar, matroslar – shaharning barcha qashshoq aholisi Uch Baqaloq hokimiyatiga qarshi qo‘zg‘olon ko‘tardi. Gvardiyachilar g‘olib chiqdilar. Qurolsoz Prospero qamoqqa olindi, gimnastikachi Tibul qochdi. Hozirgina Yulduz maydonida bir gvardiyachi o‘z ofitserini otib o‘ldirdi. Bu demak – yaqinda hamma askarlar ham xalqqa qarshi jang qilishdan va Uch Baqaloq hukumatini himoya qilishdan bosh tortadilar. Lekin Tibulning taqdiri xavotirli...»

Shu yerga kelganda doktor orqasidan bir nimaning taqillagani eshitildi. U orqasiga o‘girildi. U yerda kamin-pech bor edi. Mana shu kamindan yashil plash kiygan baland bo‘yli bir odam chiqib keldi. Bu gimnastikachi Tibul edi.



IKKINCHI QISM

VALIAHD TUTTINING QO'G'IRCHOG'I

IV BOB. SHARFURUSH AMAKINING AJOYIB SARGUZASHTLARI

Ertasi kuni Sud maydonida ish qaynardi. Duradgorlar u yerga o'nta kunda qurayotgan edilar. Gvardiyachilardan tuzilgan soqchilar duradgorlar ishini nazorat qilardilar. Duradgorlar esa istar-istamas ishlardilar.

– Kosiblar va konchilar uchun kunda yasashni istamaymiz! – deb g'azablanishardi ular.

– Ular bizning og'alarimiz.

– Ular mehnatkash ahliga erk berish uchun jonlarini ham ayamadilar!

– O'chir ovozingni! – deb baqirardi soqchilar boshlig'i, uning hayqirig'i shunchalik dahshatli ediki, baqirganida tikka turgan taxtalar yiqilib tushardi. – Jim bo'llaring, bo'lmasa hammangni qamchi bilan savalataman!

Bugun ertalabdan boshlab Sud maydoniga har tomondan odamlar to'p-to'p bo'lib kela boshlagan edi.

Kuchli shamol esib chang-to'zon ko'tarildi, osma viveskalar tebralar, g'ijirlar, shamol odamlarning boshidan shlapalarini uchirib, irg'ishlab-irg'ishlab ketayotgan izvoshlarning g'ildiraklari ostiga olib kirib ketardi.

Bir yerda shamol quturib alomat voqea yuz berdi: bir amaki shar sotib turgan edi, shamol uni shar-pufaklari bilan osmonga uchirib ketdi.

– Ura! Ura! – deb qichqirishdi bolalar bu antiqa parvozni tomosha qilisharkan. Ular xursand bo'lganlaridan chapak chalishardi: birinchidan, bu manzaraning o'zi alomat tomosha edi, ikkinchidan esa bolalar shar sotuvchi amakining osmonga uchib, noqulay ahvolga tushganidan bir qadar xursand edilar. Chunki bolalar bu sharchi amakiga doim hasad bilan qarardilar. Hasad – yomon narsa. Lekin iloj qancha! Qizil, ko'k,

sariq sharlar doim bolalar ko'ziga juda ham ajoyib bo'lib ko'rinardi. Bunaqa sharga ega bo'lish har qaysi bolaning eng shirin orzusi edi. Bu amakida bo'lsa, bunaqa sharlar judayam ko'p edi. Shar sotuvchi amaki umrida o'zining qizil, ko'k, sariq, sharlaridan birontasini hatto eng odobli bolagayam, eng yoqimtoy qizchagayam sovg'a qilmagan edi; shunday qilsa, mo'jiza sodir bo'lardi-ya! Holbuki, mo'jiza bo'lmaydi-da!

Mana endi u shu toshbag'irligi uchun jazosini oldi. U sharlari bog'langan iplarga osilganicha shahar tepasidan uchib borardi. Juda balandda – moviy osmonda uchib borayotgan bu sharlarning g'ujumlari bamisoli rang-barang bir bosh sehrli uzumga o'xshardi.

– Voy-dod! – deb qichqirardi shar sotuvchi amaki jonidan umidini uzib, oyoqlarini likillatganicha.

Uning chipta kavushlari oyog'iga ancha katta edi. U yerda yurgan paytida-ku, kavushlarining kattaligi uncha sezilmasdi-ya. Chunki u kavushlari oyog'idan tushib qolmasligi uchun xuddi yalqov odamday oyog'ini sudrab bosardi.

Ammo endi osmonga ko'tarilganida yerdagi hunarini qo'llay olmay qoldi.

– Padariga la'nat!

Uning oyoqlari xuddi loy tepayotganday likillardi.

– Padariga la'nat!

Uning boshi uzra bir to'p shar shamolda silkinib, bir-biriga ishqalanib, g'ijirlardi.

Axiyri uning oyog'idan bir poy kavushi tushib ketdi.

Pastda shar sotuvchi amakiga ergashib chopib ketayotgan bolalar buni ko'rib:

– Qaranglar! Xitoy yong'og'i! Xitoy yong'og'i! – deb qichqirishardi. Darhaqiqat, uchib tushib kelayotgan kavush xitoy yong'og'iga o'xshab ketardi.

Xuddi shu mahal ko'chadan raqs o'qituvchisi o'tib ketayotgan edi. U juda ham nafosatli bo'lib ko'rinardi. Uning bo'yi uzun, duma-loq boshi mushtumdakkina, oyoqlari esa chillakdek ingichka edi – shunga ko'ra u yo skripkaga, yo chigirtkaga o'xshab ketardi. Nayning mungli sadosiga va raqs tushuvchilarning muloyim gaplariga moslangan nazokatli quloqlariga bolalarning quvnoq baqiriq-chaqiriqlari qattiq botdi.

– Baqirmanglar! – dedi u achchiqlanib. – Baqirish odobdan emas, axir! Odam degan o‘z xursandchiligini nafis va xushohang so‘zlar bilan ifoda qilmog‘i lozim... Xo‘sh, masalan...

U viqor bilan gerdayib turib, gap boshlamoqchi bo‘lgan edi, lekin misol keltirishga ulgurilmadi. Hamma raqs o‘qituvchilari singari u ham asosan pastga, oyog‘i ostiga qarashni odat qilgan edi! Attang! U tepada nima bo‘layotganidan bexabar edi.

Xuddi shu mahal shar sotuvchining kavushi uchib kelib uning boshiga tushdi. O‘qituvchining boshi kichkina edi, shuning uchun kattakon chipta kavush uning boshiga loppa-loyiq shlapadek kiyilib qoldi.

Bu holdan endi nazokatli raqs o‘qituvchisi ham yalqov ho‘kizlar qo‘shilgan aravaning egasidek baqirib yubordi.

Kavush yuzining yarmini berkitgan edi.

Bolalar qorinlarini ushlagancha qotib-qotib kula boshladilar:

– Ha-ha-ha! Ha-ha-ha!

*Raqs muallimi bir-ikk-uch
Doim o‘ziga berar g‘alat tus.
Kalamushga ham ketadi o‘xshab,
Eh, uning burni uzun edi zab.
Burni uni ko‘p xijolat qipti
Va chipta kavush o‘sib chiqipti.*

Devor boshiga o‘tirib olgan bolalar shunday qo‘shiq to‘qishgan edi, lekin ular payt kelishi bilan devorning narigi tomoniga sakrab tushib juftakni rostdashga shay bo‘lib o‘tirardilar.

– Oh! – deb ingrardi raqs o‘qituvchisi. – Oh, men qanday iztirob chekyapman! Baski, boshimga kavush tushishi yozilgan ekan, mana bu jirkanch, dag‘al chipta kavush o‘rniga hech bo‘lmasa, ballarda kiyiladigan jajji tuflicha tushmaydimi!

Bu voqea nima bilan tugadi deng – raqs o‘qituvchisini qamoqqa olishdi.

– Azizim, – deyishdi unga, – qiyofangiz odamlarda dahshat uyg‘otmoqda. Siz jamoatchilik tinchini buzyapsiz. Bunday ish qilish sira mumkin emas, hozirgi hayajonli damlarda esa mutlaqo to‘g‘ri kelmaydi.

Raqs o'qituvchisi oyog'i kuygan tovuqday bezovtalanardi.

– Bu qanday ig'vo! – deb nola qilardi u. – Qanday tuhmat! Men valsar va tabassumlar olamida yashaydigan odamman, axir men skripka sarpardasiga o'xshagan bir zot bo'lsam-u, jamoatchilik tinchini buzishim mumkinmi?.. O!..

Shundan keyin raqs o'qituvchisining holi nima kechgani bizga ma'lum emas. Qolaversa, buning qizig'i ham yo'q. Osmonda uchib yurgan shar sotuvchi amakining ahvoli nima kechganini bilish bizga muhimroqdir.

U chiroyli momaqaymoq gulidek uchib borardi.

– Bu qanday bema'nilik! – deb faryod solardi sharfurush. – Uchishni xohlamayman. Chunki uchishni mutlaqo bilmayman...

U qancha dod-faryod qilsa ham, baribir befoйда edi. Shamol yana kuchaya boshladi. Sharlar g'uji tobora balandga ko'tarilardi. Shamol uni shahar tashqarisiga, Uch Baqaloq Qasri tomon uchirib borardi.

Ba'zi-ba'zida shar sotuvchi amaki pastga qarab qo'yardi. Shunda u cherepitsalari xuddi isqirt tirmoqlarga o'xshab ketuvchi tomlarni, mahallalarni, ingichka zangori tasmani eslatuvchi anhorni, jimitday-jimitday keladigan odamlarni, ayqash-uyqash bo'lib ketgan yam-yashil bog'larni ko'rardi. Shahar xuddi igna uchiga qo'ndirilganday sharchining oyog'i ostida har tomonga aylanardi.

Ahvol borgan sari yomonlasha boshladi. «Yana birozdan keyin Uch Baqaloq bog'iga borib tushadiganga o'xshayman!» – deb kapalagi uchib ketdi shar sotuvchining.

Lekin bir zumdan keyin o'sha bog' ustidan ohista salobat bilan chiroyli uchib o'tib ketdi. Endi u tobora pasayib borardi. Chunki shamol bu payt pasaya boshlagan edi.

«Hademay yerga qo'nsam kerak. Meni tutib olishadi, rosa boplab po'stagimni qoqishadi, keyin qamoqqa tashlashadi yo bo'lmasa, pachakilashib o'tiramizmi, deb shu zahoti oybolta bilan kallamni chopib tashlashadi».

Shar sotuvchini hech kim ko'rmadi. Faqat daraxt shoxiga qo'nib o'tirgan bir gala qushlar uning sharpasidan cho'chib ketib, «gur» etib har tomonga uchib ketishdi. G'uj bo'lib uchib borayotgan rang-barang sharlardan yerga xuddi bulutlardan tushgandek nozik soya tushardi. Bu kamalakrang nafis soya shag'al to'kilgan yo'lkadan, gulpushta ustidan, g'oz mingan bola haykali va postda turib uxlab qolgan gvardiyachi

soqchi ustidan lip etib o'tib ketdi. Xuddi mana shu paytda mudroq gvardiyachining yuzida mo'jizali o'zgarishlar yuz berdi. Avvaliga uning burni o'liknikidek ko'kardi, keyin masxaraboznikidek yashil tusga kirdi va nihoyat mast odamnikidek qizardi.

Mash'um daqiqa yetib kelayotgan edi: sharlar qasrning ochiq derazalari tomon uchib borar edi. Shar sotuvchining shu derazalardan biron-tasiga xuddi pardek uchib kirishiga shubhasi qolmagan edi.

Xuddi shunday bo'ldi ham.

Shar sotuvchi amaki derazadan ichkariga uchib kirdi. U qasr oshxonasining derazasi ekan. Bu shirapazlik xonasi ekan.

Bugun Uch Baqaloq Qasrida kechagi isyonning muvaffaqiyatli bostirilishi munosabati bilan tantanali nonushta ziyofat berilishi mo'ljallangan edi. Bu nonushta tugagach Uchala Baqaloq ham, Davlat kengashining hamma a'zolari ham, mulozimlar-u hurmatli mehmonlar ham Sud maydoniga borishlari kerak edi.

Do'stlarim, Qasrning shirapazlik xonasiga kirish hamma uchun ham juda qiziqarli. Negaki, Baqaloqlar shirinlik, taomlar mazasiga yaxshi tushunishardi. Buning ustiga yana hozir favqulodda hodisa ro'y berayotgan edi. Tantanali nonushta! Saroy oshpazlari bilan qandolapazlari bugun qanday antiqa taomlar hozirlashganini o'zingiz tasavvur qilishingiz mumkin.

Shar sotuvchi amaki shirapazlik xonasiga uchib kirdi-yu, bir vaqtning o'zida ham dahshat, ham hayratdan hang-mang bo'lib qoldi. Be-parvo uy bekasi deraza oldiga qo'ygan tortga uchib kelgan ari ehtimol, xuddi shunday dahshat va hayratga tushsa kerak.

Shar sotuvchi amaki bu xona ichida atigi bir daqiqagina uchib yurdi; u hech nimani yaxshilab ko'rib ulgurmadi ham. Avvaliga u o'zini qandaydir ajib qushlar makoniga tushib qolganday his qildi, uning nazarida go'yo janubiy o'lkalardan keltirilgan rang-barang qimmatbaho qushlar chug'urlasha, sayrasha, chaqchaqlashayotganday edi. Yana bir zumdan keyin esa unga bu yer qushlar qafasi emas, ezilib shirasi oqib yotgan tropik o'lka mevalariga liq to'la meva do'koni bo'lib tuyuldi. Uning dimog'iga kishini sarxush qilgudek shirin narsalarning xushbo'y hidi kirdi; dim va issiq havodan uning nafasi qaytib ketdi.

Shu zahotiyog hamma narsa: antiqa qushlar qafasi ham, meva do'koni ham bir-biriga qorishib omixta bo'lib ketdi.

Shar sotuvchi amaki birdan «tap» etib bilqillab turgan issiqqina bir narsaga o'tirib qoldi. Lekin sharlarni qo'lidan qo'yib yubormadi – shar bog'langan iplarni mahkam ushlab olgan edi. Endi sharlar uning boshi uzra qimir etmay turib qoldilar.

Sharfurush ko'zlarini chirt yumib oldi-da, o'lsa ham ochmaslikka qaror qildi.

«Endi hammasiga tushundim, – deb ko'nglidan o'tkazdi u, – bu yer qush qafasi ham, meva do'koni ham emas ekan. Bu qandolatxona. Men bo'lsam kattakon tortga botib o'tiribman!»

Aslida ham xuddi shunday edi.

U shokolad, apelsin, anor, krem, sukati¹, qand upasi va murabbotlar saltanatida, rang-barang xushbo'y shirinliklarning sultonidek taxtda o'tirardi. Taxt esa tort edi.

U hamon ko'zini chirt yumib o'tirardi. U qattiq g'alva ko'tarilishini, to's-to'polon bo'lishini kutar va halitdan har qanday azobga ham rozi bo'lib qo'ygan edi. Lekin mutlaqo kutilmagan voqea yuz berdi.

– Tort rasvo bo'ldi, – dedi kichkina qandolatpaz jiddiy va ma'yus ohangda.

Keyin oraga sukut cho'kdi. Faqat kastrulda qaynayotgan shokolad betidagi sharchalarning po'killab yorilgani eshitilardi.

– Endi nima bo'ladi? – deb pichirladi o'zicha ko'zlarini chirt yumib o'tirgan sharfurush, qo'rqqanidan uning nafasi og'ziga tiqilib qolgan edi.

Uning yuragi xumchadagi chaqa-tangalarday irg'ishlardi.

Bosh qandolatpaz ham jiddiy ohangda:

– Hech nima qilmaydi! – dedi. – Mehmonlar tortilgan ovqatni yeb bo'lishdi. Yana yigirma daqiqadan keyin tortni ham olib kirsak bo'ladi. Rang-barang sharlar va osmondan tushgan manavi muttahamning ovsar basharasi bu bayram torti uchun ajoyib bezak bo'ladi.

Qandolatpaz shu gapni aytib bo'lib:

– Kremni olib kelinglar! – deb baqirdi.

Shu zahotiyuq krem hozir bo'ldi.

– Bu qanday narsa edi?

Uchta qandolatpaz va yigirma nafar shogird bola yeng shimarishib sharfurush amaki ustiga tashlanishdi; ular Uch Baqaloqdan eng baqa-

¹ Sukat – shakarlangan meva.

log'ining maqtoviga sazovor bo'ladigan darajada g'ayrat va shijoat bilan ishlay boshladilar.

Bir zumda sharfurushning hammayog'ini o'rab olishdi. Bechora haliyam chirt yumgan ko'zlarini ochmasdan o'tirardi, u hech nima ko'rmas edi-yu, ammo bo'layotgan ish nihoyatda mudhish ekanligini sezayotgan edi. Uning hammayog'iga krem chaplab tashlashdi. Qor-niga dastorgul surati solingan choynakka o'xshab ketuvchi yalpoq basharasigina kremga ko'milmay ochiq qolgan edi. Qolgan hammayog'i pushti rang tusda chiroyli bo'lib tovlanuvchi oq krem bilan chaplab tashlangan edi. Chipta kavushini yo'qotganday, o'z qiyofasini ham butkul yo'qotgan bu sharfurushni hozir har nimaga o'xshatsa ham bo'laveradi.

Agar uni shoir ko'rsa, qanotlari oppoq oqqushga, kirchi xotin ko'rsa, olamjahon sovun ko'pigiga, sho'x bola esa qorboboga o'xshatgan bo'lardi.

Tort tepasida sharlar g'uj bo'lib turardi. Bezaklar nihoyat darajada antiqa edi, lekin buning hammasi bir yo'la juda qiziq manzara kasb etgandi.

– Ha, – deb qo'ydi bosh qandolatpaz, xuddi o'zi ijod etgan suratdan zavqlanayotgan rassomdek.

Keyin uning ovozi boyagidek yana darg'azab yangradi:

– Sukatlarni olib kelinglar!

Har xil shakldagi alvon-alvon sukatlar paydo bo'ldi: ular sal ach-chiqroq, vanilli, nordon, uchburchak, yulduz, gul shaklida edilar.

Oshpaz bolalar jonlarini jabborga berib ishlardilar. Bosh qandolat-paz uch marta chapak chalib ulgurmasidan, butun tort va krem uyumi-ning hammayog'i sukatlar bilan qoplanib bo'ldi.

– Tayyor bo'ldi, – dedi bosh qandolatpaz. – Endi uni pechga tiqib, sal-pal qizartirib olsak ayni muddao bo'ladi.

«Pechga! – deya hayratga keldi sharfurush ichida. – Nima? Qanaqa pechga? Meni pechga tiqishmoqchimi?»

Lekin shu mahal bu yerga xizmatkorlardan biri yugurib kirdi.

– Tort! Tortni beringlar! – deb baqirdi u. – Darhol tortni olib chiqinglar! Mehmonlar shirinlikni kutib qolishdi.

– Tayyor! – deb javob qildi bosh qandolatpaz.

«Xudoga shukur-ey», dedi ichida sharfurush. Shundan keyin, u ko'zini xiyolgina suzib ochdi.

U botib o'tirgan bahaybat tortni livreya¹ kiygan oltita xizmatkor ko'tarib olib chiqa boshladi. Shar sotuvchi bu xonadan uzoqlasharkan, shogird bolalarning ustidan xaxolab kulisha boshlaganini eshitdi.

Keng zinadan uni yuqori qavatga ko'tarib olib chiqishdi. Mehmonlar o'tirgan zal uning ko'ziga shu yerda namoyon bo'ldi. Shar sotuvchi yana bir zungina ko'zlarini yumib oldi. Zal odamlar bilan gavjum edi, hammaning vaqti chog'. G'ovur-g'uvur ovozlari, qahqaha, qarsakbozliklar eshitilardi. Ko'rinishidan, tantanali nonushta juda yaxshi uyushtirilgan edi.

Sharfurushni, yoki aniqroq qilib aytganda, tortni zalga olib kirib, stol ustiga qo'ydilar.

Shunda sharfurush ko'zini ochdi.

Uning ko'zi birinchi navbatda Uch Baqaloqqa tushdi.

Ular shunaqangi semiz edilarki, buni ko'rgan sharfurushning og'zi lang ochilib qoldi.

«Darhol og'zimni yumib olishim kerak shu choq, – degan fikr uning miyasiga keldi. – hozirgi ahvolimda yaxshisi, o'zimning tirik ekanligimni sezdirmaganim ma'qul».

Lekin – afsus, uning og'zi hech yumilmadi. Bu hol ikki daqiqa davom etdi. Keyin sharfurushning ajablanishi biroz kamaydi va axiyri o'zini zo'rlab og'zini yumib oldi. Lekin og'zi yumilgan zahoti birdan ko'zlari yalt etib ochilib ketdi. U zo'r qiyinchilik bilan navbatma-navbat goh og'zini, goh ko'zini yumib, nihoyat o'zining sinchkovligiga butkul chek qo'ydi.

Baqaloqlar zalning to'rida boshqalardan balandroq yerda o'tirishardi.

Ular hammadan ko'p ovqat yeyishardi. Bir mahal ulardan bittasi hatto sochiqni ham yamlab yeya boshladi.

– Siz sochiqni yeyapsiz...

– Nahotki?! Berilib ketibman...

U sochiqni tashlab, shu onning o'zida Uchinchi Baqaloqning qulog'ini chaynashga kirishdi. Nega desangiz, uning qulog'i chuchvaraga judayam o'xshab ketardi.

Hamma qotib-qotib kula boshladi.

¹ *Livreya* – burjua mamlakatlarida xizmatkorlar kiyadigan uqa taqilgan maxsus kiyim.

– Hazilni qo‘yaylik, – dedi Ikkinchi Baqaloq, qo‘lidagi sanchiqini yuqori ko‘tarib. – Oldimizda jiddiy masala turibdi. Tort olib kelishdi.

– Ur-ra!

Hammaga jon kirdi.

«Bu yog‘i qandoq bo‘larkin? – degan savol qiynardi sharfurushni. – Nima bo‘larkin? Ular meni yeb yuborishadi!»

Shu payt soat ikkiga zang urdi.

– Yana bir soatdan keyin Sud maydonida qatl boshlanadi, – dedi Birinchi Baqaloq.

– Birinchi navbatda qurolsoz Prosperoni qatl qilishsa kerak, albat-ta? – deb so‘radi hurmatli mehmonlardan biri.

– Uni bugun qatl qilmaydilar, – deb javob qildi Davlat kansleri.

– Nega? Nega? Nima uchun?

– Biz hozircha uni o‘ldirmaymiz. Biz undan isyonchilarning rejalarini, eng asosiy fitnatchilarning nomlarini bilib olmoqchimiz.

– Hozir qayerda u?

Bu yerga to‘plangan butun jamoani Prospero haqidagi gap qiziqitirib qo‘ygan edi, odamlar hatto tort kelganini ham unutilib qo‘yishdi.

– U boyagi-boyagi temir qafasda o‘tiribdi. Qafas shu yerda, qasrda, valiahd Tuttining hayvonotxonasiga qo‘yilgan.

– Bu yoqqa chaqiring uni...

– Bu yoqqa olib chiqing uni! – deb qichqira boshlashdi mehmonlar.

– Darhaqiqat, – dedi Birinchi Baqaloq. – Mayli, mehmonlarimiz o‘sha vahshiy hayvonni o‘z ko‘zlari bilan yaqindan ko‘rsinlar. Ham-malaringizni hayvonotxonaga taklif qilgan bo‘lar edim-u, lekin u yerda hayvonlarning bo‘kirishi, chiyillashlaridan quloqlaringiz kar bo‘ladi, undan keyin, u yer sassiq. Aytmoqchimanki, qadahlar jarangi-yu, shirin mevalar hididan ancha badbo‘yroq-da.

– Albatta! Albatta! Hayvonotxonaga tushmaganimiz ma‘qul.

– Yaxshisi, Prosperoni shu yerga olib kelishsin. Biz tort yeb o‘tirib, o‘sha maxluqni tomosha qilamiz.

«Obbo, yana tort! – cho‘chib ketdi sharfurush. – Albatta, yeyish kerak ekanmi shu tortni... Mechkaylar!»

– Prosperoni bu yoqqa olib keling, – dedi Birinchi Baqaloq.

Davlat kansleri zaldan chiqdi. Ikki tomonda qator tizilishib tur-gan xizmatkorlar orqaga tisarilishib, unga ta‘zim qilishdi. Natijada

yo‘lak devorlari ikki hissa pasayib ketdi. Mechkaylar jim bo‘lib qolishdi.

– U judayam qo‘rqinchli, – dedi Ikkinchi Baqaloq. – U hammadan kuchli. U hatto sherdan ham kuchliroq. Uning nafratli ko‘zlari o‘t bo‘lib yonadi. Unga tikilib qarashga hech kimning yuragi dov bermaydi.

– Uning kallasi judayam vahimali, – dedi Davlat kengashining kotibi. – Naq xumday keladi. Ustun ravoqiga o‘xshaydi. Sochi mallarang, ko‘rgan odam uning boshi alanga olib yonyapti deb o‘ylashi mumkin.

Endi, qurolsoz Prospero haqida gap ochilganidan keyin mechkaylarning ko‘ngli bir xil bo‘lib ketdi. Ular ovqat yeyishdan to‘xtashdi, hazil-huzulga, shang‘illab gapirishga barham berishdi, qorinlarini ichiga tortib olishdi, ba‘zilarining hatto rangi o‘chib ketdi. Ko‘pchilik mehmonlar endi Prosperoni ko‘rish istagini bildirganlaridan afsuslanayotgan edilar.

Uchala Baqaloq jiddiy tus oldi, hatto xiyolgina ozganday ham bo‘ldi.

Birdan hamma sukutga toldi. Hamma yoq suv quygandek jimjit bo‘lib qoldi. Baqaloqlarning har biri, go‘yo ikkinchisining orqasiga bekinmoqchi bo‘layotganday g‘imirlay boshladi.

Zalga qurolsoz Prosperoni olib kirdilar.

Oldinda Davlat kansleri kelardi. Mahbusning ikki yonida esa qilich yalang‘ochlab gvardiyachilar kirdi, ular zalga kirishganda ham qora kleyonkadan tikilgan shlapalarini yechmadilar. Zanjir sharaqladi. Qurolsozning qo‘llariga kishan solingan edi. Uni stolga yaqin olib kelishdi. U Baqaloqlardan bir necha qadam narida to‘xtadi.

Qurolsoz Prospero boshini pastga egib turardi. Uning rangi o‘chgan edi. Uning peshonasida, chakkalarida va patila-patila bo‘lib ketgan malla sochlari ostida qon qotib qolgan edi.

Mana, u boshini ko‘tarib Baqaloqlarga tikilgan edi, shu yerga yaqin stollarda o‘tirgan hamma odamlarning hushi uchib ketdi.

– Nega olib keldingiz uni bu yerga? – deb chiyilladi mehmonlardan biri. Bu – mamlakatda eng badavlat tegirmonchi edi. – Men undan qo‘rqaman!

Shu gapni aytib turib, tegirmonchi hushidan ketib, oldida turgan kiselga tumshug‘i bilan tushdi. Ba‘zi mehmonlar eshik tomonga qocha boshladilar. Endi tort hech kimning ko‘ngliga sig‘may qolgan edi.

– Mendan nima istaysizlar? – deb so‘radi qurolsoz.

Birinchi Baqaloq yurak yutib gap boshladi:

– Biz nusxangni bir ko‘rmoqchi bo‘luvдик, – dedi u. – O‘zing-chi, meni qo‘lga olganlar kim ekan, deb qiziqmadingmi?

– Sizlarga qarashdan jirkanaman.

– Hademay boshingni tanangdan judo qilamiz. Ana o‘shanda bizga qaramaydigan bo‘lasan – biz bunga kafilmiz.

– Men o‘limdan qo‘rqmayman. Mening boshim bitta. Lekin xalqning yuz minglab boshi bor. U hoshlarni oyboltangiz bilan chopa olmaysiz.

– Bugun Sud maydonida qatl bo‘ladi. U yerda jallodlar sening do‘stlaringni gumdon qilishadi.

Mechkaylarning ko‘ngli biroz taskin topdi. Tegirmonchi hushiga keldi va hatto yuziga yopishgan kisel yuqini tili bilan yalab ham oldi.

– Ko‘zingizni yog‘ bosgan, – derdi Prospero. – Sizlar o‘z qorinlaringizdan boshqa hech nimani ko‘rmaysizlar...

– Gapini qarang-a! – dedi ranjigan ohangda Ikkinchi Baqaloq. – Xo‘sh, bizlar nimani ko‘rishimiz kerak ekan?

– Ministrlaringizdan so‘rang. Mamlakatda nimalar bo‘layotganini ular yaxshi bilishadi.

Davlat kansleri noaniq tomoq qirib qo‘ydi. Ministrlar o‘z likoplari-ni barmoqlari bilan do‘mbira qilib chala boshladilar.

– So‘rang ulardan, – deb gapida davom etdi Prospero. – ular aytib berishadi sizga...

U gapini tugatmay to‘xtadi. Hamma qulog‘ini ding qilib turardi.

– Ular sizga hammasini aytib beradilar: siz dehqonlarning ter to‘kib, og‘ir mashaqqat chekib undirgan g‘allalarini tortib olgan edingiz. mana shu dehqonlar hozir katta yer egalariga qarshi isyon ko‘tarmoqdalar. Ular xo‘jayinlarining qo‘rg‘onlariga o‘t qo‘yadilar, ularni mulklaridan quvib chiqaryaptilar. Konchilar ko‘mir qazishdan bosh tortyaptilar, chunki qazib chiqarilgan ko‘mirmni sizlar tortib olasiz. Ishchilar, sizlarning boyligingizni oshirish uchun ishlashdan voz kechib, mashinalarni sindiryaptilar. Matroslar sizlarning yuklaringizni dengizga uloqtiryaptilar. Askarlar sizlarga xizmat qilishdan bosh tortyaptilar. Olimlar, xizmatchilar, sudyalar, aktyorlar xalq tomoniga o‘tyaptilar. Ilgari sizning xizmatingizni qilib, xizmati evaziga faqat sariq chaqa olgan, lekin, ayni paytda, sizlarni semirtirgan, hamyoningizni qappaytirgan mana shu baxti qaro, sho‘rpehona, och yalang‘och, ozib cho‘p bo‘lgan yetim-

yesir, mayib-majruh, qashshoqlar – hammalari sizlarga qarshi, qorni katta, toshbag'ir boylarga qarshi urush ochib bosh ko'taryaptilar.

– Nazarimda, ancha ortiqcha gapirib yubordi bu jinoyatchi, – deb gapga aralashdi Davlat kansleri.

Lekin Prospero gapida davom etdi:

– Men xalqimizga sizlardan va sizlarning hokimiyatingizdan nafratlanishni o'n besh yildan beri o'rgatib kelaman. O, bizlar juda ko'pdan buyon kuch yig'ib kelamiz! Mana, endi sizlarning kuningiz bitdi...

– Bas! – chiyilladi Uchinchi Baqaloq.

– Uni tezroq qafasiga olib borib tiqish kerak, – dedi Ikkinchi Baqaloq.

Birinchi Baqaloq bo'lsa:

– To biz gimnastikachi Tibulni qo'lga olmaganimizcha, sen qafasda yota turasan. Biz ikkovingni birga qatl etamiz. Xalq senlarning jasadlaringni ko'radi. Ana shunda uning biz bilan jang qilish ishtiyoqi uzoq vaqtgacha daf bo'lib ketadi.

Prospero jim turardi. U yana boshini egib olgan edi.

Baqaloq gapida davom etdi:

– Sen kim bilan jang qilmoqchi bo'layotganingni unutilib qo'yibsan. Biz, Uch Baqaloq kuchli va qudratlimiz. Hamma narsa bizning ixtiyorimizda. Men, Birinchi Baqaloq butun mamlakatimizda unadigan g'allaning xo'jayini bo'laman. Ikkinchi Baqaloqqa butun ko'mir konlari qaraydi, Uchinchi Baqaloq esa hamma temirlarni sotib olgan. Biz hammadan boyroqmiz. Mamlakatdagi eng badavlat odam ham bizdan yuz chandon kambag'alroqdir. Biz o'z oltinlarimizga xohlagan narsalarni sotib olishimiz mumkin.

Shundan keyin hamma mechkaylarning jazavasi tutib ketdi. Baqaloqning gaplari ularga dalda bo'lgan edi.

– Qafasga tashlash kerak uni! Qafasga, – deb qichqira boshlashdi ular.

– Hayvonlar ichiga!

– Qafasga!

– G'alamis!

– Qafasga tiqish kerak!

Prosperoni olib chiqib ketishdi.

– Endi tort yeymiz, – dedi Birinchi Baqaloq.

«O'ldim!» – dedi ichida sharfurush.

Hamma ko'zini unga tikdi. U ko'zini yana yumib oldi. Mechkaylar vaqtichog'lik qila boshlashdi.

– Ho'-ho'-ho'!

– Ha-ha-ha! Qanday ajoyib tort-a! Tepasida sharlari ham bor!

– Sharlar judayam chiroyli.

– Anavi nusxaga qarang!

– Antiqa nusxa.

Hamma tort sari yurdi.

– Manavi tasqaraning ichi nima ekan? – deb so'radi kimdir va sharfurushning peshonasiga og'ritib bir chertdi.

– Ichi to'la konfet bo'lsa kerak.

– Yo shampan vinosidir...

– Juda qiziq! Juda qiziq!

– Kelinglar, oldin mana bu boshni uzamiz, ko'raylik-chi, nima bo'larkin...

– Voy!

Sharfurush og'riqqa chiday olmay, aniq qilib: «Voy!» deb yubordi va ko'zlarini katta ochdi.

Uning boshi ichida nima borligini bilishga qiziqqanlar cho'chib ketib, orqaga tashlandilar. Xuddi shu payt rovondan bir bolaning baralla chinqirgani eshitildi:

– Qo'g'irchoq! Mening qo'g'irchog'im!

Hamma o'sha yoqqa o'girilib, quloq sola boshladi. Hammadan ham Uchala Baqaloq bilan Davlat kansleri ko'proq bezovta bo'la boshlagan edi.

Chinqiriq yig'iga aylandi. Rovonda bir bola negadir xun bo'lib, ho'ngrab yig'lardi.

– Nima gap? – deb so'radi Birinchi Baqaloq. – Axir bu yig'layotgan valiahd Tutti-ku!

– Valiahd Tutti yig'layapti! – deb bir ovozdan takrorlashdi Ikkinchi va Uchinchi Baqaloqlar.

Keyin uchovlarining ham ranglari o'chib ketdi. Ular judayam qo'rqib ketishgan edi.

Davlat kansleri, bir nechta Ministr va xizmatkorlar rovonga chiqadigan yo'lak sari otildilar.

– Nima gap? Nima bo'ldi? – deya pichirlasha boshlashdi zalda o'tirganlar.

Bola moylangan tuftisini yaltillatib zalga yugurib kirdi. U Ministrlar va xizmatkorlarni turtib, o'ziga yo'l ochib, sochini silkitganча baqaloqlar oldiga chopqillab bordi. U ho'ng-ho'ng yig'lab bir nimalar derdi, ammo gapini hech kim tushunmasdi.

«Bu tirranча hozir meni ko'rib qoladi! – deb xavotirlana boshladi sharfurush. – Mening nafas olishimgayam, hatto, barmoqlarimni harakat qilishigayam xalaqit qilayotgan shu yaramas krem, albatta, bu bolaga yoqib qoladi hozir. Endi, bola yig'lamasin deb, albatta, tovonimni qo'shib bir bo'lak tort kesib berishadi unga».

Lekin bola tortga hatto qayrilib ham qaramadi. Hatto sharfurushning dum-dumaloq boshi uzra turgan ajoyib sharlar ham bolaning diqqatini tortmadi.

U achchiq-achchiq yig'lardi.

– Nima gap o'zi? – deb so'radi Birinchi Baqaloq.

– Nega valiahdimiz Tutti yig'layapti? – deb so'radi Ikkinchi Baqaloq.

Uchinchi Baqaloq esa tumshayib lunjlarini shishirdi.

Valiahd Tutti o'n ikki yoshda edi. U Uch Baqaloqlar qasrida tarbiyalanardi. U xuddi kichkina shahzodadek yashardi. Baqaloqlar o'zlari uchun voris o'stirayotgan edilar. Ularning bolalari yo'q edi. Uchta Baqaloqning butun mol-davlati hamda mamlakatni idora qilish keyinchalik shu valiahd Tuttining qo'liga o'tishi kerak edi.

Valiahd Tuttining ko'z yoshlarini ko'rgan Baqaloqlar shunday dahshatga tushdilarki, qurolsoz Prosperoning gaplari ham ularni bunalik cho'chitmagan edi.

Bola qo'llarini musht qilib silkitar, yer depsinar edi. Uning g'azabi va alaming cheki yo'q edi.

Lekin hech kim buning sababini bilmasdi.

Bolaning tarbiyachilari zalga kirishdan hayiqishib, yo'g'on ustunlar orqasidan mo'ralab turardilar. Egnilariga qora kiyim, boshlariga qora yasama soch kiygan bu murabbiylar piligi tutab qorayib ketgan lampa shishaga o'xshardilar.

Nihoyat bola biroz o'zini bosib olib, bo'lgan voqeani so'zlab berdi.

– Mening qo'g'irchog'im, mening ajoyib qo'g'irchog'im sinib qoldi!.. Qo'g'irchog'imni buzib tashlashdi. Gvardiyachilar qo'g'irchog'imni qilichlari bilan ilma-teshik qilib tashlashdi...

U yana ho'ngrab yig'lay boshladi. U kichkina mushtumchalari bilan qovoqlarini ishqalab, ko'z yoshlarini yuziga surardi.

– Nima?! – deb baqirib yuborishdi Baqaloqlar.

– Nima?!

– Gvardiyachilar?

– Qilich bilan?

– Ilma-teshik qilib tashlashdi?

– Valiahd Tuttining qo‘g‘irchog‘ini-ya?

Shunda butun zal go‘yo baravar nafas olganday past ovoz bilan:

– Bunday bo‘lishi mumkin emas! – deb yubordi.

Davlat kansleri boshini changalladi. Boyagi eng badavlat tegirmonchi yana hushidan ketib qoldi, lekin shu zahotiyoyq Birinchi Baqaloqning dahshatli hayqirig‘idan yana o‘ziga keldi:

– Bazm to‘xtatilsin! Hamma ishlar keyinga qoldirilsin! Kengash chaqirilsin! Hamma mansabdorlar! Hamma sudyalar! Hamma Ministrlar! Hamma jallodlar chaqirilsin! Bugungi qatl marosimi qoldirilsin! Saroyda xiyonat!

Alg‘ov-dalg‘ov boshlandi. Bir daqiqadan keyin saroy elchilari tushgan karetalar har yoqqa shamoldek uchib ketdi. Besh daqiqadan keyin esa har tomondan saroyga qarab sudyalar, maslahatchilar, jallodlar yetib kela boshladilar. Sud maydonida isyonkorlarning qatl qilinishini kutib turgan olomon uy-uyiga tarqalishga majbur bo‘ldi. Jarchilar taxta supaga chiqishib, xaloyiq oldida juda muhim hodisa sodir bo‘lganligi sababli qatl ertaga qoldirildi, deb jar soldilar.

Sharfurushni tort bilan birga zaldan olib chiqib ketishdi. Mechkaylarning kayflari uchib bir zumda hushyor tortdilar.

Hamma valiahd Tuttining atrofini o‘rab, uning gapini tinglay boshladi.

– Men bog‘da, maysa ustida o‘ynab o‘tirgan edim, qo‘g‘irchog‘im ham yonimda o‘tirgan edi. Biz ikkovimiz quyosh tutilishini xohlardik. Bu judayam qiziq bo‘larkan. Kecha kitobda o‘qigan edim. Quyosh tutilgan paytda, kuppa-kunduzi osmonda yulduzlar paydo bo‘larkan...

U ko‘z yoshlari og‘ziga oqib tushayotganidan gapirolmay qoldi. Shunda murabbiy bo‘lgan hamma voqeani batafsil gapirib berdi. Lekin murabbiy ham qiynalib-qiynalib gapirdi, chunki qo‘rqqanidan vujudi dag‘-dag‘ qaltirardi.

– Men valiahd Tutti bilan uning qo‘g‘irchog‘idan sal nariroqda o‘tirgan edim. Men burnimni oftobga toblab o‘tirardim. Nega desangiz, burnimga husnbuzar chiqqan edi, quyosh shu‘lasi yordamida zora

shu ordonadan qutulsam deb, oftobga tutib o'tirardim. Shu payt birdan gvardiyachilar paydo bo'lishdi. Ular o'n ikki kishi edi. Bir nimalar haqida hayajonlanib gaplashishardi. Keyin ular bizning oldimizga kelib to'xtashdi. Qiyofalari judayam qo'rqinchli edi. Ulardan biri valiahd Tuttini ko'rsatib bunday dedi: «Ana, bo'ri bolasi o'tiribdi. Uchta so'qim to'ng'iz bo'ri bolasini o'stiriyapti». O! Bu gaplarning ma'nosini men o'sha zahotiy oq tushungan edim.

– Kim ekan o'sha uchta so'qim to'ng'iz? – deb so'radi Birinchi Baqaloq.

Qolgan ikkitasi esa lavlagidek qizarib ketdi. Shundan keyin Birinchi Baqaloq ham qizarib ketdi. Uchalalari shunaqa zo'r pishillashardi, hatto ayvon tomondagi oynaband eshik ularning nafasidan ochilib-yopilib turardi.

– Ular valiahd Tuttini o'rab olishdi, – deb gapida davom etdi tarbiyachi. – «Uchta to'ng'iz toshyurak bo'ri bolasini tarbiyalashyapti, – deyishdi ular. – Valiahd Tutti, yuraging qay tomoningda? – deb so'rashdi ular keyin, – uning yuragini sug'urib olishgan. U beshafqat, toshbag'ir, zolim bo'lib, odamlarni yomon ko'radigan bo'lib o'sishi kerak... Uch Baqaloqni to'ng'iz qo'pgandan keyin yovuz bo'ri ularning o'mini egalaydi».

– Nega siz bunday qabih gaplarga darhol barham bermadingiz? – deb dag'dag'a qildi Davlat kansleri tarbiyachining yelkasidan changalab silkitarkan. – Ular xalq tomoniga o'tgan xoinlar ekanligiga nahot farosatingiz yetmagan bo'lsa?

Tarbiyachining kapalagi uchi ketdi.

– Fahmlashga iahmladim, lekin ulardan qo'rqdim, – deb g'o'ldiradi u. – Ular judayam darg'azab edilar. Menda bo'lsa hech qanday qurol yo'q edi, husnbuzardan boshqa... Ular hujum qilishga shay bo'lib, qilichlarining bandidan ushlab turardilar. «Qaranglar, – dedi shu choq gvardiyachilardan biri, – ana tasqara. Bu qo'g'irchoq. Bo'ri bolasi qo'g'irchoq o'ynayapti. Unga jonli bolalarni ko'rsatishmaydi. Unga shu prujinali qo'g'irchoqni o'rtoq qilib berishgan». Shu gapdan keyin ikkinchi gvardiyachi qichqirdi: «Men o'g'lim bilan xotinimni qishloqqa tashlab kelganman. O'g'ilcham cho'zma, cho'zma roqatka otib, boylar bog'idagi nokka tekkizibdi. U mulkdor, boy sha'niga dog' tushirding deb, bolani xipelin bilan savalashni buyuribdi, bu ham yetmagandek,

o'sha boyning xizmatkorlari xotinimni maydon o'rtasidagi ustunga bog'lab sazoyi qilishibdi».

Gvardiyachilar baqirishib valiahd Tutti ustiga bostirib kela boshlashdi. Boyagi o'z o'g'li haqida gapirgan gvardiyachi shamshirini sug'urib olib, uni qo'g'irchoqning ko'ksiga sanchdi. Boshqalar ham shunday qilishdi...

Gap shu yerga kelganda valiahd Tutti yana yum-yum yig'lay boshladi.

– ...«Mana senga, bo'ri bolasi! – deyishdi ular. – O'sha bo'rdoqi to'ng'izlarningning ham dodini beramiz hali».

– Qani o'sha xoinlar? – deb baqirishdi Baqaloqlar.

– Ular qo'g'irchoqni tashlab bog'ning ichkarisiga ot choptirib ketishdi. Ular: «Yashasin qurolsoz Prospero! Yashasin gimnastikachi Tibul! Yo'qolsin Uch Baqaloq!» – deb qichqirishdi.

– Nega soqchilar ularga qarata o't ochishmadi? – deb g'azablanardi zaldagi odamlar.

Shunda tarbiyachi juda dahshatli bir voqeani bayon qildi.

– Soqchilar ular orqasidan shlapa silkib qolishdi. Men to'siq orqasidan turib soqchilarning gvardiyachilar bilan qanday iliq xayrlashganini ko'rdim. Ular gvardiyachilarga qarata: «O'rtoqlar! Xalq orasiga borib ayttinglar, yaqinda butun qo'shin xalq tomoniga o'tadi...» – deb aytishdi.

Bog'da mana shunday voqea yuz bergan edi.

Vahima boshlandi. Saroy gvardiyasining eng ishonchli qismlari qasr ichiga, bog' darvozalari oldiga, ko'priklarga hamda shahar darvozasiga boradigan yo'llardagi postlarga qo'yildi.

Davlat kengashi majlisga to'plandi. Mehmonlar jo'nab ketishdi. Uchala Baqaloq saroy bosh tabibining tarozisida o'zlarini tortib ko'rdilar. Ma'lum bo'lishicha, ular shuncha hayajonlanganlariga qaramay zig'ircha ham ozmabdilar. Shundan keyin bosh tabibni qamab qo'yishni va unga non bilan suvdan boshqa hech nima bermaslikni buyurishdi.

Valiahd Tuttining qo'g'irchoq'ini bog'ga chiqishib, maysa ustidan topib kelishdi. Qo'g'irchoq quyosh tutilishini ko'rolmay xazon bo'lgan edi. U hech tuzatib bo'lmaydigan darajada dabdala qilib tashlangan edi.

Valiahd Tutti hanuz ovuna olmas edi. U singan qo'g'irchoqni quchoqlab ho'ng-ho'ng yig'lardi. Qo'g'irchoq qiz bola qiyofasida edi.

Uning bo'yi ham Tutting bo'yi bilan bab-baravar edi – bu zo'r mahorat bilan yasalgan qimmatbaho qo'g'irchoq tashqi ko'rinishidan jajjigina jonli qizchadan sirayam farq qilmasdi.

Endi bo'lsa, qo'g'irchoqning ko'ylagi dabdala bo'lib yirtilgan, ko'ksida qilichlarning o'rni qorayib turardi.

Bundan bir soatgina burun bu qo'g'irchoq, o'tirishni, turishni, jilmayishni, raqs tushishni bilardi. Endi bo'lsa, u oddiy bir tasqaraga, uvadaga aylanib qolgan edi. Uning tomog'i oldida va ko'kragida pushti rang shohi ko'ylagi tagidan singan prujinaning xirillagani eshitilardi, odatda, ko'hna soat zang chalishi oldidan shunaqa xirillaydi.

– Qo'g'irchog'im o'lib qoldi, – deb zorlanardi valiahd Tutti. – Sho'rim qursin! U o'ldi!

– Yo'q, kichkina Tutti bo'ri bolasi emas edi.

– Bu qo'g'irchoqni tuzatish kerak bo'ladi, – dedi Davlat kansleri Davlat kengashi majlisida. – Valiahd Tutti qattiq qayg'urmoqda. Qanday qilib bo'lmasin, qo'g'irchoqni tuzatmoq lozim.

– Boshqasini sotib olish kerak, – deb taklif kiritishdi Ministrlar.

– Valiahd Tutti boshqa qo'g'irchoqni xohlamaydi. U faqat mana shu qo'g'irchoqning qayta tirilishini xohlaydi.

– Axir kim uni tuzata olardi deysiz?

– Tuzatadigan odamni men bilaman, – dedi Xalq maorifi ministri.

– Kim?

– Biz, janoblar, shahrimizda doktor Gaspar Arneri yashashini unutilibimiz. Shu odamning qo'lidan kelmagan ish yo'q. Valiahd Tutting qo'g'irchog'ini shu odam tuzatib beradi.

Hamma baravariga suyunib ketdi:

– Qoyil! Balli!

Shu payt Davlat kengashining hamma a'zolari doktor Gasparni eslab bir ovozdanda qo'shiq ayta boshlashdi:

Yulduzlarga qanday uchmoqni,

Shum tulkini qay xil tutmoqni,

Toshni qanday eritmoqni ham

Bilar bizning doktor Gaspar, ha!

Shu onning o'zidayoq doktor Gaspar nomiga buyruq hozirlandi.

«Janob doktor Gaspar Arneriga.

Uch Baqaloq hukumatining Davlat kengashi ushbu buyruq bilan birga valiahd Tuttining buzilgan qo'g'irchog'ini yuborarkan. Sizga uni ertugacha tuzatib berishni buyuradi. Qo'g'irchoq yana avvalgidek sog'lom va tirik qiyofaga kirmog'i lozim, shunday bo'lgan taqdirda Sizga o'zingiz istagan mukofot in'om etilgay, bordi-yu, buyrug'imiz bajarilmasa. Siz og'ir jazoga tortilajaksiz,

Davlat kengashi raisi

Davlat kansleri...»

Buyruqning shu yeriga kansler imzo chekdi. Darhol kattakon davlat muhrini bosishdi. Muhr doira shaklida bo'lib, uning o'rtasiga liq to'la qopning tasviri tushirilgan edi.

Saroy gvardiyasi kapitani graf Bonaventura ikki nafar gvardiyachi kuzatuvida, doktor Gaspar Arnerini topib, unga Davlat kengashining farmonini topshirish uchun shaharga yo'l oldi.

Ular ot minib olishgan, orqalaridan esa kareta ergashib borardi. Karetada saroy amaldori o'tirardi. U qo'g'irchoqni tizzasiga o'tqazib olgan. Qo'g'irchoq kokillari kalta qilib qirqilgan chiroyli boshini amaldorning yelkasiga g'amgin qo'ygan edi.

Valiahd Tutti yig'lashdan to'xtadi. Chunki u qayta tirilgan, sog'lom qo'g'irchoqni ertaga olib kelishlariga ishongan edi.

Bugungi kun Qasrda shunday hayajonli o'tdi.

Endi gapni osmonga uchgan sharfurush amakidan eshitaylik, xo'sh, uning sarguzashti nima bilan tugadi ekan?

Uni zaldan olib chiqib ketishganidan xabarimiz bor.

U o'zini yana shiravorxonada ko'rdi.

Xuddi mana shu payt falokat yuz berdi.

Tortni ko'tarib borayotgan xizmatkorlardan biri yerda yotgan apelsin po'chog'ini hosib toyib ketdi.

– Ehtiyot bo'li! – deb qichqirishdi xizmatkorlar.

– Voy-dod! – deb baqirib yubordi sharfurush o'tirgan taxtning chayqalayotganini sezib.

Lekin xizmatkor o'zini ushlab qololmadi. U kafel yotqizilgan polga gurs etib yiqildi-da, uzun oyoqlarini osmonga ko'tarib uv tortib yig'lay boshladi.

– Ur-ra! – deb baqirishdi xursand bo'lgan shogird bolalar.

Xizmatkor ketidan sharfurush amaki ham lagan-pagani bilan birga qulab tushdi. U yiqilarkan, ma'yus ohangda:

– Shaytonlar! – deb so'kindi. To'rt solingan katta lagan chil-chil bo'ldi. Krem xuddi qor bo'roniga o'xshab hamma tomonga sochilib ketdi. Xizmatkor o'rnidan tura solib shataloq otib qochib qoldi.

Shogird bolalar dik-dik sakrashar, o'yinga tushishar, qiyqirishardi.

Sharfurush amaki chinni parchalari orasida malina sharbati ko'lmagiga botib dabdalasi chiqqan tortdagi eriy boshlagan asl fransuz kremi ko'pigiga bo'yalib yerda o'tirardi.

Shar sotuvchi hozir shiravorxonada boyagi uchta bosh qandolatpazning yo'qligini, bu yerda faqat shogird bolalar borligini ko'rib, biroz ko'ngli taskin topdi.

«Oshpaz bolalar bilan til biriktiraman, ular mening bu yerdan qochishimga yordam berishadi, – degan qarorga keldi u, – sharlarim meni bu dargohdan xalos etadilar».

U sharlar bog'langan arqonni hamon mahkam ushlab o'tirardi.

Shogird bolalar uni gir aylanib o'rab olishdi. Sharlar ulkan boylik ekanligi, hech bo'lmasa bir dona sharga ega bo'lish eng shirin orzu va baxt ekanligini sharfurush ulaming ko'zidan ko'rib turardi.

Shuning uchun u bunday deb gap ochdi:

– Sarguzashtlar judayam jonimga tegib ketdi. Men kichkina bola ham, qahramon ham emasman. Men osmonda uchishni yomon ko'raman. Yana Uch Baqaloqdan qo'rqaman. Undan keyin men bayram tortlariga bezak bo'lishga ham yaramayman. Bu qasrdan tezroq qoramni o'chirishim lozim.

Shogird bolalar kulishdan to'xtashdi. Sharlar esa amakining boshi uzra chayqalib, aylanib turardi. Mana shu harakatdan quyosh shu'lasi sharlar sirtida goh zangori, goh sariq, goh qizil alanga bo'lib tovlanardi. Bular juda ajoyib sharlar edi.

– Qochishimga ko'maklasha olasizlarmi? – deb so'radi sharfurush, ipni tortib-tortib qo'yarkan.

– Ko'maklashamiz, – dedi past ovoz bilan shogird bolalardan biri. Keyin shunday deb qo'shib qo'ydi: – Agar bizga sharlaringizni bersangiz.

Sharfurush niyatiga erishgan edi.

– Yaxshi, – dedi u xotirjam ohangda, – roziman. Sharlar juda qimmat turadi. Bu sharlar o'zimga ham zarur-u, lekin mayli, kelishdik. Siz-

lar menga yoqib qoldinglar. Sizlarning chehralaringiz quvnoq, yuzingiz yorug‘, ovozlaringiz jarangli ekan.

«Jin ursin hammalaringni!» – deb ichida qo‘shib qo‘ydi.

– Bosh shirapaz hozir omborda, – dedi shogird bola. – U kechlik choyga pecheniy tayyorlash uchun mol tortib olyapti. U qaytib kelguncha sizni bu yerdan chiqarib yuborishimiz kerak.

– Juda to‘g‘ri, – deb qo‘shildi sharfurush, – paysalga solishning nima keragi bor?

– Hozir. Men bir sirni bilaman.

Shogird bola shu gapni aytib bo‘lib, kafel qoplangan o‘choqqa o‘rnatilgan kattakon mis kastrul tepasiga bordi-da, uning qopqog‘ini ko‘tardi.

– Bering sharlaringizni, – deb talab qildi u.

– Jinni bo‘psan! – dedi achchig‘i chiqqan sharfurush. – Kastrulingni boshimga uramanmi? Men bu yerdan qochmoqchiman. Nima, kastrulga tushishim kerakmi?

– Ha-da.

– Kastrulga-ya?

– Kastrulga.

– Keyin nima bo‘ladi?

– O‘shanda ko‘rasiz. Tushing tezroq kastrulga. Bu yerdan qochish uchun eng qulay yo‘l shu.

Kastrul shunaqayam katta ediki, unga ozg‘in sharfurush u yoqda tursin, hatto Uch Baqaloqning eng semizi ham bemalol sig‘ardi.

– Agar, vaqt g‘animat desangiz tezroq tushing.

Shar sotuvchi kastrul ichiga mo‘raladi. Qarasa, uning tagi yo‘q ekan. Ichi xuddi quduqqa o‘xshagan qop-qorong‘i edi.

– Yaxshi, – deb xo‘rsinib qo‘ydi sharfurush. – Kastrul bo‘lsa kastrul-da. Har qalay, sharlar bilan osmonda uchishdan, yo kremga cho‘milishdan yomonroq bo‘lmas. Xo‘p, bo‘lmasa, xayr, kichkina mutahamlar. Ozodlikka chiqqanim uchun haqingizni oling.

U tugunni yechib, sharlarini oshpaz bolalarga ulashdi. Sharlar hamмага yetdi: rosa yigirmata sharning hammasini bolalarga bittadan ipi bilan uzib berdi.

Keyin u beso‘naqay harakat qilib, oyog‘i bilan kastrul ichiga tushdi. Oshpaz bola kastrulning qopqog‘ini yopdi.

– Sharlar! Shar! Shar! – xursand bo‘lib qichqirishdi oshpaz bolalar.

Ular pastga tushishib, qandolatxona derazasi tagidagi bog'ga, ko'm-ko'k maysazorga chiqdilar.

Bu yerda ochiq havoda shar o'ynash rosa zavqli edi.

Shu mahal shiravorxonaning uchta derazasidan uchta shirapazning boshi ko'rindi.

– Bu nima? – deb baqirdi ularning har biri. – Bu qanaqasi? Bu qanday tartibsizlik! Qani, ichkariga kiringlar!

Shogird bolalar bu dag'dag'adan qo'rqib ketishganidan qo'llaridagi sharlarning ipini qo'yib yuborishdi.

Baxtiyor damlar tugagan edi.

Yigirmata shar beg'ubor moviy osmonga qarab tez ko'tarila boshladi. Oshpaz bolalar bo'lsa, pastda, xushbo'y no'xat tuplari orasida, o'tloqda og'izlarini ochgancha, oq qalpoqli boshlarini osmonga ko'targancha turardilar.

V BOB. NEGR VA KARAM BOSHI

Esingizda bo'lsa, doktor Gaspar o'tkazgan behalovat tun oxirida uning uyidagi kamin ichidan dorboz va gimnastikachi Tibul chiqib kelgan edi.

Keyin ular ikkovlashib doktor Gasparning ustaxonasida tong pal-lasida nima ish bilan mashg'ul bo'lishgan – bu bizga ma'lum emas. Qattiq hayajonlanganidan va doktor Gasparni uzoq vaqt kuta-kuta bezovtalanib toliqqan Ganimed xola mast uyquda bir tovuqni tush ko'rib yotardi.

Ertasi kuni, sharfurush amaki Uch Baqaloq qasriga uchib borgan va gvardiyachilar valiahd Tuttining qo'g'irchog'ini ilma-teshik qilib tashlashgan xuddi o'sha kuni, Ganimed xolaning boshiga ko'p tashvishlar tushdi. U qopqonga ilingan sichqonni bexosdan qochirib yubordi. Mana shu sichqon o'tgan kechasi bir qadoq marmeladni paqqos tushirib ketgan edi. Undan oldin, jumadan shanbaga o'tar kechasi bo'lsa, chinnigul o'tkazilgan tuvakni ag'darib yuborgan edi. Tuvak singan, chinniguldan esa negadir valerianka hidi kela boshlaydi.

Sichqon mana shu hayajonli tunda qopqonga ilingan edi.

Ganimed xola ertalab barvaqt turib, qopqonni ko'tardi. Sichqon xuddi bunaqa qafas ichida o'tirishga odatlanib qolganday mutlaqo be-

parvo o'tirardi. U ayyor o'zini shunaqa beparvo qilib ko'rsatadiki, asti qo'yaverasiz.

– Ikkinchi birovlarning marmeladini yemaysan, – dedi Ganimed xola qopqonni ko'zga ko'rinadigan yerga qo'yib.

Keyin u kiyinib, bu quvonchli xabarni doktor Gasparga yetkazmoq uchun uning oldiga, ustaxonaga yo'l oldi. Kecha ertalab, marmelad yo'qolganida doktor Gaspar unga taskin berib, ko'nglini ko'tarib qo'ygan edi.

– Marmeladda kislota ko'p, shuning uchun sichqon uni yaxshi ko'radi, – degan edi u.

Bu gap Ganimed xolaning ko'nglini ancha tinchitgan edi.

– Sichqon mening kislotalarimni yaxshi ko'rarkan... Qani, ko'ramiz, u qopqonimniyam hushlarmikin.

Ganimed xola ustaxona eshigi oldiga bordi. U qopqonni qo'lga ushlab olgan edi.

Erta tong pallas edi. Ochiq derazadan daraxtlarning yam-yashil barglari chinniday yaraqlab ko'rinardi. Shamol sharfurush amakini shu kuni ertalab osmonga uchirib ketgan edi, ammo hozircha shamol turgani yo'q.

Ustaxonadan qandaydir sharpa eshitildi.

«Sho'rlik! – deb o'yladi Ganimed xola. – Nahot haligacha yotmagan bo'lsa?»

U eshikni taqillatdi.

Doktor ichkaridan bir nima deb javob qildi, lekin xola uning nima deganini aniq eshitilmadi.

Eshik ochildi. Ostonada doktor Gaspar turar edi. Ustaxonadan qandaydir kuygan probkaning hidiga o'xshash hid kelardi. Burchakda tigel¹ dekchasi ostidagi olov o'chay-o'chay deb lipillardidi.

Aftidan doktor Gaspar tunning qolgan qismini ham uyqusiz o'tkazib, o'zining odatdagi bironta ishi bilan mashg'ul bo'lganga o'xshaydi.

– Yaxshi yotib turdingizmi! – dedi doktor quvnoq ohangda.

Ganimed xola qo'lidagi qopqonni baland ko'tardi. Sichqon tumshug'ini qimirlatib iskay boshladi.

– Sichqon tutdim!

¹ Tigel dekchasi – metall eritish yo biror metallni yuqori haroratda toblab olish uchun o'tga chidamli gilvatadan qilingan qozon.

– O! – doktor judayam mamnun edi. – Qani, ko'rsating-chi!

Ganimed xola pildirab deraza oldiga bordi.

– Mana u!

Xola qopqonni uzatdi. Shu choq birdan uning ko'zi qora tanliga tushdi. Deraza oldida turgan «Ehtiyot bo'ling!» deb yozilgan yashik ustida chiroyli bir negr o'tirardi.

Negr yalang'och edi.

Negr qizil ishton kiygan.

Negr tim qora, binafsharang, jigarrang, yaltiroq edi.

Negr trubka chekib o'tirardi.

Ganimed xola ovozing boricha «voy», deb chinqirib yubordi, shunchalik qattiq chinqirdiki, sal bo'lmasa paqqos yorilib ketayozdi. U bog'ga qo'yilgan qo'riqchiday qo'llarini ikki yoqqa yoyib, turgan yerida chir-chir aylana boshladi. Shu payt u birdan o'ng'aysiz bir harakat qilgandi, qopqonning eshikchasi jaranglab ochilib ketdi va sichqon yerga «tap» etib tushib, shu zumning o'zida qayoqqadir g'oyib bo'ldi.

Ganimed xola rosa qo'rqib ketgan edi.

Negr ovozing boricha xaxolab kulardi, u ikkita kattakon qizil qalampimi eslatuvchi qizil tuffi kiygan paypoqsiz uzun oyoqlarini bahu-zur uzatib o'tirardi.

Uning og'zidagi trubka, xuddi qattiq shamol paytida silkingan daraxt shoxi singari tishlari orasida likillab turardi. Doktorning bo'lsa ko'zoynagi baland-pastga silkinarkan, yalt-yalt etardi. Chunki u ham kulardi.

Ganimed xola xuddi g'uvullab esib kelgan kuchli shamoldek xonadan otilib chiqib ketdi.

– Sichqon! – deb chiyillardi u. – Sichqon! Marmelad! Negr!

Doktor Gaspar uning orqasidan yugurdi.

– Ganimed xola, – deb uni yupata boshladi, – siz bekorga haya-jonlanyapsiz. Men o'zimning yangi tajribam haqida sizni ogohlantirib qo'yishni unutgan ekanman. Lekin mening doimo biron-bir tajriba bilan mashg'ul ekanligimni o'zingiz yaxshi bilasiz-ku. Axir men olim odamman, turli fanlar doktoriman, har xil asboblarni ustasiman, Turfa tajribalar o'tkazib turaman. Binobarin, mening ustaxonamda nainki negrni, hatto filni ham uchratishingiz mumkin. Ganimed xola... Ganimed xola... Negr – boshqa, quymoq – boshqa... Biz nonushta kutyap-miz. Mening negrim quymoqni judayam yaxshi ko'radi...

– Sichqon kislotani yoqtiradi, – deb pichirladi dahshat aralash Ganimed xola, – negr bo'lsa quymoqni yaxshi ko'radi...

– Ha, balli. Hozir quymoqni o'yaylik, sichqonni kechasi tutamiz. Kechasi u albatta ilinadi, Ganimed xola... Endi u sichqonning erkinlikda qiladigan ishi qolmadi. To'g'ri-da, marmeladni yeb quritgan bo'lsa...

Ganimed xola yig'lab turib quymoq pishirarkan, unga tuz o'miga ko'z yosh to'kdi. Ko'z yoshlari shunaqangi achchiq ediki, qalampirdan aslo qolishmasdi.

Negr esa:

– Yaxshi, serqalampir bo'pti. Judayam mazali quymoq! – deb maqtab, quymoqni tushira boshladi.

Ganimed xola valerianka ichar, lekin undan endi negadir chinnigul hidi kelardi. Balki, ko'z yoshi aralashganligidan shunday bo'lgandir.

Keyin Ganimed xola derazadan qarab, doktor Gasparning ko'chaning narigi betiga o'tib ketganini ko'rdi. Uning hamma narsasi but edi: bo'yniga yangi sharf o'ragan, yangi hassa ushlagan, oyog'iga garchi eski bo'lsayam yap-yangiday yaraqlagan, ikkala poyining poshnasi ham bus-butun tuflari kiygan edi.

Lekin u yolg'iz emasdi: yonida boyagi negr ketib borar edi.

Ganimed xola ko'zlarini chirt yumdi-yu, «gurs» etib yerga o'tirib qoldi. Aniqrog'i, yerga emas, mushuk ustiga o'tirdi. Qo'rqib ketgan mushuk miyovlab yubordi. Jon-poni chiqib ketgan Ganimed xola mushukni urdi: birinchidan, oyoq ostida o'ralashgani uchun, ikkinchidan.. o'z vaqtida sichqonni tutib olmagani uchun.

Lekin sichqon bu mahal doktor Gasparning ustaxonasidan Ganimed xolaning shkafiga o'tib, mag'iz solingan kulchalarni kemirarkan, marmelad haqida shirin xayollarga borardi. Buni qarangki, sichqon kislotani yaxshi ko'rarkan, negrlardan ham qo'rqmas ekan.

Doktor Gaspar Arneri Soya ko'chasida turardi. Agar siz bu ko'chadan chapga burilsangiz Beza Lizaveta deb yuritiluvchi tor ko'chaga chiqasiz, u yerdan o'tib yana bir ko'chaga kirasiz-da (bu ko'cha o'zining yashin urib ketgan daraxti bilan taniqli), uni kesib o'tasiz, yana besh daqiqacha yo'l yurganingizdan so'ng O'n to'rtinchi bozorga chiqasiz.

Doktor Gaspar bilan negr shu bozor tomon yo'l olishdi. Shamol endi ko'tarila boshlagan edi. Yashin tegib, cho'ltoq supurgiga o'xshab qolgan eman daraxti xuddi arg'imchoq singari g'ijirlardi. Afisha yopishtiruvchi bir kishi, shamolning zo'ridan, yelim surtilgan afishani

devorga yopishtirishga qiynalardi. Shamol afishani devorga emas, afishachining yuziga yopishtirardi, uzoqdan qaragan odamga u yuzini oq sochiq bilan artayotganga o'xshardi.

Mana, axiyri u afishani «tap» etib devorga yopishtirishga muvaffaq bo'ldi.

Doktor Gaspar afishani o'qidi:

«Fuqarolar! Fuqarolar! Fuqarolar!»

Bugun Uch Baqaloq hukumati xalq uchun katta to'y-tomoshga uyushtiradi. Hammangiz O'n to'rtinchi bozorga shoshiling! Shoshiling! U yerda tomoshalar, ko'ngilochar o'yinlar, spektakllar bo'ladi! Shoshiling!»

– Mana, – dedi doktor Gaspar, – hammasi tushunarli. Bugun Sud maydonida isyonchilarni qatl etishadi. Uch Baqaloqning jallodlari boyonlar va mechkaylar hokimiyatiga qarshi isyon ko'targanlarning boshlarini oybolta bilan chopishadi. Uchta Baqaloq xalqning ko'zini shamg'alat qilishmoqchi. Ular xaloyiqning Sud maydoniga to'planishidan, kundalarni sindirishidan, jallodlarni o'ldirib, o'limga hukm etilgan o'z og'alarini ozod qilishidan qo'rqadilar. Ular shuning uchun o'yin-kulgi, tomoshalar uyushtirishyapti. Ular xalq e'tiborini bugungi qatldan chetga tortishmoqchi.

Doktor Gaspar bilan uning qorabandan hamrohi bozor maydoniga yetib kelishdi. Tomoshaxonalar atrofida xalq uymalashardi. Lekin doktor Gaspar bu yerga to'planganlar orasida bironta ham oliftani, oltin baliq va uzum rangida kiyim kiygan bironta ham xonimni, zar uqali taxti ravonda o'tirgan bironta ham aslzoda qariyani, yoniga kattakon charm hamyon osgan bironta ham savdogarni ko'rmadi.

Bu yerga shaharning chekka mahallalarida yashovchi kambag'al aholi: kosiblar, ustalar, qora non sotuvchilar, kunbay ishlaydigan cho'rilar, kampirlar, gadolar, hammollar, mayib-majruhlar to'plangan edi. Ularning egnidagi bo'zrang eski, uvada kiyimlarga onda-sonda faqat yo yashil qaytarma yenglar, yo qirq yamoq plash, yo bo'lmasa rang-barang tasmalar husn berib turardi.

Shamol kampirlarning namatsimon oppoq sochlarini hurpaytirar, ko'zlarini achitar, gadolar egnidagi kulrang ro'dapolarni yulqirdi.

Hammaning chehrasi ma'yus, hamma qandaydir noxush bir xabarni kutayotganday edi.

– Sud maydonida isyonchilarni qatl etishadi, – deyishardi odamlar. – U yerda o'ртоqlarimizning boshlari chopiladi, bu yerda bo'lsa, masxarabozlar qiyshanglab bizga o'yin ko'rsatishmoqchi, chunki Uch Baqaloq ularga ko'p oltin bergan.

– Yuringlar, Sud maydoniga boramiz! – degan qichqiriqlar eshitildi.

– Bizda qurol yo'q. Bizda to'pponchalar ham, qilichlar ham yo'q. Sud maydonini esa gvardiyachilar uch qavat halqa bilan o'rab olishgan.

– Askarlar hozircha boylar tomonida xizmat qilishyapti. Ular bizga o'q otishdi. Mayli! Bugun emas, ertaga ular ham biz tomonga o'tib, o'z boshliqlariga qarshi bosh ko'taradilar.

– Halitdan ular biz tomonga o'tishyapti: bugun kechasi Yulduz maydonida bir gvardiyachi o'z ofitserini otib tashladi. Shu ishi bilan u gimnastikachi Tibulni o'limdan asrab qoldi.

– Tibul qayerdaykin hozir? Qochib qutulganmikin?

– Bu ma'lum emas. Gvardiyachilar kechasi bilan to tong pallasi-gacha ishchilar mahallalariga o't qo'yishdi. Ular Tibulni shu yo'l bilan topmoqchi bo'lishdi.

Doktor Gaspar bilan negr tomoshaxonalarga yaqin borishdi. Tomosha hali boshlanmagan edi. Aji-buji rasmlar solingan parda ortidan, to'siqlar orqasidan g'o'ng'ir-g'o'ng'ir ovozlari, childirmalarning taraqlagani, naylarning nolasi eshitilar, bir nimalar chiyillar, shitirlar, irillardi. U yerda aktyorlar spektaklga hozirlik ko'rayotgan edilar.

Parda biroz ochilib, allaqanday bashara mo'raladi. Bu to'pponchadan otishda eng mohir mergan hisoblanuvchi ispan edi. Uning mo'ylovi dikkayib turar, bitta ko'zi naq soqqadek gir-gir aylanardi.

– A, – dedi u negrni ko'rib, – sen ham qatnashasanmi tomoshaga? Senga qancha haq to'lashdi?

Negr indamadi.

– Men o'nta oltin tanga oldim, – deb maqtandi ispan. U negrni aktyor deb o'ylagan edi. – Kel, bu yoqqa, – dedi u sirli ohangda pichirlab.

Negr parda oldiga chiqdi. Ispan unga butun sirni aytib berdi. Ma'lum bo'lishicha, Uch Baqaloq yuzta aktyor yollashibdi, ular bugun bozorlarda tomosha ko'rsatib, o'z o'yinlari bilan boyonlar va mechkaylar hukumatini har jihatdan maqtashlari va ayni paytda, isyonchilarni, qurolsoz Prosperoni va gimnastikachi Tibulni qoralashlari kerak ekan.

– Baqaloqlar fokuschilar, hayvon o'rgatuvchilar, masxarabozlar, yumuq og'iz bilan gapiruvchilar, o'yinchilardan butun-butun truppalari tashkil qilishdi... Hammaga pul berishdi.

– Nahot hamma aktyorlar ham Uch Baqaloqni maqtashga rozi? – deb so'radi doktor Gaspar.

Ispan barmog'ini labiga qo'yib:

– Tss! – deb pichirladi. – Bu to'g'rida oshkora gapirib bo'lmaydi. Ko'pchilik bosh tortdi. Ammo bosh tortganlarning hammasini qamoqqa olishdi.

Negr achchig'i chiqib tupurdi.

Shu mahal musiqa chalindi. Ba'zi tomoshaxonalarda o'yin boshlandi. Olomon jonlandi.

– Fuqarolar! – deb qichqirardi taxta supa ustida turgan masxaraboz, uning ovozi jo'jaxo'roznikiga o'xshab chiyillab chiqardi. – Fuqarolar! Ruxsat eting, sizlarni...

U g'ovur-g'uvurning bosilishini kutib gapdan to'xtadi. Uning yuzidan un to'kilardi.

– Fuqarolar, ruxsat eting, sizlarni bugungi shodiyona bilan tabriklashga: bugun bizning qimmatli, xushbichim do'mboqqina Uchta Baqalog'imizning sodiq jallodlari yaramas isyonchilarning boshlarini chopib tashlaydilar...

U gapini tugata olmadi. Bir usta o'zi yeb turgan qora nondan bir tishlam sindirib olib, uni masxarabozga qarata otdi. Non masxarabozning og'ziga tiqinday kirib qoldi.

– M-m-m-m-m-m...

Masxaraboz qancha ming'illasa ham, hech nima qila olmadi. Yaxshi pishmagan, xom xamir uning og'ziga qopqoq bo'lib qolgan edi. Masxaraboz nuqul qo'llarini silkir, aftini bujmaytirar edi.

– Yaxshi! Boplading! – deb qichqirishdi olomon orasidan.

Masxaraboz to'siq orqasiga qochib kirib ketdi.

– Ablah! U Uch Baqaloqqa pulga sotilgan! Shuning uchun ham xalqimizning sodiq himoyachilarini yomonlayapti!

Musiqa baralla gumburlay boshladi. Unga yana bir necha orkestr jo'r bo'ldi: to'qqizta surnay, uchta mis karnay, uchta do'mbira hamda tish og'rig'ini qo'zg'aydigan bitta skripka.

Tomoshaxonalarning xo'jayinlari shu musiqa bilan olomonning shovqinini bosmoqchi bo'lgan edilar.

– Aktyorlarimiz bunaqa non tishlamlaridan qo‘rqib, qochishmasa go‘rga edi, – derdi ulardan biri. – Mayli, o‘zimizni go‘yo hech nimani sezmaganday tutamiz.

– Marhamat! Marhamat! Spektaklni boshlaymiz...

Boshqa bir tomoshaxona «Troya oti» deb atalardi.

Parda oldiga direktor chiqib keldi. Uning boshida yashil movutdan tikilgan cho‘qqisi juda baland shlapa, ko‘kragiga doira shaklidagi mis tugmalar qadalgan, ikki yuziga juda tirishqoqlik bilan qizil surtilgan edi.

– Chim po‘linglar! – dedi u go‘yo nemischa gapirayotganday talaffuzda. – Chim! Pizning tomoshamiz sisning e‘tiboringizg‘a arsiydi.

Odamlar bir qadar tinchlanib quloq sola boshlashdi.

– Pugungi payram munosapati pilan piz pahlavon Lapitupni taklif etganmiz.

– Ti-ti-tu! – deb takrorladi karnay.

Tartarak tarillab, go‘yo qarsak bazmini ifoda etganday bo‘ldi.

– Pahlavon Lapitup o‘z kuchi pilan sislarga mo‘chisalar namoyish qiladi.

Orkestr gumburladi. Parda ochildi. Sahnaga pahlavon Lapitup chiqdi.

Chindan ham pushti rang triko kiygan bu bahaybat yigit juda kuchlidek ko‘rinardi.

U boshini xuddi buqa singari qayirarkan. nuqul pishillardi. Uning mushaklari terisi ostida u yoqdan bu yoqqa yurardi, shuning uchun bilaklari quyon yutgan bo‘g‘ma ilonga o‘xshab ketardi.

Xizmatkorlar qadoqtoshlarni ko‘tarib chiqib, sahnaga tashlashdi. Sahna taxtalari qadoqtoshlarning zalvaridan teshilib keta yozdi. Chang va qipiqlar ko‘tarilib, hammayoqni qopladi. Butun bozor ahlining fikrini tortdi.

Polvon o‘z san‘atini ko‘rsata boshladi. U har qaysi qo‘liga bittadan qadoqtosh olib, ularni xuddi koptokdek osmonga otib yana ilib oldi, keyin yana ikkita qadoqtoshni kuchining boricha bir-biriga urdi... Toshlardan uchqun chaqnadi.

– Mana! – dedi u. – Uch Baqaloq qurolsoz Prospero bilan gimnastikachi Tibulning boshlarini bir-biriga mana shunday urib majaqlab tashlashadi.

Bu polvon ham Uch Baqaloqning oltiniga sotilgan edi.

– Ha-ha-ha! – deb qah-qah urdi u o‘z hazilidan xursand bo‘lib ketib. Hech kim unga non otishga jur‘at eta olmasligini bilardi. Uning qanchalik kuchli ekanligi hammaga yaqqol ko‘rinib turardi.

Shu payt oraga cho‘kkan bir zumlik sukut vaqtida birdan negrning ovozi baralla eshitildi. Xaloyiqning boshi u tomonga o‘girildi.

– Nima deyapsan o‘zi? – deb so‘radi negr oyog‘ini sahna pillapoyasiga qo‘yarkan.

– Atyapmanki, qurolsoz Prospero bilan gimnastikachi Tibulning boshini Uch Baqaloq bir-biriga xuddi mana shunday jiq-jiq urib, qatig‘ini chiqarib yuboradi.

– O‘chir ovozingni!

Negr past ovoz bilan, xotirjam ohangda, ammo darg‘azab gapirdi.

– Sen o‘zing kimsan, qorayaloq? – dedi achchig‘i chiqqan polvon.

U toshni tashlab, qo‘llarini beliga qo‘ydi.

Negr sahnaga ko‘tarildi.

– Sen juda kuchlisan, lekin qanchalik kuchli bo‘lsang, shunchalik ablah hamsan. Yaxshisi menga ayt, o‘zing kimsan? Xalqni mazax qilishga kim huquq berdi senga? Men seni taniyman. Sen bosqonchining o‘g‘lisan. Otang haligacha zavodda ishlaydi. Singlingning oti Eli. U kir yuvadi. U boylarning kiyimini yuvadi. Ehtimol uni kecha gvardiyachilar otib tashlagandir. Sen bo‘lsang xoinsan!

Polvon hang-mang bo‘lib orqasiga tisarildi. Negr chindanam rost gapirayotgan edi. Polvon hech nimaga tushuna olmay garang edi.

– Qani, jo‘nab qol bu yerdan! – deb baqirdi negr.

Polvon hushini yig‘ib oldi. Uning yuziga qon quyildi. U mushtlarini tugdi.

– Sen menga buyruq bera olmaysan! – dedi u gapirishga qiynalib. – Men seni tanimayman. Sen shaytonsan.

– Tuyog‘ingni shiqillat! Uchgacha sanayman. Bir!

Olomon jim bo‘lib qoldi. Negr Lapitupning yelkasidan kelar va undan uch hissa xipcha edi, lekin agar ular mushtlashishadigan bo‘lsa, negr yengib chiqishiga hech kim shubha qilmasdi, chunki uning qiyofasi shunchalik qat‘iy, jiddiy va xotirjam edi.

– Ikki!

Polvon bo‘ynini qisdi.

– Jin ursin! – deb to‘ng‘illadi u.

– Uch!

Polvon g'oyib bo'ldi. Ko'pchilik odamlar hozir dahshatli musht tushishini kutib ko'zlarini chirt yumib olishgandi, lekin ko'zlarini ochishganida sahnada polvon yo'q edi.

U g'izillagancha sahna orqasiga o'tib ketgan edi.

– Xalq xuddi mana shunday qilib Uch Baqaloqning dumini tugadi! – sho'x ohangda dedi negr qo'llarini ko'tarib.

Olomon shodlikdan qiyqirardi. Odamlar chapak chalishar va qalpoqlarini osmonga otishardi.

– Yashasin xalq!

– Ofarin! Ofarin!

Faqat doktor Gaspar norozi qiyofada bosh chayqardi. Uning nima-dan norozi ekanligi ma'lum emasdi.

– Kim o'zi bu? Kim ekan? Kim ekan bu negr? – deb bir-birlaridan qiziqsinib so'rashdi tomoshabinlar.

– Bu ham aktyor ekanmi?

– Uni hech ko'rmagan edik ilgari.

– Kimsan?

– Nega bizni himoya qilding?

– Ruxsat etinglar! Ruxsat etinglar!

Qandaydir bir juldurvoqi olomon orasini yorib oldinga chiqdi. Bu kecha kechqurun gul sotuvchi qizlar va izvoshchilar bilan gaplashgan gadoning o'zi edi. Doktor Gaspar uni tanidi:

– Ruxsat etinglar! – dedi gado hayajonlanib. – Axir bizlarni laqillatishyapti-ku, nahot ko'rmayotgan bo'lsangizlar? Bu negr ham polvon Lapidupga o'xshagan aktyor-da. Urug'i bir. Bu ham Uch Baqaloqdan pul olgan.

Negr mushtlarini tugdi.

Olomonning shodligi nafratga aylandi.

– To'g'ri! Bir ablah ikkinchi ablahni haydab chiqardi.

– U o'rtog'ining po'stagini qoqishimizdan qo'rqib, mana shunaqa nayrang ko'rsatdi.

– Yo'qol!

– Yaramas!

– Sotqin!

Doktor Gaspar bir nima demoqchi, olomonning g'azabini bosmoqchi bo'ldi-yu, lekin kechikdi. Yigirmatacha odam sahnaga otilib chiqib, negrni o'rab oldi.

Uringlar uni! – deb chiyilladi bir kampir.

Negr qo'lini cho'zdi. U xotirjam edi.

– To'xtanglar!

Uning ovozi odamlarning qiyqiriqlari, shovqini va hushtaklarini ham bosib ketdi. Hamma jim bo'lib qoldi, mana shu tinchlikda negrning xotirjam va soddagina ovozi yangradi:

– Men gimnastikachi Tibulman.

Hamma birdan nima qilishini bilmay sarosimaga tushib qoldi.

Uni qurshab olgan xaloyiq halqasi buzildi.

– Ah! – deb yengil tortdi hamma.

Yuzlab kishilar birdaniga og'izlarini ochgancha angrayib qolishdi.

Faqat kimdir parishonlik bilan so'radi:

– Nega bo'lmasa qorasan?

– Buni endi doktor Gaspar Ameridan so'ranglar, – shunday deb negr jilmaygancha doktorga ishora qildi.

– To'g'ri, bu – u!

– Tibul!

– Tibul!

– Ura! Tibul omon ekan! Tibul tirik ekan! Tibul biz bilan!

– Yashas...

Lekin bu hayqiriq uzilib qoldi. Mutlaqo kutilmagan va ko'ngilsiz bir voqea sodir bo'ldi. Orqa qatordagilar bezovta bo'la boshladilar. Odamlar har tomonga tarqala boshlashdi.

– Jim! Jim!

– Qoch, Tibul, vaqt g'animatda!

Bozor maydoniga uchta otliq bilan bir kareta kirib kelgan edi.

Bu ikki nafar gvardiyachi kuzatuvida kelayotgan saroy gvardiyasi kapitani graf Bonaventura edi. Karetada esa saroy mansabdori valiahd Tutuning buzilgan qo'g'irchoq'ini olib o'tirardi. Qo'g'irchoq o'zining kalta kokilli chiroyli boshini mansabdorning yelkasiga g'amgin qo'ygan edi.

Bu odamlar doktor Gasparni qidirib yurishgan edi.

– Gvardiyachilar! – deb kimdir dod soldi.

Bir necha kishi devordan oshib juftakni rostlab qoldi.

Qora kareta to'xtadi. Otlar boshlarini tinmay chayqardilar. Ularning afzallari jaranglar va yaltirardi. Shamol afzallarga qadalgan moviy patlarni hilpiratardi.

Otliqlar karetni qurshab olishdi.

Kapitan Bonaventuraning ovozi judayam qo'rqinchli edi. Agar skripka tish og'rig'ini qo'zg'atsa, kapitanning ovozini eshitgan odam o'zini xuddi tishi qoqib olinayotganday his qilardi.

Kapitan uzangiga oyoq tirab turib olomondan so'radi:

– Doktor Gaspar Arnerining uyi qayerda?

U otining jilovidan tortib turardi. Qo'llariga dag'al teridan tikilgan og'zi keng qo'lqop kiygan edi.

Bu savol bir kampirga qaratilgan edi; kampir turgan yerida gir aylandi-da, qo'rqa-pisa qo'li bilan noma'lum tomonni ko'rsatdi.

– Qayerda? – deb dag'dag'a bilan savolini takrorladi kapitan.

Bu safar uning ovozi shunday gumburlab ketdiki, odamlarning vujudi xuddi bitta tishi qoqib olinganday emas, balki butun bir jag'i sindirib olinganday zirqirab ketdi.

– Men shu yerdaman. Kim meni so'rayapti?

Odamlar orani ochishdi. Doktor Gaspar bamaylixotir yurib, kareta oldiga bordi.

– Doktor Gaspar Arneri siz bo'lasizmi?

– Doktor Gaspar Arneri menman.

Kareta eshigi ochildi.

– Darhol karetaga chiqing. Sizni uyingizga olib borishadi, hamma gapni o'sha yerda eshitasiz.

Bereytor¹ kareta orqasidan sakrab tushib, doktorning chiqishiga ko'maklashdi. Eshik qars etib yopildi.

Otliqlar va kareta ko'chani changitib jo'nab ketdi. Bir daqiqadan keyin ular muyulishda ko'zdan g'oyib bo'lishdi.

Kapitan Bonaventura ham, gvardiyachilar ham olomon orasiga yashiringan gimnastikachi Tibulni ko'rmadilar. Ko'rishganida ham, baribir, kecha tunda qidirishgan odam shu negr ekanligini bila olmagan bo'lardilar.

Shu bilan falokat ariganday bo'ldi. Lekin shu mahal kimdir birdan ichiqoralik bilan ilondek vishilladi.

Polvon Lapitup surp bilan sirilgan to'siq orqasidan boshini chiqarib, pichirladi:

– Hap sanimi... shoshmay tur, oshna! – U Tibulga kattakon mushtumini do'laytirdi: – Shoshmay tur, men hozir gvardiyachilarning orqasidan quvib yetib, sening shu yerda ekanligingni aytib beraman!

¹ Bereytor – karetalarning orqasidagi maxsus supachada tikka turib boruvchi xizmatkor.

Shundan keyin u to'siqdan oshib tushdi. To'siq uning so'qim gavasini ko'tara olmay, xuddi o'rdakka o'xshab g'ag'illab sinib tushdi.

Polvon taxta teshigiga kirib qolgan oyog'ini sug'urib olib, odamlar orasini yorib, hammani turtib-surib kareta orqasidan yugurib ketdi.

– To'xtanglar! – deb baqirardi u chopib borarkan, g'o'laday-g'o'laday keladigan yalang'och qo'llarini siltab. – To'xtanglar! Gimnastikachi Tibul topildi! Gimnastikachi Tibul shu yerda! Uni men qo'lga tushirdim!

Vaziyat og'irlasha boshlagan edi. Bu ham yetmaganday, oraga boyagi bir ko'zi soqqadek chir-chir aylanuvchi ispan suqildi; uning kamariga pistolet qistirilgan, ikkinchi to'pponchani esa qo'lida ushlab turardi. U taxta supaga chiqib olib irg'ishlarkan, shovqin solib bozorni boshiga ko'tardi.

– Fuqarolar! Tibulni gvardiyachilarga tutib berishimiz kerak, bo'lmasa holimiz yomon bo'ladi. Fuqarolar, Uch Baqaloqlar bilan murosani yomonlab bo'lmaydi! – deb baqirardi u.

Uning gapiga tomoshaxonaning direktori ham qo'shildi; polvon Lapitup boya shu direktorning sahnasida sharmanda bo'lgan edi.

– Tibul mening spektaklimni buzdi! U polvon Lapitupni sahnadan haydab yubordi! Men Uch Baqaloq oldida bu qorayaloq uchun javob berishni istamayman!

Olomon Tibulni o'z himoyasiga oldi.

Polvon gvardiyachilarga yeta olmadi. U yana bozor maydonida paydo bo'ldi. Endi u zing'illagancha to'ppa-to'g'ri Tibul tomonga yugurib kelardi. Ispan sahnadan sakrab tushib, ikkinchi to'pponchasini ham kamaridan sug'urib oldi. Tomoshaxona direktori allaqayerdan oq qog'oz qoplangan doira ko'tarib chiqdi: sirklarda, odatda, o'rgatilgan itlar mana shunaqa doira ichidan sakrab o'tishardi. Direktor mana shu doirani qo'lida siltagancha, oqsoqlanib ispan orqasidan pastga sakrab tushdi.

Ispan to'pponchani tepkisini ko'tardi.

Tibul uchun qochishdan boshqa chora qolmagan edi.

Olomon unga yo'l berdi. Oradan bir daqiqa o'tar-o'tmas maydonda Tibulning qorasi ko'rinmay qoldi. U taxta devordan oshib tushdi va o'zini polizda ko'rdi. U devor tirqishidan mo'ralagan edi, polvon, ispan va direktorlarning shu poliz tomonga yugurib kelishayotganini ko'rdi. Bu juda kulgili manzara edi. Tibul kulib yubordi. Polvon xuddi qutur-

gan filga o'xshab chopib kelar, ispan orqa oyoqlarida turib sakrayotgan kalamushga o'xshar, direktor bo'lsa, oyog'iga o'q tekkan qarg'aga o'xshab hakkalab chopardi.

– Biz seni tiriklayin qo'lga olamiz! – deb qichqirishardi ular. – Taslim bo'!

Ispan ham to'pponchasining tepkisini shaqillatar, ham tishlarini taqillatardi. Direktor qo'lga ko'tarib olgan qog'oz doirani silkitardi.

Tibul esa bu tomonda ularning hujumini kutib shay bo'lib turardi. U turgan yer xamirday yumshoq qora shudgor edi. Hamma yoq jo'yak edi. Bu yerda karam, lavlagi o'sar, qandaydir yashil novdalar pechak o'tdek poyalarga chirmashgan, shapaloqdek-shapaloqdek barglar yoyilib yotar edi.

Bular hammasi shamoldan tebranar edi. Moviy beg'ubor osmondan shishadek tiniq, nur yog'ilib turardi.

Jang boshlandi.

Uchala dushman devor tagiga yetib keldi.

– Shu yerdamisan? – deb so'radi polvon.

Hech qanday tovush eshitilmadi.

Endi ispan gap boshladi:

– Taslim bo'! Mening ikki qo'limda ikkita to'pponcha bor. Ikko-viniyam «Tovlamachi va uning o'g'li» deb yuritiluvchi firma ishlagan. O'zim mamlakatda eng zo'r merganman, tushundingmi?

Tibul to'pponcha otish san'atidan bexabar edi. Undan keyin, uning to'pponchasi ham yo'q edi, lekin hozir uning qo'li ostida yoki aniqroq qilib aytiladigan bo'lsa, oyog'i ostida karam boshlari g'ij-g'ij edi. U engashib dum-dumaloq va kattagina bir karamni sug'urib oldi-da, devordan oshirib otdi. Karam borib to'ppa-to'g'ri direktorning qorniga tegdi. Keyin ikkinchi, uchinchi karam boshlari dushman ustiga yog'ila boshladi. Karamlar xuddi bombalardek portlardi.

Dushmanlar sarosimaga tushib qolishdi.

Tibul to'rtinchi karamni uzgani engashdi. U karamni ushlab kuchining boricha tortsa ham, uni sug'urib olishga kuchi yetmadi – karam joyidan hech qo'zg'almasdi deng. Bu ham yetmagandek, u karam odamga o'xshab tilga kirdi:

– Bu karam boshi emas, mening kalam. Men sharfurushman. Men Uch Baqaloq Qasridan qochib yerosti yo'lagiga tushdim, keyin bu yerga kelib qoldim. Bu yo'lning boshi kastrul ichida, oxiri shu yerda ekan.

Bu yerosti yo'lagi achchiq ichakka o'xshab rosa cho'zilib kelgan ekan o'ziyam...

Tibul quloqlariga ishonmadi: buni qarangki, karam boshi o'zini odam boshi deb atayotgan edi!

Shunda u engashib, oyog'i ostidagi mo'jizaga qaradi. Shundan keyingina u ko'zlariga ishonishga majbur bo'ldi. Dor ustida yuradigan odamning ko'zlari hech qachon aldamaydi.

Darhaqiqat, Tibul ko'rgan narsa karam boshiga mutlaqo o'xshamas edi. U o'z oyog'i ostida sharfurushning tovoqdek basharasini ko'rdi. Bu bashara hali ham biqiniga dastorgul rasmi solingan, jo'mragi ingichka choynakka o'xshardi.

Sharfurushning boshi yerdan chiqib turar, hammaoyog'i loy, egat esa uning bo'yini xuddi qora yoqadek o'rab olgan edi.

– Salom! – dedi Tibul.

Sharfurush unga soqqadek-soqqadek ko'zlarini tikdi, ko'zlarida nafis osmonning aksi ko'rindi.

– Men oshpaz bolalarga sharlarimni berdim, ular shu sharlar evaziga meni qasrdan chiqarib yuborishdi. Darvoqe, ana o'sha sharlardan bittasi uchib ketyapti...

Tibul boshini ko'tarib, juda-juda balandda ko'zni qamashtirgudek moviy osmonda kichkinagina zarg'aldoqrang sharning uchib yurganini ko'rdi.

Bu oshpaz bolalar uchirib yuborgan sharlardan bittasi edi.

Devorning narigi tomonida turib, hujum qilish rejasini ko'zlayotgan uchta odam ham osmondagi sharni ko'rdi. Ispan hamma narsani unutilib yubordi. U bo'yi baravar irg'ishlab, soqqasimon ko'zini chir-chir aylantirdi-da, sharni nishonga ola boshladi. Merganlik bo'lsa o'zini tomdan tashlaydigan odam edi u.

– Qaranglar, – deb chinqirdi u, – o'n qavatli imoratdan ham balandda bir bema'ni shar uchib ketyapti! O'n tilladan garov o'ynaymanki, men uni urib tushiraman. Mendan zo'r mergan yo'q bu mamlakatda.

Garchi ispan bilan garov o'ynashni hech kim xohlamagan bo'lsa ham, bu hol uning hafsalasini susaytirmadi. Polvon bilan direktorning achchig'i chiqdi.

– Eshshak! – deb o'kirdi polvon. – Eshshak! Hozir sharni mo'ljalga oladigan paytmi? Eshshak! Biz Tibulni qo'lga olishimiz kerak. O'qlaringni bekorga sarflama.

Ispanga bu gaplar kor qilmadi. Bu mergan uchun shar judayam qiziqarli nishon edi. Ispan o'zining o'ynoqi ko'zini yumib nishonni mo'ljalga ola boshladi. U shu mo'ljalga olish bilan band paytida Tibul sharfurushni yer bag'ridan tortib oldi. O, bu juda qiyomat manzara edi! Sharfurushning egniga yopishmagan narsa qolmagan edi! Kremning ham, qiyomning ham qoldig'i, loy parchalari ham, yulduz shaklidagi nafis sukatlar ham yopishgan, sachragan edi uning hamma yog'iga.

Tibul shar sotuvchini xuddi shisha og'zidan tiqinni tortib olganday sug'urib olgan yerda qop-qora o'ra paydo bo'ldi. Bu o'raga tuproq to'kildi, to'kilgan tuproqning ovozi pastdan xuddi izvoshning brezent tomiga yoqqan do'lga o'xshab eshitildi.

Ispan o'q uzdi. Lekin sharga tekkiza olmadi, albatta. Evoh! O'q o'z direktorining yashil shlapasiga tegdi, bu shlapa ham cherkovning qo'ng'iroqxonasichalik baland edi.

Tibul bu paytdan foydalanib, polizning narigi boshidagi devordan oshib qocha boshladi.

O'q tekkan yashil shlapa direktor boshidan tushib ketib, xuddi samovar karnayidek dumalab ketdi. Ispan judayam qattiq izza bo'ldi: eng zo'r mergan degan sha'niga dog' tushgan edi! Bu ham yetmagandek, direktorning ham undan ixlosi qaytgan edi.

– Voy, kasofat-e! – Direktorning xunobi chiqib ketdi va g'azablanganidan nafasi og'ziga tiqilib, qo'lidagi qog'oz doirani ispanning boshiga kiydirdi. Doira tarillab yirtildi, buning natijasida ispanning bo'ynini arrasimon qog'oz yoqa o'radi.

Birgina Lapitup bu mojaroga aralashmadi. Lekin o'q ovozi tevarakatrofdagi itlarni bezovta qilib qo'ygan edi. Bitta it qayerdandir otilib chiqib, to'ppa-to'g'ri polvon tomonga g'izillab kelaverdi.

Lapitup faqat:

– Kimning joni shirin bo'lsa qochib qolsin! – deb baqira oldi, xolos. Uchovlari ham tiraqaylab qocha boshlashdi.

Yolg'iz sharfurush joyida qoqqan qoziqdek turib qolgan edi. U devor boshiga chiqib olib tevarakatrofga ko'z tashladi. «Uch og'ayni botirlar» yam-yashil qiyalikdan pastga o'mbaloq oshib tushib ketishdi. Lapitup it tishlagan yo'g'on boldirini ushlagancha bir oyoqda hakkalab borardi, direktor daraxtga chiqib olgan va xuddi boyqushga o'xshab hurpayib osilib turardi, ispan esa qog'oz doira kiydirilgan boshini har

tomonga burib, nuqul orqasidan quvib kelayotgan itga o'q uzardi-yu, lekin otgan o'qi har safar poliz qo'riqchisiga borib tegardi.

It nishab labiga borganda taqqa to'xtadi, aftidan, u ortiq hujum qilishni istamagan edi. U Lapitup boldirining ta'mini tatib ko'rgan va bu ishidan batamom qanoat hosil qilib, dumini likillatar va og'zini katta ochib iljayarkan, pushti rang yaltiroq tilini osiltirib turardi.

VI BOB. KUTILMAGAN VAZIYAT

– Doktor Gaspar Ameridan so'rang, – deb javob qilgan edi Tibul, nega negr bo'lib olding, deb berilgan savolga.

Lekin buning sababini doktor Gaspardan so'ramasdan turib ham fahmlasa bo'lardi. Esingizda bo'lsa: Tibul jang maydonidan g'oyib bo'lgan edi. Qani bir eslab ko'raylik: gvardiyachilar uning payiga tushib qidirishdi, ishchi mahallalariga o't qo'yishdi, Yulduz maydonida otishma boshlashdi. Tibul esa doktor Gasparning uyiga yashirindi. Lekin bu yerda ham uni istagan paytda topib olishlari mumkin edi. Xavf-xatar muqarrar edi. Chunki uni judayam ko'p odam ko'rgan va tanirdi.

Do'kondor Uch Baqaloq tomonida edi, negaki u semiz va boy. Doktor Gaspar bilan qo'shni bo'lib yashab turgan har qanday boy odam, doktor Tibulga o'z uyidan boshpana berdi, deb gvardiyachilarga yetkazishi mumkin edi.

– Siz tashqi qiyofangizni o'zgartirishingiz kerak, – degan edi doktor Gaspar Tibul uyiga kirib kelgan o'sha kechasi.

Ana shundan keyin doktor Gaspar Tibulni shunaqa qiyofaga kiritgan edi.

– Siz pahlavon qomatsiz, – degan edi doktor. – Ko'krak qafasingiz judayam keng, yag'rinlaringiz keng, tishlaringiz oppoq, sochingiz jingalak, tikandek qattiq va tim qora. Agar badaningiz oq bo'lmaganida, siz Shimoliy Amerika negriga judayam o'xshab ketgan bo'lar edingiz. Ayni muddao. Men sizni qora tanli bo'lishingizga ko'maklashaman.

Doktor Gaspar Arneri yuzta ilmni o'rgangan olim edi. U juda jiddiy odam edi-yu, lekin fe'li oqko'ngil edi. Har bir ishning o'z vaqt-soati bor deganlaridek ba'zi-ba'zida u ko'ngilxushlik qilishni yaxshi ko'rardi. Lekin hatto shu dam olayotgan chog'larida ham olim bo'lib qolar edi. Shunaqa paytlarda u yetimxonalardagi kambag'al bolalar uchun ko'chirma suratlar tayyorlar, judayam alomat mushaklar, o'yinchoqlar

yasar, juda antiqa tovush chiqaruvchi musiqa asboblari yasar, yangi bo'yoqlar kashf etardi.

– Mana, – dedi u Tibulga, – mana, ko'ring. Mana bu shishada rangsiz suyuqlik bor. Lekin u biron odamning badaniga surtilsa, quruq havo ta'sirida badanni qora rangga bo'yaydi, qora bo'lganda ham xuddi negrlar badaniga o'xshatib to'q jigarrang holga kiritadi. Mana bu shishadagi essensiya bilan esa o'sha qora bo'yoqni yuvib tashlash mumkin.

Tibul rang-barang uchburchak matolardan quroq qilib tikilgan trikosini yechdi-da, kuyindi hidini beruvchi achchiq suyuqlikni badaniga surkay boshladi.

Bir soatdan keyin u qop-qora negrga aylandi qo'ydi.

Ganimed xola tutgan sichqonini ko'tarib xuddi shu paytda kirib kelgan edi. U yog'ini o'zingiz yaxshi bilasiz.

Endi doktor Gasparga qaytaylik. Kapitan Bonaventura uni saroy mansabdorining qora karetasiga o'tqizib olib ketgan paytda biz u bilan ajrashgan edik.

Kareta shamoldek yelib borardi. Polvon Lapitup bu kareta orqasidan yugurib, unga yeta olmaganidan xabaringiz bor.

Karetaning ichi qorong'i edi. Doktor avvaliga o'z yonida o'tirgan mansabdor haqida, tizzasiga sochlari paxmaygan qiz bolani o'tqazib olibdi, deb o'yladi.

Mansabdor churq etmasdi. Bola ham.

– Afv etasiz, sizni siqib qo'ymadimmi? – deb so'radi iltifotli doktor, boshidagi shlapasini xiyol ko'tarib.

– Bahuzur o'tiravering, – deb quruqqina javob qildi mansabdor.


Karetaning torgina darchasidan ko'cha chiroqlari shu'lasi lip-lip o'tardi. Yana bir daqiqadan keyin doktorning ko'zlari qorong'ilikka ko'nikib qoldi. Ana shunda u mansabdorning uzun burnini, yarim yumuq ko'zlarini va juda bejirim ko'ylak kiygan bir dilbar qizchani ko'rdi. Qizaloq nihoyatda ma'yus ko'rinardi. Yana uning rangi ham o'chgan bo'lsa kerag-u, lekin qorong'ida buni aniq ko'rib bo'lmas edi.

«Bechora qiz! – deb o'yladi doktor Gaspar. – Kasalga o'xshaydi».

Keyin yana mansabdorga murojaat qildi:

– Aftidan, mening yordamim kerakka o'xshaydi, a, sizga? Sho'rlik qizchanning tobi qochib qopti-da?

– Ha, sizning yordamingiz kerak, – deb javob qildi uzun burunli mansabdor.



«Hech shubha yo'qki, bu qizcha yo Uch Baqaloqdan birining jiyani, yo bo'lmasa, valiahd Tuttining kichik mehmoni, – deb faraz qila boshladi doktor. – Bu qizchani juda izzat-e'tiborli zot ekanligi ko'rinib turibdi, chunki u nihoyatda bejirim kiyingan, buning ustiga, uni saroydan gvardiya kapitani kuzatuvda olib kelishyapti. Bu gumon to'g'riya, lekin valiahd Tuttining oldiga tirik bolalarni kiritishmaydi-ku. Unda bu farishta qiz qanday qilib saroyga kirib qoldi ekan?»

Doktor o'ylayverib boshi qotdi. U yana tanqa burun mansabdor bilan suhbat qurishga urindi:

– Ayting-chi, qizaloqning dardi nima ekan? Nahot bo'g'ma kasal bo'lsa?

– Yo'q, uning ko'kragi teshilgan.

– Siz, uning o'pkasi kasal demoqchisiz, shekilli?

– Uning ko'kragi teshilgan, – deb takrorladi mansabdor.

Doktor odob yuzasidan u bilan bahslashib o'tirmadi.

– Bechora qizaloq! – deb xo'rsinib qo'ydi u.

– Bu qizaloq emas, qo'g'irchoq, – dedi mansabdor.

Bu payt kareta doktorning uyi oldida to'xtadi.

Qo'g'irchoq ko'targan mansabdor bilan kapitan Bonaventura doktorning orqasidan uning uyiga kirishdi. Doktor ularni ustaxonasida qabul qildi.

– Agar bu qo'g'irchoq bo'lsa, unda sizlarga qanday yordamim tegishi mumkin?

Mansabdorning batafsil izohidan keyin hamma narsa oydinlashdi.

Ertalabki hayajoni hamon bosilmagan Ganimed xola eshik tirqishidan mo'ralab, bahaybat kapitan Bonaventurani ko'rib turardi. Kapitan qilichiga tayanib, qaytarma qo'njli katta etik kiygan oyoqlarini tinimsiz likillatardi. Etigining shporlari esa dumli yulduzga o'xshab ketardi. Ganimed xola kapitandan tashqari yana pushti rang bejirim ko'ylak kiygan g'amgin va xasta bir qizchani ko'rdi – mansabdor u qizchani kursiga o'tqizib qo'ygan edi. Qizaloq paxmaygan sochli boshini egib o'tirarkan, go'yo pastga, tasma o'miga oltinrang gul qadalgan atlas tuffi kiygan jajji oyoqlariga tikilayotgandek ko'rinardi.

Kuchli esayotgan shamol rovondagi deraza qopqalarini taraqlatib ochib-yopardi, shu ovoz tufayli Ganimed xola ichkarida bo'layotgan gapni aniq eshita olmayotgan edi.

Lekin shunday bo'lsa ham u ba'zi bir narsalarni tushunib oldi.

Mansabdor doktor Gasparga Uch Baqaloq Davlati kengashining farmonini ko'rsatdi. Doktor farmonni o'qib chiqib, qattiq hayajonlana boshladi.

– Qo'g'irchoq ertaga ertalabgacha tuzalishi shart, – dedi mansabdor o'midan turarkan.

Kapitan Bonaventura poshnasini poshnasiga urib, shporlarini shiqillatib qo'ydi.

– Ha... lekin... – doktor nochor ahvolda qo'llarini yoydi. – Men urinib ko'raman, ammo kafolat berish mumkin emas. Men bu sehrli qo'g'irchoqning mexanizmi bilan tanish emasman. Men uni o'rganib chiqishim, qayeri shikastlanganini aniqlashim, nihoyat, shu shikastlangan mexanizm uchun yangi qismlar tayyorlashim kerak. Buning uchun menga juda ko'p vaqt kerak bo'ladi. Ehtimol, hali mening iste'dodim buni tuzatishga o'zlik ham qilar... Balki bu yaralangan qo'g'irchoqning sog'lig'ini tiklashga mening qurbim yetmas ham... M...en qo'rqaman, janoblar... Vaqt juda qisqa... Faqat bir kecha... Men so'z bera olmayman...

Mansabdor doktorning so'zini bo'ldi. U barmog'ini ko'tarib shunday dedi:

– Biz buni paysalga sola olmaymiz, chunki valiahd Tutning qayg'usi beqiyosdir. Qo'g'irchoq ertaga ertalabgacha tirilishi shart. Uch Baqaloqning xohishi shunday. Hech kim ularning farmonini bajarmaslikka jur'at eta olmaydi. Ertaga ertalab siz Uch Baqaloq saroyiga tuzalgan, sog'lom qo'g'irchoqni olib borasiz.

– To'g'ri... lekin... – deb e'tiroz bildira boshladi doktor.

– Hech qanday «lekin-pekin» bo'lishi mumkin emas! Qo'g'irchoq ertaga ertalab tuzalishi shart. Agar shu ishni bajarsangiz – katta mukofotga sazovor bo'lasiz, bajarmasangiz – qattiq jazoga tortilasiz.

Doktor judayam qattiq hayajonga tushdi.

– Men urinib ko'raman, – deb g'o'ldirardi u. – Lekin, tushuning, axir, bu nihoyatda mas'uliyatli ish...

– Albatta, – deya uning so'zini bo'ldi mansabdor va barmog'ini pastga tushirdi. – Men farmonni sizga bayon qildim, endi siz uni bajarishingiz lozim. Yaxshi qoling!

Eshik tirqishidan mo'ralab turgan Ganimed xola o'zini orqaga oldi va chopgancha o'z xonasiga kirib ketdi; bu yerda, burchakda boya qopqondan qochgan baxtiyor sichqon bir nimani qitirlatib kemirib yotar-

di. Qo'rqinchli mehmonlar ko'chaga chiqishdi. Mansabdor karetaga o'tirdi; graf Bonaventura shporlarini yaltiratib va shiqillatib otiga mindi; gvardiyachilar shlapalarini bostirib kiydilar. Shundan keyin hamma-lari ot choptirib jo'nab ketdilar.

Valiahd Tuttining qo'g'irchog'i doktorning ustaxonasida qoldi.

Doktor mehmonlarni kuzatib uyga kirgach, Ganimed xolani qidirib topdi-da, uni asabiy jerkib dedi:

– Ganimed xola! Esingizda bo'lsin. Men donishmand odam, mo-hir doktor va hiylagar usta deb dovrug' qozonganman, shu nomimga dog' tushirishni istamayman. Bundan tashqari, men o'z kallamni ham qadrlayman. Ammo ertaga ertalab dovrug'imdan ham, kallamdan ham ajrashim mumkin. Men bugun tun bo'yi juda og'ir bir ish bilan mashg'ul bo'lishim kerak. Tushudingizmi? – u Uch Baqaloq huku-matining Davlat kengashi farmonini silkib ko'rsata boshladi. – Menga hech kim xalal bermasligi kerak. Uyda shovqin solmang. Likoplarni sharaqlatmang. Is-pis ham chiqarib o'tirmang. Tovuqlarni «tu-tu»lab chaqirmang. Sichqon tutmang. Hech qanaqa quymoq, rangli karam, marmelad-u valeriyanka haqida gap bo'lishi mumkin emas! Tushun-dingizmi?

Doktor Gaspar rosa xunob edi.

Ganimed xola o'z xonasiga kirib, ichidan berkitib oldi.

– Alomat narsalar, o'ta alomat narsalar! – deb to'ng'illardi u. – Hech narsaga tushunmayapman. Allaqanday negr, allaqanday qo'g'irchoq, yana qanaqadir farmon... Nimalar bo'lyapti o'zi?

Ganimed xola o'ziga tasalli berish niyatida xat yozmoqchi bo'ldi. Lekin patqalamni qitirlatmasdan judayam ehtiyotkorlik bilan yoza boshladi. U doktorni bezovta qilishdan qo'rqardi.

Oradan bir soat vaqt o'tdi. Ganimed xola hamon yozardi. Mana, u nihoyat, bugun ertalab doktor Gasparning ustaxonasida paydo bo'lib qolgan alomat negrni tasvirlashga kirishdi.

«...Ular ikkovlashib chiqib ketishdi. Doktor saroy mansabdori va gvardiyachilar bilan qaytib keldi. Ular o'zlari bilan bir qo'g'irchoq olib kelishdi; bu qo'g'irchoq tirik qizaloqqa judayam o'xshab ketardi. Le-kin bu safar ular orasida negr yo'q edi. U qayoqqa g'oyib bo'ldiykin, bilmayman...»

Negrning, ya'ni gimnastikachi Tibulning qayoqqa ketgani ma-salasi ayni paytda doktor Gasparni ham xavotirlantirayotgan edi. U

qo'g'irchoqni kuzatish bilan ovora ekan, Tibul hech xayolidan ketmasdi. Doktorning xunobi chiqib o'zi bilan o'zi gaplashardi:

– Bu qanday ehtiyotsizlik! Men uni nihoyatda antiqa bo'yoqqa bo'yab, mutlaqo hech kim taniy olmaydigan negrga aylantirib qo'ygan bo'lsam-u, u bugun O'n to'rtinchi bozorga borib, o'zini odamlarga tanitib o'tirsa! Axir endi uni tutib olishlari mumkin-ku... Ah! Odam degan shunaqayam ehtiyotsiz bo'ladimi? Nahot uning temir qafasga tushgisi kelgan bo'lsa?

Doktor Gaspar judayam qattiq ranjiyotgan edi. Bir tomonda Tibulning ehtiyotsizligi, bir tomonda mana bu dardisar qo'g'irchoq... Buning ustiga kechagi tashvishlar, Sud maydoniga qurilgan o'nta qatl kundasi...

– Mudhish zamon! – dedi doktor.

Bugungi qatlning qoldirilganidan u bexabar edi. Saroy mansabdori kamgap odam edi. Shuning uchun u bugun saroyda yuz bergan voqealar haqida doktorga churq etib og'iz ham ochmagan edi.

Doktor bechora qo'g'irchoqni ko'zdan kechirarkan, hayron bo'lib derdi:

– Bu jarohatlar nimadan ekan? Bu tig'ning, ehtimolki, qilichning izi bo'lsa kerak. Shunday qo'g'irchoqni, ajib qizaloqni ilma-teshik qilib yuborishibdi... Buni kim qildiyykin? Valiahd Tuttining qo'g'irchog'iga qilich ko'tarishga kimning haddi sig'diyykin?

Buni gvardiyachilar qilganini doktor hech tasavvur qila olmas edi. Hattoki saroy gvardiyasining Uch Baqaloqqa xizmat qilishdan bosh tortib, xalq tomoniga o'ta boshlaganini u xayoliga ham keltira olmasdi. Buni eshitganida bormi, doktorning xursandchilikdan boshi osmonga yetgan bo'lardi!

Doktor qo'g'irchoqning boshini qo'liga oldi. Derazadan oftob tushib turardi. Oftob qo'g'irchoqning yuzini juda yaxshi yoritayotgan edi. Doktor qo'g'irchoqqa tikilib qoldi.

«Taajjub, judayam taajjub, – deb o'ylay boshladi u. – Men ilgariyam bu chehrani qayerdadir ko'rgandayman... Ha, ha, albatta ko'rganman! Men buni ko'rganman, taniyapman uni. Lekin qayerda? Qachon? Bu yuz jonli edi, u tirik qizchanning yuzi edi, u tabassum qilar, juda alomat bu yuz mehribon, tannoz, biroz g'amgin bo'lardi... Ha, ha. Bunga hech shubha bo'lishi mumkin emas! Lekin ko'zinning xiraligi qurib ketsin, odamlarning yuzini eslab ololmay qoldim-da».

U qo'g'irchoqning jingalak sochli jajji boshini ko'ziga yaqin olib keldi.

«Qanday ajoyib qo'g'irchoq! Qanday dono odam yaratdiykin uni! U oddiy qo'g'irchoqlarga o'xshamaydi. Qo'g'irchoqlarning odatda ko'zlari ko'k va baqraygan bo'lib, odamlarnikiga o'xshamaydi, ma'nosiz boqadi, burni tanqaygan, labi cho'chchaygan, beo'xshov oq-sariq jingalak sochlari xuddi qo'yning yungiga o'xshaydi. Qo'g'irchoqlar ko'rinishidan baxtliga o'xshaydilar, aslida esa tentak bo'lishadi... Lekin mana bu qo'g'irchoqning qo'g'irchoqqa o'xshaydigan hech qanday jihati yo'q. Ont ichamanki, bu – qo'g'irchoq qiyofasiga kirgan qizchaga o'xshaydi nazarimda!»

Doktor Gaspar o'zining bu g'ayrioddiy bemorini maroq bilan ko'zdan kechirardi. Lekin qachonlardir, qayerdadir shu rangpar chehrani, ma'noli boquvchi shu qo'yko'zlarni, shu kalta kesilgan, hurpaygan soch tolalarini ko'rganman, degan fikr hech ham uning xayolidan nari ketmasdi. Bu qo'g'irchoqning boshini xiyol burib turib qarashi unga ayniqsa tanishdek tuyulardi: qo'g'irchoq bo'ynini xiyolgina yon tomonga egib, doktorga qovog'ini uyib, diqqat bilan, mug'ambirona boqardi...

Doktor o'zini bosa olmay, baland ovoz bilan so'radi:

– Qo'g'irchoq, isming nima?

Lekin qizcha indamasdi. Shunda doktor hushini yig'ib oldi. Qo'g'irchoq buzilgan edi; uning ovozini chiqarish, yuragini tuzatish kerak, uni yana qaytadan iljayishga, raqs tushishga va o'z tengqurlari bo'lgan – qizchalarning qiliqlariga o'rgatish kerak.

«Yoshi o'n ikkilarda bo'lsa kerak».

Vaqt g'animat edi. Doktor ishga kirishdi. «Men qo'g'irchoqni tiriltirishim kerak».

Bu orada Ganimed xola maktubini yozib tugatdi. Shundan keyin ham u yana ikki soatgacha zerikib o'tirdi. Oxiri sabri chidamay, sinchkovligi qo'zib ketdi. «Doktor Gaspar qanday shoshilinch ishni bajarishi kerak ekan? Haligi qanaqa qo'g'irchoq ekan?»

U ustaxona eshigi oldiga oyoq uchida ohista yurib keldi-da, kalit so-ladigan yuraksimon tirqishdan mo'raladi. Afsus! Teshikka kalit tiqilgan edi. Ganimed xola hech nima ko'rolmadi, lekin shu mahal eshik ochilib, doktor Gaspar chiqib keldi. Uning avzoyi buzuq, xayoli parishon edi, shuning uchun u adabsizlik qilib eshik tirqishidan mo'ralamoqchi

bo'lgan Ganimed xolaga hatto tanbeh ham bermadi. Lekin Ganimed xola shundoq ham juda uyalib ketgan edi.

– Ganimed xola, – dedi doktor. – Men ketyapman. Aniqrog'i, men jo'nab ketishim kerak. Izvosh chaqirtirsangiz.

U jim qoldi, so'ng kafti bilan peshonasini ishqalay boshladi.

– Men Uch Baqaloq Qasriga ketyapman. U yerdan qaytib kelmasligim ham ehtimoldan xoli emas.

Ganimed xola hayratga tushib orqasiga tisarildi:

– Uch Baqaloq qasriga!

– Ha, Ganimed xola. Ish juda chatoq. Menga valiahd Tuttinging qo'g'irchoq'ini olib kelishdi. Bu dunyoda eng yaxshi qo'g'irchoq hisoblanadi. Uning mexanizmi singan. Uch Baqaloq Davlati kengashi ertaga ertalabgacha shu qo'g'irchoqni tuzatib berishni buyurgandi menga. Endi meni qattiq jazoga tortishsa kerak.

Ganimed xola ko'zlariga g'ilt-g'ilt yosh oldi.

– Lekin men bu bechora qo'g'irchoqni tuzatishga ojizman. Men uning ko'ksidagi murvatni mufassal ko'zdan kechirib chiqdim, uning sirini ham bilib oldim, uni tuzatishim ham mumkin edi. Lekin... arzimagan narsa! Arzimagan bir qism deb, Ganimed xola, buyruqni bajara olmayman. O'sha antiqa murvat ichida bitta tishli g'ildirakcha bor – shu darz ketgan... U ishga yaroqsiz bo'lib qolgan! O'rniga yangisini yasash kerak... Menda shu g'ildirakchani yasashga loyiq metall ham bor, kumushsimon ma'dan... Lekin ishga kirishishdan oldin u metallni eng kamida ikki kun to'tiyo eritmasida saqlash kerak. Tushunyapsizmi, ikki kun... Qo'g'irchoq esa ertaga ertalab tayyor bo'lishi kerak.

– O'shaning o'rniga boshqa bironta g'ildirakni o'rnatsa bo'lmas-mikin? – deya qo'rqa-pisa luqma tashladi Ganimed xola.

Doktor ma'yus qo'l siltadi:

– Men hamma chorani qo'llab ko'rdim, hech bo'lmayapti.

Yana besh daqiqadan keyin doktor Gasparning uyi oldida soyabonli izvosh to'xtadi. Doktor Uch Baqaloq Qasriga borishga qaror qilgan edi.

– Men ularga, ertaga ertalabgacha qo'g'irchoq tayyor bo'lmaydi, deb aytaman. Meni ne ko'yga solsalar ham mayli...

Ganimed xola fartugining etagini tishlagancha boshini sarak-sarak qildi, u shu ko'yi boshini chayqab turaverdi, faqat, bunaqada hatto bo'ynim uzilib ketishi ham mumkin-ku, degan fikr xayoliga kelib qo'rqib ketganidan keyingina bosh chayqashdan to'xtadi.

Doktor Gaspar qo'g'irchoqni yoniga o'tqizib saroyga jo'nab ketdi.

VII BOB. ALOMAT QO'G'IRCHOQNING TUNGI SARGUZASHTI

Doktor Gasparning ikkala qulog'ida shamol qattiq g'uvillardi. Shamolning g'uvillashi pichoq charxlayotganda chiqqan ovozdan ham dahshatliroq bo'lgan negrlarning raqs musiqasini eslatardiki, bundan quloq qomatga kelardi.

Doktor quloqlarini paltosining yoqasi bilan berkitib, shamolga ters o'girildi.

Shundan keyin shamol go'yo osmondagi yulduzlar bilan shug'ullana boshladi. U yulduzlarni goh puflab o'chirar, goh g'izillatib uzoqlarga surib ketar, goh uchburchak shaklidagi qora tomlar orqasiga yashirardi. Bu o'yin ham ko'ngliga urgandan keyin shamol bulutlar bilan mashg'ul bo'ldi. Lekin bulutlar xuddi minoralar singari parcha-parcha bo'lib ketdi. Shunda bulut birdan sovidi: u qahri kelganidan sovuq qotgan edi.

Doktor plashiga o'ranib olishga majbur bo'ldi. Plashining bir bariga qo'g'irchoqni o'radi.

– Tezroq haydang! Tezroq! O'tinaman, tezroq haydang!

Birdaniga hech narsadan hech narsa yo'q doktorning yuragiga g'ulg'ula tushdi-yu, izvoshchini shoshira boshladi.

Tun juda vahimali, zim-ziyo, jimjit edi. Faqat bir necha derazadan chiroqning qizg'ish shu'lasini ko'rindi, qolgan derazalar qopqalari bilan yopilgan edi. Odamlar mudhish voqealar ro'y berishini kutardilar.

Bu oqshom juda ko'p narsa g'ayritabiiy va shubhali tuyulardi. Shuning uchun ahyon-ahyonda doktor, bu alomat qo'g'irchoqning ko'zlari qorong'ida ikkita chaqmoq toshdek birdan yarqirab ketsa-ya, deb hatto cho'chib borardi. Shuning uchun u hamrohining yuziga iloji boricha qaramaslikka harakat qilardi.

«Qanday bema'nilik! – deb o'ziga o'zi taskin berardi u. – Asablarim buzilganga o'xshaydi. Bugun ham har kungi oqshomlardan biri, xolos. Faqat ko'chada o'tkinchilar siyrakroq. Faqat shamol ularning so-yalarini juda g'alati qilib uchiryapti, natijada duch kelgan har bir odam qanotsimon sirli plash kiygan yollanma qotilga o'xshab ketyapti. Faqat muyulishlarga o'rnatilgan gaz fonuslar qandaydir shumshuk zangori shu'la sochmoqda... Eh, tezroq Uch Baqaloq Qasriga yetib bora qolsam edi!...»

Qo'rquvni daf qiladigan juda yaxshi bir vosita bor: uyqu. Ayniqsa, bunday paytda adyolga burkanib uxlash tavsiya qilinadi. Doktor shu vositadan foydalanmoqchi bo'ldi. U shlapasidan adyol o'rnida foydalanib, uni ko'zlarigacha bostirib kiydi. Shundan keyin yuzgacha sanay boshladi, albatta. Lekin bu vosita yordam bermadi. So'ng u kuchli ta'sir ko'rsatuvchi boshqa bir vositani ishga soldi. U ichida hisoblay boshladi:

– Bitta fil-u, yana bitta fil – ikkita fil; ikkita fil-u, yana bitta fil – uchta fil; uchta fil-u, yana bitta fil – to'rta fil...

U shu zaylda bir poda filni sanab chiqdi. Fillar soni bir yuz yigirma uchtaga yetganda, dildagi fil haqiqiy filga aylandi. Lekin bu filni yo po'shtibadan polvon Lapitupmi – doktor aniqlay olmadi, demak, u endi uxlayotgan va tush ko'rayotgan bo'lsa kerak.

Uxlagan paytda vaqt uyg'oq vaqtdagidan ancha tez o'tadi. Xullas, doktor uyqusida Uch Baqaloq Qasriga yetib ham borib, yana ularning hukm chiqarishiga muntazir ham bo'lib turardi. Baqaloqlarning har bitasi doktor qarshisida, qo'g'irchoqning qo'lidan shunday ushlab turardi, odatda maymun o'ynatuvchi lo'li ko'k yubka kiygan maymunning qo'lidan shunday ushlardi.

Ular doktorning hech qanday izohini eshitishni istamas edilar.

«Sen buyruqni bajarmading, – deyishardi ular. – Sen qattiq jazoga tortilasan. Sen Yulduz maydoni ustidan tortilgan simdan qo'g'irchoq bilan yurib o'tishing kerak. Lekin ko'zoynagingni yech...»

Doktor shafqat so'rardi. Uni hammadan ham qo'g'irchoqning taqdiri xavotirlantirayotgan edi... U bunday derdi:

«Men-ku, ko'nikib qolganman, yiqilishning havosini olganman... Agar sim dordan yiqilib, hovuzga tushsam, menga hech nima bo'lmaydi. Yiqilishda mening tajribam bor: men shahar darvozasi yaqinidagi maydonda butun boshli minora bilan birga qulaganman... Ammo qo'g'irchoq holi nima kechadi, sho'rlik qo'g'irchoq! U yiqilsa tilka-pora bo'lib ketadi... Unga rahmingiz kelsin... Ishonchim komilki, bu qo'g'irchoq emas, jonli qizaloq, uning g'oyatda ajib ismi bor, biroq men ismini unutib qo'yib, hech eslay olmayapman.

«Yo'q! – deb baqirishardi Baqaloqlar. – Yo'q! Hech kimga rahm qilmaymiz! Uch Baqaloqning buyrug'i shu!»

Ular shunchalik qattiq baqirishdiki, doktor hatto uyg'onib ketdi.

– Uch Baqaloqning buyrug'i shu! – deb qichqirardi kimdir doktorning qulog'i ostida.

Endi doktor uxlamayotgan edi. Kimdir uning o'ngida qichqirayotgan edi. Doktor shlapasini ko'tarib, ko'zini ochdi yoki aniqroq qilib aytganda, ko'zoynagini ko'tardi va atrofga nazar tashladi. U uxlab yotganida tun pardasi quyuqlashib, atrof qorong'ilashgan edi.

Izvosh to'xtab turardi. Uni qora ko'lankalar o'rab olgan edi: doktorning tushida shovqin ko'targanlar ham shular ekan. Ular qo'llaridagi fonuslarini silkitishardi. Fonusning silkinishidan har yoqqa katak-katak soyalar uchardi.

– Nima gap? – deb so'radi doktor. – Qayerdamiz? Bu odamlar kim?

Qora ko'lankalardan biri yaqin kelib, qo'lidagi fonusni boshi bavarar ko'tardi va doktorning yuzini yoritdi. Fonus chayqalardi. Fonusning tepasidagi halqadan ushlab turgan qo'l dag'al teridan tikilgan og'zi keng qo'lqop kiygan edi.

Doktor tushundi: bular gvardiyachilar edi.

– Uch Baqaloqning buyrug'i shu, – deb takrorladi ko'lanka.

Fonusning sarg'ish shu'lasini uni bo'lak-bo'lak qilib ko'rsatardi. Uning boshidagi kleyonka shlapa qorong'ida xuddi temirdan yasalganga o'xshab yaltirardi.

– Saroyga bir chaqirim masofa qoldi, bundan nariga o'tishga hech kimning haqi yo'q. Bu buyruq bugun chiqdi. Shahar notinch. Bundan buyog'iga o'tish mumkin emas.

– Lekin men albatta saroyga borishim shart.

Doktorning jahli chiqqa boshladi.

Gvardiyachi qat'iy ohangda derdi:

– Men soqchilar boshlig'i kapitan Serep bo'laman. Sizni bir qadam ham oldinga o'tkazmayman. Bur, orqaga! – deb qichqirdi u aravakashga, fonusini silkitganicha.

Doktorning xunobi chiqqa boshladi. Shunday bo'lsa ham, o'zining kimligini va nima maqsadda saroyga ketayotganini bayon qilsa, darhol o'tkazib yuborishlariga hech shubha qilmas edi.

– Men doktor Gaspar Arneri bo'laman, – dedi u.

Uning bu gapini eshitib, soqchilar xaxolab kulib yuborishdi. Chor atrofda fonuslar lik-lik silkina boshladi.

– O'rtoq, bunday notinch paytda, shunday bemahalda siz bilan hazillashishga imkonimiz yo'q, – dedi soqchilar boshlig'i.

– Takror aytaman sizga: men doktor Gaspar Arneri bo'laman.

Soqchilar boshlig'ining achchig'i chiqib ketdi. U shamshirini sharaqlatib turib, dona-dona qilib gapirdi:

– Siz saroyga kirish maqsadida o'zga odamning nomini o'zlashtirgansiz. Doktor Gaspar Arneri yarim kechada tentirab yurmaydi. Bugungi kunda-yu, sirayam. Hozir u juda muhim ish bilan band: u valiahd Tuttining qo'g'irchog'ini tiriltirish bilan ovora. Sizni bo'lsa yolg'onchi sifatida qamoqqa olaman.

– Nima?! – Doktorning birdan qahri qaynab ketdi.

«Nima?! Hali u mening gapimga ishonmayaptimi? Yaxshi. Hozir men unga qo'g'irchoqni ro'para qilaman!»

Doktor qo'g'irchoq tomonga qo'lini cho'zdi-yu, birdan...

Qo'g'irchoq joyida yo'q edi. Uning ko'zi uyquga ketgan paytda qo'g'irchoq izvoshdan tushib qolgan ekan.

Doktorni sovuq ter bosdi.

«Balki bu tushimdir?» – degan xayol lip ctib o'tdi ko'nglidan.

Afsuski, bu o'ngi edi.

– Xo'sh! – deb to'ng'illadi soqchilar boshlig'i tishlarini g'ijirlatib va fonus ushlagan barmoqlarini o'ynatib. – Qorangizni o'chiring! Men sizni qo'yib yuboraman, sassiq chol bilan ovora bo'lishga vaqtim yo'q... Yo'qol!

Buyruqqa itoat etishga to'g'ri keldi. Aravakash otni orqaga burdi. Izvosh g'ijirladi, ot pishqirdi, temir fonuslar oxirgi marta lipilladi va bechora doktor orqasiga qaytdi.

Bu alamga chiday olmagan doktor yig'lab yubordi. Unga shunday qo'pol muomala qilishdi, uni «sassiq chol» deb atashdi, eng yomoni – u valiahd Tuttining qo'g'irchog'ini yo'qotib qo'ygan edi!

«Bundan chiqdi, men es-hushimni chinakamiga yo'qotib qo'yibman-da».

U yig'lardi. Ko'zoynagi terlab ketganidan ko'zi hech nimani ko'rmasdi. U boshi bilan yostiqqa burkanib olgisi keldi. Bu asnoda aravakash otni choptirib haydab borardi. Doktor o'n daqiqacha qayg'uga botib o'tirdi. Lekin birozdan so'ng yana avvalgidek fikr yuritish qobiliyatiga ega bo'ldi.

«Men hali qo'g'irchoqni topib olishim ham mumkin, – deb o'ylardi u. – Bu kecha ko'chada odam siyrak. Bu yerlarda doim ham shunaqa odam kam bo'ladi. Balki shu vaqt ichida bu yerdan hech kim o'tmagandir...»

U aravakashga otni odimlab yuritishni va yo'lni diqqat bilan ko'zdan kechirishni buyurdi.

– Xo'sh, qalay? Yerdan biron narsa ko'rdingmi? – deb so'radi u har daqiqa sayin.

– Hech nima ko'rinmayapti. Hech nima yo'q, – deb javob qilardi izvoshchi.

Izvoshchi yo'l-yo'lakay uchragan mutlaqo nokerak ahamiyatsiz topilmalarni nomma-nom aytib borardi:

– Bochkacha.

– Yo'q... uyamas...

– Yaxshi bir kattakon oyna.

– Yo'q.

– Yirtiq botinka.

– Yo'q, – deb tobora past ovoz bilan javob qaytarardi doktor.

Izvoshchi astoydil tirishqoqlik bilan yo'lni kuzatib borardi. Yo'lga tikilaverib ko'zlari tolib ketdi. U qorong'ida shunday yaxshi ko'rar ediki, uni izvoshchi emas, okean paroxodining kapitani desa bo'lardi.

– Qo'g'irchoq-chi, qo'g'irchoq ko'zingizga tashlanmayaptimi? Pushti rang ko'ylakli qo'g'irchoq!

– Qo'g'irchoq yo'q, – derdi izvoshchi do'rillagan ma'yus ovoz bilan.

– Bundan chiqdi, uni kimdir topib olgan, ortiq qidirishdan ma'ni yo'q... Mana shu yerga kelganda uxlab ketgan edim... O'shanda qo'g'irchoq yonimda edi... Oh!..

Doktorning yana xo'rliqi keldi.

Izvoshchi uning dardiga sherik bo'lmoqchiday, bir necha marta xo'rsinib qo'ydi.

– Endi nima qilamiz?

– Oh, o'zim ham hayronman... O'zim ham hayronman... – dedi boshini qo'llariga qo'yib o'tirgan doktor, bu og'ir g'amdan va izvoshning silkinishidan boshi sarak-sarak qilib silkinib borarkan. – Men bilaman, – dedi u. – Ha-ya, esim qursin... rostdanam... Ilgariroq esimga kelmaganini qaranga-a! Qo'g'irchoq qochib ketgan... Men uxlab qolganimda u qochib ketgan. Tushunarli. U tirik bo'lgan. Men buni bir qarashdayoq payqagan edim. Lekin baribir, bu bilan mening Uch Baqaloq oldidagi gunohim kamaymaydi...

Shu mahal qorni tatalayotganini seza boshladi. U biroz jim qoldi, so'ng juda tantanali ohangda dedi:

– Men bugun tushlik qilmagan edim. Meni eng yaqin traktirga¹ olib boring.

Qorning ochgani doktorga biroz taskin berdi.

Ular qop-qorong'i ko'chalarni yana ancha vaqtgacha kezib yurishdi. Hamma traktirlarning xo'jayinlari allaqachon eshiklarini berkitib olishgan edi. Bu kecha shahardagi baqaloqlarning hammasi ham juda hayajonli damlarni boshlaridan kechirardilar.

Ular darvozalariga tanba ustiga tanba qo'yib, eshiklarini ichidan shkaf-u jovonlar bilan to'sib, g'ov qilib qo'ygandilar. Derazalarini parto'shaklar va olachipor yostiqlar bilan to'sib qo'ygandilar. Ular uyg'oq edilar. Baqaloqroq va boyroq odamlarning hammasi bugun kechasi hujum bo'lishini kutib o'tirardilar. Hovlilaridagi qopog'on itlarini hushyorroq va yana ham qopog'onroq bo'lsin deb, ertalabdan buyon boqmagan edilar. Bu kecha boylar, baqaloqlar uchun qo'rqinchli tun edi. Ular hali-zamon xalqning yana bosh ko'tarib chiqishiga ishonardilar. Bir nechta gvardiyachining Uch Baqaloqqa sotqinlik qilib, valiahd Tut-tining qo'g'irchog'ini tilka-pora qilgani va saroydan chiqib ketgani haqidagi mish-mishlar bir zumda butun shaharga ovoza bo'ldi. Bu voqea barcha boyonlar va mechkaylarni qattiq hayajonga solib qo'ygan edi.

– Padariga la'nat! – deb xunoblari chiqardi ularning. – Biz endi gvardiyachilarga ham ishona olmaymiz. Kecha ular xalq qo'zg'olonini bostirishgan edi, bugun bo'lsa, zambaraklarini bizning uylarimizga to'g'rilashyapti.

Doktor biron yerda tamaddi qilib, hordiq chiqara olishidan butunlay umidini uzdi. Tevarak-atrofdagi qilt etgan jonzot ko'rinmasdi.

– Nahot uyga borishimga to'g'ri kelsa? – dedi zorlanib doktor. – Axir uyim bu yerdan juda uzoq-ku... Yetib borgunimcha ochimdan o'lib qolaman.

Shu mahal birdan dimog'iga qovurilayotgan go'shti hidi kirdi. Ha, piyozdog'ning xushbo'y hidi edi bu: qo'y go'shti piyoz bilan qovurilayotgan bo'lsa kerak. Xuddi shu mahal izvoshchi ham sal nariroqda chiroq shu'lasini ko'rib qoldi. Shu'laning ingichka chizig'i shamolda chayqalardi.

¹ Traktir – jo'ngina restoran.

– Bu nima bo'ldi ekan?

– Traktir bo'lsa yaxshi edi! – dedi doktor ruhi tetiklashib.

Ular yaqinroq borishdi.

Lekin bu chiroq ko'ringan joy aslo traktir emas ekan.

Bir nechta kulbalardan sal nariroqda bo'm-bo'sh maydonda g'ildiraklarga o'rnatilgan bir uy turardi.

Chiroqning ingichka shu'lasini bu uyning zich yopilgan eshigidan tushayotgan ekan.

Izvoshchi izvoshdan tushdi va shu uyga yaqinroq bordi. Doktor yuz bergan falokatni ham unutib qovurilayotgan go'sht hididan huzur qilardi. U ko'zlarini yumgancha, burni bilan pishillab, hushtak chalib nafas olardi.

– Birinchidan, men kuchukdan qo'rqaman! – deb qichqirdi izvoshchi qorong'i zulmat ichida. – Ikkinchidan, bu yerda qandaydir zina bor ekan.

Lekin hammasi yaxshilik bilan tugadi. Izvoshchi zina pillapoyasidan ko'tarilib, eshikni taqillatdi.

– Kim u? – degan ovoz eshitildi ichkaridan.

Boyagi ingichka chiroq shu'lasini kengayib, katta kvadrat hosil qildi. Eshik ochilgan edi. Ostonada bir odam paydo bo'ldi. Bu huvillagan va qop-qorong'i maydonda yolg'iz shu ochiq eshikdan charaqlab yorug' tushib turardi, eshikni ochgan odam bu yorug'likda xuddi qora qog'ozdan qirqib yasalgandek yassi bo'lib tuyuldi.

Doktor o'rniga izvoshchi javob berdi:

– Bu doktor Gaspar Arneri. O'z'laringiz kimsizlar? Bu aravaga o'rnatilgan uy kimniki?

– Bu Brizak amakining sayyor tomoshaxonasi bo'ladi, – deb javob qildi ostonada turgan qora soya. U nimadandir suyunib ketdi, to'liqinlanib ketib, qo'llarini silkidi, – marhamat, janoblar, ichkariga kiringlar! Doktor Gaspar Arneri Brizak amakining sayyor tomoshaxonasiga tashrif buyurganidan boshimiz osmonga yetdi.

– Falokat aridi! Tungi sargardonlik tugadi! Yashasin Brizak amakining sayyor tomoshaxonasi!

Doktor ham, izvoshchi ham, uning oti ham o'zlariga boshpana topdilar, endi ular ham ovqatlanishlari, ham hordiq chiqarishlari mumkin edi. Aravaga o'rnatilgan bu uy mehmondo'st xonadon ekan. Bu uyda Brizak amakining sayyor truppassi yashardi.

Bu nomni kim eshitmagan deysiz! Brizak amakining sayyor tomoshaxonasini kim bilmaydi! Bu tomoshaxona bayram kunlarida, yarmarka paytlarida, xullas, yil-o'n ikki oy bozor maydonlarida tomosha ko'rsatib keladi. Bu truppada zo'r-zo'r mohir artistlar bor edi-da! Ular ko'rsatgan tomoshalar juda qiziqarli bo'lardi! Eng muhimi, bu tomoshaxona artistlari safida dorboz Tibul ham o'yin ko'rsatardi.

U mamlakatning eng yaxshi dorbozi degan shuhratga sazovor bo'lganini bilamiz. Biz uning Yulduz maydonida ko'rsatgan mahoratiga shohid bo'lgan edik: u gvardiyachilarning o'q yomg'iri ostida judayam xatarli balandlikda sim ustidan yurib o'tgan edi.

Tibul bozor maydonida o'yin ko'rsatgan paytlarida yosh-u qari tomoshabinlarning kaftlarida qanchadan qancha qadoqlar paydo bo'lardi! Unga baqollar ham, tilanchi kampirlar ham, maktab bolalari ham, askarlar ham – hamma-hamma astoydil chapak chalishardi. Ammo-lekin, endi baqqollar-u oliftalar bir vaqtlar Tibuldan zavqlanganlari uchun afsuslana boshlagan edilar: «Biz uni olqishlab qarsak chalgan edik, u bo'lsa bizlarga qarshi jang qilyapti!» – derdilar ular.

Brizak amakining sayyor tomoshaxonasi huvillab turipti: gimnastikachi Tibul ketib qolgan edi.

Doktor Gaspar Tibulga nima bo'lgani haqida bu yerda lom-mim demadi. U, shuningdek, valiahd Tuttining qo'g'irchog'i haqida ham gap ochmadi.

Xo'sh, doktor bu sayyor tomoshaxonaning, ya'ni aravaga o'rnatilgan uyning ichida nimalarni ko'rdi?

Uni, gardishi och qizil uchburchaklar bilan bo'yalgan va zarrin sim to'r bilan qoplangan kattakon turkcha barabanga o'tqizishdi. Xuddi vagonga o'xshatib qurilgan uy pardalar bilan bir necha xonalarga bo'lingan edi.

Vaqt allamahal bo'lib qolgan. Shuning uchun bu sayyor tomoshaxona ahli hozir uyquda edi. Eshikni ochib, qora soyani eslatgan odam keksa masxarabozning o'zi edi. Uning ismi Avgust. Bu kecha u navbatchilik qilayotgan edi. Doktor bu tomoshaxonaga yaqinlashganida Avgust o'zi uchun kechlik ovqat pishirayotgan edi. Chindanam u qo'y go'shtini piyoz bilan qovurayotgan ekan.

Doktor baraban ustida o'tirib butun xonani ko'zdan kechira boshladi. Quti ustida kerosin chiroq yonib turardi. Devorlarda oq va pushti rangli yupqa qog'oz tortilgan gardishlar, metall bandlari yaltiroq, uzun

olachipor qamchilar, hammayog'iga zar tugmachalar qadalgan, gullar, yulduzlar, rang-barang lattalar tikilgan kiyimlar osilib turardi. Devorga har turli niqoblar ilingan edi. Ba'zi niqoblarning shoxlari bor edi; ba'zilarining burni uchi qayrilgan shippakni eslatardi; ba'zilarining og'zi qulog'igacha borgan. Bitta niqobning quloqlari judayam katta edi. Eng qizig'i shundaki, quloqlar odam qulog'i edi-yu, lekin judayam kattakon.

Burchakda qafas ichida allaqanday kichkinagina bir hayvon yotardi. Bir tomondagi devor tagida uzun yog'och stol turibdi. Bu stol tepasida ko'zgu oynalar osilgan. Ular o'n dona. Har qaysi ko'zgu oldida sham turar, shamlar stolga o'z moyi bilan yopishtirib qo'yilgandi. Shamlar hozir o'chiq. Stolda qutichalar, mo'yqalamlar, bo'yoqlar, momiqlar, yasama sochlar sochilib yotar, pushti rang upa har turli bo'yoqlarning qoldig'i qotib yotardi.

– Bugun biz gvardiyachilar ta'qibidan qochdik, – deb gap boshladi masxaraboz. – Bilasizmi, gimnastikachi Tibul bizning aktyorimiz edi. Gvardiyachilar bizni qo'lga olmoqchi bo'lishdi: chunki ular, Tibulni yashirib qo'yishgan deb, shubhalanishyapti bizdan.

Keksa masxaraboz juda g'amgin ko'rinardi.

– Lekin gimnastikachi Tibulning qayerdaligini o'zimiz ham bilmaymiz. Uni o'ldirishgan yo bo'lmasa, temir qafasga qamab qo'yishgan bo'lsa kerak.

Masxaraboz og'ir xo'rsinar va oppoq sochli boshini sarak-sarak qilardi. Qafasda yotgan hayvon mushuknikiga o'xshagan ko'zlarini doktorga tikib yotardi.

– Afsuski, siz uyimizga juda kech tashrif buyurdingiz, – derdi masxaraboz. – Biz sizni judayam yaxshi ko'ramiz. Siz bizga tasalli berib, ko'nglimizni yupatsangiz bo'lardi. Bilamiz, siz g'ariblarning, kambag'al xalqning do'stisiz. Men sizga bir voqeani eslatmoqchiman. Bir kun biz Buqa Jigari bozorida tomosha ko'rsatayotgan edik. Bu o'tgan yili bahor pallasida bo'lgan edi. Mening qizalog'im qo'shiq aytayotgan edi...

– Ha, ha... – deb xotirlay boshladi doktor. Birdan u butun vujudi bilan alomat bir tarzda hayajonlana boshladi.

– Esingizdami? O'shanda siz ham bozorda edingiz. Siz ham spektaklimizni tomosha qilayotgan edingiz. Mening qizalog'im, qorni katta

boyning oshqozoniga tushgandan ko'ra, kuyib ketishni afzal ko'rgan somsa haqida qo'shiq aytgan edi...

– Ha, ha... esimda... Xo'sh!

Bir aslzoda kampir bu qo'shiqni eshitib qattiq ranjidi. U o'zining burundor xizmatchilariga qizalog'imning qulog'ini burab qo'yishni buyurdi.

– Ha, esimda. Men o'rtaga tushgan edim. Xizmatkorlarni haydab yuborgan edim. Xonim meni tanib, keyin uyalib ketgan edi. To'g'rimi?

– Ha. Keyin siz jo'nab ketdingiz, o'shanda qizalog'im, agar aslzoda kampirning xizmatkorlari qulog'imni burashganida bormi, ortiq bu dunyoda yashay olmagan bo'lar edim, devdi... Uni siz o'limdan qutqarib qoldingiz. Qizalog'im bu yaxshiligingizni hech qachon unutmaydi!

– Hozir qayerda o'sha qizalog'ingiz! – deb so'radi doktor, u judayam qattiq hayajonlana boshlagan edi.

Shunda kekxa masxaraboz mato parda oldiga borib qizini chaqirdi. U juda alomat ismni aytdi, u go'yo ochilishi qiyin bo'lgan doira shaklidagi kichkinagina yog'och qutichani ochganday, ikkitagina tovush chiqardi:

– Suok!

Oradan bir necha soniya o'tdi. Keyin parda ko'tarilib, paxmoq sochli boshini xiyolgina egib bir qizcha mo'raladi. U qo'yko'zlarini doktorga diqqat bilan tikib, xiyol pastdan yuqoriga mug'ambirona boqib turardi.

Doktor boshini ko'tarib qaradi-yu, hang-mang bo'lib qoldi: bu vali-ahd Tuttining qo'g'irchog'i edi!



UCHINCHI QISM

SUOK

VIII BOB. KICHIK AKTRISANING BIR OG'IR ROLI

Ha, bu o'sha edi!

Lekin, jin urgur qayoqdan paydo bo'lib qoldi bu yerda? Nima balo, mo'jizami? Iye, nimasi mo'jiza bo'larkan? Doktor Gaspar mo'jizaning yo'q narsa ekanligini yaxshi bilardi. Bu – shunchaki ko'zbo'yamachilik, degan qarorga keldi u nihoyat. Qo'g'irchoq aslida tirik bo'lgan – u doktor izvoshda bexosdan uxlab qolganida, quloqsiz qizlarga o'xshab qochib ketgan.

– Odobdanmas bunaqa qilish! Siz xushomadgo'ylik qilib qancha jilmaymang, baribir, bu bilan aybingizni yumshatolmaysiz. – dedi doktor jiddiy ohangda. – Ko'rdingizmi, taqdir sizdan o'ch oldi. Mana men sizni, baribir topib oldim, topganimdayam, mutlaqo xayolimga kelmagan joydan topib oldim.

Bu gapdan qo'g'irchoq hang-mang bo'lib, baqrayib qoldi. Keyin kichkina quyon bolasiga o'xshab ko'zlarini pirpirata boshladi va xuddi merov odamdek masxaraboz Avgust tomonga qaradi. Avgust xo'rsinib qo'ydi.

– Siz kimsiz o'zi, ochiq gapiring!

Doktor imkoni boricha badjahloq ovoz chiqardi. Lekin qo'g'irchoq shunaqayam istarasi issiq ediki, undan sirayam achchiqlanib bo'lmas edi.

– Ana, ko'rdingizmi, – dedi qo'g'irchoq, – siz meni esingizdan chiqarib qo'yibsiz. Men Suokman.

– Su-ok... – deya takrorladi doktor. – Axir siz valiahd Tutting qo'g'irchog'isiz-ku!

– Qanaqa qo'g'irchoq yana! Men oddiy bir qiz bolaman...

– Nima?.. Siz ko'zbo'yamachilik qilyapsiz!

Qo'g'irchoq pardadevor orqasidan chiqdi. Chiroq uni endi boshdan oyoq yoritib turardi. U sochlari hurpaygan boshini yelkalari ichiga olib,

jilmayib turardi. Uning sochi mayda qushchalarning kulrang patlari rangida edi.

Qafas ichida yotgan tuklari hurpaygan boyagi hayvon qo'g'irchoqqa judayam diqqat bilan tikilardi.

Doktor Gaspar tamomila esankirab qolgan edi. Yana biroz vaqtdan keyin kitobxon barcha sirni bilib oladi. Lekin hozir biz kitobxonni juda muhim bir vaziyat haqida ogohlantirib qo'ymoqchimizki, bu vaziyat doktor Gaspar Amerining sinchkov nazaridan chetda qolgan edi. Kishi qattiq hayajonlangan paytlarida, agar kattalar ta'biri bilan aytsek, shundoqqina tumshug'i ostidagi narsani ham payqamas ekan.

Mana sizga o'sha vaziyat: qo'g'irchoqning qiyofasi hozir bu yerda, sayyor teatr aravasida, avvalgi qiyofasidan mutlaqo boshqacha edi.

Uning qo'yko'zlari hozir sho'x chaqnardi. U jiddiy va sergak ko'rinardi, ayni paytda avvalgi ma'yusligidan asar ham qolmagan edi. Aksincha, siz uni ko'rganingizda, o'zini sipo qilib ko'rsatishga urinuvchi to'polonchi qiz, deb o'ylaringiz.

Endi bu yog'ini eshiting. Bu qo'g'irchoqning avvalgi xushbichim pushti rang shohi ko'ylagi, zarrin gullar, to'r hoshiyalar, pistonlar bilan bezatilgan kiyim boshlari qayoqqa g'oyib bo'libdi – axir unday afsonaviy kiyim-boshni kiygan har qanday qizcha malika darajasiga yetmagan taqdirda ham, har holda archaga bezak bo'lishga arzirdi-ku! Lekin siz bu qo'g'irchoqni hozir g'aribona kiyingan deb faraz qiling. Uning egni-da havorang yoqali matroscha bluzka, oyog'idagi ancha eskirgan tuflisi kulrang tusga kirgan va endi oqarishi mushkul edi. U sarpoychang edi. Mana shu odmi kiyimlar qo'g'irchoqning husnini yo'qotgan bo'lsa kerak, deb aslo o'ylamang. Aksincha, bu kiyimi uning o'ziga judayam yarashgan edi. Shunaqa juldurvoqi qizlar bo'ladi: avvaliga unga qayrilib ham qaraging kelmaydi, keyinchalik unga diqqat bilan yaxshilab tikilib qaraganingda esa mana shunaqa juldurvoqi qiz hatto malikadan ham azizroq ekanligiga iqror bo'lasan: ayniqsa, malikalarning qurbaqaga yo qurbaqaning malikaga aylanib turishini bilganingdan keyin.

Lekin eng muhim gap bu yoqda: esingizda bo'lsa, valiahd Tutting qo'g'irchog'i ko'ksida dahshatli jarohatlar bor edi. Endi bo'lsa, ular g'oyib bo'libdi.

Biram sog'lom, xushchaqchaq bo'libdiki, asti qo'yaverasiz.

Lekin doktor Gaspar bu o'zgarishlarning birontasini ham payqamadi. Ehtimol u yana bir daqiqadan keyin hamma gapni fahmlab olgan

bo'larmidi; afsuski, xuddi shu keyingi daqiqada kimdir eshikni taqillatib qolsa bo'ladimi. Ana shunda ish yana besh battar chalkashib ketdi. Sayyor teatr aravasiga negr kirib keldi.

Qo'g'irchoq chinqirib yubordi. Qafas ichidagi jonivor – mushuk emas, balki qandaydir ancha murakkab hayvon – pishqirib qo'ydi. Negrning kimligini-ku, siz bilan biz endi yaxshi bilamiz-a. Buni doktor Gaspar ham bilardi, chunki bu negrni uning o'zi eng oddiy Tibuldan yasagan edi. Biroq bu sirdan boshqa hech kimning xabari yo'q edi-da.

Ular sarosimaga tushib, besh daqiqacha esankirab turib qolishdi. Negr o'zini judayam beadab tutdi. U qo'g'irchoqning ikki qo'ltig'i tagidan olib, balandga ko'tardi va uning yuzidan, burnidan to'xtovsiz o'paverdi, holbuki qo'g'irchoq burun va yuzini shu qadar jadallik bilan negrdan olib qochishga harakat qilardiki, uni o'pmoqchi bo'lgan negrni ip uchiga bog'langan olmani tishlamoqchi bo'lgan odamga qiyos qilish mumkin edi.

Keksa Avgust ko'zlarini chirt yumib oldi va qo'rquvdan dovdirab qolib, jinoyatchining boshini kundaga qo'yib chopsammikin yo tirik kalamushni tuzlamay yeyishga majbur qilsammikin, degan jumboqni hal qilayotgan xitoy imperatoriga o'xshab chayqalib o'tiraverdi.

Qo'g'irchoqning oyog'idagi tufli uchib borib chiroqqa tegdi. Chiroq ag'darilib tushdi va lip-lip qilib so'ndi. Hamma yoq qop-qorong'i bo'lib qoldi. Bu yerni qoplagan dahshatning nihoyasi yo'q edi. Shunda hamma g'ira-shira tong ota boshlaganini ko'rdi. Devor tirqishlari oqarib ko'rina boshlagan edi.

– Ana, tong ham otdi, – dedi doktor Gaspar, – men hozir Uch Baqaloq saroyiga valiahd Tuttining qo'g'irchog'ini olib borishim kerak.

Negr eshikni itarib ochdi. Ko'chadagi g'ira-shira yorug'lik ichkarini ham xiyol yoritdi. Masxaraboz boyagi-boyagiday o'tirar, uning ko'zlari hamon yumuq edi. Qo'g'irchoq esa parda devor orqasiga yashiringan edi.

Doktor Gaspar Tibulga ahvolni shosha-pisha tushuntirdi. U valiahd Tuttining qo'g'irchog'i haqidagi hamma gapni, uning avvaliga qanday g'oyib bo'lganini, keyin esa mana shu sayyor teatr aravasida, doktorning baxtiga, yana sog'-salomat topilgani to'g'risida mufassal so'zlab berdi.

Lekin bu gaplarni parda orqasida turib eshitayotgan qo'g'irchoq hech nimaga tushunmasdi.

«Bu chol negmi Tibul deb chaqiryapti, – deb hayron bo'lardi qo'g'irchoq. – Axir u qanaqasiga Tibul bo'lsin? Qo'rqinchli negr-ku. Tibul qorabadan emas, u chiroyli, oppoq...»

Shunda u parda orqasidan bir ko'zi bilan mo'ralay boshladi. Negr qizil ishtonining cho'ntagidan cho'zinchoq bir shisha oldi, uning qop-qog'ini ochgan edi, shishadan xuddi chumchuqnikiga o'xshash chirqillagan ovoz chiqdi, keyin u mana shu shishadan o'z ustiga qandaydir suyuqlik quya boshladi. Bir zumdan keyin mo'jiza sodir bo'ldi. Negrning qorasi ketib oqardi va chiroyli yigit bo'lib qoldi. Endi hech qanday shubha qolmagan edi. Bu Tibul edi!

– Ura! – deb chinqirib yubordi qo'g'irchoq va parda orqasidan otilib chiqib, to'g'ri Tibulning bo'yniga osilib oldi.

Hech nimani ko'rmagan masxaraboz, qandaydir juda dahshatli voqea yuz berdi deb o'ylab, o'tirgan yeridan yiqilib tushdi-da, qimir etmay yotaverdi. Tibul uni ishtonidan tortib o'rnidan turg'izdi.

Endi qo'g'irchoq Tibulni o'z ixtiyori bilan o'pa boshlagan edi.

– Voy, qanday yaxshi! – derdi u suyunganidan terisiga sig'may. – Qanday qilib qop-qora bo'lib olgan edingiz? Men sizni tanimadim.

– Suok! – dedi Tibul jiddiy ohangda.

Suok shu zahoti Tibulning keng ko'ksidan sakrab tushdi va uning ro'parasida xuddi intizomli askardek qaddini adl tutib turdi.

– Nima? – deb so'radi Suok xuddi maktab o'quvchisidek. Tibul qo'lini uning paxmoq sochli boshiga qo'ydi. Suok baxtiyor qo'yko'zlarini pastdan unga tikdi.

– Doktor Gasparning aytganlarini eshitdingmi?

– Ha, Uch Baqaloq unga valiahd Tuttining qo'g'irchoq'ini tuzatishni buyurishibdi. Doktorning aytishicha, o'sha qo'g'irchoq izvoshdan qochib ketganmish. U meni o'sha qo'g'irchoq deb o'ylayapti.

– Doktor Gaspar yanglishyapti, – dedi Tibul. – Doktor Gaspar, bu qo'g'irchoq emas, mening gapimga ishonavcring. Bu mening kichkina do'stim, bu qizcha – raqqosa Suok, sirk tomoshalarimizda mening sodiq do'stim.

– To'g'ri! – deb suyunib ketdi qo'g'irchoq. – Biz axir ular bilan necha-necha martalab sim dor ustida yurganmiz.

Tibul uni o'zining sodiq do'sti deb ataganidan qizcha judayam xursand bo'lib ketgan edi.

– Akajon! – deb pichirladi u va yuzini Tibulning qo'liga suykab erkalandi.

– Nima? – deb qayta so'radi doktor. – Nahotki bu tirik qizcha bo'lsa, Suok deb aytdingizmi?.. Ha! Ha! Gapingiz to'g'ri! Men endi aniq ko'rib turibman. Esimga tushyapti. Axir men bu qizchani kunlardan bir kun o'z ko'zim bilan ko'rganman. Ha... Ha... Axir bu qizchani kaltaklashmoqchi bo'lgan bir kampirning xizmatkorlaridan qutqarib qolgan edim-ku!

Shu gaplarni aytib doktor hatto kaftini kaftiga urib qo'ydi.

– Ha-ha-ha! Ha-da, albatta. Valiahd Tuttining qo'g'irchog'i shuning uchun ham menga juda tanishdek ko'ringan ekan. Bu endi o'ta antiqa o'xshashlik yoki fan tili bilan aytganda fenomen¹.

Hamma narsa oydinlashib, odamlarning ko'ngli joyiga tushdi.

Tong ancha yorishib qolgan edi. Uy orqasida xo'roz xuddi ingraganday qichqirdi.

Shu payt doktor yana g'amga toldi.

– Ha, bu hammasi yaxshiku-ya. Lekin valiahd Tuttining qo'g'irchog'i qo'limda yo'q, bu, demak, qo'g'irchoqni yo'qotib qo'yganim rost...

– Demak, siz u qo'g'irchoqni topdingiz, – dedi Tibul qizchani bag'riga bosa turib.

– Qanday qilib?

– Shunday. Sen gapimga tushunyapsanmi, Suok?

– Tushunayotgandayman, – ohista javob qildi Suok.

– Xo'sh? – deb so'radi Tibul.

– Albatta, – dedi qo'g'irchoq va jilmayib qo'ydi.

Doktor hech narsaga tushunmay turardi.

– Yakshanba kunlari olomon oldida tomosha ko'rsatgan paytlarimizda senga nima deb aytardim, esingdami? Sen olachipor ko'prikcha ustida turarding. Men: «*Alle!*» – derdim, shunda sen sim dor ustidan yurib, men tomon kela boshlarding. Men seni doring o'rta belida odamlardan judayam balandda kutib turardim. Men bir tizzamni senga tutib, yana: «*Alle!*» – derdim, sen bo'lsang, tizzamga oyoq qo'yib chiqib, undan yelkamga ko'tarilarding... Sen qo'rqarmiding o'shanda?

– Yo'q. Siz menga: «*Alle!*» – derdingiz, demak men xotirjam bo'lishim va hech nimadan qo'rqmasligim kerak edi.

¹ *Fenomen* – hayotda juda kam uchraydigan, favqulodda hodisa.

– Ana, ko'rdingmi, – dedi Tibul, – men endi ham senga: «*Alle!*» – deyman. Sen qo'g'irchoq bo'lasan.

– Men qo'g'irchoq bo'laman?

– U qo'g'irchoq bo'ladi? – deb so'radi doktor Gaspar.

– Buni qanday tushunish kerak.

O'ylaymanki, kitobxon, siz bunga tushungan bo'lsangiz kerak! Siz doktor Gasparchalik qattiq hayajonlanmagansiz va hayratlanmagansiz, shuning uchun unga nisbatan xotirjamroqsiz va bo'layotgan voqeaning tezroq fahmiga yetasiz.

O'zingiz o'ylab ko'ring: doktor shuncha mahaldan beri durustgina uxlab olmagan edi. Lekin uning jismonan baquvvat ekanligiga shundoq ham ajablanmay ilojimiz yo'q.

Xo'roz ikkinchi marta qichqirib ulgurmasdan hamma gap kelishib olingan edi. Tibul qilinadigan ishning batafsil rejasini tuzib chiqdi.

– Sen, Suok, artistsan. O'ylaymanki, hali yosh bo'lishingga qaramay, yomon artist emassan. Bahorda bizning sayyor teatrimizda «Ahmoq qiro'l» degan pantomima¹ qo'yganimizda sen Oltin Kosov rolini juda yaxshi ijro etgan eding. Keyin balet tomoshasida sen ko'chirma suratni tasvirlagan eding, yana tegirmonchining choynakka aylanib qo'lishini juda ustalik bilan tasvirlagan eding. Sen hammadan yaxshiroq raqsga tushasan, eng yaxshi ashulachisan, buning ustiga farosating ham juda o'tkir, eng muhimi – sen dovyurak va idrokli qizchasan.

Baxtiyor Suok qizarib ketdi. U bu maqtovlardan o'ng'aysizlana boshladi.

– Qisqasi, valiahd Tuttining qo'g'irchog'i rolini ijro etishing kerak bo'ladi.

Suok suyunganidan chapak chalib yubordi va hammani: Tibulni, keksa Avgustni, doktor Gasparni bir-bir o'pib chiqdi.

– Shoshilma, – deb gapida davom etdi Tibul, – bu hali hammasi emas. O'zing bilasan: qurolsoz Prospero Uch Baqaloq Qasrida temir qafasda yotibdi. Sen uni qutqarishing kerak bo'ladi.

– Qafasni ochamanmi?

– Ha. Men bir sirni bilaman, bu sir Prosperoning saroydan qochib chiqib ketishiga imkon beradi.

¹ *Pantomima* – imo-ishora va harakat bilan namoyish qilinadigan so'zsiz tomosha.

– Sir?

– Ha. U yerda yerosti yo‘li bor.

Shunda Tibul sharfurush amaki haqida bir boshdan gapirib berdi.

– Bu yerosti yo‘li allaqanday kastruldan boshlanar ekan – saroy oshxonasidan boshlansa ajab emas. Sen shu yo‘lni topasan.

– Xo‘p.

Hali oftob chiqqanicha yo‘q edi, lekin qushlar allaqachon uyg‘onishgan, sayyor teatrning ochiq eshigidan ko‘rinib turgan maysazordagi ko‘katlar yam-yashil rangga kirgan edi.

Kun yorishishi bilan qafas ichida yotgan sirli hayvon oddiy bir tulki bo‘lib chiqdi.

Vaqtni o‘tkazmaylik! Hali olis yo‘l bosishingiz kerak.

Doktor Gaspar esa:

– Endi siz o‘z ko‘ylaklaringiz orasidan eng chiroyligini tanlashingiz kerak bo‘ladi, – dedi...

Suok o‘zining hamma kiyim-boshlarini ko‘tarib kirdi. Ular juda ham bashang kiyimlar edi, ularning hammasini Suokning o‘zi tikkan edi. Barcha iste‘dodli artistlarga o‘xshab, Suok ham o‘tkir didli qiz edi.

Doktor Gaspar rang-barang kiyimlar uyumini uzoq titdi.

– Hay, durust, – dedi u nihoyat, – menimcha, mana bu ko‘ylak ma‘qul tushadi. Mayib qilingan qo‘g‘irchoqning ko‘ylagidan sira qolishmaydi. Qani, kiyib ko‘ring-chi!

Suok kiyindi. U sayyor teatrning qoq o‘rtasida, endi bosh ko‘tarib chiqayotgan quyosh shu‘lasida shunaqangi bashang bo‘lib ko‘rindiki, dunyoda bironta qiz hatto o‘zining tug‘ilgan kunida ham bunchalik go‘zal bo‘la olmas edi. Ko‘ylak pushti rangda edi. Suok biron harakat qilgudek bo‘lsa, ko‘ylagi hilpirab, go‘yo oltin yomg‘ir yog‘ayotganday bo‘lib tuyulardi. Ko‘ylak yaltirar, shitirlar va xushbo‘y is taratardi.

– Men tayyorman, – dedi Suok.

Xayrlashuv atigi bir daqiqa davom etdi. Sirkda tomosha ko‘rsatuvchi odamlar ko‘z yosh to‘kishni yoqtirmaydilar. Chunki ular muttasil o‘lim xavfi ostida yashaydilar. Undan tashqari, Suokning egnidagi ko‘ylakni g‘ijimlab qo‘ymaslik uchun ham unchalik mahkam quchoqlashib xayrlashib bo‘lmas edi.

– Tezroq eson-omon qaytib kel! – dedi keksa Avgust va og‘ir xo‘rsinib qo‘ydi.

– Men bo‘lsam ishchi mahallalariga boraman. Biz o‘z kuchlarimizni sarhisob qilishimiz kerak. Meni ishchilar kutishyapti. Ular mening tirik va ozodlikda ekanligimni eshitishdi.

Tibul shu gapni aytib bo‘lib, plashiga o‘randi, ayvoni keng shlapasini bostirib kiydi, ko‘ziga qora ko‘zoynak taqdi va burni ustiga kattakon yasama burun qo‘ndirdi – bu burun «Qohiraga yurish» pantomimasida podsho obrazi uchun hozirlangan edi.

Bunday qiyofada uni tanib bo‘lmasdi, albatta. To‘g‘ri, kattakon burun uni badbashara qilib qo‘ygan edi, ammo tanib bo‘lmasdi.

Keksa Avgust ostonaga chiqib turdi. Doktor, Tibul va Suok sayyor teatrdan tushishdi.

Kun yoyilib ketgan edi.

– Tezroq! Tezroq! – deb shoshirardi doktor.

Yana bir daqiqadan keyin u Suok bilan birga izvoshda o‘tirardi.

– Siz qo‘rqmaysizmi? – deb so‘radi doktor.

Suok javob berish o‘rniga jilmayib qo‘ydi. Doktor uning peshonasidan o‘pdi.

Ko‘chalar hali bo‘m-bo‘sh edi. Odamlar ovozi ahyon-ahyonda qu-loqqa chalinardi. Lekin shu mahal bir itning baralla vovullagani eshiti-lib qoldi. Keyin o‘sha it xuddi birov uning suyagini tortib olayotganday angillab, irillay boshladi.

Doktor izvosh darchasidan mo‘raladi.

Tasodifni qarangi, bu polvon Lapitupni qopib olgan o‘sha it edi! Bu hali hangomaning hammasi emas.

Doktor yana shu narsaning guvohi bo‘ldi. It bir odam bilan olishayotgan edi. Egniga juda bejirim, lekin alomat kiyim kiygan naynov va qiltiriq, boshi mushtumdekkina keladigan xuddi chigirtkaga o‘xshab ketuvchi bu odam itning og‘zidan qandaydir pushti rang, chiroyli, ammo nimaligi noma‘lum bir narsani yulqib olayotgan edi. Har tomon-ga pushti rang latta parchalari sochilardi.

Axiyri odam ustun chiqdi. U o‘ljani itning og‘zidan tortib oldi va uni bag‘riga bosgancha, doktor Gaspar kelayotgan tomonga g‘izillab yugurib ketdi.

U odam izvosh bilan to‘qnashgan chog‘da, doktorning orqasidan mo‘ralab turgan Suokning ko‘zi dahshatli bir narsaga tushdi. Alomat odam yugurayotgani yo‘q edi, balki xuddi balet o‘yinchisi singari oyoq uchlari yerga tegar-tegmas nazokat bilan sakrab-sakrab borardi. Egni-

dagi yashil frakning etagi xuddi shamol tegirmon qanotlari singari orqasidan yelpinib borardi. Uning qo'lida esa... ko'kragi jarohatdan ilmatshik bo'lib ketgan qizcha bor edi.

– Iye, menman-ku! – deb chinqirib yubordi Suok.

U izvoshning bir burchagiga suqilib olib, yuzini duxoba yostiqla bilan berkitib oldi.

Yugurib ketayotgan odam Suokning chinqirgan ovozini eshitib, izvosh tomonga o'girildi, ana shundagina doktor bu odamning raqs muallimi Bir-ikk-uchs ekanligini tanidi.

IX BOB. ISHTAHASI YAXSHI QO'G'IRCHOQ

Valiahd Tutti shiyponda turardi. Geografiya o'qituvchisi esa durbin orqali tikilardi. Valiahd Tutti kompas olib kelishlarini talab qilardi. Lekin buning hech hojati yo'q edi.

Valiahd Tutti qo'g'irchoqni olib kelishlarini kutayotgan edi.

U qattiq hayajonlanganidan bugun kechasi bilan mast uyquda qotib uxlab, shirin tush ko'rib chiqqan edi.

Shahar darvozasidan Qasrga keladigan yo'l bu yerdan yaqqol ko'zga tashlanib turardi. Shahar uzra ko'tarilgan quyosh shu'lasi olisni ko'rishga xalaqit qilardi. Valiahd Tutti kaftini ko'ziga soyabon qilib turarkan, burni qichib aftini bujmaytirar va aksa urish mumkin emasligidan afsuslanardi.

– Hali hech kim ko'rinmayapti, – derdi geografiya o'qituvchisi. Bu odam o'z mutaxassisligi bo'yicha fazo, ufq, harakat qiluvchi nuqtalar va hokazolarga hammadan yaxshiroq tushunardi. Shuning uchun ham bunday mas'uliyatli ishni unga topshirishgan edi.

– Balki ko'rinayotgandir? – deb tixirlik qilardi Tutti.

– Men bilan bahslashmang. Menda durbindan bo'lak yana bilim, buyumlar haqida aniq tasavvur bor. Men yasmin butasini ko'ryapman, bu o'simlikning oti lotin tilida judayam chiroyli, ammo esda saqlab qolish qiyin. Undan narida ko'priklarni, gvardiyachilarni ko'ryapman, ular atrofida kapalaklar uchib yuribdi, undan u yog'iga yo'l cho'zilib ketgan... Afv etasiz! Afv etasiz!..

U durbinni buray boshladi. Valiahd Tutti oyoq uchiga turdi. Uning yuragi xuddi dars tayyorlamagan paytidagidek dukillab, nafasi halqumiga tiqildi.

– Ha, – dedi o'qituvchi.

Xuddi shu mahal uch nafar otlıq Qasr bog'i tomondan yo'l tomon yura boshladi. Bu kapitan Bonaventura bilan ikki soqchi edi, ular yo'lda ko'ringan izvosh tomon ot choptirib ketishdi.

– Ura! – deb valiahd shunaqa qattiq chinqirdiki, hatto olis qishloqlardagi g'ozlar eshitib, «g'a-g'a»lab yuborishdi.

Pastda shiypon ostida gimnastika o'qituvchisi, mabodo valiahd qattiq suyunganidan shiypon to'sig'i osha pastga yiqilib tushgudek bo'lsa, uni ilib olishga shay bo'lib turardi.

Shunday qilib, doktor Gasparning izvoshi Qasr tomon uchib kelardi. Uni ko'rish uchun endi durbinning ham, geografiya o'qituvchisi ilmiy mulohazalarining ham keragi yo'q edi. Izvoshni ham, unga qo'shilgan oq otni ham endi hamma ko'rib turardi.

Baxtli daqiqa! Izvosh eng so'nggi ko'prik oldida to'xtadi. Gvardiyachi soqchilar chetlanib, unga yo'l ochdilar. Valiahd ikkala qo'lini silkib dik-dik sakrarkan, oltinrang soch tolalari silkinardi. Mana u nihoyat muhim narsani ko'rdi: kichkinagina bir odam chollarga o'xshab inqillab-sinqillab izvoshdan tushdi. Gvardiyachilar shamshirlari bandidan ehtirom bilan ushlab, chest berishgancha sal nariroqda turishardi. Kichkina odam izvoshdan ajoyib qo'g'irchoqni oldi, u yangi uzilgan, tasmalar bilan bog'langan bir dasta atirgulga o'xshardi.

Bu manzara zangori tusga kirayotgan ertalabki osmon ostida, yal'yal tovlanayotgan o't-o'lanlar va oftob shu'lasida g'oyatda jozibali ko'rinardi.

Yana bir daqiqadan keyin qo'g'irchoq Qasr ichida paydo bo'ldi.

Uchrashuv quyidagicha yuz berdi.

Qo'g'irchoq birovning yordamisiz o'zi yura boshladi.

O, Suok o'z rolini juda yaxshi ijro etayotgan edi! Mabodo u haqiqiy qo'g'irchoqlar davrasiga tushib qolgandami, qo'g'irchoqlar uni ham o'z toifasidan deb tan olgan bo'lardilar.

Suok xotirjam edi. Chunki u o'z rolini yaxshi ijro etayotganini sezardi.

«Bundan ham og'ir ishlar bo'ladi, – deb o'ylardi u, – masalan, yonib turgan chiroq bilan jonglorlik qilish yoki havoda ikki marta o'mbaloq oshib tushish...»

Lekin Suok sirkda unisini ham, bunisini ham juda ko'p marta bajorgan edi.

Xullas, Suok hozir ham qo'rqmayotgan edi. Bu o'yin unga hatto xush yoqayotgan edi. Lekin doktor Gaspar uncha-muncha bezovta bo'layotgan edi. U Suokning ketidan borardi. Suok xuddi balerinadek oyoq uchida mayda-mayda qadam tashlab yurardi. Egnidagi ko'ylagi hilpirar, shitirlardi.

Bog'et pol yaraqlaydi. Suokning polga tushayotgan aksi xuddi pushti rang bulutga o'xshab ko'rinadi. Bu zallar bog'et polning yaraqlashidan judayam baland, ko'zgu oynalarining ko'pligidan esa shunaqangi keng bo'lib ko'rinardiki, bu hashamatli joyda Suok yanayam kichkina bo'lib qolgan edi.

Bu manzarani kuzatgan odam, ulkan va sokin ko'l sathida jajjigina gul savatchasi suzib yuripti, deb o'ylashi mumkin edi.

Suok soqchilar yonidan, unga mahliyo bo'lib baqrayib turgan charm va temir sovut kiygan odamlar yonidan, o'z umrlarida birinchi marta jilmayayotgan mansabdorlar yonidan xushchaqchaq tabassum bilan o'tib borardi.

Ular Suokka yo'l bo'shatishardi, go'yo u o'z huquqini qo'lga olayotgan bu Qasrning hokimasi edi.

Shu mahal saroyga shunday sukut cho'kdiki, Suokning bamisoli gul bargi yerga tushganda chiqadigan sasdek mayin qadam tashlashi ham eshitila boshladi.

Yuqoridan, rosa keng zinadan esa xuddi Suok singari kichkinagina va yasangan valiahd Tutti qo'g'irchoq istiqboli sari tushib kela boshladi.

Ularning bo'ylari bab-baravar edi.

Suok to'xtadi.

«Valiahd Tutti hali shu ekan-da!» deb o'yladi u ichida. Ozg'ingina, qo'yko'z va biroz ma'yus qiyofadagi bola sochlari paxmaygan boshini xiyol egib Suok qarshisida turardi, u ko'rinishidan qaysar qizchaga judayam o'xshab ketardi.

Suok Tuttining kimligini bilardi. Suok Uch Baqaloqning ham qanaqa odamlar ekanligini bilardi. Uch Baqaloq mamlakatdagi qashshoq va och-yalang'och xalqning mehnati bilan topilgan barcha temir, barcha ko'mir, barcha g'allani tortib olishgan edi. Suok bir paytlar o'z malaylarini unga gijgijlagan aslzoda kampimi ham unutmagan edi. Bular hammasining urug'i bir ekanligini Suok yaxshi bilardi: Baqaloqlar, asl-

zoda kampirlar, oliftalar, baqqollar, gvardiyachilar – xullas, quolsiz Prosperoni temir qafasga solib qo‘ygan va uning do‘sti gimnastika-chi Tibulni izlab yurgan odamlarning hammasi bir toifadan ekanligini Suok juda yaxshi bilardi.

U saroyga borayotganida valiahd Tutti ko‘zimga o‘sha aslzoda shum kampirga o‘xshab jirkanch bo‘lib ko‘rinsa kerag-u, faqat bir jihatdan – uzun va bigizdek ingichka qizil tili doim osilib turishi bilan – kampirdan farq qilsa kerak, deb o‘ylagan edi.

Lekin Tuttini ko‘rganida qizcha undan aslo jirkanmadi: aksincha, Tuttini ko‘rib hatto ko‘ngli birmuncha yorishib ketdi.

Suok bu bolaga sho‘x qo‘yko‘zlarini tikib turardi.

– Bu senmisan, qo‘g‘irchoq? – deb so‘radi valiahd Tutti qo‘llarini cho‘zib.

«Nima qilsam ekan? – deb qo‘rqib ketdi Suok. Qo‘g‘irchoqlar gapirmaydi-ku! Voy, meni ogohlantirishmagan ekan-u!.. Gvardiyachilar qiymalab tashlagan oldingi qo‘g‘irchoq o‘zini qanday tutgani menga noma‘lum...»

Lekin shu choq doktor Gaspar gapga aralashib, qizchani mushkul ahvoldan qutqardi.

– Valiahd janoblari, – dedi u tantanali ohangda, – men qo‘g‘irchog‘ingizni davolab tuzatdim. Ko‘rib turibsizki, uni tiriltiribgina qolmay, yana unga g‘oyatda ajib hayot baxsh etdim. Qo‘g‘irchoq, shubhasiz, chiroyli bo‘lib ketdi, undan keyin, u yangi juda go‘zal ko‘ylak kiydi va nihoyat, eng muhimi – men qo‘g‘irchog‘ingizni gapiradigan, qo‘shiq aytadigan hamda raqs tushadigan qildim.


– Qanday yaxshi! – ohistagina dedi valiahd.

«O‘zimni ko‘rsatadigan payt keldi», deb o‘yladi Suok.

Ana shundan keyin Brizak amakining sayyor truppasida xizmat qilgan kichkina aktrisa yangi sahnada birinchi marta yangi rol o‘ynay boshladi.

Bu sahna Qasrdagi eng katta zal edi. Bu yerga juda ko‘p tomoshabin to‘plangan edi. Ular hamma yerga: zina boshlariga, yo‘laklarga, boloxonalarga tiqilib ketishgan edi. Ular doirasimon derazalardan kirishar, balkonlarni to‘ldirishar, yaxshiroq ko‘rish va eshitish uchun ustunlarga tirmashib chiqishardi.

Oftobning charog‘on shu‘lasida odamlarning son-sanoqsiz boshlari va rang-barang yelkalari yal-yal tovlanardi.



Tirjaygan, jilmaygan behisob chehra va basharalar Suokka tikilib turishardi.

Tarvaqaylagan panjalaridan xuddi daraxt yelimidek qizil sharbat yoki jigarrang yog' chak-chak tomayotgan oshpazlar; xo'roz qiyofasiga kirgan maymunlarga o'xshab ketuvchi rang-barang, guldor mundirlar kiygan Ministrlar; tor-tor frak kiygan kichkina va lo'ppigina musiqa-chilar; saroy xonimlari va kibor yigitlar; bukur doktorlar-u, burni uzun olimlar; sochlari hurpaygan yugurdak malaylar; yasan-tusanda Ministrlardan qolishmaydigan saroy a'yonlari...

Mana shu odamlarning hammasi yopishib, tirmashib olish mumkin bo'lgan hamma yerga xuddi pashshadek yopishib olishgan edi.

Hamma jim edi. Hamma odamlar nafaslarini ichlariga yutib bu jaj-jigina pushti rang vujudga tikilib turardilar, u esa o'n ikki yoshli qizchaga xos salobat va xotirjamlik bilan tomoshabinlarga ko'z tashlardi. U hech ham cho'chimadi. Chunki bu yerga yig'ilgan tomoshabinlar har kuni bozor maydonlarida Suokning o'yinini ko'ruvchi tomoshabinlarga o'xshash talabchan emas edilar. O, maydondagi u tomoshabinlar: bekorchilar, askarlar, aktyorlar, maktab bolalari, kichkina chayqovchi bolalar – ular judayam jiddiy tomoshabinlar edi-da! Suok hatto o'shalardan ham cho'chimas edi. Ular doim:

– Suok – dunyoda eng zo'r aktrisa!.. – deb aytishardi.

Shunday deb turib, kissalaridagi eng oxirgi chaqalarini Suok yozib qo'ygan sholchaga tashlardilar. Lekin shu chaqa ham hazilakam pul emas edi – unga jigjar somsa sotib olish mumkin ediki, bunaqa somsa paypoq to'quvchi kambag'al ayol uchun ham nonushta, ham tushlik, ham kechki ovqat o'miga o'tardi.

Shunday qilib, Suok o'zining qo'g'irchoqlik rolini chinakamiga ijro etishga kirishdi.

U oyoq uchlarini kerib, shu oyoq uchlarida turdi, tirsagidan bukilgan qo'llarini yuzigacha ko'tardi va xitoy mandariniga¹ o'xshab jimjiloqlarini o'ynatganicha qo'shiq ayta boshladi. Ayni paytda u qo'shiq ohan-giga moslab boshini goh o'ng, goh chap tomonga chayqardi.

Suok noz bilan mug'ambirona jilmayar, lekin har doim ko'zlarini hamma qo'g'irchoqlarnikiga o'xshatib katta-katta ochib turishga harakat qilardi.

¹ Mandarin – qadimgi Xitoyda katta amaldor (tarj.).

*U bunday deb qo'shiq aytardi:
 G'ayrioddiy ilm-amal bilan
 Doshqozonga purkab olovlar,
 Tiriltirdi meni daf'atan
 Doktorimiz – kuyunchak Gaspar.
 Boqqin: mana, otyapman xandon,
 Tuymoqdaman havoning totin.
 Menga qayta nisor bo'ldi jon,
 Qaytdi tag'in quvnoq hayotim.
 Umrim bo'yi senga intildim
 Va yo'llarda adashdim ko'p bor!..
 Yodingda tut: munis singlingning
 Ismi – Suok, unutmaz zinhor!
 Tag'in hayot quchdi tanimni
 Va uyquga cho'mib karaxt, lol,
 Sening men-chun yig'laganingni
 Tushlarimda ko'roldim yaqqol!
 Qara: pir-pir uchar kiprigim,
 Kokillarim o'ynadi takror.
 Yodingda tut: navnihol singling
 Ismi – Suok, unutmaz zinhor!*

– Suok, – deya ohista takrorladi Tutti. Uning ko'zlariga g'ilt-g'ilt yosh keldi, shunga ko'ra ko'zlari ikkita emas, to'rttaga o'xshab ko'rinardi.

Qo'g'irchoq qo'shig'ini aytib bo'lgach, tizzalarini bukib ta'zim qildi. Butun zal hayratga kelib, chuqur tin oldi. Hamma harakatga kelib boshlarini igr'ita, tomoqlarini taqillata boshlashdi.

Darhaqiqat, qo'shiq ohangi nihoyatda latofatli edi, garchi bunday yosh xonanda uchun bu qo'shiq bir qadar mungli bo'lsa ham, lekin qizchanning ovozi xuddi kumush yoki billur kekirdakdan chiqayotganday juda nafis jaranglardi.

Shu choq dirijorning:

– U misoli farishtadek kuyladi, – degan ovozi sukutga tolgan zalda jaranglab eshitildi.

– Faqat qo'shig'i sal alomatroq ekan, – dedi qandaydir mansabdor ordenlarini shiqillatib.

Shu bilan tanqid ham tugadi. Zalga Baqaloqlar kirib kelishdi. Shuncha odamning bir yerga to'plangani ularga xush yoqmasligi mumkin edi. Shuning uchun hamma odamlar eshiklar tomon otilishib, tarqala boshlashdi. Bu to's-to'polonda oshpaz malina sharbati yuqli panjalarini qandaydir go'zal xonimning yelkasiga muhr qilib bosib oldi. Go'zal xonim chiyillab yuborgan edi, jag'i yasama ekanligi ma'lum bo'ldi, chunki o'sha jag'i og'zidan tushib ketgan edi. Xo'ppa semiz gvardiya kapitani mana shu chiroyli jag'ni beso'naqay va qo'pol etigining poshnasi bilan bosib majaqlab yubordi.

«Qars-qurs» etgan ovoz eshitildi va bu shov-shuv qulog'iga chalingan seremoniymeyster¹ orqasiga o'girildi-da, koyinib qo'ydi.

– Bu qanday bema'nilik! Hamma yoqqa yong'oq to'kishyapti! Oyoq ostida qisirlayapti!

Jag'idan judo bo'lgan go'zal xonim dod solib chinqirmoqchi bo'ldi va hatto buning uchun qo'llarini ham ko'tardi, lekin ming afsuski, u jag'i bilan birga ovozidan ham ayrilgan edi. U faqat lablarini shapillatib allaqanday noaniq gaplarni yamlanib ayta oldi, xolos.

Bir daqiqadan keyin zalda mas'ul kishilardan bo'lak bironta ham ortiqcha odam qolmagan edi.

Mana shunda Suok bilan doktor Gaspami Uch Baqaloqqa tanishtirdilar.

Baqaloqlarning kechagi voqealardan bezovta bo'lganlari hech sezilmasdi. Ular hozirgina bog'da navbatchi vrach kuzatuvida koptok o'ynab qaytgan edilar. Bu o'yin toza havodan nafas olish maqsadida uyushtirilgan edi. Hozir ular juda charchashgan edi. Ularning ter bosgan yuzlari yiltillardi. Ko'ylaklari terlagan yelkalariga yopishib qolgan edi, ularning yelkaları esa shamol shishirgan yelkanlarga o'xshab ketardi. Baqaloqlardan birining ko'z osti ko'kargan bo'lib, mo'mataloq bo'lgan yeri xunuk bir gul yoki chiroyli qurbaqa shaklida edi. Ikkinchi Baqaloq mana shu xunuk gulga qo'rqa-pisa qarab-qarab qo'yardi.

«Anavining ko'z ostini koptok bilan ko'kartirgan mana shu bo'lsa kerak», deb o'yladi Suok.

Jabrlangan Baqaloq jaholat bilan pishillardi. Doktor Gaspar parishon holda jilmayib turar edi. Baqaloqlar churq etmasdan qo'g'irchoqni

¹ *Seremoniymeyster* – podshohlarning saroylarida o'tkaziladigan har xil marosimlarni boshqaruvchi amaldor.

ko'zdan kechirdilar. Valiahd Tutting xushchaqchaq qiyofasi Baqaloqlarning ham kayfiyatini chog' qildi.

– Xo'sh-sh, – dedi ulardan biri, – doktor Gaspar Arneri siz bo'lasizmi?

Doktor ta'zim qildi.

– Xo'sh, qalay qo'g'irchoq? – deb so'radi Ikkinchi Baqaloq.

– Judayam ajoyib! – deb yubordi Tutti.

Baqaloqlar uni hech qachon bunaqa yaxshi kayfiyatda ko'rmagan edilar.

– Juda soz! Qo'g'irchoqning ko'rinishi chindanam yaxshi...

Birinchi Baqaloq kafti bilan peshonasining terini artidi, jahl bilan tomoq qirib qo'ydi va dedi:

– Doktor Gaspar, siz bizning farmonimizni bajardingiz. Endi shu xizmatigingiz evaziga mukofot talab qilishingiz mumkin.

Oraga jimlik cho'kdi.

Boshiga malla yasama soch kiygan jikkakkina kotib doktorning tablini yozishga shaylanib patqalam ushlab turardi.

Doktor o'z iltimosini bayon qila boshladi:

– Kecha Sud maydonida isyonchilarni qatl etish uchun o'nta qatl kundasi o'rnatishdi...

– Ularni bugun qatl etishadi, – deb doktorning so'zini bo'ldi Baqaloq.

– Men ham aynan shuni nazarda tutyapman. Mening iltimosim bunday: hamma mahbuslarning jonini saqlab, ularga erk berishingizni so'rayman. Men qatl mutlaqo bekor qilinishini va o'sha qatl kundalarini yondirib yuborilishini iltimos qilaman...

Malla yasama sochli kotib bunday iltimosni eshitib, kapalagi uchib ketganidan qo'lidagi patqalamini tushirib yubordi. Uchi juda o'tkir qilib ochilgan patqalam Ikkinchi Baqaloqning oyog'iga sanchilsa bo'ladimi. U chinqirib yubordi va bir oyog'ida hakkalagancha turgan yerida chirpirak bo'lib aylana boshladi. Ko'zining osti ko'kargan Birinchi Baqaloq ichiqoralik bilan xaxolab kuldi; uning uchun qasos olingan edi.

– Padariga la'nat! – deb baqirdi Ikkinchi Baqaloq tovoniga sanchilgan patqalamni xuddi nayzadek sug'urib olarkan. – Bu qanday be'ma'nilik! Bu axir jinoiy iltimos-ku! Bunday narsalarni talab qilishga haqingiz yo'q!

Malla yasama sochli kotib qochib ketdi. U qochib keta turib turtib yuborgan guldon uning orqasidan dumalab borarkan, xuddi portlagan bombadek chil-chil bo'lib sindi. Bo'ldi to'polon, bo'ldi to'polon... Baqaloq oyog'idan sug'urib olgan patqalamni qochib ketayotgan kotibning orqasidan otdi. Lekin shunday semiz odamning yaxshi nayza otuvchi bo'lishi mumkinmidi! Patqalam borib soqchi bo'lib turgan gvardiyachining orqasiga sanchildi. Lekin u o'zining sadoqatli askar ekanligini namoyish qilish uchun qimir etmay turaverdi. To bu gvardiyachining navbatchilik muddati tugamaguncha patqalam uning nozik yeriga sanchilganча turaverdi.

– Men o'limga hukm etilgan barcha ishchilarning ozod qilinishini talab qilaman. Men qatl kundalari yondirib yuborilishni talab qilaman, – deb takrorladi doktor past ovoz bilan, ammo qat'iy ohangda.

Bunga javoban Baqaloqlar butun Qasrni boshlariga ko'tarib baqira boshladilar. Ularning baqirig'ini eshitgan odam go'yo kimdir shox sindiryapti, deb o'ylashi mumkin edi.

– Yo'q! Yo'q! Yo'q! Aslo! Ular albatta qatl etiladi!

– O'ling, – deb pichirladi shu choq doktor qo'g'irchoqqa.

Suok bu gapga darrov tushundi. U yana oyoq uchiga turdi, bir ingradi-da, gandiraklab ketdi. Uning ko'yilagi xuddi qo'lga ilingan kapalakning qanotlaridek yelpina boshladi, boshi «shilq» etib egildi, u hozir yiqilib tushishi mumkin edi.

Valiahd qo'g'irchoq tomonga tashlandi.

– Oh! Oh! – deb qichqirib yubordi u.

Suok yana ham ma'yusroq ingradi.

– Mana, – dedi doktor Gaspar, – ko'ryapsizmi? Qo'g'irchoq yana qaytadan jondan mahrum bo'lishi mumkin. Uning ichiga o'rnatilgan murvat judayam nozik. U tamomila buzilib qolishi mumkin, agar iltimosimni bajarmaydigan bo'lsanglar. Basharti valiahd janoblarning qo'g'irchog'i hech narsaga yaroqsiz bir parcha pushti rang uvadaga aylanib qolsa, ul zot xursand bo'lmasalar kerak, deb o'ylayman.

Bu gapni eshitgan valiahdning g'azabi qo'zib ketdi. U xuddi fil bolasidek yer depsina boshladi. U ko'zlarini chirt yumib olib, boshini sarak-sarak qilardi.

– Hech ham! Eshityapsizlarmi, hech ham xohlamayman! – deb chinqirardi u. – Doktorning iltimosini hoziroq bajaranglar! Men

qo'g'irchog'imni hech kimga bermayman! Suok! Suok! – U ho'ngrab yubordi.

Albatta, Baqaloqlar rozi bo'lishdi. Buyruq chiqarildi. Afv umumiy¹ e'lon qilindi. Shundan keyin baxtiyor doktor Gaspar uyiga jo'nab ketdi.

«Bir kecha-kunduz boshimni ko'tarmay uxlayman», deb o'ylardi u yo'lda keta turib.

U shaharga kirib kelishi bilan Sud maydonidagi qatl kundalari-ning yondirilayotgani va kambag'allarni qatl etish bekor qilinganidan boylarning qattiq norozi ekanligi haqidagi mish-mish gaplarni eshitdi.

Shunday qilib, Suok Uch Baqaloq Qasrida qolgan edi.

Tutti u bilan birga bog'ga chiqdi. Valiahd gullarni payhon qilib bo'rarkan, tikanli simga qoqilib ketdi, hatto hovuzga tushib ketishiga sal qoldi. Lekin u bugun shu qadar baxtiyor ediki, hech nimani payqamadi.

«Nahotki u mening tirik qiz ekanligimni tushunmayotgan bo'lsa? – deb ajablanardi Suok. – Lekin uning o'rnida bo'lganimda hech kim meni bunaqa laqillata olmasdi».

Nonushta olib kelishdi. Suok pirojniyni ko'rdi-yu, umrida faqat bir marta, o'tgan yili kuz paytida bir donagina pirojniy yeganini esladi. O'shaniyam kekxa Avgust, pirojniy emas, pryanik deb aytgan edi. Valiahd Tuttiga olib kelingan pirojniylar judayam qoyilmaqom edi. Ularni gul deb o'ylab, bir zumda o'nta asalari uchib keldi.

«Voy, endi nima qilsam ekan? – deb qiynalardi Suok. – Axir qo'g'irchoqlar ovqat yemaydi-ku! Lekin qo'g'irchoqlar ham har xil bo'ladi... Voy, biram pirojniy yegim kelyaptiki!»

Axiyri Suok ortiq toqat qila olmadi.

– Menga ham bir bo'lak... – dedi u past ovoz bilan va shu zahoti ikki yuzi loladek qizarib ketdi.

– Qanday soz! – deb suyunib ketdi valiahd. – Ilgarilari ovqat yeyishni xohlamasding. Ilgari yolg'iz o'zim nonushta qilganimda judayam zirikardim. Ishtahang ochilgani qanday yaxshi bo'ldi!

Shundan keyin Suok bir bo'lak pirojniyni yeb yubordi. So'ng yana bitta, yana bitta, yana bitta yedi. Shu choq Suok birdan valiahdning ovqatlanishini uzoqdan kuzatib turgan xizmatkorning o'ziga qarab turganini, qaragandayam dahshatli baqrayib turganini payqab qoldi.

Xizmatkorning og'zi lang ochiq edi.

¹ Aybdorlarning gunohidan kechish. (Tarj.)

Xizmatkor haq edi.

Chunki u qo'g'irchoqlarning ovqat yeganini hech qachon ko'rmagan edi-da.

Suok qo'rqib ketdi va qo'liga olgan to'rtinchi pirojniyni (bu eng shirin qumoq-qumoq va mayizli pirojniy edi) tushirib yubordi. Lekin xayriyatki, bu hol yaxshilik bilan tugadi. Xizmatkor ko'zlarini ishqalab qo'yib og'zini yumdi.

– Menga shunday tuyuldi chog'i. Havo issiq.

Valiahd tinimsiz gapirar edi. Nihoyat u gapirishdan charchab jim qoldi.

Kunning bu jazirama issiq paytida hamma yoq suv quygandek jim-jit edi. Kechagi kuchli shamol, chamasi, juda olis-olislarga yelib ketgan bo'lsa kerak. Endi hamma narsa qilt etmay qolgan edi. Hattoki qushlar ham uchishmasdi.

Mana shu sukunat paytida valiahd bilan yonma-yon maysa ustida o'tirgan Suok xuddi paxtaga o'rab tashlangan soatning bir me'yorda chiqillashiga o'xshagan noaniq bir tovush eshitdi. Faqat soat «chiq-chiq» deb yursa, bu ovoz «duk-duk» qilib eshitalardi.

– Bu nima? – deb so'radi Suok.

– Nimani aytyapsan? – Valiahd qoshlarini chimirdi, odatda katta yoshdagi odamlar ajablangan paytlarida shunaqa qosh chimiradilar.

– Ana «duk-duk» qilyapti-ku... soatmi? Yoningda soating bormi?

Yana oraga jimlik cho'kdi, yana bu jimlik paytida bir nimaning duk-duk urgani eshitildi. Suok barmog'ini ko'tardi. Valiahd quloq sola boshladi.

– Bu soat emas, – dedi u ohista. – Bu mening temir yuragim uryap-ti...

X BOB. HAYVONOT BOG'I

Soat ikkida valiahd Tuttini sinf xonasiga chaqirtirishdi. Dars payti boshlangan edi. Suok xonada yolg'iz qoldi.

Suokning tirik qizcha ekanligiga hech biringiz shubha ham qilganingiz yo'q edi, albatta. Har holda, valiahd Tuttining hozir raqs muallimi Bir-ikk-uchsning uyida yotgan haqiqiy qo'g'irchog'i ham o'zini shu Suokchalik erkin tutgan bo'lsa kerak-da. Aftidan, u qo'g'irchoqni nihoyatda mohir usta yasaganga o'xshaydi. To'g'ri, u qo'g'irchoq pirojniy

yemas edi. Lekin valiahd Tutti ehtimol haqdir. Balki u qo'g'irchoqning chindanam ishtahasi bo'lmagandir.

Shunday qilib, Suok yolg'iz qoldi.

U juda mushkul ahvolda edi.

Ulkan Qasr, kishini adashtirib qo'yuvchi yo'laklar, rovonlar, zinalar.

Qo'rqinchli gvardiyachilar, rang-barang yasama soch kiygan notanish badqovoq odamlar, sukunat va hashamat.

Suokka hech kim parvo qilmas edi.

U valiahdning yotoqxonasida deraza oldida turardi.

«Oldin reja tuzib olishim kerak, – deb ahd qildi u. – Qurolsoz Prospero qamalgan temir qafas valiahd Tuttining hayvonot bog'ida turibdi. Demak, men shu hayvonot bog'iga bir amallab kirishim kerak».

Sizning xabaringiz bor, kitobxon, valiahdga tirik bolalarni ko'rsatishmasdi. Uni hech qachon, hatto hammayog'i yopiq izvoshda ham shaharga olib bormas edilar. U Qasrda yashab, shu yerda ulg'ayayotgan edi. Unga har turli fanlardan saboq berishar, shafqatsiz podsholar va lashkarboshilar haqidagi kitoblarni o'qib berardilar. Uning xizmatida bo'lgan odamlarga esa jilmayish man etilgan edi. Uning hamma tarbiyachilari va o'qituvchilari lablari qattiq yumilgan va yonoq suyaklari kesakdek gezarib ketgan, bo'yi daroz, cho'pdek oriqli chollar edi. Bundan tashqari, ularning hammalari oshqozon kasaliga chalingan odamlar edi. Oshqozoni ovqat hazm qilolmaydigan odamlarning avzoyi qanchalik badburch bo'lishini o'zingiz yaxshi bilasiz.

Valiahd Tutti hech qachon sho'x va yangroq kulgi eshitmagan edi. Faqat ahyon-ahyonda uning qulog'iga bitta-yarimta mast qassobning yoki o'ziga o'xshagan xo'ppasemiz mehmonlari bilan maishat qilayotgan Baqaloqning xaxolagani eshilib qolardi. Lekin buni kulgi deb ham bo'lmas edi! Bu shunday dahshatli o'kirish ediki, uni eshitgan odam xursand bo'lish o'rniga qo'rqib ketardi.

Bu Qasrda faqat qo'g'irchoq tabassum qilardi. Lekin qo'g'irchoqning tabassumi Baqaloqlar uchun xavfli emas edi. Undan keyin qo'g'irchoq gapirmasdi. U baribir valiahd Tuttiga ko'p narsalar haqida gapirib bera olmasdi ham, chunki Qasr atrofidagi bog' va temir ko'priklarning boshlarida baraban ko'tarib turgan soqchilar Qasrdan tashqaridagi hayotni Tuttining ko'zidan yashirib turardilar. Shuning uchun ham u xalq haqida, qashshoqlik haqida, och-yalang'och bolalar haqida, fabrikalar,

konlar, qamoqlar, dehqonlar haqida, boylarning kambag'allarga zulm qilib ularni ishlatib, ularning peshona terlari bilan tayyorlangan hamma narsani o'zlariga tortib olishlari haqida hech nima bilmas edi.

Uchta Baqaloq valiahdni johil, toshbag'ir qilib tarbiyalamoqchi edilar. Uni bolalar bilan o'ynashdan mahrum qilishib, uning uchun hayvonot bog'i tashkil qilgan edilar.

«Yaxshisi, u hayvonlarni tomosha qilsin, – degan qarorga kelishgandi. – Mana bitta o'lik, jonsiz qo'g'irchog'i bor, endi quturgan hayvonlari ham bo'ladi. U yo'lbarzlarni xom go'sht bilan boqishayotganini, bo'g'ma ilon tirik quyonna yutayotganini ko'rib ko'zi pishsin. Vahshiy hayvonlarning ovozlarini eshitsin, ularning qon quyilgan iblisona ko'zlariga tikilsin. Ana shunda u ham beshafqat odam bo'lib o'sadi».

Lekin Baqaloqlar o'ylaganday bo'lib chiqmadi.

Valiahd Tutti qunt bilan o'qir, pahlavonlar va podsholar haqidagi dahshatli solnomalarni tinglar, tarbiyachilarning husnbuzar bosgan burunlariga nafrat bilan tikilardi-yu, lekin baribir hech shafqatsiz bo'lmasdi.

U vahshiy hayvonlarni kuzatishdan ko'ra, qo'g'irchog'i bilan o'ynashni yaxshi ko'rardi.

Siz, o'n ikki yoshli bolaning qo'g'irchoq o'ynashi uyat, deb aytishingiz mumkin, albatta. Bu yoshdagi bolalarning aksariyati yo'lbarzlarga ov qilishni afzal ko'rgan bo'lardi. Lekin buning bir sababi borki, u sabab vaqt-soati yetganda ayon bo'ladi sizlarga.

Hozir Suokka qaytaylik.

U to kech kirgungacha kutmoqchi bo'ldi. To'g'ri-da, kuppa-kunduz kuni yolg'iz o'zi Qasr xonalarida tentirab yurgan qo'g'irchoq odamlarda shubha tug'dirishi mumkin edi.

Dars tugagandan keyin Suok bilan Tutti yana uchrashishdi.

– Bilasanmi, – dedi Suok, – men doktor Gasparnikida kasal bo'lib yotganimda alomat bir tush ko'ruvdim. Tushimda men tirik qizga aylanib qolganmishman... Go'yo sirk artistimishman. Men sayyor sirk aravasida boshqa artistlar bilan yasharmishman. Bu arava joydan joyga ko'chib yurib, yarmarkalarda, bozor maydonlarida to'xtarmish-da, odamlarga tomosha ko'rsatarmish. Men dor ustida yurarmishman, raqs tusharmishman, eng qiyin akrobatlik o'yinlarni bajarmishman, pantomima tomoshalarida har turli rollar ijro etarmishman.

Suokning bu gaplaridan hang-mang bo'lgan valiahd ko'zlarini katta-katta ochib quloq solardi.

– Bizlar judayam kambag'al ekanmiz. Ovqat yegan kunlarimizdan yemagan kunlarimiz ko'proq bo'lgan ekan... Bizning kattakon bir oq otimiz bor ekan. Uning oti Anra ekan. Men mana shu otning ustidagi sariq uvada atlas bilan qoplangan keng egar ustida turib olib, chopib ketayotganida jonglorlik qilarkanman. Keyin otimiz o'lib qolganmish, nimaga desang, bir oy muttasil pulimiz bo'lmaganidan otimizni durust-roq boqa olmabmiz...

– Kambag'al edinglar? – deb so'radi Tutti. – Men tushuna olmayman. Nega endi sizlar kambag'al edinglar?

– Bizlar kambag'al odamlarga tomosha ko'rsatar edik. Kambag'al tomoshabinlar bizga eng mayda chaqalar tashlardi, ba'zi paytlarda bo'lsa, tomosha ko'rsatib bo'lganimizdan keyin shlapa tutib odamlarni aylanib chiqib, hech vaqosiz quruq qaytar edik.

Valiahd Tutti bu gaplarga sira ham tushunmas edi.

Suok esa to kech kirib qosh qorayguncha unga har to'g'rida gapirib o'tiraverdi. U odamlarning qashshoqona achchiq hayoti haqida, ulkan shahar to'g'risida, Suokni kaltaklamochi bo'lgan aslzoda kampir haqida, tirik bolalar haqida, ularni o'z itlariga qoptirmochi bo'lgan boylar haqida, gimnastikachi Tibul bilan qurolsoz Prospero haqida, ishchilar, konchilar, dengizchilarning boylar va Baqaloqlar hokimiyatini ag'darishmochi bo'layotgani haqida so'zlab berdi.

U hammadan ham sirk haqida ko'proq gapirdi. U bora-bora hikoyaga judayam berilib ketib, ko'rgan tushini so'zlab berayotganini ham unutib qo'ydi.

– Men Brizak amakining sayyor tomoshaxonasida juda ko'pdan beri yashayman. Men raqs tushishni ham, ot ustida tik turib yurishni ham, trapetsiyada chir-chir aylanishni ham chaqaloqlik paytimdan bilsam kerak. O, men shunaqangi antiqa narsalarni o'rganganmanki! – u kaftini kaftiga urdi. – Mana, masalan, o'tgan yakshanba kuni bizlar Gavanda tomosha ko'rsatdik. Men o'rik danaklarida valsga tushdim...

– Qanaqasiga o'rik danaklarida?

– He, sen bilmaysan-a, rostdan! Nahot sen o'rik danagidan qilingan hushtakni ko'rmagan bo'lsang? Bu judayam oson. Men o'n ikkita danakni yig'ib, ularday hushtak yasadim. Xullas, to teshik paydo bo'lguncha ularni toshga ishqalayverdim...

– Qiziq ekan!

– Valsni faqat o‘n ikkita danak bilan emas, boshqa narsa bilan ham chalish mumkin. Masalan, men kalit bilan ham hushtak chalishni bilaman...

– Kalit bilan! Qanday qilib? Ko‘rsat. Menda bir ajoyib kalit bor...

Valiahd Tutti shunday deya turib, kamzulining yoqasini yechdi va bo‘yniga osilgan ingichka zanjirni oldi, shu zanjirga kichkinagina oq kalit osilgan edi.

– Mana!

– Nega bu kalitni ko‘kragingda yashirib yuribsan? – deb so‘radi Suok.

– Menga bu kalitni kansler berdi. Bu hayvonot bog‘imdagi qafaslardan birining kaliti.

– Nima, sen hamma qafaslarning kalitini o‘zing bilan olib yurasanmi?

– Yo‘q. Lekin judayam muhim kalit deb aytishdi. Men buni ehtiyot qilishim kerak ekan...

Suok valiahdga o‘z san‘atini namoyish qildi. U kalitning teshik tomonini cho‘chchaygan labiga olib borib, juda xushohang bir qo‘shiqning kuyini chaldi.

Valiahd shunaqa xursand bo‘lib ketdiki, ehtiyotlab asrash uchun o‘ziga topshirilgan kalitni ham unutib yubordi. Kalit Suokda qoldi. U esa o‘ylab-netib o‘tirmasdan kalitni to‘r hoshiyali pushti rang ko‘ylagining cho‘ntagiga solib qo‘ydi.

Kech kirdi.

Qo‘g‘irchoq uchun valiahd Tuttining oromxonasi yonidan maxsus xona hozirlashdi.

Valiahd Tutti bugun kechasi uyqusida alog‘-chalog‘ tush ko‘rdi: kulgili burundor niqoblarni, sap-sariq yalang‘och yelkasida silliq qilib tarashlangan kattakon xarsangtosh ko‘tarib ketayotgan odamni va bu odamni qora qamchi bilan savalayotgan baqaloq odamni, kartoshka yeb o‘tirgan juldur kiyimli bolani va oq ot minib, o‘n ikkita o‘rik danakli hushtakda qandaydir yoqimsiz vals kuyini chalib ketayotgan, kiyimlarining hammayog‘iga to‘r qoplangan aslzoda kampirni va hokazolarni ko‘rdi.

Xuddi shu mahal butunlay boshqa joyda, bu jajjigina yotoqxonadan juda olisda, Qasr bog‘ining bir burchagida antiqa bir voqea yuz bera-

yotgan edi. Yo'q, sizlar, nima gap ekan, deb hayron bo'lmanglar, aytarli hech narsa bo'lgani yo'q. Xullas, bu kecha antiqa tush ko'rgan faqat valiahd Tutti emas edi. Aytmoqchimanki, valiahd Tuttining hayvonot bog'i eshigida soqchilik qilib turib uxlab qolgan gvardiyachining tushi ham diqqatga sazovor edi.

U tosh to'nka ustida panjaraga suyanib o'tirganicha shirin tush ko'rardi. Yalpoq va yaltiroq g'ilofga solingan qilichi tizzalari orasida. To'pponchasining og'zi qora shohi sharfi tagidan mo'ralab turardi. Shu yerda, shag'al to'kilgan yo'lkada turgan katak shishali fonus nuri gvardiyachining etigini va daraxt yaprog'idan tushib, uning yengidan o'rmalab ketayotgan kapalak qurtini yoritib turardi.

Hamma yoq osoyishtadek tuyulardi.

Shunday qilib, soqchi uxlab o'tirar va uyqusida juda alomat tush ko'rardi. Tushida go'yo uning oldiga valiahd Tuttining qo'g'irchoq'i yaqinlashgandaymish. U ertalab doktor Gaspar Arneri olib kelganida qanday bo'lsa, hozir ham o'shanaqa emish: o'sha pushti rang ko'ylak, o'sha tasmalar, o'sha to'r uqalar, yaltiroq pistonlar. Faqat endi tushida u qo'g'irchoq tirik qizchaga aylanganmish. U har tomonga olazarak bo'lib, bermalol harakat qilib yurayotganmish, ba'zan oyoq uchida yurib, biron sharpadan cho'chib ketgan paytida barmog'ini labiga bosarmish.

Fonus uning jajjigina gavdasini boshdan oyoq yoritayotganmish.

Gvardiyachi soqchi hatto uyqusirab jilmayibdi ham.

Keyin u xo'rsinib qo'yib, panjaraga suyanib yaxshiroq joylashib o'tiribdi-da, panjara jimjimasidagi temir gulga tumshug'ini suqibdi.

Suok bo'lsa soqchining uxlab o'tirganini ko'rib, fonusni qo'liga olganmish-da, oyoq uchida ehtiyotlik bilan ichkariga kirib ketganmish.

Gvardiyachi xurрак otardi, ammo uyqusida bu xurрак ovozi unga go'yo hayvonot bog'idagi yo'lbarzlarning o'kirig'iday tuyulayotgan edi.

Aslida esa hayvonot bog'i jimjit edi. Hayvonlar uxlab yotishardi.

Fonus ozgina joyni yoritgan. Suok qorong'ilikda ehtiyotkorona ohista yurib borardi. Uning baxtiga, tun unchalik qorong'i emas edi. Osmondagi yulduzlar va bog'ning har yer-har yeriga osilgan fonuslarning daraxt shoxlari orasidan tushib turgan shu'lasi bu xilvatgohni yoritib turardi.

Qizcha darvozadan kirgach, qandaydir oppoq gullar bilan burkangan past bo'yli butalar orasidan, kalta xiyobon bo'ylab yurib bordi.

Keyin birdan uning dimog'iga hayvonlar hidi kirdi. Bu ham qizga tanish edi: bir vaqtlar ularning sayyor tomoshaxonasiga uchta sher va bitta Ulm dog'i¹ni o'rgatgan bir odam qo'shilib, tomosha ko'rsatib yurgan edi.

Suok bir yalanglikka chiqdi. Tevarak-atrofdan bir nimalar qorayib ko'rinar, go'yo kichkinagina uycharlar tizilishib turganday edi.

– Qafaslar, – dedi pichirlab Suok.

Uning yuragi duk-duk ura boshladi.

U hayvonlardan qo'rqmas edi, chunki sirk artistlari dovyurak bo'lishadi. U faqat o'z sharpasi va fonusining shu'lasi bilan biron-ta hayvonni uyg'otib yuborishdan, keyin u o'kirib, soqchini uyg'otib qo'yishdan qo'rqardi.

Suok qafaslarga yaqin bordi.

«Prospero qayerda ekan?» – deb hayajonlanardi. U fonusni baland ko'tarib, qafaslarning ichiga tikilardi. Hamma yoq jimjit, qilt etgan jon-zot ko'rinmasdi. Fonus shu'lasi qafas chiziqlari orasidan bo'lak-bo'lak bo'lib o'tib, ichkarida uxlab yotgan hayvonlarning tanasini qing'ir-qiyshiq yoritardi.

Suok hayvonlarning sertuk, go'shtdor quloqlarini, ba'zan oldinga cho'zilgan panjalarini ba'zan olachipor yelkalarini ko'rardi. Burgutlar qanotlarini yoyib uxlardilar, shuning uchun ham ular qadimgi gerblarga o'xshab ketishadi. Ayrim qafaslarning ichida noma'lum bahaybat maxluqlarning qorasi ko'rinardi.

Ingichka kumush xivichdan to'qilgan qafasda, turli balandlikdagi qo'noqlarda to'tiqushlar qo'nib o'tirardilar. Suok mana shu qafas oldida to'xtaganida, uning nazarida, qafas devoriga eng yaqin o'tirgan to'tining biri, uzun qizil soqolli qari to'tiqush bir ko'zini ochib Suokka qarab qo'yganday bo'lib tuyuldi. Uning ko'zi pishgan limonning urug'iga o'xshardi.

Bu ham yetmaganday u shu ko'zini darrov yumib olib, o'zini uxlaganga solib turaverdi. Ayni paytda, u Suokning ko'ziga qizil soqoli orasidan ko'z qisib, jilmayib qo'ygandek tuyuldi.

¹ Ulm – Avstriyadagi shaharning nomi, dog – tumshug'i puchuk kuchuk.

«Men o'zim tentakman», – deb o'ziga o'zi taskin berdi Suok. Lekin baribir, uning yuragiga g'ulg'ula tushgan edi.

Dam o'tmay goh u yerda, goh bu yerda allanimalar shaqillar, qisirlar, chiyillardi.

Siz tunda otxonaga yoki tovuqxonaga bir kirib ko'ring: u yerda hukm surgan sukunatdan hayratga kelasiz, shu bilan birga juda har xil mayda-chuyda ovozlarni – goh qanot qoqilganini, goh kavshanishni, goh qo'noqning gijirlaganini, goh uyqudagi qush tomog'idan chiqqan ingichka chiyildoq ovozni eshitasiz.

«Prospero qayerdaykin? – deb o'yladi Suok yana, endi u qattiq hayajonda edi. – Bordi-yu, uni bugun qatl qilib bo'lishgan va endi qafasga anavi burgutni qo'yib qo'ygan bo'lishsa-ya?»

Xuddi shu mahal qorong'ilikdan kimningdir:

– Suok! – degan xirqiroq ovozi eshitildi.

Shu zahotiyiq qizcha kimningdir hansirab nafas olayotganini, yana xuddi kattakon hasta ko'ppakning ingraganiga o'xshab ketuvchi qandaydir tovushlarni eshitdi.

– Voy! – deb chinqirib yubordi Suok.

U fonusni ovoz kelgan tomonga tutdi. U yerda qizg'ish cho'g yonib turardi. Bir bahaybat qora maxluq xuddi ayiqqa o'xshab, qafas panjarasida ushlab boshini shu panjaraga qo'yib turardi.

– Prospero! – deb chaqirdi Suok past ovoz bilan.

Keyin shu bir zumning o'zida miyasidan bir gala xayollar lip-lip etib o'tdi.

«Nega u bunchalik qo'rqinchli? Ayiqqa o'xshab, uning hamma-yog'ini tuk qoplab ketibdi. Ko'zlaridan qizil uchqun chaqnayapti. Tirnoqlari uzun, qayrilib ketgan. Egnida kiyimi yo'q. Bu odam emas, gorilla».

Suok alamidan yig'lab yuboray dedi.

– Seni ko'rar kun ham bor ekan-ku, Suok, – dedi notanish maxluq. – Sening kelishingni bilardim.

– Salom. Men sizni ozod qilgani keldim, – dedi Suok titroq ovoz bilan.

– Men qafasdan chiqmayman. Bugun harom qotaman.

Shundan keyin yana mudhish ingroq eshitildi. Maxluq yiqildi, keyin o'rnidan turib, yana qafas panjarasiga yopishdi.

– Yaqinroq kel, Suok.

Suok yaqin bordi. Unga bir badbashara maxluq tikilib turardi. Odam basharasi emas edi bu, albatta. U ko'proq bo'rining tumshug'iga o'xshab ketardi. Eng qo'rqinchli tomoni shunda ediki, bu bo'rining qu-loqlari garchi tikandek qattiq, kalta tuk bilan qoplangan bo'lsa ham, odam qulog'iga o'xshardi. Suok kafti bilan yuzini berkitmoqchi bo'ldi. Fonus uning qo'lida chayqalib turganidan, uning sarg'ish shu'lası har tomonga lip-lip uchardi.

– Sen mendan qo'rqupsan, Suok... Men odamiylik qiyofamni yo'qotib qo'ydim. Qo'rqma! Beriroq kel... Sen bo'ying cho'zilib, biroz ozibsan. Juda xomush ko'rinasan...

U qiynalib-qiynalib gapirardi. U tobora yerga cho'kib, nihoyat qafas ichiga cho'zilib yotib qoldi. U og'zini katta ochib va uzun-uzun sariq tishlarini irshaytirib, hansirab nafas olardi.

– Men hozir o'laman. O'limim oldidan seni ko'rishimga ishongan edim.

U o'zining maymunnikiga o'xshagan yungdor qo'lini cho'zdi. U qorong'ida bir nimani qidirayotgan edi. Xuddi mix sug'urib olinayot-gandek ovoz eshitildi, shundan keyin o'sha mudhish qo'l qafas panja-rasi orasidan tashqariga cho'zildi.

Qo'lda kichkinagina bir taxtacha bor edi.

– Mana buni ol. Hammasi shu yerga yozilgan.

Suok taxtachani qo'yniga yashirdi.

– Prospero, – dedi u ohista.

Javob bo'lmadi.

Suok fonusni yaqinroq olib borib tutdi. Maxluqning tishlari irshayib mangu qotib qolgan edi. Uning nursiz ko'zlari Suok osha allaqayoqlar-ga tikilardi.

– Prospero! – deb chinqirib yubordi Suok fonusni qo'lidan tushirib yuborarkan. – U o'ldi! Prospero o'ldi! Prospero!

Fonus o'chib qoldi.



TO'RTINCHI QISM

QUROLSOZ PROSPERO

XI BOB. SHIRAPAZXONANING VAYRON QILINISHI

Hayvonot bog'i darvozasi oldida soqchilik qilib mudrab o'tirgan gvardiyachi bilan biz tanishgan edik. Suok uning katak shishali fonusini o'g'irlab, hayvonot bog'iga kirgan va bu yerda ko'tarilgan g'avg'o nihoyat o'sha gvardiyachini uyg'otib yuborgan edi.

Hayvonlar irillashar, uvillashar, chiyillashardi; qush qanotlarining patillagani, sher va yo'lbars dumlarining temir panjaraga xuddi qamchidek «shart-shart» urilgani eshitalardi.

Gvardiyachi chakaklarini qattiq qisirlatib esnadi, qo'llarini keng yoyib kerishgan edi, mushti borib temir panjaraga urilib, zirqirab og'ridi, shundan keyin u butunlay uyg'ondi.

Uyg'onib, hushyor tortdi-yu, dik etib o'rmidan turib ketdi. Fonusi yo'q edi. Sokin osmonda yulduzlar miltillab turardi. Yasminning xushbo'y hidi dimoqqa urilardi.

– Padariga la'nat!

Gvardiyachi shunaqangi jah! bilan tupurdiki, tupugi o'qdek uchib borib yasmin gulining bandini uzib yubordi.

Hayvonlar konserti avjiga chiqayotgan edi.

Gvardiyachi shovqin ko'tardi. Bir daqiqa ichida mash'ala ko'targan odamlar yetib kelishdi. Mash'alalar shitirlab yonardi. Gvardiyachilar so'kinishardi. Kimdir qilich g'ilofiga qoqilib yiqilib tushdi va burni kimningdir shporiga borib tegib jarohatlandi.

– Fonusimni o'g'irlab ketishdi!

– Hayvonot bog'iga birov kirganga o'xshaydi!

– O'g'ri bo'lsa kerak!

– Isyonchilar!

Burni lat yegan gvardiyachi ham, shpori qiyshayib ketgan gvardiyachi ham, shuningdek, qolganlar ham tungi zulmatni qo'llaridagi

mash'alalar bilan yoritib, hayvonot bog'iga kirgan noma'lum dushman sari yo'l oldilar.

Lekin ular hayvonot bog'ida hech qanday shubhali narsani ko'rmadilar.

Yo'lbarslar qip-qizil sassiq og'izlarini katta-katta ochib o'kirishardi. Sherlar qattiq bezovta bo'lishib qafas ichida u yoqdan bu yoqqa yurib, tanda qo'yar edilar. To'tiqushlar to's-to'polon ko'tarishgan, ularning qafas ichida chir-chir aylanishganini ko'rgan odam rang-barang ot o'yinga o'xshatardi. Maymunlar arg'imchoq uchishadi. Ayiqlar bo'lsa, chiroyli do'rildoq ovoz bilan qo'shiq aytishardi.

Hayvonot bog'iga mash'ala ko'tarib kirgan odamlar bu yerdagi jivonlarni yana besh battar hurkitib bezovta qilib yubordi.

Gvardiyachilar hamma qafaslarni bir-bir ko'zdan kechirib chiqdilar.

Hamma narsa joyida edi.

Ular hatto Suok tushirib qoldirgan fonusni ham ko'rmadilar.

Shu payt birdan boyagi jarohatlangan gvardiyachi:

– To'xtanglar! – deb yubordi va qo'lidagi mash'alani baland ko'tardi.

Hamma tepaga qaradi. U yerda daraxtning quyuq shoxlaridan boshqa hech nima ko'rinmadi. Yaproqlar qilt etmasdi. Tun sokin edi.

– Ko'ryapsizlarmi? – deb dag'dag'a bilan so'radi gvardiyachi qo'lidagi mash'alani silkib.

– Ha. Pushtirang bir nima turibdi...

– Kichkinagina...

– Qo'nib o'tiribdi...

– Ahmoqlar! Shuniyam bilmaysizlarmi? Bu to'tiqush. U qafasdan uchib chiqib, shu daraxtga kelib qo'ngan, jin ursini!

Shovqin ko'targan haligi gvardiyachi soqchi xijolat bo'lib, churq etmay turardi.

– Uni daraxtdan olish kerak. Hamma hayvonlarni besaranjom qilgan shu bo'lishi kerak.

– To'g'ri. Qani, chiq, Vurm. Ichimizda eng yoshi sensan.

Vurm degan gvardiyachi daraxt tagiga bordi. U ikkilanardi.

– Chiq, uni soqolidan tutamlab olib tush.

To'ti qimir etmay o'tirardi. Uning patlari, mash'alalar bilan yoritilgan quyuq yaproqlar orasidan pushti rangda ko'rinardi.

Vurm shlapasini peshonasiga surib, ensasini qashladi.

– Qo‘rqaman. To‘tiqushlar juda og‘ritib cho‘qiydi.

– Ah-moq!

Har nechuk Vurm daraxtga tirmashib chiqqa boshladi. Lekin u daraxtning yarmiga chiqqanida bir zum taqqa to‘xtadi-yu, keyin pastga sirg‘anib qaytib tushdi.

– O‘lsamam chiqmayman, – dedi u. – Bu mening ishim emas. Men to‘tilar bilan jang qilishni bilmayman.

Shu payt kekxa bir odamning jahldor ovozi eshitildi. Bir odam shippagini sudrab bosib, gvardiyachilar to‘planib turgan yerga shosha-pisha kelayotgan edi.

– Tegmanglar unga! – deb qichqirdi u. – Bezovta qilmanglar uni!

Bu chinqirgan odam hayvonot bog‘ining bosh noziri bo‘lib chiqdi. U zoologiya sohasida katta olim va mutaxassis edi, ya‘ni hayvonlar to‘g‘risida hamma narsani mukammal bilardi.

U shovqin-surondan uyg‘onib ketibdi.

Nozir shu yerda, hayvonot bog‘ining o‘zida yashardi. Shuning uchun, qanday kiyimda uxlab yotgan bo‘lsa, o‘sha kiyimda, hatto tungi qalpog‘ini ham yechmasdan, burni uchiga yopishgan kattakon yaltiroq qandalani ham pisand qilmay yugurib kelgan edi.

U qattiq hayajonda edi. Bo‘lmasam-chi: qandaydir askarlar uning ishiga aralashmoqchi bo‘lishsa, qandaydir bir galvars uning to‘tiqushini soqolidan tutamlamoqchi bo‘lsa, bu nima degan gap!

Gvardiyachilar unga yo‘l berdilar.

Zoolog boshini ko‘tarib qaradi. U ham yaproqlar orasida qandaydir pushti rang jonivorni ko‘rdi.

– Ha, – dedi u. – Bu to‘tiqush. Bu mening eng yaxshi to‘tiqushim. U doim shunaqa injiqlik qilgani-qilgan. Hech qafasda o‘tira olmaydi. Bu Laura... Laura! Laura! – deb u chiyildoq ovoz bilan to‘tini chaqira boshladi. – U shirin so‘zni yaxshi ko‘radi. Laura! Laura! Laura!

Gvardiyachilar piqillab kulib yuborishdi. Umuman, egniga guldor xalat, oyog‘iga tungi shippak kiygan, osmonga qaragan boshidagi tungi qalpog‘ining popugi etagigacha tushib turgan bu jikkakkina chol haybatli gvardiyachilar qurshovida, lovillab yonayotgan mash‘alalar yorug‘ida g‘aroyib ko‘rinardi. Ayniqsa, hayvonlarning shovqin-suroni bu alomat manzaraga ajib bir ruh baxsh etardi.

Keyin eng kulgili hodisa sodir bo'ldi. Zoolog daraxtga tirmashib chiqqa boshladi. Bu ishni u ancha mohirlik bilan bajardi – chamasi, ilgari ham daraxtga chiqish bilan ko'p shug'ullangan bo'lsa kerak. Bir, ikki, uch! Uning xalati etagidan qalami lozim kiygan oyog'i bir necha marta lip-lip etib ko'rindi, nihoyat muhtaram qariya tarmasha-tarmasha to'ti turgan shohga yaqin, ammo xatarli sayohatining nihoyasiga yetib oldi.

– Laura! – yana muloyimlik bilan xushomad qilib chaqirdi.

Shunda birdan uning jonholatda chinqirgani butun hayvonot bog'iyu, bog'ni tutib ketdi, chinqirig'i kamida bir kilometr atrofga eshitildi.

– Shayton! – deb chinqirib yuborgan edi u.

Chamasi, daraxt shoxida to'tiqush emas, boshqa biron maxluq o'tirgan edi.

Gvardiyachilar o'zlarini daraxt tagidan nari olib qochdilar. Zoolog pastga sho'ng'ib tusha boshladi. Lekin tasodif, ya'ni kalta bo'lsa ham, ancha baquvvat bir butoq uni o'limdan asrab qoldi. Zoolog shu butoqqa xalatidan ilinib osilib qoldi.

O, agar hozir o'zga olimlar bu muhtaram hamkasblarini mana shu ayanchli ahvolda ko'rishsa bormi, uning yaltiroq boshi va aql-zakovati hurmati, darrov yuzlarini teskari burgan bo'lardilar! Uning xalati judayam beo'xshov holda tepaga ko'tarilgan edi-da. Gvardiyachilar tirayaylab qocha boshladilar. Mash'alalarning alangasi shamolda hilpirab borardi. Bu manzarani chetdan kuzatib turgan odam, olov yolli qora otlar qorong'ida yugurib ketyapti, deb o'ylashi mumkin edi.

Hayvonot bog'ida ko'tarilgan to's-to'polon nihoyat tindi. Lekin zoolog hanuz daraxt shoxida qimir etmay osilib turardi. Endi bu payt qasrda ham alg'ov-dalg'ov ko'tarilgan edi.

Chunki sirli to'tiqushning daraxt shoxida paydo bo'lishidan chorak soat burun Uch Baqaloqqa shahardan ko'ngilsiz xabarlar yetib kelgan edi:

«Shaharda tartibsizlik. Ishchilar to'pponcha va miltiqlar bilan qurollanishgan. Ishchilar gvardiyachilarga qarata o'q otishmoqda, ular hamma baqaloqlarni suvga uloqtirmoqdalar».

«Gimnastikachi Tibul ozodlikda, u shahar chekkasida yashovchi aholining hammasini bir qo'shin qilib to'playapti».

«Ko'pchilik gvardiyachilar Uch Baqaloqqa xizmat qilishdan voz kechishib, ishchilar tomoniga o'tib ketdilar».

«Fabrikalarning trubalaridan tutun chiqmay qo‘ydi. Mashinalar to‘xtagan. Konchilar yer ostiga tushib boylar uchun ko‘mir qazishdan bosh tortishyapti».

«Tevarak-atrofdagi dehqonlar yer-mulk egalari bilan jang qilmoqdalar».

Ministrlar mana shunaqa xabarlar olib kelishgan edi Uch Baqaloqqa.

Odatda, Uch Baqaloq hayajonlangan paytlarida semira boshlardilar. Mana hozir ham Davlat kengashi a‘zolari ko‘zi oldida, bir zumda, har qaysi Baqaloq chorak qadoqdan semirdi.

– Men chidolmayman! – deb zorlanardi Baqaloqlardan biri. – Men ortiq chiday olmayman... Toqatim toq bo‘ldi... Oh, voy! Ilgak tugma bo‘yninga botib ketyapti...

Shu mahal uning yaltiroq yoqasi «tar» etib yirtilib ketdi.

– Semirib ketyapman, – deb ingrardi Ikkinchi Baqaloq. – Meni qutqaringlar!

Uchinchisi bo‘lsa, o‘zining do‘mpayib borayotgan qorniga ma‘yus tikilib turardi.

Shunday qilib, bugun Davlat kengashi oldida ikkita masala turardi: birinchidan, zudlik bilan semirishni to‘xtatish uchun biron vosita o‘ylab topish kerak edi, ikkinchidan, shahardagi tartibsizlikni darhol bostirish lozim edi.

Birinchi masala yuzasidan shunday qaror qabul qildilar:

– Raqs tushish kerak!

– Raqs! Raqs! Ha, albatta, raqs tushish lozim! Eng yaxshi chora shu.

– Fursatni o‘tkazmay, darhol raqs muallimi taklif qilinsin. U Uchta Baqaloqqa balet san‘atidan saboq bersin.

– Ha, – yolvoruvchi ohangda dedi Birinchi Baqaloq, – lekin...

Xuddi mana shu paytda hayvonot bog‘i tomondan muhtaram zoologning chinqirgan ovozi eshitildi – esingizda bo‘lsa, u o‘zining Laura ismli eng yaxshi ko‘rgan to‘tiqushini olib tushish uchun daraxtga tirmashib chiqqan, ammo u yerda Laura emas, shayton o‘tirganini ko‘rib, chinqirib yuborgan edi.

Hukumatning barcha a‘zolari bog‘dagi xiyobonlar orqali hayvonot bog‘i tomon otildilar.

– Uf! Uf! Uf! – deb hansiragan ovozlar eshitalardi bog‘dan.

Qanotlarida qora hoshiyasi bo'lgan zarg'aldoq rangli eng chiroyli kapalaklarning o'ttiz oilasi bu to's-to'polondan cho'chib bog'dan uchib ketdi.

Bog'da son-sanoqsiz mash'alalar paydo bo'ldi. Endi bog'ni xuddi atrofqa qatron hidini taratib lovullab yonayotgan butun bir o'rmonga o'xshatsa bo'lardi. Bu yonayotgan o'rmon daryodek yoyilib borardi.

Hayvonot bog'iga atigi o'n qadamcha qolganda chopib borayotgan hamma odamlar birdan oyoqlari shol bo'lib qolganday, taqqa to'xtab qolishdi. Lekin shu zahotiyuq ular birvarakayiga dod solishib, chiyil-lashib, bir-birini bosib yanchgancha najot istab orqaga qarab qocha boshlashdi. Mash'alalar yerlarda yotardi, alanga bir-biriga tutashib, hammayoqqa yoyildi, qora tutun to'lqin-to'lqin bo'lib har yoqqa esib ketdi.

– O!

– A!

– Qochinglar!

Odamlarning shovqin-suroni butun bog'ni larzaga keltirardi. Saro-simaga tushib har yoqqa qochayotgan odamlarni mash'alalarning alvonrang shu'lasini yoritardi, bu shu'la tobora kengroq yoyilib borardi.

Xuddi shu payt qarshidagi hayvonot bog'ining temir panjarasi ichidan alp qomat bir odam xotirjam va dadil qadam tashlab chiqib kela boshladi.

Malla soch, ko'zlaridan o't chaqnovchi, kamzuli dabdala bo'lib yirtilgan bu odam mash'alalar yorug'ida go'yo mudhish bir sharpadek ko'rinib, yaqinlashib kelardi. U bir qo'li bilan qo'rqinchli bir qoplonni yetaklab kelardi; qoplonning bo'yniga yarim quloch keladigan zanjir-dan bo'yinbog' solingan edi. Bu xipchadan kelgan mallarang hayvon dahshatli bo'yinbog'dan qutulish uchun nuqul chiranardi, sakrardi, irillardi, o'zini har yoqqa otardi va ritsarlarning tug'laridagi shar rasmiga o'xshab, qip-qizil uzun tilini goh chiqarardi, goh ichiga tortib olardi.

Qo'rqib qochib ketayotganlar orasida orqaga o'girilib qarashga yuragi dov bergan odamlar, bu odamning ikkinchi qo'lida yaltiroq pushti rang ko'ylak kiygan bir qizcha borligini ko'rgan edilar. Qizcha dahshat solib quturayotgan qoplonga qo'rqa-pisa qarardi, zarrin gulli tuf-li kiygan oyoqlarini bukib, o'zini ko'tarib olgan odamning bo'ynidan mahkam quchoqlagan edi.

– Prospero! – deb dod solishardi qochib ketayotgan odamlar.

– Prospero! Bu Prospero-ku!

– Qochib qol!

– Qo‘g‘irchoq!

– Qo‘g‘irchoq!

Ana shunda Prospero o‘zi yetaklab kelayotgan hayvonni qo‘yib yubordi.

Qoplon dumini har tomonga silkib, qochib ketayotgan odamlarni katta-katta qadam tashlab, sakrab-sakrab quvib ketdi.

Suok qurolsozning qo‘lidan sakrab tushdi. Bu g‘ala-g‘ovurda juda ko‘p to‘pponchalar o‘tloqqa otib yuborilgan edi. Suok yerdan uchta to‘pponchani oldi. Ikkitasini Prosperoga berdi, bittasini o‘ziga olib qoldi. To‘pponcha qizchanning deyarli belidan kelardi. Lekin Suok bu yaltiroq qora buyumdan qanday foydalanishni yaxshi bilardi: u sirkda to‘pponcha otishni o‘rganib olgan edi.

– Ketdik! – dedi qurolsoz.

Bog‘ ichida nimalar bo‘layotgani ularni qiziqtirmasdi. Ular qoplonning bundan keyingi sarguzashti nima bilan yakunlanishini ham o‘ylamadilar.

Eng muhimi, chiqib ketadigan yo‘lni topish va bu tuzoqdan tezroq qutulish kerak edi.

Tibul aytgan o‘sha najotbaxsh kastrul qayerda ekan? Sharfurushni qutqargan o‘sha sirli kastrul qayerda ekan?

– Oshxonada! Oshxonada! – deb chinqirdi Suok, to‘pponchani silkiganча chopqillab borarkan.

Ular zim-ziyo qorong‘ida butalar orasini yorib, mudroq qushlarni bezovta qilib chopib borardilar. O, Suokning ajoyib ko‘ylagi butunlay dabdala bo‘lgan edi.

– Shirin narsaning hidi kelyapti, – deb yubordi birdan Suok, u chiroq bilan yoritilgan qandaydir derazalar tagida to‘xtagan edi.

Keyin u Prosperoning diqqatini jalb qilish uchun sirkdagi odati bo‘yicha barmog‘ini emas, bu gal qo‘lidagi qora to‘pponchani ko‘tardi.

Ular ni ta‘qib qilib kelayotgan gvardiyachilar bu yerga yetib kelishganda Prospero bilan Suok allaqachon daraxtga chiqib olishgan edi. Keyin ular daraxtning tarvaqaylab ketgan shoxidan yurib borib, bir zumda oshxonaning eng katta derazasiga hatlab o‘tib oldilar.

Kecha sharfurush uchib kirgan deraza shu edi.

Demak, bu shirapazlikning derazasi edi.

Vaqt allamahal bo'lganiga ham, hamma yoq alg'ov-dalg'ov ekanligiga ham qaramay, bu yerda ish qaynardi.. Hamma shakar pazlar, oq qalpoq kiygan shum shogird bolalar terlab-pishib ishlashardi; ular valiahd Tuttining qo'g'irchog'i sog'-salomat qaytgani sharafiga beriladigan ertangi ziyofat uchun qandaydir maxsus kompot tayyorlar edilar. Bu safar endi tort tayyorlamaslikka qaror qilishgan edi, chunki tag'in bironta mehmon derazadan uchib kirib, ham fransuz kremini, ham antiqa sukatlarni rasvo qilib-netib yurmasin, deb qo'rqishgan edi.

Xonaning qoq o'rtasida kattakon tog'ora turardi. Unda suv qaynardi. Suvdan ko'tarilgan oppoq bug' butun xonani tutib ketgan edi. Shu bug' pardasiga burkangan shogird bolalar rosa kuyib-pishib ishlashar, kompot uchun har xil ho'l meva to'g'rashardi.

Demak... Lekin shu choq pazandalar butun oshxonani burkab olgan quyuq bug' orasida qo'rqinchli bir voqea bo'layotganini bilib qoldilar.

Derazaning naryog'ida daraxt shoxlari silkindi, xuddi bo'ron oldidan bo'lganday, yaproqlar shitirlay boshladi-yu, birdan derazada ikki odam: malla soch daroz kishi bilan bir qizcha paydo bo'ldi.

– Qo'llaringni ko'tar! – dedi Prospero, uning har qo'lida bittadan to'pponcha bor edi.

– Joylaringdan qimirlamanglar! – baralla qichqirdi Suok to'pponchasini o'qталib.

Oq fartuk kiygan yigirmadan ortiq kishining qo'li shu zahotiy oq yuqoriga ko'tarildi.

Keyin kastrullar har yoqqa ucha boshladi.

Shirapazlikdagi barcha yaltiroq shisha, mis idishlar vayron qilina boshlandi, qaynoq, shirin, xushbo'y taomlar to'kila boshladi.

Qurolsoz o'sha kerakli kastrulni qidirardi. Chunki Prosperoning ham, uni o'limdan qutqargan kichkina qizchaning ham najot yo'li o'sha kastrulda edi.

Prospero bankalarni ag'darib tashlar, tovalarni, likop va idishlarni uloqtirardi. Har tomonga uloqtirilgan shisha idishlar chil-chil sinardi; to'kilgan un xuddi Sahroyi Kabirda ko'tarilgan issiq quyundek shipga ko'tarilardi; mag'iz va gilolar ham har yoqqa sochilardi; tokchalarga qo'yilgan idishlardagi shakar xuddi shaloladek shovullab to'kila boshladi; qiyomlar toshqini salkam bir metr ga ko'tarildi; hamma yoqqa suv tizillab otilar, mevalar dumalar, minoraga o'xshatib ustma-ust qo'yilgan mis kastrullar qulardi. Hamma narsa ostin-ustun bo'lib ketdi.

Ba'zida uxlab yotganingda tushingga shunaqa alomat narsalar kiradi, uning tush ekanligini bilasan, shuning uchun ham bunday paytda xohlagan narsangni qilishing mumkin bo'ladi.

– Topdim! – chinqirib yubordi Suok. – Mana u!

Qidirgan kastrullari topilgan edi. Mana, o'sha kastrulning qopqog'i! Qizcha uni olib otgandi, ayqash-uyqash bo'lib yotgan narsalar ustiga chirpirak bo'lib uchib borib qizil, yashil, sariq rangdagi quyuyq qiyomlar omixtasidan vujudga kelgan ko'lmakka shaloplab tushdi.

Prospero kastrul ichiga qaragan edi, uning tagi yo'q ekan.

– Qoching! – deb chinqirdi Suok. – Men orqangizdan tushaman.

Qurolsoz kastrul ichiga tushdi. U kastrul ichiga tushib ko'zdan g'oyib bo'lishi bilan, birdan qulog'iga shirapazlikdagi odamlarning dod-faryodi eshitildi.

Suok kastrulga tushishga ulgurolmadi. Butun bog' va Qasrga dahshat solib kezib chiqqan qoplon endi bu yerda paydo bo'lgan edi. Uning badanidagi gvardiyachilar otgan o'qlarning izi xuddi ochilgan gullarga o'xshab ketardi.

Qandolatpazlar-u oshpazlarning hammasi bir burchakka tiqilib olishdi. Suok qo'lida to'pponcha borligini unutib, yugurib kelayotgan qoplonga qarata qo'liga ilingan bir nokni otdi.

Hayvon Prospero orqasidan quvib boshi bilan kastrulga sho'ng'idiyu, zim-ziyo va tor yo'lakdan pastga tushib ketdi. Kastruldan uning faqat sariq dumi chiqib turardi, u quduqqa tushirilgan chelakning arqoniga o'xshardi. Keyin dum ham ko'rinmay qoldi.

Suok qo'llari bilan ko'zini berkitib oldi.

– Prospero! Prospero!

Qandolatpazlar esa zaharxanda qilib kulishdi. Shu mahal bu yerda gvardiyachilar ham bostirib kirishdi. Ularning mundirlari yirtilgan, yuz-ko'zlari qon, to'pponchalari og'zidan tutun chiqib turar edi. Ular qoplon bilan olishgan edilar.

– Prospero o'ldi endi! Qoplon uni tilka-tilka qilib tashlaydi! Shunaqa ekan, endi menga baribir. Men taslim bo'laman.

Suok kattakon to'pponcha ushlagan jajjigina qo'lini tushirib xotirjam gapirardi.

Lekin shu mahal gumburlagan o'q ovozi eshitildi. Yerosti yo'lagidan qochib ketayotgan Prospero o'ziga hamla qilgan qoplonni otgan edi.

Gvardiyachilar kastrul tepasida uymalanishardi.

Gvardiyachilardan biri kastrul ichiga mo'raladi. Keyin qo'lini tiqib bir nimani torta boshladi. Yana ikkita gvardiyachi unga yordamga keldi. Ular kuchana-kuchana kastrul ichida tiqilib qolgan o'lik qoplonni dumidan tortib chiqarishdi.

– U o'lgan, – dedi gvardiyachi harsillab nafas olarkan.

– U tirik! U tirik! Men uni qutqardim. Men xalq do'stini qutqardim!

Bechora kichkina Suok, ko'ylagi tilka-pora bo'lib ketgan, sochiga qadalgan va tuflisiga qo'ndirilgan oltinrang gullari ezilib ketgan Suok suyunganidan terisiga sig'masdi.

Suyunganidan uning ikki yuzi anordek qizarib ketgan edi.

U o'z do'sti – gimnastikachi Tibul bergan topshiriqni bajargan edi: u qurolsoz Prosperoni qamoqdan ozod qildi.

– Durust! – dedi gvardiyachi Suokning bilagidan ushlab. – Ko'ramiz, yaramas qo'g'irchoq, endi qo'lingdan nima ish kelarkin! Ko'ramiz...

– Uni Uch Baqaloq oldiga olib borish kerak...

– Ular seni o'limga hukm qilishadi.

– Ahmoq, – dedi Suok xotirjam ohangda va boya Prospero shakarpazlikni ostin-ustun qilayotgan paytda ko'ylagining pushti rang to'r hoshiyasiga tomgan sharbatni yalay boshladi.

XII BOB. RAQS MUALLIMI BIR-IKK-UCHS

Fosh bo'lgan qo'g'irchoqning holi nima kechgani hozircha bizga ma'lum emas. Bundan tashqari, biz boshqa hodisalarga, ya'ni: daraxtda qo'nib o'tirgan to'tiqush qanaqa qush edi va nima uchun muhtaram zoolog undan qo'rqib ketdi (ehtimol u sho'rlik hali ham o'sha shoxda yuvilgan ko'ylakdek osilib turgandir; qurolsoz Prospero qanday qilib ozodlikka chiqib qoldi-yu, qoplon qayoqdan paydo bo'ldi; qaysi yo'l bilan Suok qurolsozning qo'liga chiqib oldi; odamga o'xshab gapirgan maxluq nima edi-yu, u Suokka qanday taxtakach uzatdi va nima sababdan o'lib qoldi... degan savollarga izoh berishdan ham hozircha o'zimizni tiyib turamiz.

Vaqt kelganda hammasi oydinlashadi. Sizlarni ishontirib aytaman-ki, bu yerda hech qanday mo'jiza sodir bo'lgani yo'q, balki hammasi, agar olimlar ta'biri bilan aytadigan bo'lsak, mantiqning qat'iy qonuniga binoan yuz berdi.

Hozir ertalabki payt. Aynan shu bugun ertalabga kelib tabiat juda antiqa joziba kasb etdi. Hattoki, tashqi qiyofasi takaga judayam o'xshab ketuvchi bir qari qizning go'daklik paytidan muttasil og'riguvchi boshi birdan og'rimay qo'ydi. Bugungi tong shunaqa xushhavo ediki, qo'yaverasiz. Daraxtlar shovullamas, balki sho'x bolalar ovozidek kuy-lardi.

Bunday paytda hammaning ham raqs tushgisi keladi. Shuning uchun ham raqs o'qituvchisi Bir-ikk-uchsning darsxonasi odamlarga liq to'lganiga ajablanmasa bo'ladi.

Qorning och bo'lsa, raqs tusha olmaysan, albatta. Boshing g'am-tashvishda bo'lgan paytda ham raqs tusholmaysan. Lekin bugun ishchi mahallalarida to'planishib yana Uch Baqaloq Qasriga hujum qilishga hozirlanayotgan odamlarninggina qorni och va shulargina g'amgin edi. Holbuki, olifta yigitlar, xonimlar, shuningdek, mechkay va boy-larning o'g'il-qizlari o'zlarini juda yaxshi his qilar edilar. Ular gim-nastikachi Tibulning kambag'al, och-yalang'och mehnatkash ahlini to'plab, ulardan qo'shin tuzayotganidan bexabar edilar; ular raqqosa qizaloq Suok qurolsoz Prosperoni qamoqdan ozod qilinganini ham bilmasdilar, holbuki, butun xalq faqat shu Prosperoni kutayotgan edi; shaharda ko'tarilayotgan alg'ov-dalg'ovlar bilan bu boyonlarning ishi yo'q edi.

– Hech nima bo'lmaydi! – derdi chiroylikkina, lekin qirraburun oyimqiz raqsbob tufisini kiyarkan. – Agar ular yana qasrga hujum qila-digan bo'lishsa, gvardiyachilar ularni yana avvalgi safargidagidek qirib tashlashardi.

– Albatta! – deb qiqirlab kulardi bir olifta yigit qarsillatib olma yerkan, o'zini oynaga solib, frakini ko'zdan kechirarkan. – O'sha konchilarning ham, o'sha isqirt kosiblarning ham hech qanday miltiq, to'pponcha, qilichlari yo'q. Gvardiyachilarning esa hatto zambaraklari ham bor.

O'ziga bino qo'ygan, beg'am-betashvish odamlar juft-juft bo'lishib, Bir-ikk-uchsning uyi sari oqib kelardilar.

Uning eshigiga osilgan taxtachaga quyidagi so'zlar yozib qo'yilgan edi:

Raqs muallimi Bir-ikk-uchs. Nafaqat raqs tushishdan, shuningdek, nafosat, latofat, xiromon yurish, xulq-odobdan va hayotga shoirona nazar tashlashdan saboq beraman. O'nta raqsga oldindan haq olaman.

Bog'et poli asal rangida bo'lgan kattakon doirasimon zalda Bir-ikk-uchs odamlarga o'z san'atidan dars berardi.

Uning o'zi qora nay chalar, nay qandaydir mo'jiza tufayli uning labi oldida muallaq turar, chunki u oppoq nafis qo'lqop kiygan, yeng uchlariga to'r taqqan hoshiya qilingan qo'llarini tinimsiz o'ynatib turardi. U butun gavdasini gajak qilib qayirar, har turli holatda qotib turar, ko'zlarini shipga tikar, musiqa taktiga moslab poshnasi bilan depsinar va har daqiqa sayin o'z husnini tomosha qilgani, tasmalarining yaxshi boylanganini, moy surtilgan sochining qanchalik yaltirayotganini ko'rgani ko'zgu oldiga pildirab borardi...

Juft-juft bo'lishib raqs tushayotganlar gir-gir aylanishardi. Ular shu qadar ko'p edi va shunaqangi terlashardiki, bu yerga to'satdan kirib qolgan odam anvoyi-anvoyi, ammo bemaza sho'rva qaynayapti, deb o'ylashi mumkin edi.

Goh raqs tushayotgan kavalier, goh uning xonimi tiqilinchda gir-gir aylanisharkan, yo dumi uzun sholg'omga, yo karam bargiga yoxud yana qandaydir noaniq, rangli va antiqa narsaga o'xshab ketardilarki, bunday narsalar likopchaga suzilgan sho'rvadan chiqishi mumkin edi.

Bir-ikk-uchs esa bu sho'rvada qoshiq vazifasini bajarardi. Buning ustiga, u juda naynov, cho'pdek oriq va qaddi bukchaygan edi.

O, agar bu raqslarni Suok ko'rganida bormi, kulaverib ichaklari uzilardi! Suok hattoki «Ahmoq qiro» pantomimasida Oltin kosov rolini ijro etgan chog'ida ham, hatto o'shandayam bu yerdagidan yuz karra nazokatliroq raqs tushgan edi. Holbuki, u Kosov raqsini ijro etishi lozim edi.

Raqs avjiga chiqqan bir paytda dag'al teridan tikilgan qo'lqop kiygan uchta bahaybat musht raqs muallimi Bir-ikk-uchsning eshigini gursillatib ura boshladi.

Bu mushtlar dehqonlarning sopol xumiga judayam o'xshab ketardi. Sho'rva qaynashdan to'xtadi.

Yana besh daqiqadan keyin esa raqs muallimi Bir-ikk-uchsni Uch Baqaloq Qasriga olib ketishdi. Uni olib ketgani uchta otliq gvardiyachi kelgan edi. Ulardan biri Bir-ikk-uchsni o'z otining sag'risiga o'ziga orqama-orqa qilib mingashtirdi – boshqacha qilib aytganda, Bir-ikk-uchs otga teskari minib borardi. Ikkinchi gvardiyachi uning kattakon karton qutisini ko'tarib olgan edi. Ko'rinishidan, bu qutiga judayam ko'p narsa sig'adiganga o'xshardi.

– Axir men o‘zim bilan ayrim kiyimlarimni, musiqa asboblarini, shuningdek, yasama sochlar, notalar va suyukli romanslarimni olishim kerak-da, – dedi Bir-ikk-uchs, yo‘lga otlanarkan. – Saroyda qancha vaqt bo‘lishimni bilmayman-ku. Men nazokat va latofatga odatlanganman, shuning uchun tez-tez kiyimimni almashtirib turishni yaxshi ko‘raman.

Raqsdan saboq olgani kelgan odamlar otlar orqasidan chopib borisharkan, ro‘molchalarini silkitishib, Bir-ikk-uchsga oq yo‘l tilab qichqirishardi.

Quyosh ancha balandga ko‘tarilgan edi.

Bir-ikk-uchs o‘zining saroyga chaqirtirilganidan xursand edi: u Uch Baqaloqni yaxshi ko‘rardi, chunki ularni boshqa hamma boyonlarning o‘g‘il va qizlari yaxshi ko‘rishardi. Boy qanchalik boyroq bo‘lsa, u Bir-ikk-uchsga shuncha ko‘proq xush yoqardi.

«Rost-da, – derdi u, – kambag‘allardan menga nima foyda? Ular raqs tushishga o‘rganishmasa! Qachon qarasang, ish bilan band bo‘lishadi, hamyonlarida hech qachon pul yurmaydi. Badavlat savdogarlar, boy oliftalar-u xonimlar boshqa gap! Ularning pullari doim ko‘p, undan keyin, ular hech qachon ishlashmaydi ham».

Ko‘rib turibsizlarki, Bir-ikk-uchs, o‘z ko‘nglida ahmoq odam emas edi, lekin bizningcha g‘irt ahmoqning o‘zi.

«Suok ahmoq! – deb ajablanardi u kichkina raqqosa qizni eslar-kan. – Nega u qashshoqlar, askarlar, kosiblar-u, juldurvoqi bolalar uchun raqs tusharkin? Axir ular kam haq to‘lashadi-ku».

Agar tentak Bir-ikk-uchs, o‘sha kichkina raqqosa qizchanning qashshoqlar, kosiblarning, juldurvoqi bolalarning sardori – qurolsoz Prosperoni qutqarish uchun eng xatarli ishga kirishganini bilsa, yana ham ko‘proq ajablansa kerak.

Otliqlar shamoldek tez yelib borardilar.

Yo‘lda sodir bo‘lgan voqealar juda alomat edi. Uzoqdan to‘xtovsiz «paq-puq» o‘q ovozi eshilib turdi. Shahar darvozasi oldida bir to‘da odam hayajonlanib turardi. Ba‘zan qo‘liga to‘pponcha ushlagan ikki-uch hunarmand yugurgancha ko‘chani kesib o‘tardi... Shunday ajoyib kunda baqqollar uchun ayni savdo qiladigan paytday tuyulsa ham, lekin ular derazalarini «taqa-taq» yopishib, go‘shtdor, lo‘ppi basharalarini darchadan chiqarib, ko‘chaga mo‘ralab turardilar. Turli-tuman ovozlari, baqiriqlar u mahalladan bu mahallaga eshilib turardi:

– Prospero!

– Prospero!

– U biz bilan!

– Bizlar bila-an!

Ba'zida bu yerdan terlab, ko'pirib ketgan otda bironta gvardiyachi g'izillab o'tardi. Ba'zida biror baqaloq odam halloslagancha tor ko'chaga o'zini urar, uning atrofida esa xo'jayinlarini himoya qilish uchun qo'llariga tayoq ushlagan mallasoch malaylari pildirab bori-shardi.

Bitta joyda xuddi shunaqa malaylar xo'ppa semiz xo'jayinlarini qo'riqlash o'miga, birdaniga, butun mahallani boshlariga ko'tarib shovqin solishganicha, uni do'pposlab ketishdi.

Buni ko'rgan Bir-ikk-uchs avvaliga, bir eski divanning changini qoqishyapti, deb o'yladi.

Baqaloq boyning malaylari uni o'ttiz-qirq marta tayoq bilan urib, bittama-bitta undan do'ng olishdi, keyin bir-birlarining yelkalaridan quchoqlashib, tayoqlarini silkitishganicha:

– Yo'qolsin Uch Baqaloq! Biz boylarga malay bo'lishni istamaymiz! Yashasin xalq! – deb qichqirishib allaqayoqqa yugurib ketishdi.

Atrofdan esa:

– Prospero!

– Pro-o-ospe-ero! – degan xitoblar eshutilib turardi.

Xullas, hamma yoqni qattiq hayajon qoplagan edi. Bamisoli qiyomat qoyim yaqinlashayotgandek edi.

Nihoyat, oxirgi hodisa yuz herdi.

O'n gvardiyachi Bir-ikk-uchsni olib ketishayotganda uch otliq ularning yo'lini to'sib chiqdi. Bular piyoda gvardiyachilar edi.

– To'xta! – dedi ulardan biri. Uning ko'k ko'zlari g'azabdan chaq-nab ketdi. – Kimsizlar?

– Ko'rmayapsanmi?! – dedi orqasiga Bir-ikk-uchsni mingashtirgan gvardiyachi ham shunday g'azab bilan.

Yeldek yugurib kelayotib, taqqa to'xtab qolgan otlar betoqat bo'lib yer depsinishardi. Ot afzallari zirillab titrardi. Raqs muallimi Bir-ikk-uchs ham qo'rqqanidan dag'-dag' titrardi. Lekin qaysi biri qattiqroq titrayotgani ma'lum emas edi.

– Biz Uch Baqaloq saroyining gvardiyasi askarlarimiz.

– Biz saroyga shoshilyapmiz. Bizni darhol o'tkazib yuboringlar.

Shunda ko'k ko'z gvardiyachi bo'ynidagi sharfi orasidan to'pponcha chiqarib dedi:

– Unday bo'lsa, to'pponcha-yu qilichlaringizni topshiring. Askarining quroli Baqaloqlarga emas, balki xalqqa xizmat qilishi kerak.

Otliqlarni qurshab olgan hamma gvardiyachilar yonlaridan to'pponchalarini chiqardilar.

Otliqlar ham qo'llariga qurollarini oldilar. Bu manzarani ko'rgan Bir-ikk-uchs hushidan ketib, otdan yiqilib tushdi. Uning qancha vaqt behush yotganini aniq aytish qiyin, lekin u hushiga kelganida uni kuzatib kelayotgan otliq gvardiyachilar bilan, ularning yo'lini to'sgan piyoda gvardiyachilar o'rtasidagi jang tugagan edi. Aftidan piyodalar g'olib chiqqanga o'xshardi. Bir-ikk-uchs yonida bir gvardiyachining o'lib yotganini ko'rdi. Bu – boya uni otiga mingashtirgan gvardiyachi edi.

– Qon, – deb g'uldiradi Bir-ikk-uchs ko'zlarini chirt yumib olarkan. Lekin yana bir zumdan keyin u besh battar hayratga tushdi.

Negaki uning karton qutisi majaqlangan edi. Quti ichidagi narsalar esa sochilib yotardi. Bir-ikk-uchsning antiqa kiyimlari, romanslari va yasama sochlari ko'chada tuproqqa qorilib yotardi...

– Oh!..

Demak, qizg'in jang paytida gvardiyachi o'ziga ishonib topshirilgan qutini qo'lidan tushirib yuborgan-u, u tosh ko'chaga tushib, majaqlanib ketgan.

– O! Oh!

Bir-ikk-uchs o'z buyumlari ustiga tashlandi. U qattiq sarosimaga tushib jiletleri, fraklari, paypoqlari, arzon, ammo bir qaraganda chiroyli, ko'rinuvchi tasmalar taqilgan tufillarini birma-bir ko'zdan kechirib chiqdi, yana paq etib yerga o'tirib oldi. Hasratining cheki yo'q edi. Uning hamma narsalari butun pardozi buyumlari shu yerda qolgan-u, lekin eng muhim narsa o'g'irlangan edi.

Bir-ikk-uchs o'zining bo'g'irsoqqa o'xshagan mushtumchalarini zangori osmonga ko'tarib nola cheka boshladi, bu payt uchta otliq esa otlarini Uchta Baqaloq Qasri tomon yeldek uchirib borardi.

Bu otlar boya, raqs muallimi Bir-ikk-uchsni olib ketayotgan otliq gvardiyachilardan jang paytida tortib olingan edi. Jang nihoyasida gvardiyachilardan biri o'ldirilib, qolgan ikkitasi taslim bo'lgan va xalq tomoniga o'tgan edi, shunda g'olib chiqqan piyoda gvardiyachilar pachaqlangan karton quti ichida dokaga o'ralgan pushti rang bir nimani topib olgandilar.

Keyin g'oliblardan uch kishi shu zahotiy oq gvardiyachilardan tortib olingan otlarga minishdi-da, ularni o'qday uchirib ketishdi.

Eng oldinda ot choptirib ketayotgan ko'k ko'z gvardiyachi dokaga o'ralgan allaqanday bir pushti narsani ko'kragiga mahkam bosib olgan edi.

Yo'lda uchragan odamlar, cho'chib o'zlarini chetga olardilar. Chunki gvardiyachining shlapasida qizil nishon qadalgan edi. Bu gvardiyachining xalq tomoniga o'tgani alomati edi.

Shuning uchun ham yo'lda uchragan odamlar, agar ular baqaloqlar yo mechkaylar bo'lishmasa, otliqlarni olqishlab ular orqasidan qarsak chalib qolishardi. Lekin ayni paytda ularga diqqat bilan qarab, hayratga kelib dong qotib qolishardi: chunki gvardiyachi ko'kragiga bosib borayotgan dokaga o'ralgan narsaning bir uchidan qiz bolaning oyoqlari osilib chiqib turardi, bu oyoqchalarga pushti rang tufli kiydirilgan bo'lib, uning tasmasi o'rniga oltin gul qadalgan edi...

XIII BOB. G'ALABA

Biz hozirgina g'ayrioddiy hodisalarga to'la tong pallasini tasvirlagan edik, endi yana orqaga qaytamiz-da, shu tong otguncha bo'lgan tungi fursat haqida hikoya qilamiz; o'zingizga ma'lum, o'sha tunda yuz bergan antiqa hodisalar ham xuddi subhidam paytida sodir bo'lgan voqealar singari juda g'aroyib edi.

Qurolsoz Prospero Uch Baqaloq Qasridan shu kechasi qochgandi, shu kechasi Suokni jinoyat ustida qo'lga tushirishgan edi.

Bulardan tashqari, shu tunda uchta kishi fonuslarini plashlarining bari bilan to'sib, valiahd Tutti uxlab yotgan oromxonaga kirib bordilar.

Bu voqea qurolsoz Prospero saroy shirapazlari xonasini vayron qilganidan, gvardiyachilar Suokni najotbaxsh kastrul oldida asir olishganidan bir soatcha keyin ro'y berdi.

Oromxona qop-qorong'i edi.

Baland-baland derazalardan osmondagi yulduzlar g'uj-g'uj bo'lib ko'rinardi.

Bola xotirjam va jimgina pishillab mast uyquda yotardi.

Bu yerga kelgan uch kishi qo'llaridagi fonuslarning shu'lasini azza-hazza yashirishga harakat qilardilar.

Ularning nima qilishayotgani bizga noma'lum. Faqat pichirlashib gaplashgani eshitalardi. Oromxona eshigining tashqari tomonida turgan soqchi, xuddi hech nima bo'lmagandek, hamon beparvo qaqqayib turardi.

Aftidan bu uch kishiga valiahd yotoqxonasiga kirib, o'z bilganlaricha ish tutish huquqi berilgan bo'lsa kerak.

Xabaringiz bor, valiahd Tuttning murabbiylari qo'rqoq odamlar edi. Qo'g'irchoq bilan bo'lgan voqea esingizda. Bog'da gvardiyachilar qo'g'irchoqni qilichlari bilan qiyma-qiyma qilib tashlashgan o'sha dahshatli voqea paytida murabbiyning o'zini qanday tutgani esingizda bo'lsa kerak. Keyin o'sha murabbiy bu shumxabarni Uch Baqaloqqa so'zlab berayotganida qo'rquvdan qanday qaltiraganini ko'z oldingizga keltirayotgandirsiz.

Endi navbatchi murabbiy ham juda qo'rqib ketdi.

Faraz qiling: uch notanish odam yotoqxonaga kirib kelganida navbatchi murabbiy o'sha yerda edi. U valiahdning oromini qo'riqlab deraza oldida kresloda o'tirar va uxlab qolmaslik uchun o'zining astronomiyadan olgan bilimini amalda tatbiq etish uchun yulduzlarni kuzatardi.

Bir mahal eshik «g'iyq» etib ochildi, chiroq shu'lasini lip etdi-yu, ko'ziga uchta sharpa ko'rindi. Murabbiy shu zahotiyoyq o'zini kresloning baland suyanchig'i panasiga oldi. U hammadan ham burnidan xavotirda edi: uzun burni ko'rinib qolib, ishkali chiqarishi mumkin edi. Darhaqiqat, judayam uzun antiqa burnining soyasi yulduzlar bodroqdek sochilgan derazaga aniq tushib turar, shunga ko'ra, xonaga kirgan sharpalarning ko'ziga tashlanishi hech gap emas edi.

Lekin qo'rqoq: «Zora ular burnimni kresloning yondoriga qilingan bezak deb o'ylashsa, yo bo'lmasa, ro'paradagi bo'g'otning soyasi deb o'tib ketishsa», deb o'ziga o'zi tasalli berardi.

Fonuslarning sarg'ish shu'lasida g'ira-shira ko'rinayotgan uchta sharpa valiahd yotgan karavot tepasiga bordi.

– Shu yerda, – deb pichirladi kimdir.

– Uxlayapti, – dedi ikkinchisi.

– Tss!..

– Qo'rqma. To'p otsang ham uyg'onmaydi.

– Bo'pti, boshlanglar.

Bir nima taqillab ketdi.

Murabbiyning peshonasidan sovuq ter chiqdi. Bu qo'rquv natijasida u o'z burnini yanayam cho'zilayotganday his qildi.

– Tayyor, – dedi pichirlab kimdir.

– Boshlanglar.

Yana bir nima jingirladi, keyin qandaydir idishda bir suyuqlik qulqilladi-yu, jildirab quyila boshladi. Keyin oraga yana jimlik cho'kdi.

– Qayoqqa quyay?

– Qulog'iga.

– U yuzini yostiqqa bosib uxlab yotibdi. Ayni muddao. Qulog'iga quyding...

– Lekin ehtiyot bo'ling. Tomchilab quyding.

– Rosa o'n tomchi.

– Birinchi tomchi muzdek sovuq tuyuladi, ikkinchi tomchi hech nima his qildirmaydi, chunki birinchi tomchi tomgan zahoti o'z ta'sirini ko'rsatadi. Shu birinchi tomchining o'zi har qanday sezgini o'ldirib bo'ladi.

– Birinchi ikki tomchini ketma-ket tomizinglar. – Aks holda, bola xuddi badaniga muz tekkandek seskanib uyg'onib ketishi mumkin.

– Tss!.. Quyyapman... Bir, ikki!..

Shu mahal murabbiyning dimog'iga marvaridgulning o'tkir hidi «gup» etib urildi. Bu hid butun xonani tutib ketdi.

– Uch, to'rt, besh, olti... – kimdir pichirlab tez-tez sanay boshladi.

– Bo'ldi.

– Endi u uch kungacha qimirlamay uxlaydi.

– Qo'g'irchoqning holi nima kechganini bilmaydiyam...

– Uyg'onganida hammasi tugagan bo'ladi.

– Bo'lmasa, dod-voy solib butun Qasrni boshiga ko'tarishi, yig'layverib Uch Baqaloqning miyasini yeyishi mumkin edi. Natijada ular qizchanning gunohidan kechib, uni ozod qilishga majbur bo'lardilar...

Uch notanish sharpa g'oyib bo'ldi. Kreslo o'rindig'ida dag'-dag' qaltirab yotgan navbatchi murabbiy o'rnidan turdi. Xuddi zarg'aldoqrang gul shaklida alangalanib yonuvchi kichkinagina chiroqchani yoqdi-da, karavot boshiga bordi.

Valiahd Tutti to'r hoshiyali ich kiyimda ustiga shohi choyshab yopinib uxlab yotardi; u jussasi kichkinagina bo'lsa ham, salobatli ko'rinardi.

Uning paxmaygan oltinrang sochli boshi katta-katta yostiqlarga botib yotardi.

Murabbiy engashib, chiroqni bolaning bo'zargan yuziga yaqin tutdi. Uning jajjigina qulog'ida bir tomchi dori xuddi chig'anoq ichidagi inju donasidek yiltirab turardi. Bu tomchida sariq va yashil shu'la tovlanardi. Murabbiy shu tomchiga jimjilog'ini tekkizgan edi, shu zahoti jajji quloqcha ichida hech nima qolmadi, lekin tarbiyachining butun qo'li qaqshatuvchi qattiq sovuqdan zirqirab og'riy boshladi.

Bola mast uyquda yotardi.

Yana bir necha soatdan keyin esa biz kitobxonlarimizga hikoya qilib berganimiz o'shal ajoyib tong otdi.

Shu kuni ertalab raqs muallimi Bir-ikk-uchsnig boshiga qanday savdo tushganini bilamiz, lekin shu kuni ertalab Suokka nima bo'lganini bilish biz uchun qiziqarliroqdir. Axir biz uni nihoyatda mudhish ahvolda qoldirgan edik-da!

Avvaliga qizchani zindonga tashlamoqchi bo'lishdi.

– Yo'q, bu juda mushkul, – dedi Davlat kansleri. – Biz zudlik bilan odilona hukm chiqaramiz.

– To'g'ri, shu qiz bilan pachakilashib o'tiramizmi? – deyishdi Baqaloqlar.

Lekin shuni unutmanglarki, Uch Baqaloq qoplon hujumidan qochishganda o'takalari yorilib, juda qattiq azob chekkan edilar. Shuning uchun ular hozir dam olishlari kerak edi.

– Biz biroz mizg'ib olaylik. Sudni ertalabga qoldiramiz, – deyishdi ular.

Shunday deyishdi-yu, uchovlari o'z yotoqxonalariga kirib ketishdi.

Davlat kansleri qo'g'irchoq bo'lib olgan qizchani sud o'limga hukm qilishini aniq bilardi, shuning uchun ham u, tag'in valiahd Tutti yig'layverib o'lim hukmini bekor qilmasin, deb uni dori bilan uxlatib qo'yish haqida buyruq bergan edi.

Demak, boyagi fonus ko'targan uch sharpa, kanslerning buyrug'ini bajargan ekan.

Valiahd Tutti uxlab yotardi.

Suok esa qorovulxonada o'tirardi. Qorovulxona – kordegardiya deb atalardi. Shunday qilib, Suok bugun ertalab kordegardiya o'tirardi. Uni gvardiyachilar qo'riqlashardi. Kordegardiya kirib qolgan begona odam, bu pushti rang ko'ylak kiygan judayam xushbichim, ammo

ma'yus qiyofali ko'hlikina qizcha, nima uchun bunday yerda gvardiyachilar orasida o'tiribdi, deb hayron bo'lib uzoq vaqtgacha turib qolgan bo'lardi. Hamma yoqda egar-jabduqlar, qurol-yarog'lar, pivo krujalari ivirsib yotgan bu sharoitga qizchanning qiyofasi aslo yopishmasdi.

Gvardiyachilar qarta o'ynashar, trubka chekishib, ko'kish, sassiq tutun qaytarishar, bo'ralab so'kinishar, dam-badam bahona axtarib, bir-birlari bilan mushtlashishardi.

Bu gvardiyachilar Uch Baqaloqqa hali sodiq edilar. Ular bahaybat mushtlarini do'laytirib Suokka po'pisa, do'q qilib, yer tepishar, aftlarini xunuk irjaytirishardi.

Suok bularning hammasiga parvo qilmay o'tirardi. U gvardiyachilarning yuzini ko'rmaslik uchun, ularga ters o'girilib oldi-da, shu ko'yi masxara qilganday tilini chiqarib, bir soatcha o'tirdi.

Bochkacha ustida o'tirish unga qulay tuyuldi. To'g'ri, bunaqa o'tirishda ko'ylagi g'ijimlanardi, lekin busiz ham ko'ylagi butunlay rasvo bo'lgan edi: ko'ylagi daraxt shoxlariga ilinib yirtilgan, mash'ala olovi tegib kuygan, gvardiyachilar g'ijmaloq qilib tashlashgan, hamma yog'iga qiyom shirasi yopishgan edi.

Suok o'zining nima bo'lishini o'ylamasdi. Uning yoshidagi qizchalar oshkora xavfdan qo'rqishmaydi. Ular hatto o'zlariga o'qtalgan to'pponchadan ham hayiqishmaydi, ammo qorong'i xonada yolg'iz qolishdan judayam qo'rqishadi.

Suok bunday o'ylardi: «Qurolsoz Prospero ozodlikda. Hozir Tibil bilan ikkovi kambag'allarni saroyga boshlab borishadi. Keyin ular meni ozod qilishadi».

Suok shu ko'yi o'y-o'ylab o'tirganida shahar tomondan uch gvardiyachi, ot choptirib saroyga yetib keldi – bular to'grisida biz oldingi bobda gapirgan edik. O'zingizga ma'lum, ulardan biri – ko'k ko'z gvardiyachi, allaqanday sirli tugun ko'tarib olgan ediki, u tugundan qiz bolaning oyoqchalari chiqib turar, u oyoqchalarga pushti rang tufli kiydirilgan bo'lib, tufli tasmasi o'rniga oltin gul qadalgan edi.

Uch gvardiyachi ko'prikka yaqinlashganida shlapalariga qadalgan qizil nishonlarini yulib oldilar, chunki ko'prikdagi postda turgan soqchi Uch Baqaloq tarafida edi.

Bu otliqlar saroyga kirishlari kerak edi, shuning uchun ham ular shlapalariga qadalgan nishonni, soqchi ko'rmasin, deb olib qo'ygan edilar.

Bo'lmasa, ularning shlapasiga qadalgan qizil nishonlarni ko'rib qolgan soqchi gvardiyachilarga qarata o'q otgan bo'lardi, negaki ular xalq tomoniga o'tgan edilar-da.

Ular qorovulxona yonidan shamoldek g'izillab o'tib ketishayotganda sal bo'lmasa qorovul boshlig'ini bosib yuboray deyishdi.

– Judayam muhim bir xabar olib ketishyapti chog'i, – dedi qorovul boshlig'i boshidan uchib ketgan shlapasini yerdan olib, mundirining changini qoqarkan.

Xuddi shu payt Suokning janozasi o'qilgan edi. Chunki kordegardi-yaga Davlat kansleri kirib kelgan edi.

Gvardiyachilar «dik» etib o'rinlaridan turib ketishdi, xuddi belku-rakdek keladigan qo'lqop kiygan qo'llarini yonlariga tushirib, qimir etmay qotib turishdi.

– Qizcha qani? – deb so'radi kansler ko'zoynagini ko'tarib.

– Qani, bu yoqqa kel! – deb qichqirdi gvardiyachilarning boshlig'i qizchaga.

Suok bochkachadan sirg'anib yerga tushdi.

Gvardiyachi uning belidan qo'pol qilib ushlab qo'ltiqlab ko'tarib oldi.

– Uch Baqaloq buni Sud zalida kutishmoqda, – dedi kansler ko'zoynagini tushirib. – Qizchani ko'tarib orqamdan boringlar.

Kansler shunday deb kordegardi-yadan chiqdi. Gvardiyachi bir qo'lida Suokning belidan osiltirib ko'tarib olgancha uning orqasidan chiqdi.

O, oltin gullar! O, pushti rang ipak! Bularning hammasi berahm gvardiyachining qo'lida xazon bo'la boshlagan edi.

Gvardiyachining dahshatli qo'lida xuddi jomadon singari osilib bo-rish juda alamli va noqulay edi, shuning uchun ham Suok o'sha gvar-diyachining bilagidan chimchilab oldi. Chimchilagandayam birakay chimchilagan ekan deng, mundirning yengi qalin bo'lishiga qaramay gvardiyachining qo'lini o'yib olganday bo'ldi.

Shunda gvardiyachi:

– Padar la'nat! – deya so'kinarkan, qizchani qo'lidan tushirib yubordi.

– Nima gap? – dedi kansler orqasiga o'girilib.

Xuddi shu payt hech kutilmaganda kimdir kanslerning quloq-chak-kasiga musht tushirdi. Kansler yiqilib tushdi.

Uning ketidan zum o'tmay boyagi Suok chimchilab olgan gvardiyachi ham quladi.

U ham quloq-chakkasidan musht yegan edi. Uni urishganda ham birakay urishgan edi! Negaki, bunday bahaybat va badqahr gvardiyachini urib yiqitib hushidan ketkazish uchun qanday kuchli zarba bo'lishi kerakligini o'zingiz tasavvur qilishingiz mumkin.

Suok o'zini o'nqlab olishga ulgurmay, uni yana kimdir qo'lga ko'tarib olib keta boshladi.

Bu ham dag'al va kuchli qo'l edi, lekin Suokni ancha avaylab ko'targan edi, Suok bu qo'lda o'zini ancha erkin his qila boshladi; boya uni ko'tarib ketayotgan gvardiyachi esa endi hushidan ketib yaltiroq polda uzala tushib yotardi.

– Qo'rqma! – deb pichirladi qizchaga kimdir.

Sud zalida esa Uch Baqaloq uni sabrsizlik bilan kutayotgan edilar. Ayyor qo'g'irchoqni ularning o'zlari sud qilishmoqchi. Ularning atrofida mansabdorlar, maslahatchilar, sudyalar va kotiblar o'tirishardi. Bu odamlarning boshlaridagi to'q qizil, och binafsha, och yashil, malla, oq, oltinrang... yasama sochlar quyosh shu'lasida yal-yal tovlanardi. Lekin hatto quyoshning sho'x shu'lasida ham bu yasama sochlar ostidagi tumshaygan basharalarga husn kiritma olmas edi.

Uchala Baqaloq hali ham issiqdan qiynalib o'tirishibdi. Hamma yoqlaridan duv-duv to'kilayotgan terlar oldilarida turgan oq qog'ozlarni ho'l qilib yuborayotgandi. Kotiblar daqiqa sayin ularning oldidagi qog'ozni o'zgartirib turishardi.

– Kanslerimiz bizni kuttirib qo'ydi-yu, – dedi Birinchi Baqaloq xuddi dorga osilgan odamday barmoqlarini o'ynatib.

Mana, nihoyat ular kutgan odamlar yetib kelishdi.

Zalga uch gvardiyachi kirdi. Ulardan biri qizchani qo'lga ko'tarib olgan edi. O, naqadar ma'yus edi qizchanning chehrasi!

Kecha oftobdek tovlanib, qimmatli ajib bezaklari bilan odamlarning ko'zini qamashtirgan pushti rang ko'ylak endi ayanchli bir uvadaga aylangan edi. Oltin gullar so'lgan, yaltiroq pistonlar to'kilib bitgan, shohi mato g'ijimlanib to'zib ketgan. Qizcha g'amgin boshini gvardiyachining yelkasiga qo'ygan edi. U xuddi murdadek oqarib ketgan, mug'ambirona boquvchi qo'yko'zlarida nur so'ngan edi.

Rang-barang yasama soch kiygan majlis ahli boshini ko'tardi.

Baqaloqlar qo'llarini ishqalashardi.

Kotiblar o'zlarining uzun quloqlariga qistirilgan uzun patqalamlarni qo'llariga oldilar.

– Xo'–o'sh, – dedi Birinchi Baqaloq. – Davlat kanslerining o'zi qayerda qoldi?

Qizchani ko'tarib turgan gvardiyachi majlis ahli oldiga chiqib javob qilarkan, uning ko'k ko'zlari sho'x chaqnaq ketdi.

– Yo'lda kelayotganimizda janob Davlat kanslerining ichburug' kassallari tutib qoldi.

Bu izohdan hamma qanoat hosil qildi.

Sud boshlandi.

Gvardiyachi bechora qizchani sudyalar stoli ro'parasida turgan dag'al kursiga o'tqizdi. Qizcha boshini yerga egib o'tirardi.

Birinchi Baqaloq so'roq qila boshladi.

Lekin so'roqni davom ettirishga juda muhim bir sabab to'sqinlik qildi: Suok bironta ham savolga javob berishni istamadi.

– Durust! – dedi achchig'i chiqqan Baqaloq. – Durust! O'ziga qiyyin. Savolimizga javob berishni istamayapti, juda soz... Bunaqa bo'lsa, yanayam dahshatliroq jazo o'ylab topamiz unga!

Suok qimir etmasdi.

Uch nafar gvardiyachi Suok tegrasida xuddi toshdek qotib turardilar.

– Guvohlar chaqirilsin! – deb farmoyish berdi Baqaloq.

Guvoh faqat bitta edi. Uni boshlab kirishdi. Bu muhtaram zoolog, hayvonot bog'i noziri ekan. Esingizda bo'lsa, u kechasi daraxt shoxiga ilinib qolgan edi. Mana, uni hozirgina daraxtdan tushirishib, to'g'ri bu yerga olib kelishibdi. Shuning uchun ham, u o'sha gulli xalatida, qalami ko'ylak-ishton va tungi qalpoqda Sud zaliga kirib kelgan edi. Uning orqasidan qalpog'ining popugi xuddi ichakdek cho'zilib kelardi.

Zoolog kursida o'tirgan Suokni ko'rib, qo'rqqanidan gandaraklab ketdi. Uni qo'ltig'idan ushlab qolishdi.

– Bo'lgan voqeani gapirib bering.

Zoolog butun voqeani batafsil gapirishga kirishdi. U daraxtga chiqib, shoxlar orasida valiahd Tuttining qo'g'irchog'ini ko'rib qolgani so'zlab berdi. Umridda hech qachon tirik qo'g'irchoqni ko'rmagani uchun u qo'g'irchoqlarning kechalari daraxtga chiqib o'tirishini tasavvur ham qilolmaganidan judayam qo'rqib, hushidan ketganini aytib berdi.

– Qanday qilib qurolsoz Prosperoni ozod qildi bu qo'g'irchoq?

– Bilmayman. Men buni ko'rganim ham, eshitganim ham yo'q. Men judayam qattiq hushimdan ketib qolgan ekanman.

– Qani, yaramas qiz, javob berasanmi yo yo'qmi, qanday qilib qurolsoz Prospero ozodlikka chiqib qoldi?

Suok jim edi.

– Silkitinglar uni.

– Qattiqroq! – deb buyurishardi Baqaloqlar.

Ko'k ko'z gvardiyachi qizchanning yelkasidan ushlab silkitdi. Buning ustiga-ustak, qizchanning peshonasiga og'ritib bir chertdi ham. Suok churq etmasdi.

Baqaloqlarning joni chiqib xirillay boshlashdi. Rang-barang boshlar xuddi tanbeh berayotgandek sarak-sarak qila boshladilar.

– Nazarimda, – dedi Birinchi Baqaloq, – biz bunaqada hech nimani bilolmaydiganga o'xshaymiz.

Zoolog shu gapni eshinishi bilan birdan o'z peshonasiga bir shapati urdi.

– Eh, esim qursin, mana men bilaman qanday yo'l tutish kerakligini!

Butun majlis ahli qulog'ini ding qildi.

– Hayvonot bog'ida to'tiqushlar solingan bir qafas bor. U qafasda to'tiqushlarning dunyoda siyrak uchraydigan turlari yashaydi. To'tiqushlar inson nutqini eslab qolib, keyin uni mutlaqo bekam-u ko'st takrorlashlari mumkinki, bu narsa sizlarga ma'lum bo'lsa kerak, albatta. Ko'pchilik to'tiqushlar juda ajoyib eshinish qobiliyatiga va ajoyib xotiraga ega bo'lishadi... O'ylaymanki, ular tunda hayvonot bog'ida mana bu qizcha bilan qurolsoz Prospero o'rtasida bo'lgan gapni ipidan ignasigacha eslab qolgan bo'lishlari kerak... Shunga ko'ra, men Sud zaliga o'sha ajoyib to'tiqushlarimdan biron-tasini guvoh sifatida chaqirtirishni taklif qilaman.

Hamma bu taklifni ma'qullab, g'ovur-g'uvur ko'tardi.

Zoolog hayvonot bog'iga borib, bir zumda qaytib keldi. Uning ko'rsatkich barmog'ida uzun qizil soqolli kattakon bir qari to'tiqush qo'nib o'tirardi.

Bir eslab ko'ring: Suok tunda hayvonot bog'ida tentirab yurganida – esingizga tushgandir! Qafasdagi to'tiqushlardan biri qizchaga shubhali bo'lib ko'ringan edi. Esingizda bo'lsa, o'sha to'tiqush Suokka

xuddi uxlayotganday bo'lib, yumuq ko'z bilan qaragan, keyin uzun qizil soqoliga tumshug'ini tiqib jilmayib qo'ygani edi.

Hozir ham aynan o'sha qizil soqol to'tiqush o'z qafasida kumush qo'noqda qanday qo'nib o'tirgan bo'lsa, zoologning barmog'ida ham shunday bamaylixotir o'tirardi.

Endi u bechora Suokning ayblarini fosh qilishi mumkinligidan xursand bo'lib, oshkora jilmayardi.

Zoolog to'tiga nemis tilida gapira boshladi. Unga qizchani ko'rsatishdi.

Shunda qush qanotlarini patillatib:

– Suok! Suok! – deb chinqirdi.

Uning ovozi oshiq-moshig'i zanglab qolgan eski eshikning shamolda ochilib-yopilishiga o'xshardi.

Odamlar jim edi.

Zoologning og'zi qulog'ida edi.

To'tiqush esa chaqimchilik qilishda davom etardi. U kechasi ni maniki eshitgan bo'lsa, hammasini bekam-u ko'st takrorladi. Shuning uchun, agar qurolsoz Prosperoning qanday ozod qilangani sizni qiziqtirayotgan bo'lsa, to'tiqushning chinqiriqlariga diqqat bilan quloq soling.

O! Bu chindanam to'tilarning eng noyob turi edi. Uning chiroyli qizil soqolining o'zi har qanday generalning havasini keltirishi mumkin edi. Lekin hozir biz bu haqda gapirmaymiz. To'ti odamlar ovoziga nihoyatda zo'r mohirlik bilan taqlid qilardiki, biz buni quyida isbot tariqasida keltirmoqchimiz.

– Kimsan? – deb shang'illadi to'ti erkakcha ovoz bilan.

Shu chog'ning o'zida qiz bolaning ovoziga taqlid qilib chiyillab javob berdi o'zi:

– Men Suokman.

– Suok!

– Meni Tibul yubordi. Men qo'g'irchoq emasman. Men jonli qizchaman. Men sizni ozod qilgani keldim. Mening hayvonot bog'iga qanday kirganimni ko'rmadingizmi?

– Yo'q. Ko'zim ketgan bo'lsa kerak. Bugun birinchi marta uxlab qolibman.

– Men bu yerda sizni qidirib yuribman. Men anavi yerda bir bahaybat maxluqni ko'rdim, u odamga o'xshab gapirdi. Men uni siz deb o'ylabman. O'sha maxluq o'ldi.

– U – Tub. Demak o‘ldi degin?

– O‘ldi. Men qo‘rqib ketib chinqirib yubordim. Ovozimni eshitib gvardiyachilar yugurib kelishdi, men ulardan qochib daraxtga chiqib berkinib oldim. Yaxshiyam tirik ekansiz, ko‘rib xursand bo‘ldim. Men sizni qutqargani keldim.

– Qafasimni ochib bo‘lmaydi, u qulflangan.

– Menda o‘sha qulfning kaliti bor.

To‘tiqush shu oxirgi jumalani chiyillab gapirganida hamma darg‘azab bo‘lib ketdi.

– Voy, yaramas qiz-e! – deb baqirishdi Baqaloqlar. – Endi hamma narsa oydinlashdi. Demak, u valiahd Tuttidan kalitni o‘g‘irlab, qurolsozni qafasdan ozod qilgan. Qurolsoz bo‘lsa, oyoq-qo‘lidagi kishanlarni parchalab, qoplon yotgan qafasni buzgan, keyin hayvonot bog‘idan bemalol chiqib olish uchun, qoplonni yetaklab olgan.

– Ha!

– To‘g‘ri!

– Shunday qilgan!

Suok bo‘lsa hamon jim edi.

To‘ti tasdiq ma‘nosida soqolini selkillatdi va qanotlarini uch marta qoqdi.

Sud majlisi tugadi. Hukm chiqarildi:

«Soxta qo‘g‘irchoq valiahd Tuttini aldagan. U Uch Baqaloqlarning ashaddiy dushmani bo‘lmish eng yirik jinoyatchi – qurolsoz Prosperoni qafasdan ozod qilgan. Shu qiz tufayli eng yaxshi qoplon nobud bo‘ldi. Shu ayblariga ko‘ra firibgar qiz o‘limga hukm qilinadi. U hayvonlar oldiga tashlanadi».

Buni qarangki, hatto shu dahshatli hukm o‘qilgandayam Suok qimir etmadi!

Butun majlis ahli gurra ko‘tarilib hayvonot bog‘i tomon yo‘l oldi. Bu yerda qafaslardagi hayvonlar olomoni o‘kirishib, chiyillashib, na‘ra solishib qarshi olishdi. Hammadan ko‘proq zoolog hayajonlanardi: axir u hayvonot bog‘ining nazoratchisi edi-da!

Uchta Baqaloq, maslahatchilar, mansabdorlar va boshqa saroy a‘yonlari atrofi panjara bilan o‘ralgan minbardan joy olishdi.

O, bugun quyosh naqadar mayin nur sochardi! O, osmon nihoyatda beg‘ubor edi! To‘tiqushlarning qanotlari yaraqlar, maymunlar o‘z qafaslarida u yoqdan bu yoqqa zir yugurishar, och yashil tusli fil raqs tushardi!

Bechora Suok! U qayrilib ham qaramasdi bularga. Ehtimol u, xuddi sakrashga shaylanayotganday bo'lib, tizzalarini bukkancha u yoqdan bu yoqqa tanda qo'yayotgan yo'lbarslarning iflos qafaslaridan qo'rquv to'la ko'zlarini uza olmayotgandir. Yo'lbarslar arilarga o'xshashardi – har holda, ular ham arilarga o'xshab sariq rangda bo'lib, yo'l-yo'l jigar-rang chiziqlari bor edi.

Ular odamlarga qovoqlarini uyib, o'qrayib qarardilar. Ahyon-ahyonda esnab, qip-qizil og'izlarini unsiz ochardilar, og'izlaridan sasigan xom go'shtning qo'lansa hidi kelardi.

– Bechora Suok!

– Alvido sirk, alvido bozor maydonlari, alvido Avgust amaki, alvido qafasdagi tulki, alvido aziz, pahlavon, botir Tibul!

Ko'k ko'z gvardiyachi qizchani hayvonot bog'ining qoq o'rtasiga olib chiqib, yaltiroq issiq grafit to'kilgan yerga yotqizib qo'ydi.

– Shoshmanglar, – dedi birdan maslahatchilardan biri. – Valiahd Tuttiga nima deb javob qilamiz? Axir agar u o'z qo'g'irchog'ining yo'lbars panjasida nobud bo'lganini bilsa, yig'layverib o'lib qoladi-ku.

– Tss! – deb pichirladi yonida o'tirgan odam. – Tss! Valiahd Tuttini dori berib uxlatib qo'yishgan... U endi uch kungacha uyg'onmaydi, kim bilsin, undan ham ko'proq vaqtgacha uyg'onmas...

Hammaning nigohi qafaslar oralig'idagi doira maydonchada yotgan ayancli pushti rang narsaga qaratilgan edi.

Shu payt bu davraga uzun qamchisini sharaqlatib, to'pponchasini o'tob shu'lasida yaraqlatib hayvonlarni o'rgatuvchi kishi chiqdi. Musiqachilar marsh chala boshladilar. Suok oxirgi marta olomon oldida shu yo'sinda paydo bo'lgan edi.

– Alle! – deb qichqirdi hayvonlarni o'rgatuvchi.

Qafasning temir eshigi sharaqlab ochildi. Yo'lbarslar qafaslaridan salobat bilan unsiz yugurib chiqishdi.

Baqaloqlar xaxolab kula boshladilar. Maslahatchilar ularga jo'r bo'lib yasama sochlarini selkillatib hirlinglashdi. Qamchi sharaqladi.

Uchta yo'lbars Suokning tepasiga yugurib kelishdi.

Suok harakatsiz qo'yko'zlarini osmonga tikkancha qimir etmay yotardi. Butun olomon o'midan turib ketdi. Hamma yo'lbarslar xalqing kichik do'stini qanday xomtalash qilishini ko'rgan zahoti quvonchdan chinqirib yuborishga shay bo'lib turardi.

Biroq... Suokning tepasiga kelgan yo'lbarslardan biri do'ngpeshona boshini egib, qizchani hidlab ko'rdi, ikkinchisi mushuknikiga o'xshagan panjasi bilan turtib ko'rdi, uchinchi yo'lbars esa yerda yotgan qizchaga qiyoy ham boqmay uning yonidan yugurib o'tib ketdi va minbar qarshisiga borib, orqa oyoqlariga turdi-da, Baqaloqlarga qarab irillay boshladi.

Ana shundagina hamma bu yerda yotgan tirik qiz emas, balki qo'g'irchoq, qo'g'irchoq bo'lganda ham, dabdala bo'lib uvadasi chiqqan, hech nimaga yaroqsiz bo'lib qolgan qo'g'irchoq ekanligini payqadi.

Bo'ldi hangoma, bo'ldi hangoma! Zoolog izza bo'lganidan tilining yarmini g'archcha tishlab uzib oldi. Hayvonlarni o'rgatuvchi kishi yo'lbarslarni qaytadan qafaslariga haydab kiritdi va o'lik qo'g'irchoqni nafrat bilan bir tepib, egnidagi zarrin bog'ichlar bilan bezatilgan maxsus ko'k kastumini yechgani kirib ketdi.

Olomon besh daqiqagacha gung bo'lib sukutga toldi.

Keyin bu sukunatni mutlaqo kutilmagan bir hodisa buzdi: hayvonot bog'i tepasida, moviy osmonda bomba portladi.

Barcha tomoshabinlar minbarlarning yog'och poliga muk tushib yotib oldilar. Hamma hayvonlar orqa oyoqlariga turdilar. Ketma-ket ikkinchi bomba ham portladi. Osmonni doirasimon oppoq tutun qopladi.

– Bu nima? Nima gap o'zi? Nima bo'ldi? – deya baqira boshlashdi odamlar.

– Xalq hujumga o'tibdi!

– Xalqda zambaraklar bor ekan!

– Gvardiyachilar xiyonat qilishdi!

– O! A! O!!!

Bog' shovqin-suron, baqiriq-chaqiriq, o'q ovozlari to'lib ketdi. Isyonchilar bog'ga bostirib kirishgan edi – bu yaqqol ko'rinib turardi!

Xaloyiq hayvonot bog'idan qocha boshladi. Ministrlar qilichlarini yalang'ochladilar.

Baqaloqlar hamma yoqni boshlariga ko'tarib baqira boshladilar.

Ular bog'da quyidagi voqeaning shohidi bo'ldilar:

Hamma tomondan odamlar bostirib kelishardi. Odamlarning son-sanog'i yo'q... Yalangboshlar, qonagan peshonalar, yirtilgan kamzullar, baxtiyor chehralar... Bu kelayotganlar – bugun g'alaba qozongan xalq edi. Gvardiyachilar xalq bilan aralashib ketishgandi. Ularning shlapalarida qizil nishonlar yaraqlardi. Ishchilar ham qurollangan edilar. Eg-

niga jigarrang kamzul, oyog'iga yog'och kavushlar kiygan kambag'al-lar butun bir qo'shin bo'lib yopirilib kelishardi. Ularning bo'rondek yopirilib kelishidan daraxtlar egilar, butalar shitirlardi:

– Biz yengdik! – deb qichqirardi xalq.

Uch Baqaloq najot yo'li yo'qligini sezishdi.

– Yo'q! – deb chiyilladi ulardan biri. – Yolg'on! Gvardiyachilar, ularga qarata o't ochinglar!

Lekin gvardiyachilar kambag'al xalq bilan bir safda turardilar. Shunda butun olomonning shov-shuvini bosib, kuchli bir na'ra eshitildi. Bu qurolsoz Prosperoning ovozi edi:

– Taslim bo'linglar! Xalq g'alaba qozondi. Endi boylar va mechkaylar saltanati qulatildi. Butun shahar xalq qo'liga o'tdi. Hamma Baqaloqlar asirga olindi.

Baqaloqlarni dengizdek to'lqinlanayotgan rang-barang libosli odamlar xuddi qalin bir devordek qurshab olishdi.

Odamlar qizil bayroqlarni hilpiratishar, tayoqlar, qilichlar va mushtlarini havoda silkitishardi. Mana shu choq qo'shiq boshlanib ketdi.

Boshiga bog'langan lattadan qon sirqib turgan Tibul o'zining o'sha yashil plashida Prospero bilan yonma-yon turardi.

– Bu tush bo'lishi kerak! – deb qichqirdi Baqaloqlardan biri, ko'zlarini qo'llari bilan berkitarkan.

Tibul bilan Prospero qo'shiq aytib boshlashdi. Minglab odamlar ularga jo'r bo'lishdi. Qo'shiq butun ulkan bog' bo'ylab, kanallar, ko'priklar osha yangrardi. Shahar darvozasi tomondan Qasrga bostirib kelayotgan xalq qo'shiqni eshitib, u ham jo'r bo'la boshladi. Qo'shiq xuddi dengiz to'lqinlari singari dovon oshib, katta yo'l bo'ylab, darvoza orqali shaharga oqib kirar, bu yerda ishchilar va kambag'allar bosh ko'targan ko'chalar bo'ylab yangrardi. Bu qo'shiqni endi butun shahar kuylardi. Bu o'z zolimlari ustidan g'alaba qozongan xalqning qo'shig'i edi.

Bu qo'shiqdan nafaqat Qasrda qo'lga tushgan Uch Baqaloq va ularning Ministrlari qo'rqib ketib, g'ujanak bo'lishar, junjikishar va ayanchli bir podaga aylanishar edi, shuningdek, shahardagi barcha oliftalar, xo'ppa semiz baqqollar, mechkaylar, savdogarlar, aslzoda xonimlar-u, boshi kal generallar ham go'yo zambarak va multiqlardan otilgan o'qlardan qo'rqishganday sarosimaga tushishib, chor atrofga tiraqaylab qochishardi.

Ular yashiringani pana joy axtarishar, quloqlarini berkitishar, boshlarini kashta gulli qimmatbaho yostiqlar ostiga yashirishardi.

Buning oqibati shu bilan tugadiki, boylar gala-gala bo'lishib, gavan sari qocha boshlashdi. Butun boyliklari xalq qo'liga o'tgan bu mamlakatdan tezroq bosh olib ketish maqsadida apil-tapil kemalarga chiqqa boshladilar, ular endi bu yerda o'z amallaridan, aqchalaridan judo bo'lishgan, endi avvalgiday ishlamay yallo qilib yashashdan mahrum bo'lishgan edi. Lekin limanga borishganida hammalari matroslar qo'liga tushishdi. Boylar qamoqqa olindi. Ular endi:

– Bizga tegmanglar! Biz endi sizlarga hech ham zulm qilmaymiz... – deya kechirim so'ray boshlashdi.

Lekin xalq baribir ularga ishonmadi, chunki boylar hamma vaqt ham kambag'al va ishchilarni aldab kelgan edilar.

Quyosh shahar tepasida qiyomga kelgan edi. Beg'ubor osmon mo'viy rangda. Bu manzarani ko'rgan odam xalq ulkan ajoyib bayramni namoyish qilyapti. deb o'ylashi mumkin edi.

Hamma narsa: arsenallar¹, kazarmalar, saroylar, g'alla omborlari, do'konlar xalq qo'liga o'tgan edi. Hamma yerda shlapalariga qizil nishon qadalgan gvardiyachi soqchilar turishardi.

Chorrahalarda:

Kambag'allar qo'li bilan bunyod etilgan hamma narsa kambag'allarniki!

Yashasin xalq!

Yo'qolsin yalqovlar va mechkaylar!

degan so'zlar yozilgan alvonlar hilpirab turardi.

Xo'sh, Uch Baqaloqqa nima bo'ldiykin?

Ularni xalqqa ko'rsatish uchun Qasrning eng yirik zaliga olib bordilar. Yashil qaytarma yoqali, kulrang kurtka kiygan ishchilar ularni qo'riqlab bordilar. Zal quyoshning zarrin nurlarida yaraqlab tovlanardi. Bu yerga to'plangan odamlar behisob edi! Lekin bugungi xaloyiq kichkina Suok valiahd Tutti bilan uchrashganda to'plangan odamlarga mutlaqo o'xshamas edilar.

¹ *Arsenal* – bu o'rinda qurol-yarog' ombori.

Bugun bu yerga Suokni maydonlar va bozorlarda olqishlagan tomoshabinlarning bari to'plangan edi. Ammo ularning chehralari endi quvnoq va baxtiyor ko'rinardi. Odamlar qisilishar, bir-birlarining yelkalarini bosib-itarib kelishar, kulishardi. Ba'zilar xursand bo'lganlaridan yig'lashardi.

Qasming muhtasham zallari bunaqa mehmonlarni hech qachon ko'rmagan edi. Shuningdek, hech qachon oftob bugungidek charaqlab nur sochmagan edi.

– Tss!

– Jim!

– Jim bo'linglar!

Zina boshida asirlar to'dasi paydo bo'ldi. Uch Baqaloq yerdan ko'zini uzmasdi. Oldinda Prospero bilan Tibul tushib kelishardi.

Jo'shqin hayqiriqlardan salobatli ustunlar tebranganday bo'ldi. Uch Baqaloqning esa quloqlari bitib qoldi. Qo'rqinchli baqaloqlarning xalq qo'liga asir tushganini namoyish qilish uchun ularni xalqqa yaqinroqdan ko'rsatmoqchi bo'ldilar va uchovlarini zinadan pastga olib tusha boshladilar.

– Mana, – dedi Prospero ustun yonida turib.

Uning alp qomati shu ulkan ustunning deyarli yarmiga yetgan edi, malla sochli boshi quyosh shu'lasida xuddi alanga olib yonayotganga o'xshardi.

– Mana, – dedi u, – mana, Uch Baqaloq. Ular shu choqqacha kambag'al xalqni ezib kelishgan edi. Ular bizni ter to'kib, qon yutib ishlashga majbur qilardilar va ishlab topgan narsalarimizning hammasini tortib olardilar. Bu haromxo'rlarning qanchalik semirib ketishganini o'z'laringiz ko'ryapsizlar! Biz bugun ular ustidan g'alaba qozondik. Endi bizlar bundan buyon o'zimiz uchun mehnat qilamiz, hammamiz teng huquqli bo'lamiz. Endi bizda boylar ham, yalqovlar ham, mechkaylar ham bo'lmaydi. Endi turmushimiz farovon bo'ladi, hammamizning qornimiz to'q, egnimiz but, o'zimiz badavlat bo'lamiz. Agar bordi-yu, biron payt ahvolimiz yomonlashib qolgudek bo'lsa, o'shanda bizning hisobimizga o'zgalar boylik ortirmayotgani bizga tasalli bo'ladi...

– Ura! Ura! – degan qichqiriqlar eshitildi.

Uch Baqaloq tumshaygancha pishillab turishardi.

– Bugun bizning g'alaba kunimiz. Qarang, quyosh qanday charaqlab turibdi! Qushlarning chaqchaqlashib sayrashini eshiting! Gullar esa

gurkirab, atrini har tomonga tarqatmoqda! Mana shu kun, shu soatni yodingizda saqlab qoling!

«Soat» soʻzini eshitish bilan hamma boshini katta soat tomonga burdi.

Soat ikki ustun oraligʻidagi taxmonsifat joyga oʻrnatilgan edi. Bu – eman daraxtidan yasaliib, har xil rangda sirlangan, bezaklar bilan yasatilgan kattakon quti edi. Qutining qoq oʻrtasida raqamlar yozilgan doira bor edi.

«Soat necha boʻldiykin?» – deb oʻyladi har bir odam.

Shu choq birdan (bu endi romanimizda uchraydigan oxirgi «birdan» soʻzidir)... birdan soat qutisining emandan ishlangan eshigi ochildi. Quti ichi boʻm-boʻsh. Chunki soatning hamma murvatlari chiqarib olingandi. Bu quti ichida tishli mis gʻildirakchalar va prujinalar oʻrta pushti rang koʻylak kiygan Suok gulday yashnab, koʻzlari chaq nab oʻtirardi.

– Suok! – deb yubordi butun zal va yengil nafas oldi.

– Suok! – deb chinqirib yuborishdi bolalar.

– Suok! Suok! Suok!

Gulduros qarsaklar chalindi.

Koʻk koʻz gvardiyachi qizchani soat qutisidan chiqarib oldi. Bu raqs muallimi Bir-ikk-uchsning karton qutisidan valiahd Tuttining qoʻgʻirchogʻini oʻgʻirlagan oʻsha koʻk koʻz gvardiyachi edi. Saroyga qoʻgʻirchoqni olib kelgan ham, bechora tirik Suokni sudrab ketayotgan gvardiyachi bilan Davlat kanslerini bir mushtdan urib sulaytirib qoʻygan ham shu gvardiyachi edi. U Suokni mana shu soat qutisi ichiga yashirib qoʻyib, uning oʻrniga Uch Baquloq oldiga uvadasi chiqqan jonsiz qoʻgʻirchoqni olib borgan edi. Esingizdami, Sud zalida u oʻsha jonsiz qoʻgʻirchoqni yelkasidan ushlab rosa silkitgan, keyin ayab-netib oʻtirmay vaxshiy hayvonlar oldiga tashlagan edi?

Qizchani qoʻldan qoʻlga uzatishardi. Uni dunyoda eng yaxshi raq qosa deb atagan odamlar, u tomosha koʻrsatganida choʻntaklaridagi oxirgi chaqalarini uning gilamchasiga tashlagan kishilar hozir uni quchoqlashib: «Suok!» – deb pichirlashar, uning yuzlaridan oʻpishar, bagʻrilariga bosishar edi. Uni oʻz bagʻriga bosgan odamlarning qora kuya, moy yuqli juldur kamzullari ostida ularning koʻp iztirob chekkan, ammo mehrga toʻla ulkan yuraklari tepib turardi.

Suok kular, odamlarning patila-patila bo'lib ketgan sochlaridan tortqilar, jajjigina qo'llari bilan ularning yuzida qotib qolgan qon dog'larini artar, bolalarning burnidan tortqilar, ularni mazax qilib aftini bujmaytirar, yig'lar va bir nimalar deb bidirlardi.

– Uni menga uzatinglar, – dedi titroq ovoz bilan qurolsoz Prospero; shu choq uning ko'zi yoshlanganday tuyuldi. – Bu mening xaloskorim.

– Bu yoqqa! Bu yoqqa! – deb qichqirdi Tibul otquloqning kattakon bargiga o'xshash yashil plashini silkitib. – Bu mening kichik do'stim bo'ladi. Bu yoqqa kel, Suok!

Bu paytda olisda, jussasi kichkinagina doktor Gasparning olomon orasini yorib, yuzida tabassum bilan shoshilib kelayotganini ko'rdilar...

Uch Baqaloqni qurolsoz Prospero yotgan o'sha qafasning o'ziga qamab qo'ydilar.



XOTIMA

Bir yildan keyin bu shaharda juda sho‘x, shodon, quvnoq bayram bo‘ldi. Xalq Uch Baqaloq zulmidan ozod bo‘lganining bir yilligini nishonlayotgan edi.

Yulduz maydonida bolalar uchun spektakl qo‘yildi.

Afishalarda:

«Suok! Suok! Suok!» degan so‘zlar ko‘zga yaqqol tashlanib turardi.

Minglab bolalar suyakli artistlarining sahnada paydo bo‘lishini orziqib kutishardi.

Lekin ushbu bayram kunida sahnaga yolg‘iz Suokning o‘zi chiqmadi, u bilan birga sahnaga yana bir kichkina bola chiqdi, u Suokka biroz o‘xshab ketar, ammo sochi oltinrang edi.

Bu bola Suokning ukasi edi. Ilgari esa uni valiahd Tutti deyishardi.

Shahar sershovqin edi, bayroqlar hilpirar, gulchi qizlarning suvli idishlarga o‘rnatilgan ho‘l atirgullari to‘kilar, rang-barang patlar bilan bezatilgan otlar sakrashar, oto‘yinlar gir-gir aylanardi. Yulduz maydonida esa kichkina tomoshabinlar nafaslarini ichlariga yutib tomosha ko‘rardilar.

Keyin Suok bilan Tuttini gullarga ko‘mib tashlashdi. Bolalar ularni o‘rab olishdi...

Suok egnidagi yangi ko‘ylagi cho‘ntagidan kichkinagina bir taxtachach olib, bolalarga ba‘zi bir narsalarni o‘qib berdi. Esingizda bo‘lsa, bu taxtachani qorong‘i tunlardan birida hayvonot bog‘ida qiyofasi bo‘riga o‘xshagan bir odam o‘layotib, mudhish qafas panjarasidan Suokka uzatgan edi.

Taxtachada mana shunday so‘zlar yozilgan edi:

«Sizlar bir onadan tug‘ilgan ikki farzand edinglar: opa va uka – Suok va Tutti.

Sizlar to‘rt yoshga kirganingizda Uch Baqaloqning gvardiyachilari sizlarni uyingizdan o‘g‘irlab ketishgan edi. Men olim Tub bo‘laman. O‘shanda meni saroyga olib borishdi. Kichkina Suok bilan Tuttini menga ko‘rsatishdi. Uch Baqaloq menga shunday deyishdi: «Qizchani

ko'ryapsanmi? Shunday bir qo'g'irchoq yasaginki, uni mana shu qizchadan sira ham farq qilib bo'lmaydigan bo'lsin». Men buning nimaga kerakligini bilmas edim. Men ular aytgan qo'g'irchoqni yasab berdim. Men yasagan qo'g'irchoq xuddi tirik qizcha singari o'sib borishi kerak edi. Suok besh yoshga kirganida qo'g'irchoq ham besh yoshli bo'lardi. Suokning bo'yi yetib, chiroyli yo ma'yus qiz bo'lsa, qo'g'irchoq ham xuddi shunaqa bo'lishi kerak edi. Men shunday qo'g'irchoqni yasadim. Keyin sizlarni bir-biringizdan judo qilishdi». Tutti saroyda qo'g'irchoq bilan qoldi, Suokni esa kamdan kam uchraydigan qizil soqolli to'tiqush evaziga sayyor sirkka berib yuborishdi. Keyin Uch Baqaloq menga: «Bolaning yuragini sug'urib olib, o'rniga temir yurak yasab qo'y», deb buyurdilar. Men bundan bosh tortdim. Men, odamzodni uning insoniy yuragidan mahrum etish mumkin emas, deb aytdim. Inson bolasi uchun uning oddiy haqiqiy insoniy yuragi o'rniga hech qanday yurak – temirdan ham, muzdan ham, oltindan ham – o'rnatib bo'lmaydi, dedim. Meni qafasga qamashdi. Shundan boshlab bolaga, sening yuraging temirdan deb uqtira boshlashdi. Bola bu gapga ishonishi va beshafqat, toshbag'ir bo'lib o'sishi kerak edi. Men hayvonlar orasida sakkiz yil o'tirdim. Hammayog'im jun bilan qoplandi, tishlarim so'yloq va sapsariq bo'lib ketdi, lekin sizlarni unutmadim. Men sizlardan kechirim so'rayman. Hammamizni ham Uch Baqaloq bebaxt qildi, boylar va ochko'z mechkaylar ezdi. Meni kechir Tutti (mazlumlar tilida bu «Judo etilgan» degan ma'noni bildiradi). Kechir meni Suok (bu so'z «Mangu hayot» degan ma'noni bildiradi)...





BIRINCHI QISM

I

U ertalablari hojatxonada xirgoyi qiladi. Uning qanchalik xushchaqchaq, sog'lom odam ekanligini tasavvur qilavering! Kuylash ishti tagi unda beixtiyor paydo bo'ladi. Na ohang, na so'zlari bo'lgan, faqat «ta-ra-ra»dan iborat turli pardalarda baqirilib aytiladigan ushbu qo'shiqlarini shunday izohlash mumkin:

«Mening yashashim naqadar yoqimli... ta-ra, ta-ra!.. Ichaklarim qayishqoq... ra-ta-ta-ta-ra-ri... Me'da shirasi menda to'g'ri aylanadi.... ta-ta-ta-du-ta-ta... Kichraygin, ichak, kichraygin... tram-ba-ba-bum!»

U ertalab yotoqdan chiqib, kvartira ichkarisidagi hojatxonaga el-tuvchi eshikka ravona bo'layotib yonimdan o'tar ekan (men o'zimni uxlaganga olib yotaman), tasavvurlarim ortidan ergashadi. Men uning gavdasi sig'magan hojatxonada tasir-tusurni eshitaman. Eshik yopilgan ichki sathda orqasi bilan tiraladi, tirsaklari devorga tegadi va u oyoqlari bilan tuvakka chiqadi. Hojatxona eshigiga yassi xira shisha qoplangan. U yoqqichni buraydi va yassi oyna ichkaridan bezak buyumlariga ishlatiladigan ma'dan, tuxum rangida yoritiladi. Men qorong'i yo'lakda ilingan bu tuxumga xayolan nazar tashlayman.

Uning vazni olti pudcha keladi. Yaqinda, qayerdadir zinadan chiqar ekan, har bir qadamida ko'ksi titrayotganini sezdi. Shuning uchun u yangi badantarbiya mashqlarini qo'shishga qaror qildi.

Bu erkaklarga xos namunali organizm.

Odatda, u badantarbiya mashqlari bilan o'zining yotog'ida emas, balki men joylashgan noma'lum xonada shug'ullanadi. Bu yer kengroq, bahavo, yorug'lik, nur ko'proq, balkonning ochiq eshigidan shabada esadi. Qolaversa, bu yerda bet-qo'l yuvgich bor. Yotoqdan bo'yra keltiriladi. U beligacha yalang'och, qorning o'rtasidan bitta tugma qadalgan trikotaj ishtonda bo'ladi. Xonaning moviy va pushti olami sadaf tugma obyektivi tegrasida aylanadi. U bo'yraga chalqancha yotib, oyoqlarini navbati bilan ko'tarib boshlagach, tugma dosh bera olmaydi. Chov ochiladi. Chovi ajoyib. Mayin sarg'ish.

Nasldor erkakning chovi. Men xuddi shunday jilosiz baxmalsimon chovni erkak antilopa-kiyikda ko'rganman. Uning bir qarashidan qizlar, kotibalar va idora xizmatchi-xodimalarni muhabbat ich-ichiga urib ketgandek bo'ladi.

U xuddi boladek yuvinadi, duduqlanib ovoz chiqaradi, irg'ishlaydi, pishqiradi, qichqiradi. Suvni hovuchlab oladi va qo'ltig'iga yetkazib bormay, bo'yraga sepib yuboradi. Suv poxolga lim-lim, toza tomchi bo'lib tushadi. Tog'oraga sachragan ko'pik xuddi quymoq misoli jizillaydi. Gohida sovun ko'zlarini ochirmay qo'yadi – u boloxonador qilib so'kinib, bosh barmoqlari bilan qovoqlarini uqalaydi. Tomog'ini chayish paytida qichqiradi. Balkon tagida odamlar to'xtaydi va boshini ko'tarib qaraydi.

Qizg'ish, sokin tong. Ayni bahor payti. Tokchalarning barida gullar qutisi turibdi. Navbatdagi gullar ochilishi uchun ularning tirqishidan qizil rangli ma'dan sizdiriladi.

(Meni buyumlar yoqtirmaydi. Mebel o'ziga oyoq qo'yishimga undaydi. Qandaydir yaltiroq burchak bir kuni meni hech bir mubolag'asiz tishlab oldi. Ko'rpa bilan munosabatlarimiz hamisha qiyin kechgan. Menga tortilgan sho'rva hech qachon sovimaydi. Qandaydir bema'ni buyum – tanga yoki ilmatugma – stoldan tushadi, odatda, u surish qiyin bo'lgan mebel tagiga kirib ketadi. Men polda o'rmlayman va boshimni ko'tarib bufet kulayotganini ko'raman.)

Shimni ko'tarib tutib turish uchun ikki yelka osha tortib qo'yiladigan ko'k tasmalar yonboshdan tushgan. U yotoqqa boradi, kursida ko'zoynakni topadi, oynaga qarab taqadi va mening xonamga qaytadi. Bu yerda, o'rtada turgan ko'yi shimining ikkala tasmasini shunday harakat bilan baravar ko'taradiki, uzun cho'ziq g'arami yelkasiga aniq tushadi. Men bilan bir og'iz gaplashmaydi. O'zimni uxlaganga solaman. Shim tasmalarining plastinkalarida quyosh nuri ikki jizillovchi tutam bilan aks etadi (buyumlar uni yaxshi ko'radi).

Uning sochini tarashi yoki soqol va mo'ylovini tartibga keltirishi shart emas. Boshida sochi qirqtirilgan, mo'ylovi – burnining tagigacha kalta. U ulkan baqaloq bolaga o'xshaydi.

U shishachani oldi, shisha tiqin chirsillagan ovoz chiqardi. Atirni kaftiga to'kib, so'ng kaftini boshi uzra aylantirdi – boshidan gardanigacha va teskari holda.

Ertalab u ikki stakan sovuq sut ichadi: bufetdan ko'zacha oladi, quyadi va o'tirmasdan ichadi.

U bilan bog'liq birinchi taassurot meni esankiratib qo'ygan. Nima bo'layotganini anglay olmaganman. U qarshimda atir isi taralayotgan bashang kulrang kastumda turardi. Lablari tiniq, yengil cho'chchaygan edi. U olifta chiqib qoldi.

Men uning xurrigidan kechalari tez-tez uyg'onib ketaman. Uyqusiragan ko'yi nima gapligini tushunmayman. Xuddi kimdir bir xil tarzda do'q urayotgandek: «Kkrakou... Krra... ka... touuu...»

Unga bejirim kvartira berishdi. Balkon eshigidagi yaltiroq taglikda qanday guldon turganini bir ko'rsangiz edi! Yumaloq, baland, mayin, qontalash go'zal ingichka chinni guldon. Flamingo qushini eslatadi. Kvartira uchinchi qavatda. Balkon yengil keng sathda osilgan. Shahar tashqarisidagi ko'cha katta shosse yo'lga o'xshaydi. Qarama-qarshida pastda – bog': og'ir, Moskva chekkasidagi odatiy maskan, daraxtlari chakalakzorga aylangan bog', xuddi pechdagidek xarobazordagi uch devor o'rtasida o'sgan betartib to'da.

U ochko'z. Uyda tushlik qilmaydi. Kecha oqshom och-nahor qaytdi, tamaddi qilmoqchi bo'ldi. Bufetdan hech nima topilmadi. U pastga tushdi (do'kon burchakda) va bir talay yegulik olib keldi: ikki yuz ellik gramm dudlangan cho'chqa go'shti, mayda dengiz balig'i, konserva-dagi maydaroq dengiz balig'i, katta baton, yarimoy shaklidagi golland pishlog'i, to'rt dona olma, o'nta tuxum va «Fors no'xati» marmeladi. Qovurilgan tuxum va choy buyurtma qilindi (uyda oshxona umumiy, ikkita oshpaz ayol navbati bilan xizmat ko'rsatadi).

– Oshalang, Kavalero, – deb taklif qildi meni va o'zini ovqatga urdi. Qovurilgan tuxumni, xuddi bo'yoq sirtini ko'chirgandek oqini uzib olgan holda, tovaning o'zidan yedi. Ko'zlari qonga to'lgan, ko'zoynagini yechar, taqar, chapillatib chaynar, pishillar, uning quloqlari qimirlar edi.

Men kuzatish bilan mashg'ul bo'laman. Pichoq uchidan tuzning biror iz qoldirmay tushganiga e'tibor berganmisiz – pichoq xuddi ishlatilmaganday yaltiraydi; velosiped harakati kabi ko'zoynak qan-sharni kesib o'tadi; odamni mitti yozuvlar qurshab oladi, xuddi jajji bitiklardan iborat chumoli uyasidek: sanchqilarda, qoshiqlarda, likop-chalarda, ko'zoynak gardishida, tugmalar, qalamlarda. Ularni hech kim ilg'amaydi. Ular mavjudlik uchun kurashadi. Bir ko'rinishdan bosh-

qasiga o'tadi, ilib qo'yiladigan katta harflargacha! Ular sinfdan sinfga qarshi isyon ko'taradi: ko'chalar nomi yozilgan taxtachalardagi harflar afishalardagi harflar bilan kurashadi.

U burnidan chiqquncha yedi. Pichoqni ushlab olmaga qo'lini cho'zdi, biroq katta sariq qismini bo'laklab kesdi-yu keyin tashladi.

Bir og'iz jumla bilan uni ko'klarga ko'tarib maqtadi:

– Andrey Babichev – davlatning benazir odamlaridan biri.

U, Andrey Petrovich Babichev, oziq-ovqat sanoati tresti direktori mansabida o'tiradi. U buyuk kolbasapaz, qandolatchi va oshpaz.

Men, Nikolay Kavaleroev esa, uning oldida hech kim emasman.

II

U ovqat-povqatga doir nima bo'lsa, barchasini boshqaradi.

U ochofat va ziqna. Hamma tuxumlar, piroglar, kotletlarni o'zi qovurishni, non pishirishni istar edi. U ovqat yaratishni xohlardi. «Yigirma besh tiyinlik»ni o'zi yaratdi.

Uning farzandi ulg'aymoqda. «Yigirma besh tiyinlik» – ulkan uy, azim yemakxona, azim oshxona bo'ladi. Ikki taomdan iborat tushlik yigirma besh tiyinni tashkil etadi.

Oshxonalarga urush e'lon qilingan.

Minglab oshxonalarni zabt etilgan deb hisoblash mumkin.

Kosibchilik, nimchoraklik, shishachilikka nuqta qo'yadi. U barcha go'shtqiyimalagichlar, primuslar, tovalar, kranlarni umumiy qilib qo'shadi... Xohlasangiz, bu sanoatlashtirish bo'ladi.

U bir nechta komissiyani tashkillashtirdi. Sovet zavodlarida tayyorlangan mevalarni yuvish mashinasi a'lo darajada bo'lib chiqdi. Nemis muhandisi oshxona quradi. Ko'plab oshxonalarda xotinlarning buyurtmasi ado etiladi.

Men u haqida shuni bildim.

U, trest direktori, bir kuni ertalab tumshug'i ostida portfel tutgan – yaqqol davlat odamiga xos savlatli fuqaro – xilvat joy orqali notanish zinadan kirdi va birinchi duch kelgan eshikni taqillatdi.

Xorun al-Rashid sifatida chekka joydagi odami ko'p ishchilar uyining oshxonasiga tashrif buyurdi. U qurum va ifloslikni ko'rdi, g'azabnok ayollar tutunda yurishar, bolalar yig'lashardi. Shu zahoti unga tashlandilar. U hammaga xalaqit berardi – haybatli, ularning

joyini, yog'dusini, havosini tortib olgandi. Bundan tashqari, u portfel qo'ltiqлагan, ko'zoynakda, bashang kiyingan va pokiza edi. Badjahl ayollar xulosa chiqardilar: bu qandaydir komissiyaning a'zosi! Qo'llarini bellariga tirab, jig'iga tegdilar. U chiqib ketdi. Uni deb (orqasidan qichqirishdi) primus o'chdi, stakan yorildi, sho'rva sho'r bo'lib ketdi. U aytmoqchi bo'lgan gapini aytmay jo'nadi. Uning tasavvuri yo'q. U shunday deyishi kerak edi:

«Ayollar! Biz ustingizdagi qurumlarni ketkazamiz, tuynuklaringizdagi tutunni tozalaymiz, quloqlaringizdan g'ovur-g'uvurni yo'q qilamiz, kartoshkani bir lahzada po'stini tashlashga majbur qilamiz, sizlarga oshxonada yo'qolgan soatlaringizni qaytaramiz – hayotingizning yarmini qaytarib olasiz. Sen, yosh xotin, eringga sho'rva qaynatyapsan. Va sho'rvaning xalqobi uchun yarim kuningni sarflaysan. Biz sizlarning xalqoblaringizni ko'zni qamashtiradigan dengizga aylantiramiz. Shovul sho'rvaga okeanni quyamiz. Quloq soling, bekalar, kutinglar! Biz sizlarga koshinli polni quyosh bilan to'ldirishga, mis bochkalar yonib turishiga, likopchalar nilufardek ozoda, sutlar bamisoli simobdek qalin va xushbo'y sho'rvalar ham shu tarzda, dasturxonadagi gullarning havasini keltiradigan darajada bo'lishiga va'da beramiz».

U xuddi darvish kabi o'nlab maskanlarga bir vaqtda keladi.

Ishga doir yozishmalarida tez-tez qavslar va tagiga chizishlardan foydalanadi – tushunmasliklari va adashtirib yuborishlaridan qo'rqadi.

Mana, uning yozishmalaridan namunalar:

«O'rtoq Prokudinga!

Konfet o'ramlarini (12 namunada) xaridorlarga mos ravishda tayyorlang (shokolad, konfet, somsa va shu kabilar ichiga solingan mallasliq), yangicha bo'lsin. Ammo «Roza Lyuksemburg» emas (nimani nazarda tutayotganimni bilaman – qiyomni) – eng yaxshisi qandaydir fanlardan olinsin (shoirona tarzda – geografiyami, astronomiyami?), jiddiy nomdagi va eshitilganda jozibador bo'lsin: «Eskimo», «Teleskop» kabi. Ertaga, chorshanba kuni telefon orqali soat bir va ikki oraliq'ida boshqarmaga menga xabar qiling. Albatta».

«O'rtoq Fominskiyga!

Har bir birinchi likopchaga (50 va 75 tiyinlik tushlikka ham) bir bo'lakdan go'sht qo'shishlarini buyuring (xususiy korxonadagi kabi

chiroyli kesilgan holda bo'lsin). Bularni qat'iy nazorat qiling. 1) Pivo gazaklarini patnissiz; 2) no'xatlarni mayda va yaxshi yuvilmagan holda berayotganlari rostmi?

U maydakash, badgumon va ombor xizmatchisi kabi mayda-chuydani ham qoldirmaydigan darajada sinchkov.

Ertalabki soat o'nda karton fabrikasidan keldi. Qabulda sakkiz nafar odam kutardi. U: 1) dudlash sexi boshlig'ini, 2) uzoq sharqdagi konserva tresti vakilini (krab solinadigan tunuka idishni olib, kimgadir ko'rsatish uchun xonadan yugurib chiqib ketdi; qaytgach uni yoniga, tirsagi yaqiniga qo'ydi va ancha vaqtgacha tinchlana olmadi, moviy tunuka idishga qarab-qarab qo'ydi, kuldi, burnini artidi), ombor qurilishi muhandisini, 4) yuk avtomobillariga taalluqli nemisni (nemischa gaplashdilar, suhbatni u maqol bilan yakunlaganga o'xshadi, chunki qofiya zo'r bo'ldi va ikkalasi ham kulib yubordi), 5) e'lon plakatini olib kelgan rassomni (yoqmad; romantik emas, balki bo'g'iq kimyoviy ko'k rangda bo'lishi kerakligini aytdi), 6) shiqildoqlar ko'rinishidagi ilmatugmalari bor qandaydir kontragent-restoratori, 7) mollarning boshi haqida gapiradigan burama soqolli ozg'ingina odam va, nihoyat, 8) qandaydir qoyilmaqom qishloq kishisini. Ushbu oxirgi uchrashuv o'ziga xos tavsifga ega bo'ldi. Babichev o'midan turdi va quchog'ini deyarli ochib oldinga yurdi, Unisi kabinetni to'ldirib yuborgan – qoyil qoladigan darajada beso'naqay, uyatchan, kulib turadigan, ko'zlari tiniq, Tolstoyning qandaydir Levini edi. Undan dala gullari va sutdan tayyorlangan taomlar hidi kelardi. Suhbat sovxoz haqida kechdi. Bu yerdagilarning chehrasida orzu-xayollarga cho'mganlik ifodasi paydo bo'ldi.

Soat to'rt-u yigirmada u xalq xo'jaligi oliy kengashining yig'ilishiga jo'nab ketdi.

III

U oqshom uyda, palmali lampa qalpog'ining yashiltob ko'lankasida o'tiradi. Oldida qog'oz varaqlari, yozuv daftarlari, raqamlari ustunidan iborat mayda varaqlar. U stol taqvimini sahifalarini varaqlaydi, irg'ib turib ochiq javonni titkilaydi, qutilarni oladi, stulga tizzalab va – stolga qornini qaratib o'tiradi va qalin yuzini qashlab, – o'qiydi. Stolning yashil sathi oynaband plastina bilan qoplangan. Xo'sh, nima bo'пти shunga?

Odam ishlayapti, odam uyda, kechqurun, ish qilyapti. Qog'ozga qarab qolgan odam qalam bilan qulog'ini kovlayapti. Hech qanday istisno holat yo'q. Biroq uning barcha yurish-turishi aytib turibdi: sen – tor fikrli odamsan, Kavalerov. Bu haqda u aytmaydi, albatta. Bunga o'xshash gap xayolida ham bo'lmasa kerak. Biroq bu so'zsiz ham tushunarli. Qandaydir uchinchi odam menga shu haqda aytadi. Qandaydir uchinchi odam ayni uni kuzatayotgan vaqtimda meni g'azablanishga majbur qiladi.

– Yigirma besh tiyinlik! Yigirma besh tiyinlik-k! – baqiradi u. – Yigirma besh tiyinlik-k!

U birdan kula boshlaydi. Qog'ozlarda kulgili nimanidir o'qidi yoki raqamlar ustunida ko'rdi. Meni yoniga chaqirib, xaxolab kulishga undaydi. Qog'ozga barmog'i bilan nuqib, qahqah urib kuladi. Men qarab, hech nimani ko'rmayman. Uni nima kuldirdi? Men, hatto biror nimani taqqoslab ham ko'rib boshlamay u qandaydir nimalardandir xaxolaydi. Men dahshat bilan e'tibor qarataman. Bu kohinning qahqahasi. Men, xuddiki ko'r odam raketa portlashini eshitgandek, unga quloq solaman.

«Sen – tor fikrli odamsan, Kavalerov, hech nimani tushunmaysan».

U bunday demaydi, biroq izohsiz ham bu ayon.

Ba'zida u yarim kechagacha uyga qaytmaydi. Shunda men telefon orqali topshiriqlar olaman:

– Bu Kavalerovmi? Quloq soling, Kavalerov! Menga Nonmahsulotlaridan qo'ng'iroq qilishadi. Ikki yetmish uch nol besh, qo'shimcha oltmish ikkiga telefon qilishsin. Yozib oling. Yozdingizmi? Qo'shimcha oltmish ikki, Glavkonsesskom. Salom.

Darhaqiqat, unga Nonmahsulotlaridan qo'ng'iroq qilishadi.

Men qaytadan so'rayman:

– Nonmahsulotlari? O'rtoq Babichev Glavkonsesskomda... Nima? Glavkonsesskomda, ikki yetmish besh uch nol besh. Qo'shimcha oltmish ikki, Glavkonsesskom. Salom.

Nonmahsulotlari trest direktori Babichevni chaqiryapti. Babichev Glavkonsesskomda. Mening nima ishim bor? Ammo kamina Nonmahsulotlari va Babichev qismatiga bilvosita ishtirok etganim bois yoqimlilik his etaman. Ma'muriyatga xos zavq-shavqni tuyaman. Ammo mening rolim juda mayda, ahamiyatsiz. Gap nimada o'zi? Men uni hurmat qilamanmi? Undan qo'rqamanmi? Yo'q. O'zimni undan kam hisoblamayman. Men tor fikrli odam emasman. Buni isbotlayman.

Men uni qandaydir ushlab olishni, zaif tomonini, himoya qilinmagan nuqtasini topishni istayman. Birinchi bor ertalabki yasan-tusan paytida ko'rganimda uni tutib olganimga, yorib bo'lmaydigan qobig'i chokidan so'kilganiga ishonchim komil edi.

U artinib o'zining xonasidan balkon ostonasiga chiqar ekan, sochiq bilan qulog'ini kovlagan ko'yi menga orqa o'girib turdi. Men o'sha orqa sathni, o'sha yo'g'on tanani quyosh yog'dusida ko'rdim va sal bo'lmasa qichqirib yuborayozdim. Uning orqasi hammasini sotdi. Tanasining moyi mayin sarg'aygan. Bir yot taqdir bitilgan o'rog'liq qog'oz menga bo'y ko'rsatib turardi. Katta bobo Babichev o'zining terisini parvarish qilgan, tana bo'ylab katta boboning moylari alohida holda mayin o'mashgan edi. Meros bo'yicha komissarga terining nafisligi, ulug'vor rang va toza tabiiy dog'lari berilgandi. Va eng asosiy-si, meni xursand qilgani, uning bel qismida xolni, meros bo'lib qolgan dvoryanlarga xos xolni, – o'sha, qonga to'la, yorqin, oradan o'nlab yillar o'tsa-da onalar o'g'irlab ketilgan bolasini tanib oladigan, tanadan ajralib turadigan mayin belgini ko'rdim.

«Siz – boyon, Andrey Petrovich! Siz mug'ambirlik qilyapsiz!» – shunday deb yuborishimga sal qoldi.

Ammo u ko'ksi bilan burildi.

Ko'kragida, o'ng o'mrovi tagida chandiq bor edi. Dumaloq, xuddi tanga mumda iz qoldirganday, bir muncha dikkaygan. Xuddi bu joyda butoq o'sib chiqqan va uni kesib tashlashgandek. Babichev surgunda bo'lgan. Qochgan va unga qarata o'q uzishgan.

– Iokasta kim? – deb so'radi u bir kuni xuddi tomndan tarasha tushganday. Undan (asosan, oqshomlari) kutilmagan noodatiy savollar chiqib qoladi. Kun bo'yi band. Biroq ko'zlari afishalar, peshlavhalar bo'ylab sirpanadi, biroq quloqlari o'zgalarning suhbatidagi so'zlarni ilib oladi. Xomashyoni topadi. Uning ishga taalluqli bo'lmagan suhbatdoshi birgina men. Jiddiy suhbatga meni layoqatli hisoblamaydi. Odamlar dam olishayotganda vaysashlari unga ayon. U umumbashariy odatga nimadir qo'shishga harakat qiladi. Shunda menga bekorchi savollar beradi. Ularga javob qaytaraman. Uning oldida ahmoqman. Meni ahmoq deb o'ylaydi.

– Siz zaytunni yaxshi ko'rasizmi? – deb so'raydi u.

«Axir men Iokasta kimligini bilaman! Zaytunni yaxshi ko'raman, biroq ahmoqona savollarga javob berishni istamayman. Men o'zimni

sizdan ahmoqroq hisoblamayman». Unga shunday javob berish kerak edi. Biroq menda jasorat yetishmaydi. U menga bosim o'tkazadi.

IV

Men ikki haftadan buyon uning panohida yashayapman. Ikki hafta burun u meni mast-alast holda pivoxona bo'sag'asidan olib keldi...

Meni pivoxonadan uloqtirib yuborishgan edi.

Pivoxonadagi mojaro asta-sekin kuchayib bordi; avvaliga hech qanday nizo yo'q – aksincha, ikkita stol o'rtasida o'zaro do'stlik bog'lanishi mumkin edi; mast-alastlar kirishimli bo'ladi; orasida ayol o'tirgan ulfatlar meni davraga qo'shilishga taklif qildi va men taklifni qabul qilishga shay edim, biroq ipak matodan tikilgan ko'k koftali maftunkor ayol menga nisbatan hazil qildi va men haqoratlandim, krujkamni qo'limda fonus qilib ko'targancha yarim yo'lda o'zimning stolimga qaytdim.

Ana shunda ortimdan menga butun boshli hazillar do'li yog'ildi. Haqiqatda o'zim ham kungurali mevaga o'xshab ko'rinardim. Yetmaganiga erkak do'rillagan ovozda hiringladi. No'xat uloqtirishdi go'yo. Men stolimni aylanib o'tib, ularga yuzma-yuz bo'ldim – pivo marmarga to'kildi, krujka tutqichini ushlagan bosh barmog'imni dastakdan chiqara olmadim – shirakayf holda o'zimni kamsitilgan hisoblardim va bir deganda balandparvoz gaplar achchiq oqim bo'ylab quyilib keldi:

– Sizlar... bir to'da maxluqlar... qizni o'g'irlagan badbasharalar galasi... – Atrofdagilar quloq solishdi: kungurali meva hayron qoldirgan, uning nutqi umumiy g'ovur-g'uvurdan ajralib chiqqan edi. – Siz, palmachadan o'ngda o'tirgan – birinchi raqamli badbashara. O'ringizdan turib, hammaga ko'ring... O'rtoqlar, e'tibor bering, hurmatli xaloyiq... Jim! Orkestr, vals! Xushohang, hammaga yoqadigan vals! Sizning basharangiz aravaga qo'shishda ishlatiladigan asboblarga o'xshaydi. Luningizni ajin bosgan, – va ular ajin emas, balki tasma; iyagingiz – ho'kiz, burun – moxov bilan kasallangan aravakash, qolganlari esa aravadagi yuk... O'tiring. Davom etamiz: ikkinchi raqamli maxluq... Tizzaga o'xshagan lunjlari bor odam... Juda chiroyli! Zavqlaning, badbasharalar ijodiy jamoasi o'tib ketmoqda... Siz-chi? Bu eshikdan qanday kirdingiz? Quloqlaringiz borasida adashmadingizmi? Siz, o'g'irlangan qizning pinjiga kirib olgan odam, so'rang-chi, husnbuzarlaringiz borasida

u nimani o'ylar ekan? O'rtoqlar... – men ortimga burilib, har tarafga qaradim. – Bular... mana bular... mening ustimdan kulishdi! Huv anavi kuldi... Sen qanday kulganingni bilasanmi? Shunday ovozlari taratdingi, bo'sh huqna shunday tovush chiqaradi... «Bahorda bog'-u chaman-zorda, oro-ziynat berilgan, malika, o'n sakkiz yoshingizda sizga bas keladigan atirgul yo'q!..» Hoy qiz! Qichqiring! Yordamga chaqiring! Biz sizni xalos etamiz. Dunyoga nima bo'ldi? U sizni paypaslayapti va siz junjikyapsizmi? Yoqyaptimi o'zingizga? – Men bir zum tin olib, so'ng tantanali ravishda dedim: – Men sizni chorlayman. Bu yerda, yonimda o'tiring. Siz nega ustimdan kuldingiz? Notanish qiz, sizning yoningizda turaman va iltimos qilaman: meni yo'qotmang. Shunchaki o'ringizdan turing, ularni itarib tashlang va bu yoqqa keling. Siz undan, ularning hammasidan nima kutyapsiz?.. Nima?.. Muloyimliknimi? Aql-zakatnimi? Erkalashlarnimi? Sadoqatnimi? Yonimga keling. Mening ular bilan tenglashishim kulgili. Siz mendan behad darajada ko'proq olasiz.

Men nimani gapirayotgan bo'lsam, cho'chib gapirardim. Darhol o'ziga xos tushlar haqida esladim: bu shunday tushki, uyg'onishingni bilib, xohlagan ishingni qilasan. Biroq hozir uyg'otish shart emasligi ko'rinib turardi. Tugun haddan ziyod o'ralib-chirmashib ketgan edi.

Meni uloqtirdilar.

Men behush yotardim. Keyin o'zimga kelgach, shunday dedim:

– Ularni chaqirdim, ammo kelishmadi. Anavi ablahni chaqirdim, ammo ular kelishmadi (mening so'zlarim barcha ayollarga taalluqli edi).

Men qopqoqli tuynuk tagida yotar, yuzim panjaraga qaratilgan edi. Tuynukdagi men simirayotgan havo dimiqqan, zax hidi bor edi, tuynukning pag'a-pag'a qora tutunida nimadir qimirladi, axlat edi u. Men yiqilayotib lahzada tuynukni ko'rdim va u haqidagi xotiralar tushimni boshqardi. U pivoxonada boshimdan kechirgan vahima va qo'rquvning omuxtasi, kamsitilish va jazolanishdan hadiksirash edi; tushimda ham u ta'qibdan iborat voqealar zanjiriga aylandi – men qochdim, jon saqladim – bor kuchim taranglashdi va tushim uzildi.

Men quvonganimdan titrab ko'zlarimni ochdim. Ammo bedorlik shu qadar tugal emasdiki, buni bir ko'rishdan ikkinchisiga o'tish deb qabul qildim va yangicha ko'ra boshlashda asosiy rol ni kamina-ni ta'qibdan xalos etgan – men bo'ynidan quchoqlab olgan va ach-

chiq yig'layotgan, qo'llari va yengini o'payotgan – buni tushimda o'pyapman, deb o'ylardim – xaloskor o'ynar edi.

– Men nega baxtsizman?.. Bu dunyoda yashashim naqadar og'ir! – bo'lar-bo'lmas gapirardim men.

– Boshi bilan yuqoriroq ko'taringlar, – dedi qutqaruvchi.

Meni avtomobilda olib ketishdi. O'zimga kelgach, osmonni, rangsiz, oqarinayotgan osmonni ko'rdim; u bor bo'yi bilan namoyon bo'ldi. Gumburlash bunday ko'rishga ta'sir qildi, bosh aylanib, har safar ko'ngil aynishi bilan yakun topdi.

Ertalab turganimda qo'rquv iskanjasida qo'limni oyoqlarimga cho'zdim. Qayerda ekanligim, menga nima bo'lganini bilmay turib, silkinish va tebranishni esladim. Meni «Tez yordam» karetasida olib ketishdi, menday araqxo'ming oyog'ini kesishdi degan fikr ichimni kemirdi. Qo'limni cho'zar ekanman, qalin, bochkachadek aylana bint bog'lamini paypaslab ushlayman, deb o'yladim ishonch bilan. Yo'q, buyog'i oddiy: men balkoni va ikkita derazasi bo'lgan ulkan, toza va yorqin xonadagi divanda yotardim. Erta tong. Balkonning toshi tinch, pushti bo'lib qizir edi.

Biz ertalab tanishganimizda men unga o'zim haqimda gapirib berdim.

– Sizning ahvolingiz ayanchli edi, – dedi u, – judayam achinarli edi. O'zganing hayotiga aralashishdan balki xafa bo'larsiz? Unda ma'zur tuting, iltimos. Ammo istasangiz, marhamat, risoladagidek yashang. Men juda mamnun bo'laman. Joy ko'p. Nur va havo. Siz uchun ish ham bor: mana, korrektura. saralab olingan ba'zi maqolalar. Xohlaysizmi?

Mashhur shaxsni notanish, ko'rinishi shubhali yosh yigitchaga bunchalik iltifot ko'rsatishga qaysi omillar majbur qildi?

V

Bir kechada barcha sirlar ochildi.

– Andrey Petrovich, – dedim men, – romdagi odam kim?

Stolda qora sochli o'smirning fotosurati turardi.

– Nima-a? – u har doim qaytadan so'raydi. Fikrlar qog'ozga qapishtirgan, ulardan darhol ajratib bo'lmaydi. – Nima-a? – U yana fikrga sho'ng'iydi.

– Manavi yosh yigitcha kim?

– A... Bu, haligi, Volodya Makarov. Ajoyib yigitcha (u men bilan hech qachon risoladagidek gaplashmaydi, xuddiki men undan jiddiy gapni so‘ray olmaydigandek. Menga hamisha shunday tuyuladiki, javob tariqasida maqol yoki band-kuplet aytadi yoki shunchaki g‘o‘ldiraydi). Mana – «ajoyib yigitcha» deya oddiy tuslanish bilan javob berish o‘rniga u deyarli ohangga solib dona-dona qilib deydi: «od-d-a-a-m!»

– Nimasi bilan ajoyib? – so‘rayman men g‘azablangan ahvolda qasdma-qasd.

Biroq u hech qanday darg‘azablikni payqamaydi.

– E, yo‘q. Shunchaki yosh yigitcha. Talaba. Siz uning divanida uxlayapsiz, – dedi u. Gap shundaki, u xuddi o‘g‘limdek. O‘n yildan beri men bilan yashaydi. Volodya Makarov. Hozir u ketgan. Otasining oldiga. Muromga.

– Ha, shunaqa, deng...

– Shunaqa-a.

U stoldan qaddini ko‘tardi, bu tomonga o‘tdi.

– Yoshi o‘n sakkizda. U taniqli futbolchi («Ha, futbolchi», – o‘yladim men).

– Nima ham derdim, – deya e‘tirof etdim men, – haqiqatan ajoyib! Taniqli futbolchi bo‘lish, bu – rostdan katta xislat («Nimalar deyapman?»).

U eshitmadi. Mas‘ud fikrlar og‘ushida. U balkon bo‘sag‘asidan olisga, osmonga boqadi. Volodya Makarov haqida o‘ylaydi.

– Volodya mutlaqo hech kimga o‘xshamagan yigitcha, – dedi u dabdurustdan menga o‘girilib. (Men bu yerda ekanman, o‘sha Volodya Makarov uning xayolida kamsitilgandek tuyulganini tasavvur qilaman.) Volodya oldida hayotim bilan qarzdorman, bu birinchidan. U o‘n yil muqaddam meni jazodan qutqarib qolgan. Sandonga gardanim bilan yotqizib, yuzimga bosqon bilan urishlari kerak edi. U meni qutqardi. (Volodyaning qahramonligi haqida aytishi o‘ziga xush yoqardi. Aftidan, bu jasorat borasida tez-tez eslab turadi.) Ammo bu muhim emas. Boshqa jihati e‘tiborga molik. U mutlaqo yangi odam. Shunaqa gaplar. (U stolga qaytdi.)

– Siz nega meni olib keldingiz?

– Nima-a? – u g‘o‘ldiraydi, bir soniya o‘tib, mening savolimni eshitadi. – Nega olib keldim? Sizning ko‘rinishingiz ayanchli edi.

Ta'sirlanmay bo'lmasdi. Siz bo'zlar edingiz. Ahvolingiz dahshatli ravishda achinarli edi.

– Divan-chi?

– Nima divan?

– Sizning o'smiringiz qachon qaytadi?

U zarracha o'ylanmay, oddiy va quvnoq ohangda javob berdi:

– Unda divanni bo'shatib qo'yishingizga to'g'ri keladi...

Men o'rnimdan turib, jag'iga musht tushirishim kerak. Bilasizmi, u dongdor shaxs, yo'ldan adashgan yosh yigitchaga achingan, bir sho'rlikka achingan. Ammo vaqtinchalik. Asosiy odam qaytguncha. Unga kechalari zerikarli, xolos. Keyin esa meni haydab soladi. Bu haqda beadablik bilan gapiradi.

– Andrey Petrovich, – deyman men. – Siz nima deganingizni tushunyapsizmi? Siz surbetsiz.

– Nima-a? – Uni fikrlar qog'ozdan ajratadi. Hozir eshitgan mening gaplarimni takrorlaydi va men adashib eshitganini taqdiridan iltijo qilib so'rayman. Nahotki u eshitgan bo'lsa? Eshitsa eshitaversin. Birdan hal bo'la qolsin.

Biroq tashqi ta'sirlar xalaqit beradi. Mening bu uydan uchib ketishim hali nasib qilmagan ekan.

Ko'chadan, balkon tagida kimdir qichqiradi:

– Andrey.

U boshini buradi.

– Andrey!

U stoldan kafti bilan tiralib, o'rnidan ilkis turadi.

– Andryusha! Azizim!

U balkonga chiqadi. Men derazaga yaqin kelaman. Ikkimiz ham ko'chaga qaraymiz. Qorong'ilik. Derazalar orqali ko'prik nari-beri yoritilgan. O'rtada kichik bo'yli yelkalari keng odam turibdi.

– Xayrli oqshom, Andryusha. Qanday yashayapsan? «Yigirma besh tiyinlik» qalay? (Men deraza orqali balkonni va haybatli Andryushani ko'raman. Uning pishillagani menga eshutiladi.)

Ko'chadagi odam xitob qilishda davom etadi, lekin bir muncha ohistaroq:

– Nega buncha jimsan? Men senga yangilikni aytishga keldim. Mashina ixtiro qildim. Mashina «Ofeliya» deb nomalanadi.

Babichev tezda buriladi. Uning soyasi ko'chada yonboshidan tashlanadi va qarama-qarshi tarafdagi bog' yaproqlarida sal bo'lmasa to'fon keltirib chiqaradi. U stol ortiga o'tiradi. Barmoqlari plastina bo'ylab taqillaydi.

– Ehtiyot bo'l, Andrey! – qichqiriq eshitiladi. – O'zingni urintirib qo'yma. Men seni yo'q qilaman, Andrey...

Shunda Babichev yana irg'ib turadi va mushtlari qisilgan holda balkonga uchib chiqadi. Daraxtlar muqarrar junbushga keladi. Uning Budaga monand ko'lankasi shahar uzra qoplanadi.

– Sen kim bilan olishasan, ablah? – deydi u. Keyin panjara larzaga keladi. U mushtlab uradi. – Sen kim bilan olishasan, ablah? Yo'qol bu yerdan. Men seni hi-bs-ga o'lish-la-ri-ni tayinlayman.

– Ko'rishguncha, – eshitiladi pastdan.

To'ladan kelgan odam bosh kiyimini yechadi, qo'lini cho'zadi, bosh kiyimini silkitadi (qozonchami? Qozoncha bo'lsa kerak?), uning xushmuomalaligi sun'iy jazava holatida. Andrey allaqachon balkonda emas; odamcha mayda qadamlar bilan ko'chaning o'rtasidan ketib qoladi.

– Mana! – deb qichqiradi menga Babichev. – Marhamat, zavq oling! Mening akaxonim Ivan. Naqadar razil!

U qaynab, xona bo'ylab yuradi. Va yana menga baqiradi:

– Kim u – Ivan? Kim? Ishyoqmas, battol, yuqumli odam. Uni otish kerak!

(Portretidagi o'smir jilmayadi. U, asosan, erkaklarga xos tarzda, yaltiragan tishlarini ko'rsatadi. Butun boshli yarqiragan tishlarini xuddi yapon kabi namoyish etadi.)

VI

Kechqurun. U ishlayapti. Men divanda o'tiribman. Bizning o'rtamizda chiroq. Chiroq qopqog'i uning yuzining tepa qismini kesib tashlagan (menga shunday ko'rinadi). Qopqoqning pastki qismida boshining quyi yarimshari osilib turibdi. Yaxlit holda u loydan yasab, rang berilgan aqchadonga o'xshaydi.

– Mening yoshligim asrimiz navqironligi bilan to'g'ri keldi, – deyman. U eshitmaydi. Menga nisbatan beparvoligi tahqirromuz.

– Men asr haqida ko‘p o‘ylayman. Asrimiz mashhur. Va, agar asr yoshi va inson yoshi o‘zaro mutanosib kelsa, bu go‘zal taqdir, to‘g‘rimi?

Uning eshitish qobiliyati qofiyani ilib oladi. Qofiya, bu – jiddiy odam uchun kulgili.

– Asr yoshi – inson yoshi, – takrorlaydi u. (Hozirgina ikkita so‘zni eshitganini aytib, takrorlashini so‘rang, – ishonmaydi.)

– Yevropada iqtidorli odamning shon-sharafga erishishi uchun imkoniyat katta. U yerda begona shon-shuhratni sevishadi. Marhamat, qoyilmaqom nimadir qil va seni qo‘llarida ko‘tarib, shuhrat yo‘li bo‘ylab olib boradilar. Bizda yakka tartibda muvaffaqiyat qozonish yo‘li yo‘q, to‘g‘rimi?

Xuddi men o‘zim bilan o‘zim gapirganga monand bo‘lyapti. Ovoz chiqaraman, so‘zlar aytaman – marhamat, sado chiqaraver. Va mening ovoz chiqarishim unga xalaqit bermaydi.

– Bizning mamlakatimizda shon-sharaf yo‘li ko‘tarma g‘ovlar bilan to‘silgan... Iqtidorli odam yoki so‘nib qolishi, yoki katta janjal qilib ko‘tarma g‘ovni ko‘tarishi kerak. Men, masalan, bahslashishni xohlayman. Shaxsiyatim kuchini ko‘rsatishni istayman. Shaxsiy shuhratimga erishishni xohlayman. Bizda odamlarning e‘tiborini jalb qilishdan qo‘rqishadi. Men ko‘proq e‘tiborni xohlayman. Men mayda fransuz shaharchasida tug‘ilishni istardim, orzularda kamol topishni, o‘z oldimga qandaydir yuksak maqsad qo‘yishni va ajoyib kunda shaharchadan ketishni hamda poytaxtga piyoda kelishni va u yerda fidoyilarcha ishlab, maqsadga erishishni xohlardim. Ammo G‘arbda tug‘ilmaganman. Endi menga dedilarki, seniki bo‘lmagan – eng benazir shaxsiyat – u hech nima! Va men bahslashish mumkin bo‘lgan haqiqatga doimiy ravishda ko‘nika boshlayman. Hatto shunday o‘ylayman: mana, masalan, musiqachi, yozuvchi, sarkarda bo‘lib, Niagaradan arqon bo‘ylab o‘tib shuhrat qozonish mumkin... Bu shon-shuhratga erishishning qonuniy yo‘llari, bunda shaxsiyat o‘zini namoyon etishga harakat qiladi... Ana endi ko‘z oldingizga keltiring, bizda odamdan narsa va hodisalarga hushyor va real yondashish talab qilinganda sobitqadamlik, foydali-lik haqida gapirilsa-yu, u daf‘atan qandaydir yaqqol darajada bema‘ni yaratuvchanlikka qo‘l ursal, qanaqadir dohiyona beboshlikni bunyod etsa va keyin: «Ha, siz unaqa, men bunaqa qildim», desa! Maydonga chiqsa, o‘zi bilan nimadir qilsa va ta‘zim bajo aylasa: men yashadim, men o‘z istagimni amalga oshirdim.

U hech nimani eshitmaydi.

– Garchand boshqacha yondashish: o‘zini o‘ldirish ham mumkin. Hech bir sababsiz o‘z joniga suiqasd. Aziyatlar tufayli. Har kim o‘zini idora qilishga haqqi borligini ko‘rsatish uchun. Hatto hozir. Podyezdinizda o‘zini osishi mumkin.

– Yaxshisi, Varvar maydonidagi, – hozir Nogin deyiladi, – XXOK¹ podyezdida osing. U yerda ulkan ark bor. Ko‘rganmisiz? U yerda yaxshi chiqadi.

Men bu yerga kelishimdan avval yashagan xonada qo‘rqinchli karavot bor. Arvozni ko‘rgandek undan qo‘rqardim. Xuddi bochkacha kabi mustahkam yasalgan. Undan shaldiragan suyaklar tovushi chiqadi. Ustiga sovuq yili men Xarkovdagi Blagoveshensk bozorida sotib olgan ko‘k adyol yopilgan. Kampir piroglar sotayotgandi. Ular adyol bilan yopilgandi. Piroglar soviyotgan, hayotning qaynoq haroratini hali taratayotgan, xuddi kuchukvachchalar kabi adyol ostida guvranib turgandek edi. O‘shanda men hamma kabi yomon yashayotgan va ushbu kompozitsiya farovonlik, mirishkorlik, harorat bilan shunday nafas olardiki, qat‘iy qaror qildim: xuddi shunday adyolni o‘zimga sotib olaman. Orzum ushaldi. Go‘zal kechada ko‘k adyol tagiga kirdim. Men unda qaynar, tipirchilar, issiqlik meni tebratar, men yaqqol yelimshak kabi edim. Bu bag‘oyat go‘zal uxlash edi. Biroq vaqt o‘tgach, adyolning jimjimalari bo‘rtib, o‘rama matoga o‘xshab qoldi.

Hozir men ajoyib divanda yotaman.

Men atayin qimirlab, uning yangi, tarang prujinalari jarangiga quloq tutaman. Divan qa‘ridan alohida, yuguruvchi jaranglar qatrasini eshitiladi. Suv sathidagi havo pufakchalari tasavvuri tug‘iladi. Xuddi yosh boladek uxlayman. Men divanda bolaligimga qarab uchaman. Ong-shuurimni baxtiyorlik chulg‘ab oladi. Xuddi bola kabi asr zalvarini ajratib turuvchi, dastlabki uyqudan hozirgi tushgacha bo‘lgan vaqt oralig‘ini yana tasarruf etaman. Men tag‘in bu oraliqni cho‘zishim, lazzatlanishim, hali to‘yinmagan uyquni o‘zimga kerakli fikrlar bilan to‘ldirishim, bedor shuurimni nazorat qilishim – fikrlar uyquda anjomlarni shakllantirayotgani, suv tubidagi pufakchalar jarangi tezlik bilan harakatlanadigan uzum g‘ujumiga aylangani, bo‘liq shingil uzum yaratilayotganini, butun boshli devor, zich joylashgan

¹ XXOK (qisq.) – Xalq xo‘jaligi oliy kengashi.

shingil uzumlar; uzumgacha bo'lgan yo'l, quyoshli yo'l, jazirama issiqni ko'rishim mumkin...

Mening yoshim yigirma yettida.

Ko'ylagimni almashtirar ekanman, o'zimni oynada ko'rib, birdan otamga o'xshash joylarimni ilg'ab qoldim. Haqiqatda bunday o'xshashliklar yo'q. Esladim: ota-onamning xobgohi va men, bolakay, ko'ylagini almashtirayotgan otamga qarab turardim. Unga achinardim. Endi chiroyli, mashhur bo'la olmaydi, u tayyor, tugagan, o'zining mavjudligidan tashqari boshqacha bo'lolmaydi. Men otamga achinib qarab, shular haqida o'ylar va ustunligimdan jimgina faxrlanardim. Endi esa o'zimda otamni ilg'adim. Bu tashqi ko'rinishdagi o'xshashlikda ko'rinardi, – yo'q, qandaydir boshqa – aytishim mumkinki, jinsiy o'xshashlik: otamning oilasini birdan holatimdan kelib chiqib, o'zimda his etdim. Kimdir menga gapirgandek bo'ldi: sen tayyorsan. Tugagan-san. Boshqa hech nima bo'lmaydi. O'g'il ko'r.

Endi men chiroyli ham, taniqli ham bo'lmayman. Kichik shahardan poytaxtga kelmayman. Sarkarda ham, xalq komissari ham, olim ham, qochoq ham, tavakkalchi ham bo'lmayman. Men butun umr hayratomuz muhabbatni orzu qildim. Yaqinda eski kvartiraga, dahshatli karavoti bor xonaga qaytaman. U yerda g'amgin qo'shni bor: Prokopovichning bevasi. Yoshi qirq beshda, hovlida esa «Anechka» deyishadi. U artel sataroshlari uchun tushlik tayyorlaydi. Oshxonani yo'lakda qurgan. Qorong'i cho'nqir joyda – plita-o'choq. U mushuklarni ovqatlantiradi. Oriq, yuvosh mushuklar uning qo'llariga chiqib ketadi. Ayol qandaydir ichak-chovoqlarni har tomonga uloqtiradi. Shuning uchun pol go'yo sadafga monand tupuklar bilan qoplangan. Bir kuni men kashtanga o'xshash qandaydir mayda va tarang yurakni bosib sirpanib ketdim. U jonivorlarning pay-chandirlari va mushuklarga o'ralashib yuradi. Qo'lida pichoq tig'i yaltiraydi. U xuddi malika o'rgimchak uyasini sidirib tashlagandek, ichaklarni tirsagi bilan tilka-pora qiladi.

Prokopovichning bevasi qari, xomsemiz va so'lg'in. Uni o'pkajigardan tayyorlangan kolbasadek sitish mumkin. Ertalab uni yo'lakdagi chanoq yonida ko'rdim. To'liq kiyinmagan bo'lib, menga ayollarga xos kulib qaradi. Eshigi oldida, kursi ustida tog'ora turar, unda taralgan soch tolalari suzardi.

Prokopovichning bevasi – mening erkak sifatida kamsitilganimning ramzi. Demak, shunday: men tayyorman, kechalari eshiklarni adashti-

rib yuboring, men atayin qulflamayman, sizni qabul qilaman. Yashay boshlaymiz, rohatlanamiz. Hayratomuz muhabbat haqida esa unuting. Hammasi o'tib ketdi. Mana, o'zingiz ham qanday odamga aylandingiz, qo'shni: semizgina va kalta shimlarda! Xo'sh, sizga yana nima kerak? Anavi qizmi? Ingichka qo'lli? Xayoldagi? Tuxumsimon yuzli? Qo'ying. Siz allaqachon otasiz. Kelsangiz-chi! Karavotim ajoyib. Marhum egasi lotereyada yutib olgan. Ko'rpa qavilgan. Sizni kuzataman. Rahmim keladi. A?

Gohida uning yuzi ochiqdan ochiq beadablikni ifoda etadi. Gohida men bilan uchrashganida bo'g'zidan qandaydir mayin sas, shavq-zavq siqib haydagan tovush chiqadi.

Men ota emasman, oshpaz xotin! Men sening jufting emasman, yaramas!

Babichevskiyning divanida uxlayman. Maftunkor qizning mayin jilmayib, pinjimga tiqilgani tushimga kiradi. Orzularim ushaladi. Biroq unga nima bilan minnatdorchilik bildiraman? Menga dahshatli bo'lib tuyuladi. Meni hech kim beminnat sevmagan. Fohishalar bor-yo'g'imni shilib olishga urinishgan – u mendan nimani talab qilyapti? Go'yo fikrlarimni uqib olgandek, tushimda menga deydi:

– O, xavotirlanma. Bor-yo'g'i yigirma besh tiyinlik.

Uzoq yillar avvalgi voqeani eslayman: men, gimnaziya o'quvchisi, mum haykallar muzeyiga olib kelindim. Oynaband qutida frak kiydirilgan chiroyli erkak, otashnafas ko'ksi jarohatlangan holda, kimningdir qo'lida jon bermoqda.

– Bu anarxist jarohatlagan fransuz prezidenti Karno, – deb izoh berdi otam.

Prezident jon berar, nafas olar, qovog'i uchardi. Xuddi soat misoli, prezidentning umri poyoniga yetardi. Men sehrlab qo'yilgandek qarardim. Go'zal erkak yashilsimon qutida soqolini g'ajab yotardi. Bu ajoyib edi. O'shanda birinchi bor soatning ovozini eshitdim. Vaqt ortimdan o'tib borardi. Quvonch yoshlarimni ichimga yutgan edim. Mashhur bo'lishga qaror qildim, toki mening mum qiyofadoshim qachonlardir kamdan kam odamlar eshitishi nasib qiladigan asrlarni g'uvillashlarga to'ldirib, yashil qutida savlat to'kib tursin.

Endi men estradachilar uchun repertuar yozyapman: moliya noziri, yosh sovet xizmatchi ayollari nepchilar va alimentlar haqida monologlar va band-kupletlar:

*Idorada shovqin hamda tararam,
Bari ancha oldin qorishgan biram:
Mashinkachi ayol Liza Kaplanga
Armug'on qildilar go'zal baraban...*

Balki qachonlardir azim panoptikum¹da bir g'alati odamning mum haykali turar? Qalin burunli, rangpar va muloyim yuzli, sochlari hurpaygan, bolalardek biqqicha, faqat bitta tugmasi qadalgan kastumda. Oynabandli qutida yupqa taxta ham bo'ladi.

NIKOLAY KAVALEROV

Boshqa hech nima. Va bo'ldi. Va har bir ko'radigan kishi «ah!» deb yuboradi. Va qandaydir hikoyalarni, balki afsonalarni yodga oladi: «Ah, bu mashhur asrda yashagan o'sha odammi? Hech kimni ko'ra olmas, hammaga hasad qilar, tashlanar, maqtanardi, ulkan rejalar bilan band, ko'p ishlarni amalga oshirishni xohlar va hech nima qilmagandi – va qabih, jirkanch jinoyat bilan yakunladi...»

VII

Men Tverskoyda boshi berk ko'chaga burildim. Nikitskiyga borishim kerak. Erta tong edi. Mashaqqatli revmatizmni bo'g'imdan bo'g'imga o'tkazib harakat qilardim. Buyumlar kaminani yaxshi ko'rmaydi. Boshi berk ko'cha mening tarafimda.

Oldinda kichkina odamcha borardi.

Dastlab uni shoshilyapti, deb o'yladim, biroq tezda ayon bo'ldiki, shoshilganga o'xshash yurishi bilan butun gavdasini tashlashi bu odamchanning o'ziga xos ekan.

U yostiq ko'tarib olgandi. Sariq jildli katta yostiqni quloqlari yonida ushlagan. Yurishga qiynalar, qoqilib ketardi. Shu bois yostiqda churqachalar paydo bo'lar va yo'qolardi.

Shahar markazida, qandaydir tor ko'chada gullagan, romantik shox devor bo'ladi. Biz uning yonidan o'tib borardik.

Butoqdagi qush yalt etib ko'rindi, yuqoriga sapchidi, nimasi bilandir soch oladigan mashinani eslatib yubordi. Oldinda ketayotgan odamcha

¹ *Panoptikum* – mumdan yasalgan shakllar va boshqa antiqiy narsalar muzeyi.

qushga burilib qaradi. Men orqada ekanman, uning faqat yarimoy shaklidagi yuzini ko'rdim, xolos. Odamcha kulardi.

«O'xshaydi-ya?» – men o'xshashlik borasida u ham shunday o'ylagan deb yuborishimga bir bahya qoldi.

Bosh kiyimi.

Odamcha uni yechib, xuddi dumaloq shirin nonni bag'riga bosgan-dek quchoqlab borardi. Ikkinchi qo'lida – yostiqlik.

Derazalar ochiq. Ularning birida, ikkinchi qavatda gul solingan ko'k guldoncha ko'rinib turibdi. Odamchani jajji guldon maftun etdi. U piyodalar yo'lagidan chiqib, ko'priknig o'rtasiga o'tadi va deraza ostiga borib to'xtaydi. Bosh kiyimi gardaniga tushib qoldi. Yostiqlikni mahkam ushladi. Tizzasi patga to'lgan edi.

Men bo'rtiq joydan kuzataman.

U guldonga qarab chaqirdi:

– Valya!

Shu zahoti guldonni ag'darib tashlab, pushti ko'ylak kiygan qiz qaynab-toshib paydo bo'ladi.

– Valya, – dedi erkak, – men senga keldim.

Jimlik cho'kdi. Guldondagi suv parda osish uchun belgilangan karnizga oqadi.

– Qara, men olib keldim... Ko'rdingmi? (U ikki qo'llab qorning oldida yostiqlikni ko'tardi.) Tanidingmi? Sen bunda yotarding. (U kuldi) Mening oldimga qayt, Valya. Xo'lamaysanmi? Senga «Ofeliya»ni ko'rsataman. Xo'lamaysanmi?

Yana jimlik hukm surdi. Qiz muk tushgancha deraza tokchasiga boshini quyi solib o'tirardi. Yonida guldon dumalardi. Men esladim, qiz paydo bo'lganidan so'ng bir soniya o'tib, ko'chada turgan odamga ko'zi tushar-tushmas, tirsaklari bilan deraza tokchasiga yiqildi va tirsaklari sindi.

Osmonda bulutlar suzar va ularning yo'li oynalarda ayqash-uyqash bo'lib aks etardi.

– Sendan iltimos qilaman, Valya, qaytgin! Zinalar bo'ylab tushgin, vassalom.

Erkak kutdi.

Esnashlar to'xtadi.

– Xo'lamaysanmi? Unda xayr.

U burildi, bosh kiyimini to'g'riladi va tor ko'cha bo'ylab men to-monga yurdi.

– To'xtang! To'xtang, dada! Dada! Dada!

U qadamini tezlatdi, yugurdi. Mening yonimdan o'tdi. Razm sol-dim: u yosh emas. Yugurishdan nafasi qaytib, rangi oqardi. Kulgili, to'ladan kelgan odam ko'ksiga yostiq bosib qochardi. Biroq aqldan oz-ganlik alomati yo'q edi unda.

Derazaning oldi bo'sh qoldi. Qiz burchakka qadar yugurdi – yo'lovchisiz tor ko'chada shu yerda tugardi; uni topa olmadi. Men shoxdevor yonida turardim. Qiz ortiga qaytdi. Men peshvoz yurdim. U meni yordam beradi, nimanidir biladi, deb o'ylab to'xtadi. Ko'z yosh-lari xuddi guldondagi suv kabi yonoqlari bo'ylab oqardi. U qaddini ko'tarib, nimanidir so'rash uchun astoydil og'iz juftladi, ammo men gapini bo'g'zida qoldirib dedim:

– Siz xuddi gullar va yaproqlarga to'la butoq kabi yonimdan guvil-lab o'tdingiz.

Kechqurun men tahrir qilaman:

«...Shunday qilib, so'yishda to'planadigan qon qayta ishlanishi yoki kolbasa tayyorlash uchun oziqqa qo'shilishi yoki oq va qora albumin, yelim, tugma, bo'yoq, tomorqa o'g'iti hamda chorva, parranda va ba-liqlar ozuqasini tayyorlashda qayta ishlanishi mumkin. Chorvaning har qanday tuzlangan yog'i va moyni o'zida saqlaydigan organik tashla-malar – ovqatga ishlatiladigan jirlar – moy, margarin, sun'iy yog' va texnik moylar: sham yog'i, glitserin va yog'lash uchun qo'llaniladigan moylar. Kallalar hamda qo'y oyoqlari elektrik spiral parmalar, avto-matik ravishda tozalaydigan mashinalar, kuydirishda ishlatiladigan gaz dastgohlari, qirqadigan mashinalar va bug'latiladigan chanlar vosita-sida ozuqa mahsulotlari, texnik suyak jirlari, tozalangan soch va turli-tuman buyumlarda qayta ishlanadi»

U telefonda gaplashyapti. Kechqurun o'n martalab chaqirishadi. Har kim bilan gaplashavermaydi, axir! Ammo birdan menga eshilib qoladi:

– Bu shafqatsizlik emas.

Men quloq tutaman.

– Bu shafqatsizlik emas. Sen so'rayapsan, men javob beryap-man. Bu shafqatsizlik emas. Yo'q, yo'q! Mutlaqo xotirjam bo'lishing mumkin. Sen eshityapsanmi? – Kamsitilyapti? Nima? Derazalar tagi-

da yuribdi? – Ishonma. Bu uning nayranglari. U mening derazalarim ostida ham yuradi. Derazalarim ostida yurishi o'ziga yoqadi. Men uni bilaman. – Nima? A? Yig'ladi? Kechasi bilan? Kechasi bilan behuda yig'labdi. – Aqldan ozadi? Kanatchikovga yuboramiz. Ofeliya? Qanaqa? A... Tupur. Ofeliya, bu – uydirma. – O'zing bilasan. Ammo aytib qo'yay: sen to'g'ri qilyapsan. – Ha, ha. – Nima? Yostiq? Nahotki? (Qahqaha.) Tasavvur qilyapman. Qanday? Qanday? Sen yotgan? Shuyam gap bo'ldi-yu! – Nima? Har bir yostiq o'z tarixiga ega bo'ladi. Bir so'z bilan aytganda, shubhalarni yo'qot. – Nima? – Ha-ha! (Shunda u jim bo'ldi va uzoq quloq soldi. Men burchakda o'tirardim. U qahqah urib kulib yubordi). Butoq? Qanday? Qanaqa butoq? Gullarga to'la? Gullar va yaproqlarga? Nima? Bu, aftidan, uning ulfatlaridan bo'lgan qandaydir araqxo'r bo'lsa kerak.

VIII

Mol go'shtidan tayyorlangan oddiy (ikkinchi nav) kolbasani tasavvur qiling: qalin, yumaloq shaklli, bosh qismi kattaroq kesilgan. Burihgan va tuguncha bog'langan ikkinchi uchida chilvir dumcha osilib turibdi. Kolbasamisan kolbasa. Vazni, aftidan, bir kilodan ziyod. Telchiragan sirti, sarg'aygan pufakchalar po'stloq ostidagi yog' tufayli. Kesilgan joyida ham yog' mayda xollardan iborat bo'ladi.

Babichev kolbasani kaftida ushlab turardi. U gapirardi. Eshiklar ochildi. Odamlar kirishdi. Tiqilishib qoldilar. Kolbasa Babichevning pushti rang savlatli kaftida qandaydir jonli ko'rinardi.

– Sog'-salomatmisizlar? – so'rashdi u, hammaga birdan yuzlanib. – Yo'q, sizlar bir qaranglar. Afsus, bu yerda Shapiro yo'q. Shapiro ni albatta chaqiramiz. Ho-ho. Yaxshi. Shapiroga qo'ng'iroq qildingizmi? Band? Yana qo'ng'iroq qiling...

Shundan so'ng kolbasa stolda edi. Babichev sidqidildan to'shama yozdirdi. O'zi esa tisarilib, undan ko'zini uzmay, orqasi bilan kresloni topib o'tirdi. Mushtlarini tizzasiga tiradi va kulib yubordi. Mushtini ko'tardi, yog'ni ko'rdi, yaladi.

– Kavalerov! (Qahqahadan so'ng) Siz hozir bo'shmisiz? Shapironing oldiga boring, iltimos. Omborga. Bilasizmi? To'g'ri oldiga boring va mana buni bering. (Ko'zi bilan kolbasaga imo qiladi.) Olib boring. u ko'rsin va menga qo'ng'iroq qilsin.

Men kolbasani Shapiroga, omborga eltib berdim. Babichev esa hamma joyga qo'ng'iroq qilib chiqdi.

– Ha, ha, – o'kirdi u. – Ha! Mutlaqo ajoyib! Ko'rgazmaga yuboramiz. Milanga yuboramiz. Aynan shuni! Ha! Ha! Yetmish foiz buzogo'shti. Katta g'alaba... Yo'q, ellik tiyin emas. G'alati odamsiz... Ellik tiyin! Ho-ho! O'ttiz beshdan. Ma'qulmi? Chiroylimi?

U ketdi.

Kulayotgan chehra – qizil xumcha – avtomobil derazasida tebranardi. U kirish joyida darbonga bosh kiyimini tutqazdi va ko'zlarini chaqchaytirib zina bo'ylab yugurdi, qobon kabi og'ir, shovqin solib, shiddat bilan. «Kolbasa! – yangradi ko'pgina xonalarda. – Aynan o'sha... Men sizlarga aytgan edim-ku... Latifa!..» Men quyoshga to'yingan ko'cha bo'ylab ketayotib, u har bir xonadan Shapiroga qo'ng'iroq qildi:

– Uni sizga olib borishyapti! Sulaymon, ko'rasiz! Yorilasiz...

– Hali keltirishmadi? Ho-ho, Sulaymon...

U qo'lini yoqasining ichkarirog'iga tiqib ro'molcha bilan terlagan bo'ynini rosa qiynalib artidi.

Men Shapironing oldiga keldim. Hamma Babichev kolbasasini keltirayotganimni ko'rgan, menga yo'l berishgandi.

Shapiro, kekxa dilgir yahudiy – burni olti raqamiga o'xshab ketadi – ombor hovlisida, yog'och bostirma ostida turardi. Boshqa eshiklar kabi bu eshik ham yozgi qorong'ilik bilan to'ldirilgan. Teparoqqa telefon osilgan. Yon tomondagi mixga sariq qog'ozlardan iborat qandaydir hujjatlar ilingan.

Shapiro mendan kolbasani olib, bo'yini ko'rdi, kaftida tebratdi (bir vaqtda boshini chayqab), burni oldiga keltirib hidladi. Shundan so'ng bostirma ostidan chiqdi, kolbasani yashikka qo'ydi va qalamtarosh bilan ehtiyot bo'lib mayda muloyim tilimcha kesdi. Limmo-lim jimitlik qo'ynida bu tilimcha chaynaldi, yuqoriga qarab, so'rib turildi va sekin yutildi. Qalamtaroshli qo'l yonboshga yozildi, ohista silkitildi: qo'l egasi his-tuyg'ularga quloq tutardi.

– Ah, – oh urdi u yutib. – Yashavor, Babichev. U kolbasani uddalabdi. Eshiting, rostdan muvaffaq bo'libdi. O'ttiz besh rubl va shunday kolbasa – bilasizmi, hatto aql bovar qilmaydi.

Telefon jiringladi. Shapiro sekin turib, eshik yoniga bordi.

– Ha, o'rtoq Babichev. Sizni tabriklayman va o'pishni xohlayman.

U yerda, qayerdadir Babichev shunchalik kuchli qichqirdiki, bu yerda, telefondan ancha oraliq masofada turib ham men go'shakdan uning ovozi, titroqni va yorilgudek tovushni eshitdim. Kuchli tebraniqli titrashdan so'ng go'shak Shapironing ojiz barmoqlari orasidan salkam tushib ketgudek bo'ldi. U, hatto xuddi o'yinqaroq odam xalaqit berayotgandek, boshqa qo'lini silkitib qo'ydi.

– Men nima qilay? – so'radim men. – Kolbasa sizda qoladimi?

– U o'zining uyiga olib kelishni so'rayapti. Meni kechqurun buni yeyishga taklif qilyapti.

Men chiday olmadim:

– Nahotki uyga olib borish shart bo'lsa? Boshqasini sotib olish mumkin emasmi?

– Bunday kolbasani sotib olish mumkin emas, – dedi Shapiro. – U hali sotuvga tushmadi. Fabrikaning namunasi.

– U ayniydi.

Shapiro, pichoqni qo'yib va yonboshidan cho'ntak izlab qo'li sirpanar ekan, xuddi keksa yahudiylar kabi, xiyla jilmayib pand-nasihat yo'rig'ida dedi:

– Men Babichevni bir kunda aynimaydigan kolbasa bilan tabriklayman. Aks holda tabriklamagan bo'lardim. Biz uni bugun tanovul qilamiz. Buni quyoshga qo'yib qo'ying, qo'rqmang, issiq quyosh tig'iga qo'yavering – xuddi atirgul kabi hid taratadi.

U omborning qorong'i qa'rida yo'qoldi, pergamentli va moyli qog'oz bilan qaytdi va oradan bir necha soniya o'tgach men ustalik bilan o'ralgan paketni ushlab turardim.

Babichev bilan tanishganimizdan beri mashhur kolbasa haqida men allaqachon eshitgan edim. Qayerdadir alohida yangi – yeyishli, toza va arzon nav tayyorlanayotgani haqidagi gaplar qulog'imga chalinib qolardi. Babichev doimiy ravishda turli joylarda bo'lar, so'rar va maslahatlar berar, goh tund bo'lib, gohida shirin entikib telefondan uzoqlashardi. Nihoyat nav yaratilgan edi. Xartumlarning og'ir tebranişidan so'ng sirli inkubatorlardan qalin, zich ichak chiqib keldi.

Babichev bu ichakning bir bo'lagini qo'lga olib, qizarib ketdi, hatto dastlab kuyovlarga xos tarzda xuddi yosh, chiroyli xotinini mehmonlarga tanishtirib, u go'zal taassurot qoldiradigandek uyaldi. Baxtli sarosimalik ichida u hammaga qaradi va shu zahoti bo'lakchani qo'yib, ochilgan kaflardan uzoqlashtirib, bosh chayqagan holda aniq shunday

demoqchi edi: «Yo‘q, yo‘q. Kerak emas. Men darhol rad etaman. Keyin azob chekmasligim uchun. Bunday muvaffaqiyatlar oddiy inson hayotida ro‘y berishi mumkin emas. Bu taqdir firibi. Olinglar. Men munosib emasman».

Men bir kilo mo‘jaz kolbasani ko‘targancha noma‘lum tarafga ketardim. Men ko‘prikda turardim.

Mehnat saroyi o‘ng qo‘lda, orqada – Kreml. Daryoda qayiqalar, suzayotganlar. Mening tagimdan kater qush misoli uchadi. Men tepadan kater o‘rnida ulkan, kesilgan bodom mag‘zini ko‘raman. Bodom mag‘zi ko‘prik tagida yashirinadi. Men faqat o‘shanda kater quvurini va uning yonida ikki kishi qozonchadan karam sho‘rva ichganini eslayman. Shaffof va g‘oyib bo‘luvchi pag‘a tutun men tomonga uchadi. Uchib kelishga ulgurmaydi, boshqa shakllarga o‘tadi va menga qadar so‘nggi izi bilan zo‘rg‘a ko‘rinar-ko‘rinmas yetadi.

Men kolbasani daryoga uloqtirishni xohlardim.

Andrey Babichev, ajoyib odam, siyosiy surgunchilar jamiyati a‘zosi, boshqaruvchi, bugunni bayram deb hisoblaydi. Unga kolbasaning yangi navini ko‘rsatganlari uchun... Nahotki bu bayram bo‘lsa? Nahotki bu shon-shuhrat bo‘lsa?

U bugun porladi. Ha, shon-sharaf muhri unda. Nima uchun men bu shuhratga nisbatan ishqibozlik, shod-xurramlik, qoyil qolishni his etmayapman? Menda adovat jo‘sh uryapti. U – boshqaruvchi, kommunist, u yangi dunyo barpo etyapti. Bu yangi dunyodagi shon-shuhrat esa kolbasapazning qo‘lidagi yangi navli kolbasa chiqqani bilan chaqnamoqda. Men bunday iftixorni tushunmayman, nima bu o‘zi? Tarjimayi hollar, haykallar, tarix menga bunday sharaf haqida so‘ylamagan edi... Demak, shon-shuhrat tabiati o‘zgargan. Hamma joydami yoki shu yerda barpo etilayotgan dunyodami? Ammo men shuni his etyapmanki, yangi, qurilayotgan dunyo, bu – bosh, tantana qiluvchidir... So‘qir emasman, boshim yelkamda... Menga o‘qitish, tushuntirishning keragi yo‘q... Savodim bor. Men aynan shu dunyoda shon-shuhratni xohlayman. Men Babichev bugun porlagan kabi charaqlashni istayman. Biroq kolbasaning yangi navi meni porlashga majbur qila olmaydi.

Men qo‘limdagi o‘ram bilan ko‘chalarda yuraman. Harakatlarim, inon-ixtiyorimni rasvo kolbasa bo‘lagi boshqaradi. Men buni xohlamayman!

Bu o'ramni bir necha marta to'siq ortiga uloqtirishga shaylandim. Ammo undan qutulishimni ko'z oldimga keltirishim bilan boshqa tasavvur zudlikda menga titroq solardi. Men ko'zlari chaqchayib o'zim tomonga kelayotgan darg'azab, qudratli arzanda Babichevni ko'rib turardim. Undan qo'rqaman. Meni yanchib tashlaydi. U qaramaydi menga – ammo moneliksiz ham ko'radi. U menga qaramaydi. Boshi men tomonga burilganida yon tomondan ko'zlarini ko'raman, uning nigohi yo'q: faqat ko'zoynak, ikkita aylana so'qir osilmachiq yarqiraydi. Menga qarashining qizig'i yo'q unga, vaqti yo'q, xohishi yo'q, ammo meni to'siqsiz ham ko'rishini fahmlayman.

Kechqurun Sulaymon Shapiro, yana ikki odam keldi va Babichev ziyofat uyushtirdi. Keksa yahudiy bir shisha araq keltiribdi, ular ichishdi, mashhur kolbasa bilan gazak qilishibdi. Men katta stoldan ovqatlanishdan bosh tortdim. Ularni balkondan kuzatdim.

Rassomlik ko'plab ziyofatlarni abadiylashtirgan. Sarkardalar, doj¹ va shunchaki bo'rdoqi yeb to'ymaslar bazm quradilar. Zamonlar muhrlangan. Patqalamlar tarqaladi, gazlamalar tushadi, lunjlar yaltiraydi.

Yangi Tepolo! Bu yoqqa shoshil! Mana senga bazm qahramonlari... Ular yuzta shamli yorqin stol atrofida o'tirishibdi, jonli suhbat qurishmoqda. Ular haqida yozgin, yangi Tepolo, yoz «Xo'jalik boshqaruvchilikida ziyofat»!

Men muzeyda sen yaratgan rasmlarni ko'raman. Keluvchilarni, sening surating oldida turganlarni ko'raman. Ular boshi chayqaydilar, sen muhrlagan asar nima haqida ekanligini, naqadar hayajon baxsh etishini bilmaydilar... U sanchqida kolbasa parragini ushlaydi. Krujka ichidagi suyuqlik gapiruvchining og'zida allaqachon yo'qolib ketishi kerak edi, bunday bo'lmaydi, chunki so'ylovchi o'z nutqi bilan haddan ziyod band. U nima haqda gapiryapti?

– Bizda sosiska qilishni bilishmaydi! – deydi shimini tutib turish uchun ikki yelkasi osha tasma tashlagan ko'k libosdagi bahaybat. – Bizdagi sosiskami? Jim bo'ling, Sulaymon. Siz yahudiysiz, sosiskalar haqida hech nimani tushunmaysiz – sizga joiz bo'lgan qonsiz go'sht yoqadi... Bizda sosiskalar yo'q. Bu sklerotik barmoqlar, sosiska emas. Haqiqiy sosiskalar sharillab oqa boshlashi kerak. Men bunga erishaman, mana, ko'rasiz, men shunday sosiskalar yarataman.

¹ Doj – XVIII asrdan ilgari Venetsiya va Genuya respublikalari boshlig'ining unvoni.

Biz aerodromda yig'ildik.

«Biz» deyapman! Men kun qizigan tomonda edim, tasodifan qo'shib olingandim. Menga hech kim e'tibor bermadi, taassurotlarim bilan bi-ror kimsa qiziqmasdi. Sokin vijdonim bilan uyda qolsam bo'lardi.

Yangi konstruksiyadagi sovet aeroplanining parvozi amalga oshishi kerak edi. Babichevni taklif qilishdi. Mehmonlar to'siq ortiga o'tishdi. Ushbu saralangan guruhga ham Babichev boshlovchilik qilardi. U kim bilandir gaplashib boshladimi, atrofini doira qilib olishardi. Barcha hur-mat bilan quloq solardi. U o'zining bo'z kastumida savlat to'kib turar, ulkan, hammadan baland, yelkalari keng edi. Qornida, tasma-sida qora durbin osilib turardi. Suhbatdoshini eshitayotib qo'llarini cho'ntagiga solar, orasi keng qo'yilgan oyoqlarida tebranardi. U tez-tez burnini qa-shiydi. Qashiyotganda ko'zlariga yaqin keltirgan barmoqlariga qaraydi. Tinglovchilar, xuddi maktab o'quvchilari kabi, beixtiyor tarzda uning qiliqlari va yuziga doir harakatlarini takrorlaydilar. Ular ham burun qashib, o'zlariga o'zlari hayron bo'ladilar.

Men g'azablanib ulardan uzoqlashdim. Dala shabadasidan huzur-langan ko'yi bufetda pivo ichib o'tirdim. Yengil shamol stolimdagi dasturxonning nozik naqshlarini siypalab o'tganini his etar, pivoga qo'l cho'zardim.

Aerodromda bir nechta mo'jiza omuxtalashib ketdi: bu yerda, da-lada, to'siqqa ancha yaqin joyda moychechaklar gullagan, oddiy sariq moychechaklar ancha pastda bo'lib, xuddi zambarakning bulutli tutuni kabi yoyilib ketgan; bu yerda hammasi go'zal edi...

Xuddi hasharotning qanotqalqoni kabi yupqa, titroq Liliyentalning nomi bolalik yillarimdan buyon menga mo'jizadek tuyuladi... Bam-bukning yengil taxtachalariga mahkam tortilgan uchish moslamasiga tegishli bu nom bolalik xotiramdagi aviatsiyaning boshlanishini ang-latadi. Qanot qoqib uchmoqchi bo'lgan Otto Liliyental qattiq urilib o'lgan. Uchish mashinalarini qushlarga o'xshatish bas qilindi. Yengil, sariq tusda yoritiladigan qanotlar kurakoyoqlar bilan almashtirildi. Ular ko'tarilayotganda yerga urilishiga ishonish mumkin edi. Har holda ko'tarilish chog'ida chang-to'zon yoyiladi. Parvoz mashinasi endi og'ir baliqqa o'xshar edi. Aviatsiya naqadar tez ravishda sanoatga aylandi!

Marsh boshlab yuborildi. Harbiy ishlar bo'yicha xalq komissari keldi. U hamrohlaridan tezda ildamlab, xiyobonga o'tdi. Shiddatli va jadal yurishi bilan shamolga o'xshardi. Ortidan yaproqlar ko'tarilib qoldi. Orkestr bashang bo'lib chalardi. Komissar uning maromi bo'yicha olif-talarcha qadam bosdi.

Men maydonga ochiladigan eshikka tashlandim. Biroq meni ushlab qolishdi. Harbiy «yo'q» dedi va qo'lini eshikning yuqori qirrasiga qo'ydi.

– Bu qanaqasi? – so'radim men.

U teskari o'girildi. Ko'zlari qiziqarli tomoshalar bo'layotgan to-monga qaradi. Qirmizi charmli kurтка kiygan uchuvchi-konstruktor safdagi harbiy komissarning oldingi tomonida turardi. Tasma komis-sarning miqti orqasini tarang tortardi. Ularning ikkisi ham bo'g'ot tagi-da edi. Orkestrdan tashqari hamma harakatdan to'xtagan edi. Babichev qornini do'ppaytirib turardi.

– Meni o'tkazib yuboring, o'rtoq! – takrorladim men, harbiyning yengidan tortib, javob tariqasida undan shuni eshitdim:

– Men sizni aeroportdan chiqarib yuboraman.

– Ammo men o'sha yerda edim. Bir daqiqaga chiqqan edim. Men Babichev bilan birgaman!

Taklifnoma chiptasini ko'rsatish kerak edi. Lekin u menda yo'q: Babichev meni shunchaki o'zi bilan olgan edi. To'g'risi, agar maydon-ga tushmaganimda ham hech qanday qayg'urmagan bo'lardim. Bu yer, to'siq orti ham tomosha qilish uchun yaxshi joy. Biroq men aytganim-da turib oldim. Hammasidan ko'ra, ichkaridagi manzarani yaqindan ko'rish istagi meni devorga chiqishga undadi. Shuni tuyqus yaqqol ang-ladimki, o'zlarining yumushlaridan uzilib ulkan va muhim ish uchun chaqirilganlar – bu yerda bo'lishadimi yoki boshqa qaysidir joydami – ular orasida mening borligim shart emas ekan.

– O'rtoq, men axir oddiy fuqaro emasman. – dedim xavotirlanib (miyamda aralash-quralash bo'lib ketgan boshqa jumlaning o'ylab topa-olmadim). Men kimman sizga? Tor fikrli odammanmi? Baraka topkur, o'tkazib yuboring. Men u yerdanman. (Qo'lim bilan harbiy komissarni qarshi olgan bir guruh odamlarga imo qildim.)

– Siz u yerdan emassiz, – kuldi harbiy.

– O'rtoq Babichevdan so'rang!

Men kaftlarimni karnay qilar ekanman, oyoqlarim uchida turib qichqirdim:

– Andrey Petrovich!

Ayni shu paytda orkestr tingan edi. Barabanning so'nggi gumburlagan sadosi yer ostidan taralib ketdi.

– O'rtoq Babichev!

U eshitdi. Harbiy komissar ham o'girilib qaradi. Hamma burildi. Uchuvchi oftobdan saqlanish uchun qo'lini shlemga kelishtirib tegizdi.

Meni qo'rquv qamrab oldi. To'siq ortida depsinardim; men – kalta shimdagi bir meshqorin – ularning diqqatini tortishga qanday jur'at qildim? Va jimlik cho'kkanida, hali ulardan birini kim chaqirganini aniqlamay turib, kutib turganlarida – men yana bir marta chaqirishga o'zimda kuch topdim.

Biroq u mening chorlayotganimni bildi, u ko'rdi, u eshitdi. Bir soniya – va hammasi tugadi. Guruh a'zolari yana oldingi holatlarini egalashdi. Men yig'lab yuborishga tayyor edim.

Shunda yana oyoqlarim uchida turdim va tag'in o'sha karnay orqali harbiyning qulog'ini qomatga keltirgancha yetib bo'lmas tarafga dodladim:

– Kolbasapaz!

Yana bir marta:

– Kolbasapaz!

Va bir necha marta:

– Kolbasapaz! Kolbasapaz! Kolbasapaz!

Men faqat shlapasini boshqalarnikiga nisbatan teparoq qilib qo'ygan Babichevni ko'rib turardim. Ko'zlarimni yumib, to'siq ortida o'tirishni istaganimni eslayman. Yodimda yo'q, ko'zlarimni yumdimmi, agar yumgan bo'lsam, har ehtimolga ko'ra, asosiy manzarani ko'rishga ulgurganman. Babichevning yuzi menga qaratildi. Soniyaning o'ndan bir qismida bu qiyofa oldimga murojaat qilib keldi. Ko'zi yo'q edi. Uning o'rniga ko'zoynakning ikki chaqnagan to'qasi turardi. Meni qandaydir oshig'ich ravishda jazolashlari haqidagi qo'rquv uyquga o'xshash holatga soldi. Tush ko'rdim. O'zimga xuddi uxlayotgandek namoyon bo'ldim. Va tushimda, eng qo'rqinchlisi, Babichevning boshi qimir-lamaydigan gavadada o'z o'qida va xuddi vintda aylangani edi. Uning orqasi burilmasdan turardi.

Men aerodromni tark etdim.

Biroq u yerdagi shovqin-suronli bayram qiziqtirardi. Yashil dolg'a oldida to'xtadim va changga to'la eshikka suyanib turdim. Meni, xuddi avliyodek, butazor o'rab olgan edi. Ta'mi sho'r mayin shoxlarni sindirib olib shima boshladim. Men oqargan yuzimni osmonga qaratgancha turardim.

Aerodromdan mashina chiqdi. Kuchli chinqirgancha men tomonga kela boshladi. Kuchli «xurillash» bilan ustimdan o'tib ketdi, oftobda sarg'aygan, xuddi qaydnoma kabi qing'ir-qiyshiq, daraxtimning yap-roqlarini butkul shilib ketganday tuyuldi. Yuqoriroq, yuqoriroq – men uning ortidan valga qarab ta'qib etdim: u goh chaqnar, goh qorayar edi. Oraliq masofa o'zgarar, u ham turli buyumlar shakliga kirardi: miltiq lo'kidoni, qalamtarosh tig'i, sirenaning toptalgan gullari...

Yangi sovet mashinasining tantanasi mensiz o'tdi. Urush e'lon qilindi. Men Babichevni haqorat qilardim.

Hozir ular aerodromdan to'dalashib chiqadi. Haydovchilar faoliyatini boshlab yuborishgandi. Mana, Babichevning ko'k mashinasi. Haydovchi Alpers meni ko'radi, ishoralar qiladi. Gavdam bilan o'girilaman. Mening boshmoqlarim yashil maysazorda adashib ketadi.

Men u bilan gaplashishim kerak. U meni tushunishi kerak. Unga men emas, o'zi aybdor ekanligini tushuntirishim shart. U yakka o'zi chiqmaydi. Men u bilan ko'zlarimni ko'zlariga tikib gaplashishim zarur. Bu yerdan idoraga ketadi. Men uni quvib yetaman.

Idorada uni hozir qurilishda deyishdi.

«Yigirma besh tiyinlik»? Demak, «Yigirma besh tiyinlik»ka!

Meni unga aytishim kerak bo'lgan qandaydir og'ir so'z yetaklardi; xuddiki allaqachon og'zimdan chiqib ketgandek edi va men shoshapisha uni quvar, ammo yetib ololmaslikdan, yo'qotib qo'yish va esdan chiqarishdan qo'rqardim.

Qurilish menga sarg'imtir, havoda osilgan sarobdek ko'rindi. Mana u «yigirma besh tiyinlik»! Qurilish uylar ortida, olisda – yog'och-taxtalarining alohida qismi bir joyda yig'ilgan; u esa uzoqda uvillardi...

Men yaqinlashaman. Gumburlash va chang. Quloqlarim tom bitadi va ko'zlarim xira tortadi. Taxta to'shama oldiga bordim. Chumchuq kanoptoladan uchdi, bolalikdagi sirpanishlarni eslatgan taxtalar yengil

silkindi, men qipiqalar qanday qo'ndayotgani va yelkalamni qay tarzda oqartirayotganini ko'rib kulimsirab borardim.

Uni qayerdan izlash kerak?

Yuk mashinasi yo'limni ko'ndalang kesdi. U sira chiqib keta olmasdi. Xuddi qo'ng'iz yotiq yassilikdan tik ko'tarila olmagandek, harakat qilar, biroq foydasi bo'lmasdi.

Yo'llar chalkash, uni topolmayman.

– O'rtoq Babichevni?

Ko'rsatadilar: u yoqda. Qayerdadir chuqur tubiga uradilar.

– Qayoqqa?

– U yoqqa.

To'sin bo'ylab tubsizlik sari boraman. Muvozanat saqlayman. Pastda qamoqqa o'xshagan nimadir lang ochiq turgandek.

Bepoyon, qoramtir va sovuq. Hammasi birgalikda verf¹ni eslatadi. Men barchaga xalaqit beraman.

– Qayoqqa?

– Naryoqqa.

U tutqich bermas.

Bir marta ko'zga chalindi: qandaydir yog'och devor ortida gavdasi ko'rindi. G'oyib bo'ldi. Mana, yana tepada ko'rinadi, uzoqda – bizning o'rtamizda ulkan bo'shliq, bu yaqinda bunyod etiladigan binoning hovlisi bo'ladi.

U ushlanib qoldi. U bilan birga bir nechta furajklar, etaklar. Baribir chaqiraman, birgina «kechiring» degan so'zni aytish uchun.

Menga u tomonga qisqa yo'lni aytishdi. Faqat zina qoldi. Men alaqachon ovozlarni eshita boshlayman. Bir nechta pillapoyani bosib o'tishim qoldi...

Ammo shunday hodisa ro'y beradi. Men engashishim kerak, aks holda uchib ketaman. Engashaman, yog'och zinapoyani qo'llarim bilan ushlayman. U men bilan uchadi. Ha, u havoda edi.

Men bo'shliq aro parvozdagi qandaydir shaklni – bashara emas, kovaklar: ikkita teshik, pastdan mahobatli haykalni aniq ko'rdim.

– Bu nima edi?

Zinapoyada sayr qilardim.

U g'oyib bo'ldi. Uchib ketdi. Yupqa temirda boshqa joyga uchib o'tdi. Uning parvozigina panjarasimon ko'lanka hamrohlik qilardi. U

¹ Verf – kemalar quriladigan yoki ta'mirlanadigan korxon.

temir sathda turardi. Nima bo'libdi: texnik moslama, kran. Bir-biriga ko'ndalang qilib qo'yilgan relsli chorqirra yog'ochlardan iborat maydon. Men bo'shliq aro, kvadratlarda uning kovaklarini ko'rdim.

Men zinapoyaga o'tirdim.

– Qani u? – deb so'radim.

Atrofdagi ishchilar kulishar, men ham xuddi hozirgina tomosha ko'rsatgan masxaraboz kabi tevarakka iljayib qarardim.

– Bunda men aybdor emasman, – dedim men. – U aybdor.

XI

Men uning oldiga qaytmaslikka qaror qildim.

Oldingi boshpanam allaqachon boshqa birovga tegishli edi. Eshikka qulf ilingandi. Yangi ijarada turuvchi yo'q edi. Esladim: Prokopovichning bevasi yuz ko'rinishi bilan osilgan qulfga o'xshar edi. Nahotki u yana mening hayotimga kirib kelsa?

Tun xiyobonda o'tdi. Meni maftunkor tong o'z bag'riga oldi. O'rindiqlarda yana bir nechta uysiz odamlar uxlardi. Ular qo'llarini yengil ichiga tiqib, qorniga bosib yotishardi. Ko'zlarini ochmay, qo'llarini tortmay, oh chekishar, ingrashar, qaltirashardi.

Qushlar uyg'ondi. Mayda tovushlar taraldi. Qisqa: qushlarning ovozi va o'tlarning shovuri. G'ishtli maskanlarda kaptarlar g'imirlay boshladi.

Men qaltiragan ko'yi qaddimni ko'tardim. Esnash xuddi it kabi meni titratardi.

(Ko'cha eshiklari ochildi. Stakan sutga to'ldirildi. Sudyalarning hukm chiqardilar. Kechasi ishlagan odam derazaga yaqin keldi va ko'chalarni odatlanmagan yorug'likda ko'rib hayron bo'ldi. Bemor ichishga suv so'radi. Bolakay sichqon qopqonga tushgan-tushmaganini ko'rish uchun oshxonaga yugurdi. Ertalab boshlandi.)

Men shu kuni Andrey Babichevga maktub yozdim.

Mehnat saroyida Solyankada qiyma go'shtli «Nelson» taomini kavshab, pivo sipqorib xat bitdim:

«Andrey Petrovich!

Siz menga boshpana berdingiz. Biqiningizdan joy ajratdingiz. Men sizning ajoyib divaningizda yotdim. Bilasizmi, ungacha qanchalik yomon yashaganman! Xudo marhamat qilgan tun boshlandi. Siz menga achindingiz, araqxo'rni olib ketdingiz.

Meni chiroyli gazlamali choyshabga o'ratingiz. Uning muloyim va sovuqligi xuddi isitmamni tushirish va bezovtaligimni aritishga mo'ljallangan edi go'yo.

Hayotimda, hatto ko'rpa-yostiqlarning dandon tugmalari paydo bo'ldi, ularda kerakli nuqtani topsang bas – spektrning rang-barang gar-dishlari suzardi. Men darhol ularni yoqtirib qoldim. Ular uzoq o'tmishda unutilgan, eng olis, bolalik xotirasining puchmoqlaridan qaytib keldi.

Men ko'rpa-yostiq oldim.

Bu so'z men uchun xuddi shoirona tarzdgai «serso» kalomi kabi edi.

Siz menga ko'rpa-to'shak berdingiz.

Men yoshligim uchun mo'ljallangan ko'plab imkoniyatlarni qayta-rish mumkinligiga umid qila boshladim.

Siz menga marhamat ko'rsatdingiz, Andrey Petrovich!

O'ylab ko'rilsa, meni dongdor inson o'ziga yaqin olib kelgan ekan! Benazir arbob menga o'z uyidan joy bergan. Men o'z tuyg'ularimni sizga bildirmoqchi edim..

Aslini olganda, bu tuyg'u bor-yo'g'i bitta: nafrat.

Men sizdan nafratlanaman, o'rtoq Babichev.

Bu xat sizni kalondimog'likdan tushirish uchun yozilmoqda.

Men sizning yoningizdagi dastlabki kunlardan e'tiboran qo'rquvni his eta boshladim. Siz menga bosim o'tkazdingiz. Gardanimga o'tirdingiz.

Siz ishtonda turibsiz. Pivo aralash ter hidi anqiydi sizdan. Men siz-ga qarayman, yuzingiz g'aroyib tarzda yiriklasha boshlaydi, gavda kat-talashadi, tarashlab yasalgan qandaydir haykalcha, sanam loyi shishadi, qavaradi. Men baqirishga tayyorman.

Meni ezishga unga kim huquq berdi?

Undan qayerim kam?

U aqlliroqmi?

Qalban boymi?

Nozik xilqatmi?

Kuchlimi? Sezilarli darajadami?

Mavqeyi jihatidan yuksakmi yoki mavjudligi bilanmi?

Nima uchun men uning ustunligini tan olishim kerak?

Men o'zimga shu savollarni qo'yardim. Har kungi kuzatuv menga javoblarning bir qismini berardi. Bir oy o'tdi. Men javobni bilaman.

Endi sizdan qo'rqmayman. Siz shunchaki befahm amaldorsiz. Boshqa hech kim emas. Siz shaxsingiz bilan menga bosim o'tkazmadingiz. O, yo'q! Endi men sizni aniq-ravshan tushunaman, kaftimga qo'yib qarayman. Mening sizning oldingizdagi qo'rquvim xuddi go'daklik singari ketdi. Men sizni o'zimdanda itqitdim. Siz – sullohsiz.

Bir vaqtlar meni shubhalar qiynardi. «Balki ularning oldida jinqarchadirman? – deb o'ylardim. – Balki u menga, izzattalab kishiga, rost-dan katta odamni namuna qilib ko'rsatayotgandir?»

Biroq ayon bo'lishicha, siz shunchaki amaldor ekansiz, sizgacha bo'lgan va sizdan keyin bo'ladigan boshqa mansabdorlar kabi nodon va befahm. Va barcha to'ralar singari o'zboshimcha, zo'ravonsiz. Bir bo'lak o'rtamiyona kolbasa tegrasida ko'tarilgan dovulni yoki ko'chadan notanish yigitchani uyingizga olib kelganingizni faqat o'zboshimchalik bilan tushuntirish mumkin. Va, ehtimol, ana shu o'zboshimchalik tufayli Volodya Makarovni o'zingizga yaqinlashtirdingiz, uning futbol o'yinchisi ekanligini faqat men bilaman. Siz – barinsiz. Sizga masxarabozlar va tekinxo'rlar kerak. O'sha Volodya Makarov tahqirlashlarga toqat qilolmay sizdan qochganiga shubha qilmayman. Xuddi menga nisbatan bo'lgani kabi uni ham muntazam ravishda ahmoq qilgan bo'lsangiz kerak.

Siz uni uyingizda yashagani, xuddi o'g'lingizdek bo'lgani, hayotingizni qutqarib qolganini aytib, u haqida eslab, hatto orzuga berildingiz. Mening yodimda. Ammo bularning hammasi yolg'on. Sizning to'ralarga xos mayllarni tan olishingiz qiyin, albatta. Biroq men belingizda xolni ko'rib qoldim.

Dastlab siz, divan unga tegishli ekanligini va qaytib kelganida bo'shatib tuyog'imni shiqillatishim kerakligini aytdingiz – men qattiq ranjidim. Biroq oradan bir daqiqa o'tgach tushundimki, siz unga ham, menga ham sovuqqon va befarqsiz. Siz – barinsiz, biz – sig'indilarmiz.

Ammo shunga jur'at qilib sizni ishontiramanki, u ham, men ham – biz sizga qaytmaymiz. Siz odamlarni hurmat qilmaysiz. U mendan ham ahmoq bo'lsagina qaytadi.

Mening taqdirim shunday kechdiki, surgunlar ham, inqilobiy stajim ham yo'q. Menga vishillaydigan suv qurilmalarini tayyorlash yoki asarlari qutilarini yasashni topshirishmaydi.

Ammo bu – siz asrning yaxshi o'g'li-yu, mening yomon ekanligimni anglatadimi? Men – hech kim, siz qandaydir ulkan inson ekanligingizni namoyon etadimi bu?

Siz meni ko'chada topdingiz...

O'zingizni naqadar befahmlardek tutdingiz!

«Ko'chada, – deb qaror qildingiz siz, – ha, mayli, bo'sh-bayov shaxs, ishlab bersin. Musahhihmi, musahhih, tuzatuvchi, mayli». Siz ko'chadagi yigitchaga marhamat ko'rsatmadingiz. O'zingizdan lazzatlanish ro'y berdi. Siz – kalondimog' amaldorsiz, o'rtoq Babichev!

Men sizga kim bo'lib ko'rindim? Tugab borayotgan lumpen-proletar¹ bo'libmi? Meni qo'llab-quvvatlashga qaror qildingizmi? Rahmat sizga. Men kuchliman – eshityapsizmi – halok bo'lib, qaddimni rostlab, yana halok bo'lish darajasida ham kuchliman.

Xatimni o'qib bo'lgach, qanday ish tutishingiz menga qiziq. Balki meni badarg'a qilishlariga urinib ko'rarsiz yoki jinnixonaga tiqarsiz? Hammasini uddalaysiz, siz – katta odamsiz, hukumat a'zosi. Siz, axir o'zingizning akangizni otish kerakligi haqida aytdingiz. Kanatchikovga o'tqazamiz, dedingiz-ku!

Akangiz, o'zgacha taassurot qoldirib, men uchun jumboq bo'lib qoldi, tushinarsiz. Bu sir, men hech nimani bilmayman. «Ofeliya» nomi meni ajabtovur tarzda hayajonga soladi. Siz esa bu ismdan qo'rqasiz, menga shunday tuyuladi.

Har holda mening qandaydir taxminlarim bor. Oldindan nimanidir ko'ra olaman. Men sizga xalaqit beraman. Bunga deyarli ishonaman. Ammo sizga izn bermayman. Siz akangizning qizini qo'lga kiritmoqchimisiz? Men uni bir marta ko'rdim. Axir bu qizga butoq, limmo-limgul va yaproqlar haqida men aytgan edim-da! Sizda tasavvur degan tushuncha yo'q. Ustimdan kuldingiz. Men telefondagi so'zlashuvni eshitib qoldim. Siz qizga otasini qanday yomonlagan bo'lsangiz, meni ham shunday qoraladingiz. Uni qo'lga kiritmoqchi ekansiz, – muloym, hayajon og'ushida o'tirishini o'ylab, – xuddi bizga nisbatan uringaningiz kabi oldingizda ahmoq qilishingizning foydasi yo'q. Siz undan (so'zlaringizni ataylab keltiraman) «Kallalar hamda qo'y oyoqlari elektrik spiral parmalar, avtomatik ravishda tozalaydigan mashinalar»ni (sizning risolangizdan) qo'llaganingiz kabi foydalanmoqchisiz.

E, yo'q, men sizga yo'l qo'ymayman. Bo'lmasam-chi: mazali bo'lak-da! Siz ochko'z va badnafs odamsiz. O'zingizning fiziologiyani-

¹ *Lumpen-proletar* - sinfiy qiyofasini yo'qotgan aholi tabaqasi – sayoqlar, yalangoyoqlar, qashshoqlar.

giz uchun nimadir qilishdan oldin to'xtagan bo'larmidingiz? Qizning axloqini buzishga sizga nima xalaqit beradi? Uning jiyaningiz ekanligimi? Axir siz oilangiz, avlodingiz ustidan kulasiz-ku? Uni gapga quloq solishga o'rgatishni istaysiz.

Shu bois aynan shunday tarzda qattiq g'azablanib akangizni yakson qilasisiz. Unga bir qaragan har qanday kishi esa ajoyib odam deydi. Men hali bilmagan holda o'ylayman: u daho, qaysi jabhada, bilmayman... Siz uni zaharlaysiz. Men to'siqni qay tarzda mushtingiz bilan taqillatib urganingizni eshitganman. Siz qizni otasini tark etishga majbur qildingiz.

Ammo meni quvg'in qilolmaysiz.

Men akangiz va qizining himoyasiga turaman. Eshiting, hoy siz, butoq, limmo-lim gullar va yaproqlar ustidan kulgan kaltafahm, eshiting – men faqat shu tarzda, shunday xitob bilan o'zimning zavq-shavqimni qizga ifoda eta olganman. Xo'sh, siz qaysi so'zlarni tayyorlayapsiz uning uchun? Sizga tushunarsiz bo'lgan obrazli tilda qizga murojaat qilganim uchun meni araqxo'rga chiqardingizmi? Yo kulgili, yo qo'rqinchli – tushunarsiz. Hozir kulyapsiz, ammo men sizni yaqinda dahshatga tushishga majbur qilaman. Obrazli tarzda deb o'ylamang – men muayyan tarzda fikrlay olaman. Albatta! Men u haqda, Valya haqida oddiy so'zlar bilan ham aytishim mumkin – mana, marhamat, hozir siz uchun bir qator tushunarli tavsiflarni keltirib o'taman, ataylab, sizni yondirish maqsadida, siz ololmaydigan tarzda g'ashingizni keltirish uchun, hurmatli kolbasapaz!

Ha, u mening qarshimda turar, dastlab o'zimning uslubimda aytaman – u soyadan ham yengil – unga eng yengil soya, yog'ayotgan qor ko'lankasi ham hasad qilardi; ha, dastavval, o'z uslubimda: u meni quloqlari bilan emas, boshini xiyol egib, chakkasi bilan tinglar edi; ha, yuzi yong'oqqa o'xshaydi: rangi – oftobda qorayganidan, ko'rinishi – doirasimon, torayib iyakka qo'shilganidan. Tushunarlimi sizga? Yo'qmi? Hali yana bor. Yugurganidan ko'ylagi tartibsiz ahvolga kelib ochilib ketdi va men uning to'lasincha qoraymaganiga ko'zim tushdi, ko'kragida shoh tomirining zangori shoxchalarini ko'rdim.

Endi – sizning yondashuvingiz. Siz lazzat olmoqchi bo'lgan ish tavsifi. Mening oldimda o'n olti yoshlardagi voyaga yetgan qiz turardi, qizcha desayam bo'ladi, yelkalari keng, kulrang ko'zli. sochlari kalta

qirqilgan va paxmoq – maftunkor o'smir, shaxmat donasiday xushqad (bu endi mening tavsifim!), bo'yi uncha baland emas.

Siz uni ololmaysiz.

U mening xotinim bo'ladi. Men uni butun umr orzu qilganman.

Kurashamiz! Jang qilamiz! Siz mendan o'ttiz yosh kattasiz. Ular sizning orqangizda va mening oldimda. Yana bir boshqa yutuq – kolbasa ishidagi yutug'ingiz, tag'in yana bir boshqasi arzon oshxona – mana faoliyatingizning oxirgi chegarasi.

O, boshqa narsa mening tushimga kiradi!

Siz emas, men Valyaga erishaman.

Biz shon-shuhratni sevuvchi Yevropada dong chiqaramiz.

Men hammasi uchun: kamsitilganim, ko'rishga ulgurmagan yoshligim, it kunini ko'rganlarim uchun ajr sifatida Valyaga erishaman.

Sizga bir oshpaz ayol haqida aytib bergan edim. U yo'lakda qanday yuvinishi yodingizdami? Mana endi boshqa narsani tasavvur qilaman: xona qayerdadir, qachondir quyosh nurida yop-yorug' yarqirab turadi, derazada – ko'k tog'ora, Valya unda zog'orabaliq kabi jilvalanib yuvinadi, buragichlarni burab, suv sachratadi...

Bu orzu ushali uchun men hamma ishni ado etaman! Siz Valyadan foydalana olmaysiz.

Xayr, o'rtoq Babichev!

Men qanday qilib to'liq bir oy davomida kamsitadigan bu rolni o'ynadim? Oldingizga boshqa qaytmayman. Kuting: balki birinchi ahmog'ingiz kelar? Unga mening nomimdan salom aytib qo'ying. Sizning qoshingizga qaytmasligim naqadar baxt!

Har gal nafsoniyatim nimadandir aziyat cheksa, bilamanki, shu zahoti g'oyalar omuxtalashishi bo'yicha qaysidir oqshomda yozuv stolingiz yaqinida o'tkazgan kecha yodga tushadi.

Naqadar mashaqqatli ko'ra olish!

Oqshom. Stol ortida o'tiribsiz. Sizdan o'z-o'zidan huzurlanish nur sochadi. «Men ishlayapman, – tovush chiqaradi bu nurlar, – sen eshit-yapsanmi, Kavalero, men ishlayapman, xalaqit berma... tsh-sh... tor fikrlaydigan odam».

Ertalab esa har xil ovozlari maqtovlari yog'diradi:

– Katta odam! Ajoyib inson! Barkamol shaxs – Andrey Petrovich Babichev!

Biroq xushomadgo'ylar sizga hamd-u sano aytayotgan vaqtda ham, o'zingizga ishonib yuborishingiz kuchayganda ham – yoningizda hech kim hisoblangan va hech kim fikrini so'ramaydigan bir odam yashar edi; har bir harakatingizni ko'zdan kechirayotgan, sizni o'rganayotgan, kuzatayotgan – pastdan, xushomadgo'ylarcha emas, odamgarchilik yuzasidan xotirjam razm solgan va siz haqingizda yuqori mansabli va tashqi ta'sirlar tufayli havas qilar darajada yuksaklikka ko'tarilgan o'rtamiyona shaxs degan xulosaga kelgan odam istiqomat qilardi.

Odamni ahmoq qilish hech gap emas.

Men sizga aytmoqchi bo'lgan gaplarning hammasi shu.

Siz mendan masxaraboz yasamoqchi edingiz, men dushmaningizga aylandim. «Sen kimga qarshi kurashyapsan?» – deb qichqirdingiz siz o'z og'angizga. Bilmadim, nimani nazarda tutdingiz, o'zingiznimi yoki partiyangiz, fabrikalaringiz, do'konlaringiz yoki asalari qutilari qo'yilgan joylarnimi? Men esa sizga qarshi kurashaman: oddiy boyonga qarshi, xudbin, shahvatparast, kaltafahm, hamma ish o'ziga muvaffaqiyatli bitishiga ishongan odamga. Men akangiz uchun, nafisligi, jo'shqinligi, shaxsiyati, Ofeliya kabi hayajonli ismi bois siz tomoningizdan aldangan qiz uchun deb kurashaman. Sulaymon Shapiroga ta'zim qiling...»

XII

Meni farrosh o'tkazdi. Babichev allaqachon yo'q edi. Odat bo'lib qolgan sut ichilgan edi. Stolda xira bosgan stakan turardi. Yonida yahudiy harfiga o'xshash pecheniylar solingan likopcha.

Inson hayoti juda qisqa. Olamlar harakati dahshatli. Men bu yerga joylashganimda oftob quyoni soat ikkida eshik yondorida o'tirgan edi. Oradan o'ttiz olti kun o'tdi. Quyon boshqa xonaga sakrab o'tdi. Yer yo'lining navbatdagi qismiga o'tdi. Oftob quyoni, bolalar o'yinchog'i, bizga abadiylikni esga soladi.

Men balkondan chiqdim.

Burchakda odamlar to'dasi cherkov qo'ng'irog'iga quloq tutardi. Cherkov ayvonining ko'rinmas joyidan chalishardi. Bu cherkov qo'ng'iroq chaluvchisi bilan tanilgan. Anqovlar boshini ko'tarib turishardi. Ularga mashhur qo'ng'iroqchining ishi ko'rinib turardi.

Bir kuni xayrli soatda men burchakda turgandim. Ravoq oralig'ida qo'ng'iroqxonaning ichki tomoni ochildi. U yerda, chordoqlarda uchraydigandek, o'rgimchak uyasi bosgan serqurum qorong'ilikda qo'ng'iroq chaluvchi quturib ketgandi. Yigirmata qo'ng'iroq uni qiy-nab yuborgan edi. U xuddi aravakash kabi o'zini orqaga tashlar, boshini engashtirar, ehtimol hayqirardi. O'rtada, arqonlarning qorong'i girdobida kuymalanib, goh qo'llarini keng yozar, goh arqonlar girdobini o'rab, o'zini burchakka tashlardi – sirli musiqachi, yaxshi ko'rinmaydigan, qora, ehtimol, timsolsiz Kvazimodo kabi edi.

(Oraliq masofadan ko'z tashlab, erkakcha idish, likopchalardan foydalanyapti, deyish mumkin edi. Mashhur qo'ng'iroqni esa restoran va vokzal qo'ng'irog'i qorishmasi deb nomlash mumkin edi.)

Men balkondan quloq solardim.

– Tom-vir-lir-li! Tom-vir-lir-li! Tom-vir-lir-li!

Tom Virilirli. Qandaydir Tom Virilirli havoda qanot qoqardi.

Tom Virilirli.

Tom yo'lxalta bilan.

Tom Virilirli yosh o'smir!

Hurpaygan qo'ng'iroqchi mening ko'plab tonglarimga musiqa singirdi. Tom – ulkan qo'ng'iroq, ulkan doshqozon zarbi. Virilirli – mayda likopchalar.

Tom Virilirli men kutib olgan go'zal tonglardan birida chodirim-ga suqilib kirdi. Musiqali ibora so'zlardan shodasiga aylandi. Men bu Tomni o'zimdagi donli tasavvur qildim.

Shaharga alanglab qarayotgan o'smir. Hech kim tanimagan bo'z bola allaqachon keldi, ancha yaqin keldi, allaqachon uxlayotgan, hech nimadan shubhalanmayotgan shaharni ko'ryapti u. Ertalabki tuman tar-qalayotgan edi. Shahar vodiya miltillayotgan yashil bulut misoli bur-qiraydi. Tom Virilirli, tabassum qilib va qo'lini yuragiga bosib, shahar-ga boqadi, tashqi ko'rinishiga qarab tanish bolalarni izlaydi.

O'smiring yo'lxaltasi orqasida.

U hammasini ado etadi.

U – yoshlikdagi manmanlikning o'zginasi, ko'ngildagi yuksak or-zularning o'zi.

Kunlar o'tadi va yaqinda (oftobli quyon yondordan boshqa xo-naga bir necha marta sakraydi) orqasida yo'lxaltasi bo'lgan bolalar

may tongida shahar atrofiga, orzular tegrasiga borishni orzu qilgan bolalar o'zi xohlagan ishlarni amalga oshirgan inson haqida kuylay boshlaydi.

*Tom Virlirli,
Tom yo'lxalta bilan,
Tom Virlirli navqiron!*

Moskvadagi oddiy cherkov qo'ng'irog'i romantik, yaqqol tarzda g'arbiy yevropacha tabiatga ko'ra botinimda shirin orzularga aylandi.

Men maktubni stolda qoldiraman, lash-lushlarimni (yo'lxaltam-gami?) olaman va ketaman. To'rtburchak qilib buklangan xatni, baxtsizlikka ko'ra o'rtog'im deb hisoblagan odamning surati turgan oynaband plastinaga qo'ydim.

Eshikni taqillatdilar. Umi?

Men ochdim.

Ostonada yo'lxaltani qo'lida ushlagan, quvnoq kulayotgan (yapon tabassumida), devor osha orzularini yuragida saqlayotgan qadrli do'stini aniq-ravshan ko'rgan, uyatchan, qayeri bilandir Valyaga o'xshab ketadigan Tom Virlirli turardi.

Bu, aftidan, qoramag'iz o'smir Volodya Makarov edi. U dastlab menga hayratlanib qaradi, so'ng xona bo'ylab ko'z yugurtirdi. Bir necha marta mening qo'njsiz poyabzalim ko'rinib turgan divanga va uning ostiga qaradi.

– Ajoyib, – kutib oldim men.

U divan oldiga bordi, biroz o'tirdi, turdi va xobgohga ketdi, o'sha yerda bo'ldi, qaytdi va suv qushiga o'xshash guldon yonida to'xtab, mendan so'radi:

– Andrey Petrovich qayerda? Idoradami?

– Aniq ayolmayman. Andrey Petrovich kechqurun qaytadi. O'zi bilan yangi ahmoqni olib kelishi ehtimoldan xoli emas. Siz birinchi, men ikkinchi, u uchinchi bo'ladi. Yoki sizgacha boshqa ahmoqlar bormidi? U o'z uyiga qiz bolani olib kelsa ham ajab emas.

– Kimni? – ajablandi Tom Virlirli. – Qanday? – deb so'radi u tushunmaganidan yuzi burishib. Chakkalari ko'tarildi.

U yana divanga o'tirdi. Divan ostidagi qo'njsiz poyabzal uni bezovta qilardi. Ularni etigi bilan orqaga surib yuborishga tayyorligi ko'rinib turardi.

– Siz nega qaytdingiz? – deb soʻradim men. – Nima jin urib qaytdingiz? Siz bilan rollarimiz yakun topgan. Hozir u boshqa narsa bilan band. U qizni yoʻldan ozdirmoqchi. Oʻzining qarindoshini, Valyani. Tushundingizmi? Bu yerdan keting. Gapimga kiring!

(Men unga tashlandim. U harakatsiz oʻtirardi.)

– Eshiting! Men aytgandek qiling! Unga barcha gapni aytib bering... Mana (men stoldan maktubni oldim), mana, men unga yozgan xat...

U meni chetga surdi. Yoʻlxaltam, odatda, burchakda, divan yonida yotardi. U telefon yoniga bordi mahkamani chaqirdi. Mening lash-lushlarim yigʻishtirilmagan holda qolib ketdi. Men tumtaraqay boʻlib qochdim.

XIII

Maktub oʻzimda qoldi. Meni uni yoʻq qilishga qaror qildim. Uyida futbolchi xuddi oʻgʻli kabi yashaydi. Yoʻlxaltaning burchakda turgani, u xonani qay tarzda koʻzdan kechirgani, telefon goʻshagini qanday koʻtargani, qay yoʻsinda raqam aytgani: avvalgi va shu uyning odami ekanligini namoyon etardi – uyning odam edi u. Ahmoqona oʻtkazilgan kecha menga taʼsir qildi. Men yozishni istagan maktubni bitmagan edim. Babichev qahr-gʻazabimni anglamagan boʻlardi. Buni hasad dagan xayolga borardi. Meni Volodyaga hasad qilyapti, deb oʻylardi.

Xatning oʻzimda qolgani yaxshi boʻlibdi. Aks holda oʻqsiz otish yuz berardi.

Men Volodyani uning oldidagi ahmoq va vaqt oʻtkazuvchi ovunchoq deb oʻylabman. Binobarin, oʻz xatimda uni oʻz himoyamga olmasligim kerak edi. Aksincha qilishim kerak ekan. Endi uchrashib koʻrib, uning kalondimogʻligini koʻrdim. Babichev oʻziga oʻxshaganni avaylab-asrab oʻstiryapti. Xuddi u kabi gerdaygan, koʻzi soʻqir odam voyaga yetadi.

Uning nigohi shunday derdi: «Maʼzur tutasiz, sigʻindi, bu – siz boʻlasiz. Men esa toʻla huquqli odamman. Men – oqbilak boyvachchaman».

Men oʻrindiqda oʻtirardim. Ana shunda dahshatli voqea roʻy berdi.

Toʻrtburchak shakl boshqa narsa boʻlib chiqdi – meniki kattaroq edi; bu mening xatim emas. Maktubim u yerda qoldi. Shoshilinchda boshqa xatni olgan ekanman. Mana, u:

«Aziz, iltifotli Andrey Petrovich! Salom, salom! Salomatliging yaxshimi? Yangi ijarada turuvchi bo'g'zingga keltirmadimi? «Ofeliya» deb nifoq solishga urinmadimi? Qara: ashula aytib berishadi – Kavalerov va sening Ivan Petroviching – seni quyushqondan chiqarishadi. Ishqilib ehtiyot bo'l... axir sen zaifginasan, seni ranjitish oson, qaragin...

Sen o'zi qanday qilib ishonuvchan bo'lding? Har qanday muttaha-mni uyingga kiritasan. Haydab yubor uni! Keyingi kuniyoq aysang bo'lardi: «Mazza qilib uxlading, yigitcha, endi xayr!» Chiroyli muo-mala emish! Sening xatingni o'qigandim-da – meni eslaganing va devor tagida yotgan bir araqxo'rga rahming kelib, meni deb ko'tarib olib ketganingni yozganingda – men bilan ham qayerdadir baxtsizlik ro'y berishi va shu tarzda yotishim mumkinligi – shu haqda o'qishim bilan – menga kulgili va tushunarsiz bo'ldi. Xuddiki bu sen emas, Ivan Petrovich.

Men taxmin qilib ko'rganimdek, shunday bo'lib chiqdi: bu hiylagarni uyingga olib kelding, keyin esa sarosimaga tushib qolding; u bilan nima qilishni bilmaysan-da! Ketishini aytish noqulay, nima qilish kerak – kim biladi! To'g'rimi? Ko'ryapsanmi, men senga pand-nasihat o'qiyapman. Sening ishing shu o'zi: mevalar, o't-o'lan asalarilar shu kabilarni, hammasini his-tuyg'ularingga yo'naltirasan... Men esa o'zimga xos odamman. Kul, kulaver, Andrey Petrovich! Sen hami-sha mening ustimdan kulib kelasan. Sen tushunasanmi, men allaqachon yangi avlodman.

Endi nima bo'ladi? Xo'p, men qaytsam, sening ahmoqchang nima qiladi? Yig'lab qolib, divandan tushishni xohlamasa-chi? Sening esa unga rahming keladi. Ha, men qizg'anyapman. Uni haydab solaman, jag'iga tushiraman. Bu sen – mehribon inson, faqat baqirasan, mushting bilan taqillatasan. Agar men bo'lmaganimda Valka hozirgacha Ivan Petrovichning qo'lida aziyat chekardi. Sen uni qanday tutib turibsang? Ortiga qaytmadimi? O'zing bilasan, axir: Ivan Petrovich ayyor odam, o'zini u yoq-bu yoqqa tashlaydi. O'zini merovlikka soladi, o'zi haqida past va aldamchi deydi. To'g'rimi? Shunday ekan, uni ayama.

Marhamat, uni dispanserga joylashtirishga harakat qilib ko'r. Qochib ketadi. Yoki Kavalerovga dispanserni taklif qil. Xafa bo'ladi.

Xo'p, mayli. Sen achchiqlanma. Axir, sening so'zlaring: «Menga o'rgat, Volodya va men ham senga o'rgataman» edi. Mana, o'rganyapmiz.

Yaqinda boraman. Shu kunlarda. Ota senga qulluq qilyapti. Xayr, Murom shaharchasi! Kechqurun, keta boshlaganimda shuni anglaymanki, aslida hech qanday shahar mavjud emas. Faqat ustaxonalar bor, shaharchami shu? Hammasi ular uchun, ularni deb. Hammaning ustida ustaxonalar. Kechqurun shahar uzra Misr zulmati, zimiston, tushunasanni, ajinalar! Bir tomonda, dalada esa ustaxonalar alangada yonmoqda, yorqin nur sochadi – tantana!

Shaharda esa (men ko'rdim) buzoq uchastka nozirining ortidan, portfel uchun yugurardi (uni qo'ltig'i ostiga qistirib olgan edi). Chopadi, tumshug'ini cho'zadi, kavshamoqchi edi, shekilli... Shunday manzara: shox devor, ko'lmak, nazoratchi qizil shapkada odimlaydi, ish, bu – ish, buzoq esa portfelni nishonga olgan. Qarama-qarshilik desa bo'ladi.

Men bu buzoqlarni yomon ko'raman. Men – mashina-odamman. Sen meni tanimaysan hali. Mashinaga aylanganman. Agar aylanmagan bo'lsam, aylanishni xohlayman, bu yerda mashinalar – hayvon! Nasldor! Bee'tibor, mag'rur mashinalar. Nafaqat sening kolbasalaringda! Kosiblik qilyapsizlar. Sizlar buzoqlarni bo'g'izlasalaring kifoya. Men mashina bo'lishni xohlayman. Sen bilan maslahatlashmoqchiman. Ishdan mag'rur bo'lishni istayman, g'ururli – chunki ishlayapman. Hamma narsaga loqayd bo'lish uchun, bu ish emas! Hasad mashinaga undadi – mana, gap qayerda! Undan qayerim kam? Biz uni o'ylab topdik, yaratdik, u esa o'zimizdan ko'ra shiddatliroq chiqdi. Yo'l berdingmi – ketdi! Shunday ishlaydiki, raqami oshib ketmaydi. Men ham shunday bo'lishni istayman. Tushunyapsanmi, Andrey Petrovich, ortiqcha raqam bo'lmasligi uchun. Sen bilan qanchalik gaplashishni xohlayapman!

Hamma narsada senga o'xshagim keladi. Hatto sen kabi chapillatib chaynayman.

Men qanchalik omadim chopgani haqida ko'p o'ylayman! Sen qaddimni ko'tarding, Andrey Petrovich! Hamma komsomollar ham bunday yashamaydi. Men esa senday donishmand, g'aroyib shaxsda yashayman. Har kim bu hayot uchun qimmat to'lagan bo'lardi. Axir bilaman: ko'pchilik menga hasad qiladi. Rahmat senga, Andrey Petrovich! Sen muhabbat bobida kulma, tushuntiraman. Mashina emish, sevgida esa izoh beradi. To'g'rimi? Yo'q, haqiqatni aytyapman: men mashina bo'laman.

Ishlar qalay? «Yigirma besh tiyinlik» bo'lyaptimi? Hech narsa qulab tushmadimi? «Issiq va kuch» bilan qalay? To'g'riladingmi? Kampfer-chi?

Uyda nima gaplar? Demak, mening divanchamda notanish fuqaro yotibdi? Bit bosgan. Meni futboldan qanday olib kelishgani esingdami? Haligacha gapirishadi. Esingdami, meni olib kelishgani? Sen esa qo'rqib ketgan eding, Andrey Petrovich? Rostdan ham qo'rqqan eding-a? Axir lapashang odamsan-ku! Men divanda yotardim, oyog'im rels kabi og'ir edi. Senga qarayman – stol ortida, yashil qalpoq ostida yozyapsan. Senga tikilaman – shunda birdan sen ham menga qarading; shunda xuddi onam bilan bo'lgandek, men darhol ko'zlarimni yumaman!

Darvoqe, futbol haqida. Moskva termasida nemislarga qarshi o'ynayman. Agar Shuxov bo'lmasa, Ittifoq termasida. Go'zallik!

Valka nima bo'ldi? Albatta, turmush quramiz. To'rt yildan so'ng. Sen kulasan, chiday olmaysizlar, deysan. Men esa senga aytyapman: to'rt yildan so'ng. Ha. Men yangi asrda Edison bo'laman. Biz u bilan sening «yigirma besh tiyinliging» ochilganda, birinchi marta o'pishamiz. Ha. Ishonmayapsanmi? U bilan kelishganmiz. Sen hech nimani bilmaysan. Biz «yigirma besh tiyinlik»ning ochilishida, minbarda musiqa sadolari ostida o'pishamiz.

Sen meni unutma, Andrey Petrovich. Men birdan borsam va shunday bo'lsa: birinchi do'sting – Kavalerov, kamina haqimda unutilgan, o'mimni u egallagan. Sen bilan badantarbiya qiladi, qurilishga boradi. Aytib bo'larkanmi? Balki u mendan ko'ra ajoyib, ancha yoqimli bo'lib chiqqandir, ehtimol, sen u bilan do'stlashgandirsan va men, yangi asrning Edisoni daf bo'lishim kerakdir? Balki sen u bilan, Ivan Petrovich bilan, Valka bilan ham o'tirib – barchangiz ustimdan kulayotgandirsizlar? Kavaleroving Valkaga uylangandir? To'g'risini ayt. Agar shunday bo'lsa, seni o'ldiraman, Andrey Petrovich. Chin so'zim. Gaplarimizga, rejalarimizga xiyonat qilganing uchun. Tushundingmi?

E, ancha yozib qo'yib, band odamga xalaqit berdim. Raqamlar ortiqcha bo'lmasin, o'zim esa o'tlab ketibman. Bu ayriliq bo'lgani uchundir, to'g'rimi? Mayli, xayr, qadrli va muhtaram, xayr, ko'rishguncha, yaqinda diydorlashamiz».

Shahar uzra Janubiy Amerika ko‘rinishidagi ulkan bulut turardi. U yarqirar, biroq ko‘lankasi vahimali edi. Soya astronomik tarzda Babichev ko‘chasi tomon ohista harakat qilardi.

Ko‘chaga kirib boshlaganlar va oqimga qarama-qarshi yurayotganlar, hamma ko‘lankaning harakatini ko‘rdi, ularning ko‘z oldi qorong‘ilashdi, ulkan soya yo‘lovchilarning oyoqlari ostidan tayanchni olib qo‘ydi. Ular xuddi aylanayotgan shar bo‘ylab yurayotgandek edilar.

Men ular bilan yo‘l ochib borardim.

Balkon turibdi. Panjaraga kurtka ilingan. Hali cherkov qo‘ng‘irog‘ini chalishmadi. Men burchakdagi bekorchining o‘rnini egalladim. Balkonda o‘smir paydo bo‘ldi. Uni bulutning qoplagani hayratga solgan edi. Boshini ko‘tardi, panjara orqali nigoh tashladi.

Zina, eshik. Taqillataman. Yurak urishidan qaytarma yoqa titraydi. Men mushtlashishga kelgan edim.

Ichkariga o‘tkazishdi. Meni qarshi olgan odam eshikni o‘ziga tortib orqaga tislani. Va birinchi bo‘lib Andrey Babichevni ko‘raman. Andrey Babichev xona o‘rtasida oyoqlarini pakanalar lashkari orasidan o‘tadigan tarzda ochib turibdi. Qo‘llari cho‘ntagining shimiga solingan. Tugmalari o‘tkazilgan kastum xiyol orqaga tortilgan. Uning bunday turishi unday der edi:

«Xo‘sh-sh?»

Men faqat uni ko‘raman. Volodya Makarovni faqat eshitaman.

Babichev tomon yuraman. Yomg‘ir yog‘yapti.

Hozir uning oyoqlari ostiga yiqilib, kechirim so‘rayman.

«Meni haydamang! Andrey Petrovich, meni haydamang! Men hammasini tushundim. Menga Volodyaga ishonganday ishoning! Menga ishoning: men ham yoshman, men ham yangi asrning Edisoni bo‘laman, men ham sizni duolar qilaman! Siz meni yaxshi ko‘rishingiz uchun hamma chorani ishga solishim kerak edi, naqadar yo‘l tuta olmadim, qanchalik ko‘r ekanman! Meni kechiring, uyingizga qo‘ying, to‘rt yil muddat bering...»

Biroq men tiz cho‘kmay, istehzo bilan so‘rayman:

– Siz nima uchun xizmatda emassiz?

– Yo‘qol bu yerdan! – degan javobni eshitaman.

U o‘sha zahoti javob bergan, biz o‘ynay boshlagan edik. Biroq e‘tiroz mening ong-shuurimga yetib borishi uchun ma‘lum vaqt o‘tdi.

Odatdan tashqari nimadir bo'lgan edi.

Yomg'ir yog'ardi. Ehtimol chaqmoq ham chaqdi.

Men timsoliy qilib gapirmoqchi emasman. Oddiy tarzda so'ylamoqchiman. Bir zamonlar Kamil Flammarionning «Atmosfera»sini o'qigan edim. (Naqadar sayyoraviy nom! Flammarionning o'zi, bu – yulduz!) U sharsimon chaqmoqni, mo'jizaviy ta'sirini ta'riflaydi: to'liq, silliq shar bino bo'ylab ko'zni qamashtiradigan darajada yog'du sochib shovqinsiz harakatlanadi... o, kamina bema'ni muqoyasalarga murojaat qilishni qo'llashdan yiroqman. Biroq bulutlar shubhali edi. Biroq ko'lanka xuddi tushdagidek harakat qilardi. Biroq yomg'ir yog'ardi. Yotoqda deraza ochiq edi. Bo'ronli kunda derazani ochib qoldirib bo'lmaydi! Yelvizak!

– Bu yerdan daf bo'! – takrorlaydi u.

– Hammasi shunchaki oddiy emas... deb boshlayman men.

Shamol g'o'rillab urib turibdi. Eshik ochiq qolgan. Shamol tufayli mening bir qanotim o'sdi. U yelkalarim uzra aylanar, qovoqlarimga shamoli tegar edi. Yelvizak tufayli yuzimning yarmi falajlanib qolgandek bo'ldi.

– Hammasi shunchaki oddiy emas, – deyman men qo'rqinchli qanotni sindirish uchun yondorga yopishib. – Siz ketdingiz, Volodya, bu vaqtda esa o'rtoq Babichev Valya bilan yashadi. Siz u yerda to'rt yil kutguncha, Andrey Petrovich Valya bilan yetarli darajada ko'ngilxushlik qilishga ulguradi...

Men eshik oldida edim. Yuzimning yarmi hech nimani sezmaydi. Ehtimol, zarbani his etmagandirman.

Qulf shunday sharaqladiki, shox aniq sinib ketdi va men xuddi ho'l meva sho'lp etib tushgandek yiqildim.

– Hammasi tugadi, – dedim xotirjam ravishda o'mimdan turar ekanman. – Endi men sizni o'ldiraman, o'rtoq Babichev.

XV

Yomg'ir yog'yapti.

Yomg'ir Gullar xiyoboni bo'ylab sirk tomonga o'tadi, xiyobonlarda o'ngga burilib, Petrovskiyda eng avjiga chiqib, to'satdan xira tortadi.

Men «Truba»ni kesib o'tar ekanman, ertakdagi qilichboz yomg'ir ostida yurgan cha tomchilarni to'rt qirrali qilichi bilan kesgani haqida mulohaza yuritaman. Qilich yarqirar, kamzul etaklari hilpirar, qilich-

boz gir-gir aylanar, fleyta kabi yoyilar va quruq holda qolardi. U otasing merosini olgan edi. Men qovurg'amingacha nam tortdim va tarsaki yegandek bo'ldim.

Yomg'irdan so'ng shahar yarqirab, bo'rtma ko'rinish kasb etdi. Hamma ko'rdi: tramvay karmin¹ bilan bo'yalgan; ko'prik yo'lidagi chag'irtoshlar bir xil rangda emas, orasida yashillari ham bor; suvoqchi yomg'irdan yashiringan pana joydan xuddi kaptar kabi chiqdi va tegishli manzilga yo'l oldi; derazadagi bolakay oyna bo'lagida quyoshni tutmoqchi bo'ladi...

Men bir ayoldan tuxum va fransuz bulka noni sotib oldim. Petrov darvozasidan chiqqan yo'lovchilarning ko'zi o'ngida tuxumni tramvay machtasiga urib sindirdim.

Yuqoriga yo'l oldim. O'rindiqlar tizzalarimdan balandlikda o'ta boshladi. Bu yerda xiyobon biroz qavarib, do'mpayib qolibdi. Go'zal onalar o'rindiqqa ro'molcha to'shab o'tirishibdi. Quyoshda qoraygan yuzlarida ko'zlari porlaydi – baliq tangachalari tusida. Oftobda toblanish bo'yin va yelkalarni ham egallagan. Ammo ko'kraklari katta, yengil matodan tikilgan kofta kiygan yosh juvonlar oppoq edilar.

Enaga Rim papasining libosiga o'xshash kiyim kiydirilgan bolakayni ko'tarib olgan.

Qizil bog'ichi bor qizning labida pista ko'rinadi. U orkestrga quloq tutar ekan, ko'lmakka oyoq qo'yganini sezmedi. Og'zi voronkasimon musiqa asboblari filning quloqlariga o'xshar edi.

Men hamma uchun – onalar, enagalar, qizlar, trubalarni o'rab olgan musiqachilar uchun masxarabozdek edim. Trubachilar lunjlarini shishirib, ko'z qiri bilan menga qarardilar. Qiz pishilladi va nihoyat og'zidagi pista tushib ketdi. Ana shunda ko'lmakni ilg'adi. O'zining omadsizligini menga ag'dardi va jahl bilan orqasiga o'girildi.

Men masxaraboz emasligimni isbotlayman. Meni hech kim tushunmaydi. Tushunarsiz degani kulgili va qo'rqinchli bo'ladi. Barchaga qo'rqinchli tuyuladi.

Men ko'chadagi oynaga yaqin bordim...

Ko'chadagi ko'zgularni judayam yaxshi ko'raman. Ular yo'llarni kutilmaganda teskari ko'rsatadi. Sizning yo'lingiz oddiy, sokin – hech

¹ *Karmin* – koshenil deb ataladigan hasharotdan olinadigan och qizil bo'yoq.

qanday mo'jiza, tasavvur tiqishtirmaydigan oddiy shahar yo'li. Siz hech nimani ko'zlamay, yuqoriga qarab ketyapsiz, shunda bir lahzada dunyo, uning qoidalari bilan mislsiz tanaffuslar yuz bergani sizga yaqqol bilinadi.

Optika – yorug'lik, geometriya buzilgan, sizning yurishingiz, xatti-harakatingiz, aynan qayerga yo'l olish istagingizga bog'liq tabiiylik buzilgan. Siz ensangiz bilan ko'rayotganingiz haqida o'ylay boshlaysiz, hatto birin-ketin o'tayotgan yo'lovchilarga sarosima bilan kulib qaraysiz, bunday afzallikdan xijolat bo'lasiz.

– Eh... – sokin xo'rsinasiz siz.

Ko'zingizdan yo'qolgan tramvay yana oldingizga chiqadi, pichoq tort uzra yurganidek xiyobonning bir chekkasiga yuradi.

Ro'parangizda bepoyonlik bo'y ko'rsatadi. Barchaning ishonchi komil: bu uy, devor, biroq sizga ustunlik berilgan: uy emas bu! Siz sirmi ilg'adingiz: bu yerda devor emas, balki sizga ko'ringani takrorlanadigan ajib olam bor, qolaversa, ular shu qadar bo'rtma tasvir va yorqin takrorlanadiki, buni faqat durbinning uzoqlashtiruvchi oynalari namoyon eta oladi.

Siz, nima desa bo'ladi, kirasiz. Qo'qqisdan qoida buzildimi, muvozanat aql bovar qilmas darajada o'zgaradi. Ammo siz bosh aylanishidan quvonasiz... Aql bilan ish yuritib, moviy kvadrat sari shoshilasiz. Yuzingiz harakatsiz tarzda oynada osilib qoladi, faqat u tabiiy shakllarini saqlaydi, faqat u – hammasi qulab, o'zgarib, siz sira murosa qilolmaydigan yangi mezonlar joriy etilganda dunyodan saqlanib qolingan zarra, oyna oldida naq bir soat turib, yuzingiz aniq tropik bog'da ekanligiga amin bo'lasiz. Haddan ziyod yam-yashil maysazor, nihoyatda ko'mko'k osmon.

Aftidan siz hech qachon oynada kuzatayotgan yo'lovchilar qaysi tomonga ketayotganini ayta olmaysiz (ko'zgodan yuz burmaguncha)... Faqat burilib bo'lgach...

Men bulka non chaynab, oynaga termilardim.

Orqamga burildim.

Qayerdandir yon tomondan paydo bo'lgan yo'lovchi oyna oldiga keldi. Men uning ko'rishiga xalaqit berardim. O'ziga tayyorlab qo'ygan tabassumi menga tortiq etildi. U mendan bir kalla kichik bo'lib, boshini ko'tardi.

U yelkasidagi kapalak qurtini topish va olib tashlash uchun oynaga shoshilardi. Xuddi skripkachi singari yelkasini burib, bir chertib qurtini olib tashladi.

Men tag'in oynadagi yorug'lik nurlarining kesishgan nuqtasi haqida o'ylashda davom etib, yo'lovchi haqida bilmaganim bois so'radim:

– Siz qaysi tomondan keldingiz? Qayerdan paydo bo'ldingiz?

– Qayerdan? – hayron bo'ldi u. – Qayerdan paydo paydo bo'ldim? (U menga tiniq ko'zlarini qadab qaradi) Men o'zimni o'ylab topdim.

U bosh kiyimini yechdi, shunda boshining taqir joylari ko'rinib ketib, qoyil qoladigan darajada ta'zim qildi. Nazr beruvchilarni shu tarzda kutib olishadi. Uning ko'zlari tagida, xuddi nafarmon paypoqlar singari, xaltachalar osilib turardi. U obakidandon so'rardi.

Men zudlikda anglab yetdim: mana mening do'stim, o'qituvchim va yupatuvchim.

Uning qo'lidan ushlab, o'ziga salkam yopishgan ko'yi dedim:

– Menga ayting, menga javob bering!..

U qoshini ko'tardi.

– Bu nima... Ofeliyami?

U javob berishga chog'landi. Lablari chetida obakidandonning shirin sharbati yo'qoldi. Men ulkan zavq va erib ketish asnosida javob kutardim.



IKKINCHI QISM

I

Ivan Babichevni keksalikning yaqinlashayotgani qo'rqitmasdi.

Shunday bo'lsa ham, ba'zida uning og'zidan hayotning tezkorligi, oshqozon saratoni bilan bog'liq behuda sarflangan yillar haqida shikoyatlar chiqib qolardi. Biroq bu arzlar haddan ziyod yorqin, hatto har jihatdan olganda ham kam darajada samimiy bo'lib, quruq tavsifga ega edi.

Quyidagi voqea ham bo'ldi. U kaftini chap ko'ksi ustiga qo'yib, tabassum qildi, kulimsiradi va so'radi:

– Qiziq, yurak yorilganda qanday tovush chiqar ekan-a?

Bir kuni u qo'lini ko'tarib, ko'ktomirlar daraxt tarzida o'rnashgan kaftining tashqi tomonini ko'rsatdi va tayyorgarliksiz aytilgan navbatdagi so'zlar yangradi.

– Mana, – dedi u, – hayot daraxti. Gullagan va so'ligan daraxtlar bog'idan ko'ra hayot va o'lim haqida ko'proq so'zlaguvchi daraxt. Mening panjalarim daraxt bo'lib gullayotganini aynan qachon ilg'aganim esimda emas... Ammo gullash va so'lish hayot va o'limni emas, balki o'quv yilining boshlanishi va tugashi haqida aytgan bir go'zal damda edi bu...

Yillar o'tdi, men o'zgardim, yillar ham o'zgardi.

Ajoyib damlar yodimda – u baland bo'lib o'sdi. Men zo'r bo'lib gullaganini ko'rib, g'urur daqiqalarini his etdim. U egri-bugri va qo'ng'ir bo'lib o'sdi – kuch ana shunda edi! Men uni qo'llarning baquvvat abzali deb atashim mumkin edi. Hozir esa mening do'stlarim! Qanchalik sharti ketib, parti qolgan, qanchalik chirigan u!

Mening nazarimda, shoxlari sinib, kovaklar paydo bo'lgan... Bu skleroz, do'stlarim! Teri nursizlanib qolsa, uning ostidagi to'qimalar sernam bo'ladi – hayot daraxtimni, hademay meni butunlay qamrab oladigan tuman bosishi emasmi?

Babichevlar uch aka-uka edi. Ivan ikkinchisi edi. To'ng'ichini Roman deyishardi. U jangari tashkilot a'zosi bo'lib, terrorchilik harakati-da ishtirok etgani uchun qatl qilindi.

Ukasi Andrey muhojirlikda yashardi. «Qalay, senga yoqadimi, Andrey? – deb yozdi Ivan unga, Parijga. – Bizning avlodimizda jafokash bor! Buvim quvongan bo'lardi!» Bunga Andrey o'ziga xos ravishda qo'pollik bilan qisqa javob qaytardi: «Sen shunchaki ablahsan». Aka-uka o'rtasida shu tarzda kelishmovchilik aniqlandi.

Ivan bolaligidan oilani va tanishlarni hayron qoldirib kelardi.

U o'n ikki yoshida oila davrasida popukli lampa qalpog'iga o'xshash qo'ng'iroqchalardan iborat g'alati qurilmani namoyish etib, uning yordamida har qanday kishida tush ko'rishni buyurtma qilish mumkinligiga ishontirdi.

– Yaxshi, – dedi ota, gimnaziya direktori va lotinshunos. – Men senga ishonaman. Men Rim tarixidan tush ko'rmoqchiman.

– Aynan nimani? – jiddiy tusda so'radi bola.

– Farqi yo'q. Farsal uchun jangni. Lekin agar tushimga kirmasa, men seni savalayman.

Yarim tunga yaqin chiroyli mayin jaranglagan ovoz xonalar bo'ylab eshitildi. Gimnaziya direktori xuddi tobutda yotgandek, to'g'ri va ravon holda g'azablaniy yotardi. Onaizor yopiq eshiklar oldida kuymalanardi. Kichik Vanya muloyim kulimsiragan ko'yi, xuddi dorboz xitoy soyabonini silkitayotgandek, o'zining lampa qalpog'i bilan divan yonida aylanardi. Ertalab ota hali kiyinmay turib o'zining kabinetidan uch hatlab chiqdi-da, bolalar xonasidan baqaloq, mehribon uyquchi va tanbal Vanyani to'shakdan sug'urib oldi. Hali kun yorishmagan, ehtimol nimadir chiqardi, biroq direktor pardalarni yirtib tashlab, tongni zo'rma-zo'raki qarshi olgan bo'ldi. Ona jazolashga xalaqit bermoqchi bo'ldi, qo'llarini yozib qichqirdi:

– Uni urma, Petenka, urma... U adashdi... Chin so'zim... Xo'sh, ayt, tushingga nima kirmadi?.. Jaranglagan ovoz boshqa joyga ketib qoldi. Bilasanmi, uyimiz qanaqa... namiqqan. Men, men Farsaldagi jangni ko'rdim! Jang tushimga kirdi, Petenka!

– Aldama, – dedi direktor. – Tafsilotlarini aytib ber. Balear o'qchilarining kiyimi numidiyaliklarning libosidan nimasi bilan farq qilgan? Xo'sh-sh?

U bir daqiqa kutib turdi, onaizor hayqirdi va kichik tajriba o'tkazuvchi kaltaklandi. Bola o'zini Galiley kabi tutdi. Xuddi o'sha kuni kechqurun oqsoch qo'lini so'ragan qandaydir Dobrodeyevning oldiga bormasligini bekaga xabar qildi.

– Aldayapti, unga ishonib bo'lmaydi, – deb izoh berdi oqsoch. – Men butun kecha davomida otlarni tush ko'rib chiqdim. Hammasi yuguryapti, xuddi niqobdagi dahshatli otlardek. Otlarni ko'rish esa – yolg'on.

Pastki jag'ini ishlata olmayotgan ona kabinet eshiklari yoniga bordi. Oshpaz ayol ham pastki jag'ini boshqarolmasligini his etganча pechka yonida qaqqayib turardi.

Xotin erining yelkasidan ushladi. U stol ortida o'tirganча tushib qolgan monogramma¹ni papiros qutisiga mahkamlash bilan ovora edi.

Va ona g'o'ldiradi:

– Petrusha, Frosyadan so'ra... Nazarimda, Frosya Farsaldagi jangni tush ko'ribdi...

Direktor oqsochning tushiga qanday munosabat bildirgani ma'lum emas. Ivanga kelganda esa, shunisi ayonki, sun'iy tushlar tarixidan ikki oy o'tgach, u endi o'zining yangi ixtirosi haqida aytib berardi.

Alohida sovunli tarkib va trubkacha kashf etgan, uning yordamida mo'jaz sovunli pufaklar chiqarish mumkin emish! Pufak uchish asnosida kattalashadi, navbati bilan archa o'yinchog'i, koptok, dala-hovlidagi gulzor shari va yana, yana, havo shari o'lchamigacha yiriklashadi – va o'shanda yorilib, mayda oltin yomg'ir bo'lib shahar uzra yog'iladi.

Ota oshxonada edi. (U tund otalar toifasidan bo'lib, qandaydir pazandalik sirlari, o'ziga xos yengilliklar, deylik, dafna bargi sonlarini aniqlash, avlodlardan avlodlarga o'tib kelayotgan mashhur sho'rva tarixi yoki, aytaylik, kastruldagi tuxumlarni qaynatish vaqtini aniqlash kabi bilimlari bilan g'ururlanardi.)

Oshxona oynasi ortida, hovlichada, shundoq devor tagida kichkin-toy Ivan orzularga berilgan edi. Otasi sariq quloqlari bilan eshitdi va nazar tashladi. Bolalar Ivanni o'rab olishgan edi. Va Ivan sovunli pufak haqida aldar edi.

Direktor yana jazavaga tushdi. Uning to'ng'ich o'g'li Roman bir yil avval oiladan ketgan edi. Ota kichkinalariga yuragini bo'shatar edi.

Xudoyim uni bolalari bilan xafa qilardi.

U g'azablanganidan, hatto jilmayib derazadan orqaga tislandi. Tushlik paytida Ivandan gapirishini kutdi, biroq Ivan sado chiqarmadi.

¹ *Monogramma* – ismi, otasining ismi va familiyasining bosh harflaridan tuzilgan bezak shaklidagi shartli belgi.

«U meni nazar-pisand qilmasa kerak. Meni ahmoq deb hisoblasa kerak», – direktorning qoni qaynardi. Kun oxirida, Babichevlar otasi balkonda choy ichayotib, kutilmaganda qayerdadir juda olisda, orqa tarafda, botayotgan quyoshning yiltiragan shishasimon nurlari yog‘dusida to‘q sariq shar uning diqqatini o‘ziga tortdi. Shar qiya yo‘nalish bo‘ylab ohista suzardi.

Direktor xonaga o‘tdi va shu zahoti ochiq eshik orqali qo‘shni Ivan-ni xona tokchasida ko‘rdi. Gimnaziya o‘quvchisi bortlig‘i bilan derazaga intilib, kaftiga kaftini urardi.

– O‘sha kuni men to‘liq lazzat oldim, – deb esladi Ivan Petrovich. – Otam qo‘rqib ketgan edi. Keyin uzoq vaqt nigohini izladim, biroq u ko‘zlarini yashirdi. Va men otamga achinib ketdim. U qoraydi – men o‘ladi, deb o‘yladim. Va olijanoblik bilan ridomni tashladim. Bag‘ritosh edi otam, maydagap, biroq diqqat-e‘tiborsiz edi. U o‘sha kuni shahar uzra aeronavt Ernest Vitollo parvoz qilganini bilmasdi. Ajoyib afishalar bundan darak berardi. Men g‘ayriixtiyoriy ravishda qalloblikka qo‘l urganimni anglab yetdim. Aytishim kerakki, sovun pufaklari ustidagi tajribalarim men orzu qilgan natijalarga olib kelmadi.

(Faktlar shundan so‘zlaydiki, Ivan Babichev o‘n ikki yoshli gimnaziya o‘quvchisi bo‘lgan o‘sha paytlarda havoda uchish keng taraqqiy etmagan va viloyat shaharlari ustida parvozlarni amalga oshirilgani dar-gumon edi.

Agar bu o‘ylab chiqarilgan bo‘lsa – nimayam derdik! Uydirma, bu – tafakkurning yurakdan urgan mahbusasi.)

Do‘stlar Ivan Babichevning tayyorgarliksiz aytgan so‘zlarini zavqlanib eshitishardi.

– Mening nazarimda, dilni siyoh qiladigan o‘sha kundan so‘ng otam kechasi Farsal jangini tushida ko‘rdi. U ertalab gimnaziya-ga ketdi. Onam kabinetiga ma‘danli suv olib bordi. Katta ehtimolga ko‘ra, otamga jang tafsilotlari ta‘sir qilgan. Balki u tush ko‘rish ila bog‘liq tahqirlash bilan murosqa qilolmagandir... Aftidan, havo sharlarida uchib kelgan balear sopqonchilari jangni o‘z foydalariga hal qilishgan...

Ivan Babichev sovunli pufaklar haqidagi novellasini shunday xotima bilan yakunladi.

Keyingi safar u o‘smirlik davridagi shunday hodisani do‘stlari bilan bo‘lishdi:

– Shemi ot familiyasi talaba bir oyim tillaning ko'nglini ovlashga harakat qilar edi... Afsuski, oyim tillaning familiyasini eslay olmayman... Ruxsat eting... ruxsat eting... deylik, oyim tillani Lilya Kapitanaki deyishardi, echkiga o'xshab taqillatib yuradigan poshnalari uchun. Biz, bolalarga, hovlida nimalar bo'layotgani, hammasi ma'lum edi. Talaba Lilyaning balkoni ostida aziyat chekar, uni balkonning zarhal eshiklaridan chaqirishdan qo'r qar, qizning yoshi o'n oltalarda, biz, bolalarga esa kampirdek tuyulardi.

Talabaning bosh kiyimi ko'kardi, chakkalari qizardi. U velosipedda kelardi. Talabaning g'am-g'ussasi yozgulik emas edi. Bir yakshanba kuni, shamol esib turganida, may oyi edi, u balkonga tirmashar ekan, to'siqqa suyanib turgan Lilyaning xolasini ko'rdi. Bu xola talaba Shemi otkaning paydo bo'lganidan quvonib ketdi. U tepadan turib, aytish mumkinki, talabaga bag'rini ochdi va g'alati tovushda dedi:

«Lilechka Xersonga ketadi. Bugun jo'naydi. Yetti-yu qir qda. Uzoq vaqtga ketadi. Butun yoz bo'yi ketyapti. Sizga salomini yetkazib qo'yishimni so'radi, Sergey Sergeyeovich! Salom!»

Biroq talaba sevgan qalb sezgisi bilan hammasini tushundi. U xona ning oltin tusli qa'rida Lilechka yig'layotgani, uning balkonga talpin gani, biroq chiqib ketishning iloji yo'qligini, xolaning kuchli ekanligini bilardi...

«Menga velosiped sovg'a qiling va siz uchun qasos olaman, – dedim men talabaga. – Men bilaman, Lilya hech qayoqqa ketishni xohlamasdi. Uni janjal bilan kuzatishadi. Velosiped sovg'a qiling».

«Sen qanday qilib qasos olasan?» – so'radi talaba meni qo'rqitib. Va oradan bir necha kun o'tgach, men Lilyaning xolasiga go'yo onam berib yuborganday so'galga qarshi dori uzatdim. Xolaning pastki labi yonida kattagina so'gal bor edi. Qariyotgan bu xonim meni o'pdi, in chunin uning o'pichi xuddi menga yangi cho'zmadan otishganday tuyuldi... Do'stlarim, talabaning qasosi olindi. Xolaning so'galidan gul, oddiy qo'ng'iroq gul o'sib chiqdi. U xolaning nafas olishidan titrar edi...

Men ikki karra quvongan edim. Birinchidan, so'galdan gul o'stirish tajribam qoyilmaqom yakunlandi, ikkinchidan, talaba menga velosiped sovg'a qildi.

O'sha paytlarda, do'stlarim, velosiped noyob hisoblanardi. Velosipedchilarni karikatura qilib chizishardi.

– Xolaga nima bo'ldi?

– O, do‘stim! U ana shu gul bilan kuzgacha yashadi. Shamolli kunlarni umid qilib kutdi... Ruhiy uqubatlar qiynab yubordi. U yuzini sharf-ga yashirar, gullar lablarini qitiqlardi. U tepalikda turib, sharfini oldi.

«Uni chor tarafga olib ket! Gulbargiga qarab esgin», – yalinardi ayol. Shamol, atayin qilgandek, esishdan to‘xtar edi. Biroq yaqin dala-hovlidan esankiragan asalari uchib keldi va gulni nishonga olib, be-chora ayolning atrofida g‘o‘ng‘illay boshladi. Xola qochishga tushdi va uyda hech kimni qo‘ymaslikni tayinlab, oyna qarshisiga o‘tirdi. Dah-shat! Gulni shunchaki kesish – haddan ziyod xatarli, har holda so‘gal-da! Qo‘qqisdan qon zaharlansa-chi?

Vanya Babichev har tomonlama mohir edi. She’rlar to‘qir, musiqiy pyesachalar yaratar, a’lo darajada chizar, hatto qandaydir raqs o‘ylab topgan, u «Ko‘zacha» deb nomlanardi. U varraklar, hushtak, fonarcha bilan savdo qilar, bolalar jasorati va shuhratiga hasad qilishardi. Hovli-da u «Mexanik» laqabini oldi.

Keyin Ivan Babichev Peterburgda politexnika institutini tamomla-di. Nikolayev shahrida muhandis bo‘lib ishladi. Yevropa urushi bosh-languncha....

II

U qachonlardir muhandis bo‘lganmi?

«Yigirma besh tiyinlik» bunyod etilayotgan mahalda Ivan ovchilik bilan shug‘ullandi. Bu esa muhandis uchun sharmandali hol edi.

Tasavvur qilyapsizmi, u pivoxonalarda o‘zlari xohlagan odamlar-ning rasmini chizadi, mavzu bo‘yicha badihalar to‘qiydi; qo‘llarning yo‘nalishi bo‘yicha fe‘l-atvorni aniqlaydi va bu bilan xotirasi mustah-kam ekanligini namoyon etadi.

Uni ziyofat qiladilar. U o‘tirdi va ana shunda asosiy voqea ro‘y ber-di. Ivan Babichev va‘z o‘qidi.

U nima haqida gapirdi?

– Biz, bu – oxirgi nuqtagacha borgan bashariyat, – dedi u, ga-pirganda krujkani marmarga urar edi. – Kuchli shaxslar, o‘zicha yashashga qaror qilgan odamlar, xudbinlar, qaysarlar, men bir aqlli inson sifatida sizlarga murojaat qilyapman. Oldinda turganlar, eshi-ting! Davr tugab boryapti. Val toshga urilyapti. Siz nimani xohlaysiz o‘zi? Nimani? G‘oyib bo‘lishnimi? Do‘stlarim, sizlar bu tarzda halok

bo'lmasligingiz kerak! Yo'q! Huzurimga keling! Uyimga keling, men sizga o'rgataman.

Tinglovchilar unga hurmat-ehtirom bilan quloq solsalar-da, ozgina e'tibor qaratishgan, biroq «to'g'ri» deb va qarsaklar bilan qo'llab-quvvatlashardi. U birdan g'oyib bo'lardi, xayrlashuv chog'ida har safar bir ruboiyni takrorlayverardi; mazmuni shunday jaranglardi:

*Men, axir nemis lo'ttibozi emas,
Va odamlarni aldovchi hammas!
Kamina – sovet fokuschisi kamtar,
Men – zamonaviy afsungar!*

Undan shunday so'zlar ham yangragan edi:

– Darvozalar yopiladi. Darvozalarning shivillashini eshityapsizmi? Talpinmang. Ostonaga chiqishga harakat qilmang! To'xtang! To'xtash – iftixor. G'ururli bo'ling. Men dohiyingizman, men yaramaslar qirol. Kim xirgoyi qilayotgan va yig'layotgan, hammasi ichilgan, pivo va vino berilmayotgan bo'lsa, o'sha mening yonimdadir. Og'ir g'am-g'ussangiz, tushunarsiz xonishlaringiz ila keling. Rashk tufayli o'ldirayotgan yoki o'ziga sirtmoq tortayotgan, men ikkalangizni ham chorlayman, asrning halok bo'layotgan o'g'lonlari: keling, yaramaslar, xayolparastlar, qizlarini ardoqlayotgan oilalarning otalari, halol shaharliklar, an'analarga sodiq, shon-sharaf, burch, muhabbat tartib-qoidalariga tobe, qon va tartibsizlikdan qo'rqadigan mening qardondalarim – askarlar va generallar – yurish bilan harakat qilamiz! Qayoqqa deysizmi? Men olib boraman sizni.

U qisqichbaqalarni tanovul qilishni yaxshi ko'radi. Bu taom qo'llaridan sirpanib tushib ketardi. Isqirt, pala-partish edi u. Xuddi restoran sochig'iga o'xshagan ko'ylagining ko'krak yoqalari hamisha ochiq edi.

– Men – qisqichbaqalar ochofatiman. Qaranglar, qanday yeyman, men kohin kabi ularni yakson qilaman. Ko'ryapsizlarmi? Ajoyib qisqichbaqalar. Ular suv o'tlariga chirmashgan. Eh, suv o'tlarim emasmi? Oddiy ko'kat deysizmi? Nima farqi bor? Suv o'tlari deb qo'ya qolamiz. Shu tarzda qisqichbaqani dengiz tubidan ko'tarib olingan kemaga qi-yoslash mumkin. Ajoyib qisqichbaqalar. Kamaniki.

U mushtumini yaladi, qadama yengiga qarab, qisqichbaqa sinig'ini oldi.

U qachondir muhandis bo'lganmi? Aldamaganmikan? Muhandislik tasavvuri, mashinalar, metall, chizmalarga yaqinligi yo'q! Uni ko'proq aktyor yoki martabasidan tushirilgan ruhoniylar deyish mumkin. Tinglovchilar unga ishonmayotganini o'zi bilardi.

Baqaloq va'zgo'y goh u, goh bu pivoxonada paydo bo'ladi. Bir kuni shu darajaga bordiki, stol ustiga chiqishni o'ziga ep ko'rdi... Bunday xatti-harakatlarga hech qanday tayyorlanmagani palma barglarini ushlagan boshlarga chiqib oldi, shisha idishlar sindi, palmaning abjag'i chiqdi, u stol ustida ikkita bo'sh krujkani toshlar kabi silkitib qichqira boshladi:

– Mana, men o'rmalovchi armiyaga nazar solgan yuqorida turibman! Oldimga keling! Oldimga keling! Mening kurashchanligim buyuk! Shon-shuhrat haqida orzu qilayotganlar! Badbaxt sevishganlar! Qari bevalar! Hisobchilar! Izzatlablar! Ahmoqlar! Ritsarlar! Qo'rqoqlar! Oldimga keling! Sizning qirolingiz. Ivan Babichev keldi. Hali vaqti emas, yaqinda, biz yaqinda boshlaymiz. O'rmalab chiqing, lashkarlar!

U krujkani irg'itdi, shiftga qarab qog'oz sochiqlar ucha boshladi...

Peshtaxtadan etak va kleynkadan manjet taqqanlar shoshilishdi.

– Pivo! Pivo! Bizga yana pivo! Bizga bir bochka pivo bering! Biz buyuk voqealar uchun ichishimiz kerak!

Ammo boshqa pivo berishmadi. Ulfatlarni, va'zgo'y Ivanni ham qorong'ilik qo'yniga haydab chiqarishdi. U qaysarlik va g'azabdan tuyqus o'zini noxush his etdi.

Ko'chada har tomonga qadam tashlab ketdi – uni qo'ldan qo'lga uzatishardi. Yo'lovchilarning jahlini chiqarib og'ziga kelganini xirgoyi qilardi u.

– Ofeliya! – kuy'lar edi u. – Ofeliya! – Faqat shu so'z go'yo yo'llarida paydo bo'ladi, ko'chalarda o'zidan oldin parvoz qiladi.

O'sha kecha u o'zining mashhur akasini yo'qladi. Stol atrofida ikkovlon o'tirardi. Bir-biriga qarama-qarshi. O'rtada yashil qalpoqli lamp bor edi. Aka-ukalar Andrey va Volodya o'tirishardi.

Volodya kitobga boshini o'yib uxladi, mast-alast Ivan divanga talpindi. Divanni kursini surgandek o'ziga rosa tortmoqchi bo'ldi.

– Sen mastsan, Vanya, – dedi akasi.

– Men sendan nafratlanaman, – javob berdi Ivan. – Sen qovoqbosh-san.

– Uyalmaisanmi, Vanya! Yotib uxla. Men senga yostiq beraman. Bosh kiyimingni yech.

– Sen mening birortayam gapimga ishonmaysan. Sen – befarosat-san, Andrey! Gapimni bo'lma, aks holda chiroqni Volodyaning boshi-ga urib sindiraman. Jim bo'l. Sen nima uchun «Ofeliya»ning borligiga ishonmaysan? Nega men g'aroyib mashina ixtiro qilganimga ishon-maysan?

– Sen hech nimani ixtiro qilmagansan, Vanya! Bu sening xira g'oyalaring. Sen nojo'ya hazillar qilasan. Uyat emasmi, a? Axir sen meni ahmoq hisoblaysan. Xo'sh, u qanday mashina? Axir shunday mashina bo'lishi mumkinmi? Va nima uchun «Ofeliya»? Nega manavi bosh kiyimni olib yuribsan? Eski-tuskilar sotuvchisimisan yoki elchi-mi?

Ivan jim edi. Keyin birdan hushiga kelib, o'midan turdi va mushtla-rini qisib, akasi tomon yurdi:

– Ishonmaysanmi? Ishonmaysanmi? Andrey, sen bilan ko'p mil-lionli lashkarning dohiysi gapirayotganida o'rningdan tur! Sen menga ishonmaslikka jur'at qilasanmi? Bunday mashina yo'q deysanmi? And-rey, va'da beraman: sen shu mashinadan o'lasan!

– To'polon ko'tarna, – javob berdi aka. – Volodyani uyg'otib yuborasan.

– Tupurdim Volodyangga. Men sening rejalaringsni bilaman, bila-man. Sen mening qizimni Volodyaga olib bermoqchisan. Yangi nasl yetishtirmoqchisan. Mening qizim inkubator emas. Sen uni ololmay-san. Bermayman. Uni o'z qo'llarim bilan bo'g'ib o'ldiraman.

U biroz sukut saqladi. Qo'llarini tushib ketayotgan shimini go'yo ko'tarib qo'yish uchun cho'ntaklariga solgancha ko'zlarini burchakka tikdi, so'ng zaharxandalik bilan dedi:

– Sen adashasan, og'am! O'z ko'zoynagingni artyapsan. Ho-ho, dil-bar! Sen Volodyani yangi odam bo'lgani uchun yaxshi ko'raman deb o'ylaysanmi? Andryusha, ovora bo'lasan... Bunday emas, Andryusha, bunday emas... Mutlaqo boshqacha.

– Nachora, – dedi Andrey achchiqlanib.

– Sen shunchaki qariyapsan, Andryusha. Senga shunchaki o'g'il ke-rak, xolos. Otalikni his etyapsan. Oila abadiy, Andrey! Faqat futbolda

tanilgan o'smiri yangi dunyoni uncha bilinmaydigan o'smir timsolida ko'rish, bu – bo'lmag'ur gap...

Volodya boshini ko'tardi.

– Yangi asrning Edisoniga salomlar! – xitob qildi Ivan. – Ura! – va pishillab ta'zim qildi.

Volodya unga jim bo'lib qaradi. Ivan xaxoladi.

– Xo'sh, Edison? Sen «Ofeliya» kimligiga ishonmaysanmi?

– Sizni, Ivan Petrovich, Kanatchikovning dala-hovlisiga qamash kerak, – dedi Volodya esnab.

Andrey qisqa pishillab qo'ydi.

Shunda va'zgo'y bosh kiyimini polga urdi.

– Pastkashlar! – hayqirdi u. Biroz sukut saqlab davom etdi. – Andrey! Sen shuni ravo ko'rasanmi? Asrandi o'g'ling meni kamsitishiga qo'yib berasanmi?

Shunda Ivan akasining ko'zlarini ko'rmadi. Ivan oynalarning yaltirashini ko'rdi, xolos.

– Ivan, – dedi Andrey. – Mening uyimga hech qachon kelmasligingni iltimos qilaman. Sen telba emassan. Sen hayvonsan.

III

Yangi va'zgo'y haqidagi gaplar urchib qoldi.

(Pivoxonadan uylarga, yashirin eshiklardan umumiy oshxonalarga – odamlar ertalabki yuvinish paytida, primuslarga o't yoqayotganda, sut qaynatayotganda g'iybat qilishardi.

Ovozlar muassasalarga, dam olish maskanlari-yu bozorlarga ko'chdi.

Notanish fuqaroning, sayyor kassirning to'yiga, Yakimankaga kelgani (qozonxonada horg'in, shubhali odam – kimdir emas, Babichev Ivanning tashrifi borasida aniq tafsilotlar paydo bo'ldi) va bazm ayni qizigan paytda barchaning qarshisida turib, nutq irod qilish – turmush qurayotganlar tilak bildirish uchun e'tibor qaratishlarini talab qilgani haqida gapirishdi. U shunday degan:

– Sizlarning bir-biringizni sevishingiz shart emas. Qo'shilish kerak emas. Kuyov, kelinni tark et! Muhabbatingiz sizlarga qanday meva beradi? Sizlar o'z dushmaningizni dunyoga keltirasizlar. U sizlarni jig'ildoniga uradi.

Kuyov yoqalashishga shaylandi. Kelin yerga gurs etib yiqildi. Mehmon qattiq ranjib ketdi va shu zahoti bazm dasturxonida turgan barcha shisha idishlardagi uzum vinosi suvga aylanishiga guvoh bo'lishdi.

Yana bir boshqa ajabtovur hikoya to'qib chiqarildi.

Shovqinli joydan (ba'zilar Kuznetskiy ko'prigidagi Neglinniy desa, boshqalar Strastniy monastirdagi Tver ko'chasi deyishdi) go'yo avtomobil o'tib ketibdi. Unda tizzasida portfel bo'lgan baqaloq, savlatli, qizil yuzli fuqaro o'tirgan ekan.

Va go'yo olomon ichidagi piyodalar yo'lagidan uning o'sha mashhur ukasi Ivan yugurib chiqqan. U ukasini ko'rib qolib, mashinaning yo'lga chiqqan va xuddi polizdagi tulum kabi yoki otlarni qo'rqitib to'xtatadigan tarzda qo'llarini yozib turgan. Haydovchi mashinani sekinlatgan. U tezlikni pasaytirib, signalni bosgan, biroq tulum yo'ldan ketmagan.

– To'xta! – dedi bor ovozda qichqirib bu odam. – To'xta, komissar. To'xta, begona bolalar o'g'risi!

Haydovchining tormozni bosishdan boshqa chorasi qolmadi. Harakatdagi oqim to'xtadi. Mashinalar oldindagi avtoulavlarga urilib uchib ketishiga sal qoldi...

Ko'prikda turgan odam jimlikni talab qildi.

Hamma jim bo'ldi.

– Uka, – dedi haligi odam. – Sen nega avtomobilda ketyapsan, men esa piyodaman? Eshikni ochib, nari suril, joy ber. Menga ham piyoda yurish yarashmaydi. Sen dohiysan, ammo men ham dohiyman.

Shundan so'ng uning yoniga har tomondan odamlar yopirilishdi, ba'zilar avtobusdan tushishdi, boshqalar pivoxonalarni tark etishdi, xi-yobondan yetib kelishdi va avtomobilda o'tirgan uka ulkan avtomobil-dan tushib, qarshisida jonli barrikadani ko'rди.

Uning ko'rinishi g'azabnok, xuddi haydovchining orqasida o'tirgan ko'yi avtomobilda borib, ko'chani ustun bo'lib to'ldirgan barrikadaning oldiga borib uriladigandek tuyuldi...

Ivanni shimidan akasi Andrey mahkam ushladi va militsionerga it-qitdi.

– GPUga! – dedi u.

Bu sehrli so'zlar aytilishi bilan olomon xuddi uzoq uyqudan uyg'ongandek silkindi: kegaylar chaqnaq, tiqinlar aylandi, eshiklarni

yopdilar va uzoq uyqudan avval boshlangan barcha harakatlar davom etdi.

Ivan o'n kun hibsdan o'tirdi.

Uni qo'yib yuborishganida shishadosh o'rtoqlari rostdan ham akasi qamatganmi-yo'qmi, so'rashdi. Ivan xaxoladi.

– Bu yolg'on. Afsona. Meni pivoxonada hibsga olishdi. O'ylashimcha, anchadan buyon meni kuzatishgan. Biroq, allaqachon afsonalarning to'qilayotgani yaxshi. Davr intihosida, o'tish vaqti o'zining afsonalari va ertaklarini talab qiladi. Nimayam derdim, shunday ertaklardan birining qahramoniga aylanishimdan baxtiyorman. «Ofeliya» nomidagi mashina haqida yana bir afsona chiqadi... Bu davr og'izlarda mening ismim bilan o'ladi. Shuning uchun o'zimning intilishlarimni qo'shib bormoqdaman.

Uni surgun qilish haqida tahdid qilib qo'yib yuborishdi.

GPUda unga nima ayb qo'ygan bo'lishlari mumkin?

– Siz o'zingizni qiroldan deb atadingizmi? – deb so'radi tergovchi undan.

– Ha... yaramaslar qiroli.

– Bu nima degani?

– Men katta toifadagi odamlarning ko'zlarini ochaman...

– Ko'zlarini nima uchun ochasiz?

– Ular o'zlarining halokatga mahkumligini anglab yetishlari kerak.

– Siz katta toifadagi odamlar, dedingiz. Bu toifaga kimlarni nazarda tutyapsiz?

– Siz tushkun deb hisoblaydigan barchani. Umidsiz kayfiyatda yuradiganlarni. Ruxsat bersangiz, men batafsil tushuntirсам.

– Sizdan minnatdor bo'lardim.

– ...insonning talay tuyg'ulari nazaringizda yo'q qilinishi kerak...

– Masalan? Tuyg'ular...

– ...achinish, muloyimlik, kekkayish, rashk qilish, sevgi, bir so'z bilan aytganda, deyarli barcha tuyg'ular. Sotsializm zamoni inson qalbiga daxldor oldingi barcha tuyg'ularni tiklaydi.

– Hm-m.

– Siz meni tushunmayapsiz... Men silkitishni xohlayman... Yo'nib bo'lgan davrni silkitishni istayman. Chiroq-yurakni, siniqlari qo'shilib ketishi uchun... Va lahzalik chaqnash bo'lsin... Atrofimga ko'pchilikni yig'ishni xohlayman. Yaxshilarni, chaqna b turganlarni

tanlab olishim uchun. Zarba beruvchi guruh... tuyg'ular guruhini tashkil etish uchun.

T e r g o v c h i: Xo'sh, siz kimnidir topishga muvassar bo'ldingizmi?

I v a n: Men uzoq izladim. Bu juda qiyin. Meni tushunmayotgan bo'lishlari mumkin. Biroq bittasini topdim.

T e r g o v c h i: Aynan kimni?

I v a n: Sizni tuyg'ularni olib yuradigan odam qiziqtiradimi yoki uning ismimi?

T e r g o v c h i: Unisi ham, bunisi ham.

I v a n: Nikolay Kavalerov. Hasadgo'y.

IV

Ular oynadan uzoqlashdilar.

Endi ikki masxaraboz birga ketardi. Biri pastroq va to'ladan kelgan ikkinchisini quvib o'tardi. Bu Ivan Babichevning o'ziga xosligi edi. U hamrohi bilan gaplashib ketar ekan, doimiy ravishda qarab qo'yardi. Agar uzundan uzoq gapirishiga to'g'ri kelsa (jumlasini hech qachon qisqa bo'lmasdi), yonidagi sherigidan ko'zini uzmay, qarama-qarshi tarafdin kelayotgan yo'lovchiga to'qnashib ketardi. Shunda darrov bosh kiyimini yechib, balandparvoz tarzda kechirim so'rashga tushardi. U baodob odam edi. Yuzidan yoqimli tabassum arimasdi.

Kun tugadi.

Yo'lovchilar shu zahoti pivoxonaga burildilar.

Kavalerov Ivanga bir nufuzli odam uni o'zining uyidan haydagani ni aytib berdi. Ismini oshkor qilmadi. Ivan ham shu haqda gapirdi: uni ham e'tiborli bir shaxs quvib solgan ekan.

– Ehtimol siz bu odamni tanirsiz? Hamma biladi uni. Mening akam Andrey Petrovich Babichev. Eshitganmisiz?

Kavalerov qizarib boshini quyi soldi. Hech nima demadi.

– Shunday qilib, taqdirlarimiz o'xshash ekan va biz do'stlashishimiz kerak, – dedi Ivan tovlanib. – Kavalerov familiyasi menga yoqyapti: balandparvoz va juda jo'n.

Kavalerov o'yladi: «Men o'zim balandparvoz va juda jo'nman».

– Ajoyib pivo! – xitob qildi Ivan. – Polyaklar uning ko'zlarini pivo rangida deyishadi. – Yaxshi-ya, to'g'rimi?

...Biroq eng asosiysi, bu mashhur inson, qondosh akam, mening qizimni o'g'irladi...

...Men akamdan o'ch olaman.

...U qizimni o'g'irladi. To'g'ridan to'g'ri o'g'irlamadi, albatta. Ko'zlaringizni katta-katta ochmang, Kavalerov. Burningizni ham kich-raytirsangiz sizga xalaqit bermasdi. Qalin burun bilan siz xuddi qahramon misoli mashhur va oddiy odamdek baxtli bo'lmog'ingiz zarur. U qizimga ruhiy ta'sir o'tkazgan. Buning uchun sud qilib bo'ladimi? Prokurorga, a? U meni tark etdi. Qizim uning uyida yashayotgan Andreyni, o'sha razilni ayblayman.

U Volodya haqida aytib berdi.

Kavalerov xijolat bo'lganidan oyoqlaridagi bosh barmoqlari qimir-lab ketdi.

– ...Bu bola mening hayotimni izdan chiqardi. O, futbolda uning buyragini ishdan chiqarsalar edi! Andrey hammaga quloq tutadi. Bu bolakay – yangi odam! U aytdiki, Valya badbaxt, chunki men – otasi telbaman va men (razil) muntazam ravishda uni aqldan ozdiryapman. Ablah! Ular birgalikda qizimni ko'ndirishgan. Keyin Valya qochgan. Qaysidir dugonasi boshpana beribdi.

...Men bu dugonasini la'natladim. Qizilo'ngachi va to'g'ri ichagi joylarini almashishini tiladim. Bunday manzarani tasavvur qilyapsizmi? Bu qovoqboshlar to'dasi...

«Men ulardan Valni tortib olaman», – deb o'yladi Kavalerov. U tor ko'chadagi shox devor yonida o'zi guvohi bo'lgan voqea haqida aytishni istardi. Biroq negadir o'zini tiyib turdi.

– Bizning qismatlarimiz o'xshash, – davom etdi Ivan. – Menga qo'lingizni bering. Tabriklayman. Sizni ko'rganimdan bag'oyat xursandman. Cho'qishtiramiz. Demak, sizni haydab chiqarishgan-a, Kavalerov? Aytib bering, ayting. Darvoqe, aytib bergan edingiz. Muhim shaxs shunday qildi-ya? Uning ismini aytishni istamaysizmi? Ha, mayli. Siz bu odamni judayam yomon ko'rasizmi?

Kavalerov bosh irg'aydi.

– Eh, menga hammasi qanchalik tushunarli, azizim! Siz mulkdor odamga qo'pol muomalada bo'lgansiz. Gapimni bo'lmay turing. Siz hamma tan olgan odamni yomon ko'rib qolgansiz. Nazaringizda u sizni ranjitgandek tuyulgan. Mening gapimni bo'lmang. Iching. O'zingizni namoyon qilishingizda u sizga xalaqit beryapti, deb ishonasiz. Huquq-

laringizni tortib olgan. Siz hukmronlik o'rnatmoqchi bo'lgan joylarga u o'z hukmini o'tkazyapti. Va bundan darg'azab bo'lyapsiz.

Tutun ichida orkestr o'ynaydi. Skripka uzra skripkachining rangpar yuzi yotadi.

– Skripka skripkachining o'ziga o'xshaydi, – deydi Ivan. – Bu jajji skripkachi yog'och frakda. Eshityapsizmi? Daraxt kuylayapti. Daraxt orkestrda turli ovozlari bilan xonish qilmoqda. Biroq ular naqadar yomon o'ynashyapti. Xudoyim, qanchalik yomon ijro!

U musiqachilarga yuzini o'girdi.

– Siz barabanni o'zingizda deb o'ylayapsizmi? Baraban o'zining partiyasini ijro etyapti, deb o'ylayapsizmi? Yo'q, bu musiqa ilohi sizga mushti bilan uryapti.

Do'stim, bizni hasad kemiradi. Biz bo'lg'usi davrga hasad qilamiz. Hasad haqida gaplashamiz. Bizga yana pivo keltiring...

Ular keng ochilgan deraza yonida o'tirishardi.

Yana yomg'ir yog'ib o'tdi. Oqshom edi.

Orkestrchilar ijroni tugatishdi.

– Xudoga shukr, – dedi Ivan. – Ular jim bo'lishdi... Biz qasos olishimiz kerak. Siz ham, men ham, biz ko'pchilik, minglab topiladi – o'ch olishimiz kerak. KavaleroV, dushmanlar har doim ham shamol tegirmonidan foydalanishmaydi. Gohida shamol tegirmoni uchun shunaqangi kurashga kirishishni xohlaysanki – dushman bor, halokat va o'lim keltiruvchi bosqinchi. Sizning dushmaningiz, KavaleroV – haqiqiy dushmaningiz. Undan o'ch oling. Menga ishoning va biz shovqin-suron bilan ketamiz.

...O'zingizni gapirishga majbur qiling, KavaleroV. Hamma halokatga boradi, hammasi oldindan belgilab qo'yilgan, yo'l yo'q – siz o'lmog'ingiz kerak, katta burun! Shunday xayrlashingki, sizning «ko'rishguncha»ngiz asrlar bo'ylab aylansin.

«U mening fikrlarimni o'qiyapti», deb o'yladi KavaleroV.

– Sizni xafa qilishdimi? Haydashdimi?

– Meni dahshatli tarzda xafa qilishdi, – dedi otash bo'lib Kavale-roV, – meni uzoq vaqt kamsitishdi.

– Sizni kim ranjitdi? Zamon odamlaridan birimi?

«Akangiz, – deb baqirishni istadi KavaleroV, – sizni xafa qilgan odam».

Biroq u sukut saqlab turdi.

– Sizning omadingiz chopgan. Bosqinchining yuzini tanimaysiz. Sizning aniq dushmaningiz bor. Meniki ham.

– Nima qilay?

– Uni o'ldiring. Asrning yollangan qotili degan faxriy xotira qoldiring. Dushmaningizni ikki asr oralig'iga siqib boring. U kerilib, allaqachon o'sha yerda yuribdi. Dushmaningizni yo'q qilishingiz uchun sizga omad tilayman. (Ivan krujkani ko'tardi) Oldik, Kavalerov, «Ofeliya» uchun! Bu intiqom aslahasi!

Kavalerov muhim gapni aytish uchun og'zini ochdi: bizning dushmanimiz bitta! Siz ukangizni o'ldirishim uchun omad tiladingiz, biroq bir so'z ham chiqmadi, chunki stolga Ivanni taklif qilgan odam kelib o'tirdi. U hibsga olindi, sababini oldingi bobda aytib o'tgan edik.

– Ko'rishguncha, azizim, – dedi Ivan, – meni Golgofaga olib ketishadi. Qizimning oldiga boring (u Kavalerovning xotirasida anchadan beri yaraqlab turgan tor ko'chani aytdi), boring va uni ko'ring. Siz anglab yetasiz, agar shunday xilqat bizni o'zgartirgan bo'lsa, faqat bir ish qoladi: qasos.

U pivoni ichib bo'ldi va sirli odamning oldiga tushib ketdi.

Chiqish chog'ida tashrif buyuruvchilarga tabassum ulashdi, klarinetning keng og'ziga qaradi va eshik oldida orqasiga o'girildi. Qo'lida krujka ushlaganicha ifodali o'qidi:

*Men, axir nemis lo'ttibozi emas,
Va odamlarni aldovchi hammas!
Kamina – sovet fokuschisi kamtar,
Men – zamonaviy afsungar!*

V

– Nega kulasan? Sen meni uxlaydi deb o'ylayapsanmi? – deb so'radi Volodya.

– Men kulganim yo'q. Yo'talyapman.

Va Volodya stulga yetib borib, yana uxlab qoldi.

O'spirin erta uxlati. Kattasi – Andrey Babichev – ulkan edi. U kun bo'yi va kechening yarmigacha ishlar edi. U stolga mushti bilan urdi. Lampa qopqog'i xuddi choynak qopqog'idek sakrab ketdi, biroq o'smir uxlar edi. Lampa qopqog'i uchardi. Andrey esladi: Jems Uatt bug' ustida uchayotgan choynak qopqog'iga qarab turibdi.

Tanish afsona. Tanish manzara.

Jems Uatt bug' mashinasini kashf qildi.

– Sen nimalarni ixtiro qilyapsan, mening Jems Uattim? Qanday mashinani kashf qilyapsan sen, Volodya? Tabiatning qanday yangi siri-
ni aniqlaysan, sen, ey, odamzod?

Ana shunda Andrey Babichevning o'z-o'zi bilan suhbatini boshlandi.
U qisqa vaqtga ishini qo'yib, uxlayotgan sherigiga qaragancha o'yladi:

«Balki Ivan haqdir? Ehtimol men shunchaki tor fikrli odam va oila
botinimda yashayotgandir? Balki bolalik yillarimdan beri menda yasha-
yotgani bois unga o'rganib qolgan va o'g'lim kabi yaxshi ko'rib qol-
gandirman? Faqat shuning uchunmi? Shundaymikin? Agar uning esi
past bo'lganida-chi? Men kim uchun yashayotgan bo'lsam, unda mu-
jassam bo'ldi. Mening baxtim kuldi. Yangi insoniyatning hayoti olisda.
Men unga ishonaman. Mana, u mening yaqinimda uxlab qoldi, go'zal
yangi dunyo. Yangi dunyo uyimda yashamoqda. O'g'ilmi? Suyanchiq-
mi? Asrga intiho qo'yuvchimi? Bunday emas! Menga bu kerak emas!
Men baland to'shak va yostiqlarda o'lishni istamayman. Bilaman: me-
ning so'nggi nafasimni oila emas, omma qabul qiladi. Safsata! Biz shu
dunyoni qanchalik ardoqlasak, men unisini e'zozlayman. Va u menga
ushaladigan orzum kabi qadrlil. Agar aldansam, u yangi bo'lmasa, hay-
dab chiqaraman. Men uni o'g'il kerak bo'lmaganida haydab solaman:
men ota emasman va u o'g'il emas, biz oila emasmiz. Men o'sha, unga
ishongan odamman, u esa ishonchi oqlagan inson.

Biz oila emas, biz – insoniyatimiz.

Demak, nima bu? Demak, otalik mehri bo'lgan inson tuyg'usini
yo'q qilish kerakmi? U, yangi nega meni yaxshi ko'radi? Demak, yangi
dunyoda ham ota va o'g'il o'rtasida mehr-muhabbat bo'ladi. Men shod-
lanish huquqiga ega bo'laman; Ivan, Ivan, sening suiqasding ahami-
yatsiz. Hamma tuyg'ular ham o'lavermaydi. Sen behuda quturyapsan,
Ivan!»

Qadim-qadimda, zimziyo tunda o'ydin-chuqurlarga tushib-chiqib,
butoqlar orasidan yulduzlarni qo'rqitib, ikki kishi yugurar edi: komissar
va bolakay. Bola komissarni qutqardi. Komissar devqomat, bola jimit-
dek edi.

Ular bir umrga birlashishdi.

Bolakay devqomatning uyida ulg'aydi, komsomol bo'ldi va talaba-
ga aylandi. U temir yo'lda tug'ilgan, ta'mirlash-metall quyish ishchisi-
ning o'g'li edi.

Uning o'rtoblari yaxshi ko'rishardi, kattalar suyishardi. Hammaning yoqtirishi ba'zida o'smirni tashvishga solar, bunga o'zini munosib emasdek hisoblardi. Do'stlik tuyg'usi unda juda kuchli edi.

U sadoqati va fidoyiligi bilan ajralib turgan tengdoshlarini mukofotlashni xohlar. Uning jamiyati o'rtoblarni o'zaro bellashuvga chorlar edi.

– Men odamlar nima uchun g'azablanadilar va xafa bo'ladilar, deb o'ylardim, – deydi u. – Bundaylarning vaqt haqida tushunchasi yo'q. Texnikani bilmaydilar. Vaqt ham texnik tushuncha, axir. Agar hamma texnik bo'lganida adovat, izzatlablik va barcha mayda tuyg'ular yo'qolardi. Sen kulyapsanmi? Bilasanmi, mayda tuyg'ulardan xalos bo'lish uchun vaqtni anglab yetish kerak. Xafagarchilik, deydik, bir soat yoki bir yil davom etishi mumkin. Ularning tasavvuri bir yilga yetadi. Ming yilga torta olmaydi.

– Xo'sh, nima uchun mayda tuyg'ular? Axir yuksak tuyg'ularning ham umri qisqa. Masalan... oliyhimmatlik?

– Sen menga quloq sol. Oliyhimmatlikda qandaydir... texnik to'g'rilik bor. Sen kulma. Ha, ha. Yo'q, aslini olganda, men yanglishdim. Sen meni hayron qoldiryapsan. Yo'q, shoshma! Inqilob bo'ldimi... xo'sh, qalay? To'g'ri, juda shafqatsiz. Ho! Biroq nima uchun shafqatsizlik qildi? U oliyhimmat edi, to'g'rimi? Kulma, Andrey Petrovich. Men aytmogchiman: insonning bosh tuyg'usi vaqtni anglab yetish bo'lmog'i kerak.

U, shuningdek, dedi:

– Men burjuaziyaning dimog'ini tushirib qo'yaman. Ular ustimizdan kuladilar. Qariyalar: qani sizlarning muhandislarinigiz, jarrohlarinigiz, professorlar-u kashfiyotchilarinigiz, deb nolishadi. Men yuz nafar o'rtog'imgdan iborat guruhni yig'aman. Biz ittifoq tashkil etamiz. Burjuaziyaning dimog'ini tushirib qo'yish bo'yicha. Sen meni shunchaki chiraniy yuribdi, deb o'ylayapsanmi? Hech nimani tushunmaysan. Biz xuddi hayvonlardek ishlaymiz. Mana, ko'rasan. Bizga qulluq qilib keladilar. Valya ham shu ittifoqda bo'ladi.

U uyg'ondi.

– Tush ko'rdim, – dedi kulib, – Valka ikkimiz tomida o'tirgancha teleskopdan oyni tomosha qilarnishmiz.

– Nima? A? Teleskop?

– Unga shunday deyman: «Ana, pastda, «inqirozlar dengizi». U esa soʻraydi: «Kalamushlar dengizi»?

Oʻsha yili bahorda Volodya otasi bilan koʻrishish uchun qisqa vaqtga Muromga ketdi. Otasi Murom parovoz qurilishi ustaxonasida ishlar edi. Ikki kunlik ayriliqdan soʻng uchinchi kechaga oʻtishda Andrey uyga qaytdi. Muyulishda haydovchi tezlikni kamaytirdi, atrof yorugʻ edi va Andrey devor tagida yotgan odamni koʻrib qoldi. Uni Volodya deb oʻyladi.

Mashina toʻxtadi.

Nikolay KavaleroV koʻtarildi, uning alahsirab aytgan soʻzlari eshittildi.

Andrey uni oʻzining uyiga olib keldi, uchinchi qavatga chiqardi va Volodyaning divaniga yotqizdi. Choʻshab keltirdi, uning boʻynini qalin jun roʻmol bilan oʻradi. Xoʻjayin yaxshi kayfiyatda uyquga ketdi: divan boʻshamagan edi.

Oʻsha kecha yosh yigitchaning teleskopda oʻzini osib qoʻygani tushiga kirdi.

VI

Anechka Prokopovichning xonasida yogʻochlari qimmat toʻq gilos rangda loklangan, suyanchigʻi oynaband ravoq bilan mahkamlangan ajoyib karavot bor edi. Uni bir zamonlar xalq sayli vaqtida Anechkaning eri lotereya chiptasiga yutib olib keltirgan edi.

Oila yashadi, puturdan ketdi – karavot barcha qiyinchiliklarni boshidan oʻtkazdi.

KavaleroV karavot ortidagi burchakda yashaydi.

U Anechkaning oldiga kelib soʻradi:

– Burchak uchun sizga har oyda oʻttiz rubl toʻlab yashashim mumkin.

Anechka kulimsirab rozi boʻldi.

KavaleroVning borishga boshqa joyi ham yoʻq edi. Oldingi xonasiga yangi istiqomat qiluvchi mustahkam oʻrnashib olgandi. Qoʻrqinchli karavotni KavaleroV toʻrt rublga sotib yubordi va gʻiyqillashlari bilan uni tark etdi.

Anechkaning karavoti organ kattaligicha kelardi. Xonaning yarmi band edi.

Kavalerov o'ylardi:

«Agar Anechkaning o'g'li bo'lganimda bolalik aqlim qanchadan qancha shoirona, sehrli narsalarni o'ylab topgan bo'lardi! Endi men ulg'ayganman, qandaydir umumiy shakllar va ayrim detallarni ilg'ab olishim mumkin... O'shanda esa na masofa, na ko'lam, na vaqt, na vaznga itoat etardim, duch kelgan joyga chiqib ketardim...»

Ivan Babichev Kavalerovni yashil po'rtana bo'ylab olib ketadi... Momaqaymoqlar oyoq ostidan uchadi, suzadi – bunday suzish jaziramaning dinamik aksi... Jaziramadan Babichev oqaradi.

Ular xarobazordan o'tadilar, devorlar tomon yuradilar, ichkarida ovcharkalar zanjirlarini shaldiratib quturadi. Kavalerov hushtak chaladi, itlarning jig'iga tegadi, hamma narsa bo'lishi mumkin: bittasi zanjirni uzib, devor osha o'tsa-ya; shuning uchun ham vahima bosgan.

Yo'lovchilar yashil nishablik bo'ylab tushadilar. Bu yerlar Kavalerovga notanish. Parovozlar chinqirig'i, temiryo'l jingir-jingiri eshitiyadi.

– Men sizga mashinamni ko'rsataman, – dedi Ivan Kavalerovga o'g'irilib. – O'zingizni chimchilang... shunday... yana bir marta, yana bir marta... Tush emasmi? Yo'qmi? Eslab qoling, siz uxlamagansiz. Yodingizda tuting, hammasi oddiy edi, biz siz bilan xarobazordan o'tdik, maysazor barq urgan. Kuzating, do'stim, kuzating... Eslab qoling. Hammasi oddiy. Men hammasi joyida, es-hushingiz ham ekanligini tasdiqlashingizni talab qilaman. Hozir ko'radiganingiz sizni nihoyatda hayratga soladi.

Kavalerov tasdiqladi:

– Mening es-hushim joyida.

Uncha katta bo'lmagan yog'och devor bor edi.

– U narigi tomonda, – dedi Ivan. – Kutib turing. O'tiramiz. Mana bu jarlik tagida. Men sizga aytsam, mening orzum mashinalar mashinasi, universal mashina edi. Bitta apparatga yuzlab turli funksiyalarni to'plamoqchi edim. Ha, do'stim. Ajoyib, olijanob ish. Buning uchun chinakam ishqiboz bo'lishga to'g'ri keldi: beso'naqay katta texnikani odamni qo'rqitmaydigan eshik tutqichiga o'xshash oddiy uskunaga aylantirish kerak edi.

– Men texnikada hech nimani tushunmayman, – dedi Kavalerov, – mashinalardan qo'rqaman...

– Va buni uddaladim. Quloq soling, Kavalerov. Men shunday mashinani kashf qildim.

U yana uzoq gapirdi. So‘ng Kavalerovni orqada qoldirib, o‘zi devorga yaqinlashdi. Ma‘lum vaqtdan so‘ng kim bilandir gaplashayotgandek tuyuldi. Keyin Ivan orqaga tislandi. Ancha orqada turgan bo‘lsa-da, Kavalerov ham shunday qildi.

– Kim hushtak chalyapti? – dedi qo‘rquvdan ovozi titrab Kavalerov.

Atrofda kuchli hushtak yangradi. Kavalerov kaftlari bilan yuzini to‘sdi, Ivan devordan uzoqlashib, unga tomon yugurdi.

– Men undan qo‘rqyapman! Men undan qo‘rqyapman! – dedi Ivan hansirab.

Ikkovlon qo‘l ushlab pastga chopishdi...

– Men undan qo‘rqaman, – tez gapirdi Ivan. – U mendan nafratlanadi... U menga xiyonat qildi... U meni o‘ldiradi...

Kavalerov o‘ziga kelib, o‘zining irodasizligidan uyalib ketdi.

– Quloq soling, – dedi u. – Shunchaki bir bola ikki barmog‘ida hushtak chaldi. Men ko‘rdim. Bola devor ustida paydo bo‘lib, hushtak chaldi... Ha, bola...

– Men sizga aytgandim, – kuldi Ivan. – Har xil sabablar izlay boshlaysiz, dedim. O‘zingizni ko‘proq chimchilang, degandim-ku?

Bahs kelib chiqdi. Ivan qiyinchilik bilan pivoxonaga ketdi. Kavalerovni taklif qilmadi. Kavalerov yo‘lni topolmay, tramvay tovushiga quloq solib turdi. Yaqin burchakda yer depsinib, pivoxona tomon burildi. Ivan uni tabassumi va kursiga qo‘ygan kafti bilan kutib oldi.

– Aytsangiz-chi, – zorlandi Kavalerov. – Nima uchun meni qiyayapsiz? Nega bizni aldaysiz? Axir hech qanday mashina yo‘q-ku? Bunday mashina bo‘lishiyam mumkin emas.

Tinkasi qurigan Kavalerov kursiga o‘tirdi.

– Eshiting, Kavalerov. O‘zingizga pivo buyuring, men esa sizga ertak aytib beraman. Quloq tuting.

Ertak ikki aka-uka haqida edi...

VII

Yakshanba kuni ertalab Ivan Babichev Kavalerovni yo‘qlab keldi.

– Bugun men sizga Valyani ko‘rsatmoqchiman, – dedi u tantanali ravishda.

Ular yo'lga otlandilar. Sayrni fusunkor deyish mumkin, shahar bayram og'ushida edi. Ular Teatralniy maydoniga borishdi. Harakat deyarli yo'q edi. Yakshanba tongi – Moskva yozining eng go'zal ko'rinishlaridan biri. Ular uzoq yurdilar.

Ivan eshikni taqillatdi. Bir, ikki marta, yana...

– Hech kim yo'q – dedi to'ng'illab. – U allaqachon o'sha yerda...

Kavalerovning diqqatini maysazor ustidagi singan shisha o'ziga tortdi. Nega? Axir ko'z oldida hali hayratomuz hech nima bo'lgani yo'q-ku?

– U allaqachon ketgan! – takrorladi Babichev. – Ruxsatingiz bilan...

Va darchalarning biridan qaradi. Kavalerov kechiktirmay, u ham shunday qildi.

Ular pastga tushdi. Ivan Kavalerovning tirsagidan chimchilab oldi.

– Ana u... qarang (shivirlab).

Hamma qichqirar va qarsak chalardi. Sakrovchi deyarli yalang'och holda, bir oyog'ida sal oqsoqlanib, chekkaroqqa o'tdi.

U Volodya Makarov edi.

Kavalerov o'zini yo'qotib qo'ydi. Uni uyat va qo'rquv tuyg'usi qamrab oldi. Volodya kulimsirab, yaltiragan tishlarini namoyon etdi.

– Andrey Petrovich! – qichqiradi maysazorda Valya. – Andrey Petrovich! Bu yoqqa! Bu yoqqa!

Qo'rqinchli mehmon g'oyib bo'ldi. U yuqori qavatdagi galereyani tark etib, maysazorga yo'l izlaydi. Turli to'siqlar uni Kavalerovning ko'zidan to'sadi. Qochish kerak.

– Bu yoqqa! Bu yoqqa! – Valyaning ovozi jaranglaydi.

Kavalerov ko'rib turadi: Valya maysazorda oyoqlarini keng va mahkam qo'yganicha turibdi. U qora kalta ishtonda, yalang'och oyog'iga oq sport poyabzali kiygan.

Kavalerov devor tomonga yugurdi.

– Siz qayoqqa ketyapsiz? – deb uni chaqirdi Ivan. – Qayoqqa ket-yapsiz, shoshmang!

«U baland ovozda baqiryapti! Ular eshitadi! – hayajonga tushdi Kavalerov. – Ular meni ko'radi!»

Darhaqiqat, devor orti birdan jim bo'lib qoldi. U yerda quloq solib turishardi. Ivan Kavalerovni quvib yetib oldi.

– Eshiting, azizim... Ko'rdingizmi? Bu mening ukam! Ko'rdingizmi? Volodya, Valya... Hammasi! Butun lager!.. To'xtang, men hozir devorga chiqaman va ularni urishaman...

Kavalerov jimgina javob berdi:

– Men ukangizni juda yaxshi bilaman. Meni shu haydab soldi. Sizga aytganimdek, u ham muhim shaxs... Bizning taqdirlarimiz o'xshash. Siz ukangizni o'ldirishim kerakligini aytgan edingiz... Nima qilay?

Tosh devorda Valya o'tirardi.

– Ota! – deb qichqirdi u.

Ivan uning devorda osilib turgan oyoqlarini quchoqladi.

– Valya, ko'zlarimni o'yib ol! Men so'qir bo'lishni xohlayman, – dedi u, – hech nimani ko'rishni istamayman: na maysazorni, na novdalarni, na gullarni, na ritsarlarni, na qo'rqoqlarni, men ko'r bo'lishim kerak, Valya. Men adashdim, Valya... Muhabbat, sadoqat va muloyimlik kabi barcha tuyg'ular o'lgan deb o'ylar edim... biroq hammasi qoldi, Valya... Faqat biz uchun emas, bizga faqat hasad qoldi... Ko'zlarimni sug'urib ol, Valya, men so'qir bo'lishni istayman.

– Ichamiz, Kavalerov, – dedi Ivan. – Ichamiz. Kavalerov, o'tib ketgan yoshlik uchun, barbod bo'lgan tuyg'ular fitnasi uchun, bo'lmagan va bo'lmaydigan mashina uchun...

– Sen itvachchasan. Ivan Petrovich! (Kavalerov Ivanning yoqasiga yopishdi) Yoshlik o'tgani yo'q! Yo'q! Eshityapsizmi? Yolg'on! Men sizga isbotlayman... Ertagayoq – eshityapsizmi? Ertaga futbolda men ukangizni o'ldiraman...

VIII

Nikolay Kavalerov minbardan joy olgan edi. Undan o'ng tomonda Valya o'tirardi. Lojani yoshlar to'ldirishgandi.

Shamol esadi, kun juda yorqin. Ulkan maydon yam-yashil.

Nafaqat Kavalerov, balki lojaga yaqin o'tirganlar pushti rang ko'ylakdagi qizga e'tibor qaratishardi, har biri o'zining turishi va harakati bilan uning diqqatini tortishni istar edi. U aniq mashhur yoki mashhurroq odamning qizi edi.

Stadionni o'n ming tomoshabin to'ldirgan edi. Misli ko'rilmagan tantana – Moskva va Germaniya o'rtasidagi orziqib kutilgan o'yin bo'lib o'tishi kerak edi.

Minbarda odamlar arzimagan narsa ustida bahslashar, baqirishar, janjal qilishardi. Stadionni ulkan miqdordagi xalq shishirib yuborgan edi. Qayerdadir o'rdak qichqirig'i bilan to'siqlar buzilardi. O'zining jo-

yini izlayotgan Kavalerov yo'lakda, shundoq minbar supachasi ostida oq-sariq kamzulli cholning og'ir nafas olib, qo'llarini yozib yotganiga ko'zi tushdi. Unga hech kim qaramasdi. Qiy-chuv shamol bilan kuchaygandi. Mezanalarda bayroqlarni silkitishardi.

Kavalerov butun vujudi bilan lojaga intilardi. Valya ulardan pastroqda, qiya tomondan yigirma metrcha narida joy olgandi. Ko'rish qobiliyati ikkalasining ustidan kulgandek tuyuldi. Kavalerovga ular ko'z urushtirayotgandek bo'ldi. Shunda u o'midan turdi. Boshi uzra medal-yon chaqnagandek tuyuldi. Shamol uni xohlagan ko'yga solardi. Qizni esa yelkasigacha tushirib, fleyta kabi ravon qo'lini ochib ko'rsatardi.

O'yin boshlanishidan bir oy oldin Germaniya jamoasi bilan mar-kazda o'ynaydigan, besh hujumchidan biri bo'lgan mashhur Getske kelishini taxmin qilishgandi. Darhaqiqat, Getske keldi. Germaniya jamoasi marsh sadosi ostida maydonga tushib, hali o'yinchilar maydon-da taqsimlanmay turib tomoshabinlar (doimiy bo'ladigandek) mashhur o'yinchini tanib qolishdi.

– Getske! Getske! – deb baqirishdi.

Qoramag'izdan kelgan, yelkasi chiqqan Getske yon tomonga bir necha qadam o'tdi, to'xtadi, qo'li boshi uzra ko'tardi va kaftlarini bir-biriga birlashtirdi. Xorijlikning ajoyib salomlashishi tomoshabinlarni yanada to'lqinlantirib yubordi.

Nemislar jamoasi – o'n bir odam – yashil maydonda yaltiroq kiyimi bilan porlab turardi. Ularning egnida to'q sariq, deyarli oltinrang fufay-kalar bo'lib, qora kalta ishton kiyib olishgandi. Kalta ishtonlar shamol-da po'ng'illardi.

Qiziq libosli va oq kalta ishtonli sovet jamoasi yugurib chiqdi. Tomoshabinlar to'siqqa talpinib, oyoqlarini dupurlatdilar.

O'yinning birinchi yarmida nemislar shamol yo'nalishi bo'ylab o'ynadilar.

Biznikilar nafaqat jon kuydirib o'ynashdi, balki nemis o'yinchilarini professional sifatida xuddi tomoshabindek kuzatib, mumkin qadar yaxshi to'p surishga harakat qilishdi. O'yin to'qson daqiqa bo'ladi, qirq beshinchi daqiqada qisqa tanaffus bilan davom etadi. Maydonning yar-mi almashinadi. Shunday ekan, shamolga qarshi o'yindan ko'ra, shamol yo'nalishida o'ynash samarali.

Nemislar shamol yo'nalishi bo'yicha o'ynar ekan, kuchli shamol butun o'yin davomida bizniki tomonga esaverdi. To'p sovet maydo-

nidan deyarli chiqmadi. Bizning o'yinchilar kuchli zarba yo'lladilar, lekin shamol tufayli to'p orqaga qaytib kelardi. Nemislar shiddat bilan hujum qildilar. Mashhur Getske haqiqatan dahshatli o'ynar ekan. Barcha diqqat-e'tibor unga qaratilgan edi.

To'p unga tushganida Valya o'tirgan joyida chinqirib yubordi. Getske bizning o'yinchilarni ortda qoldirib, darvozaga yaqinlashdi va zarba yo'lladi. Biroq sovet jamoasining darvozaboni Volodya Makarov to'pni ilib oldi. Valya hayajonlanib ketganidan kulib yubordi.

– Makarov! Makarov! Ofarin, Makarov! – deb qichqirdi u boshqalar bilan birga.

To'p har daqiqada darvozaga kelib turdi. Goh ustunga urilar, goh Volodya ushlab olardi... U abjirlik bilan chinakamiga mahorat ko'rsatardi.

O'yinning o'rtasidayoq sovet jamoasi nemislarga yon bermayotgani tomoshabinlarga ma'lum bo'la boshladi. Ular to'g'ri hujum uyushtirmadilar – Getske xalaqit berardi. U chiroyli kombinatsiyalarni buzib yuborardi. U, hech kimning yordamisiz va o'zi ham yordam bermay, faqat o'zi uchun o'ynar edi.

Tomoshabinlar o'yinning ikkinchi yarmida Getske charchab qolishi va o'yinchilarimiz shamol esadigan yo'nalish bo'ylab o'ynab, nemislarni mag'lub etishini chamalashdi. Hozir o'z darvozasidan to'p o'tkazmay bardosh berib turishsa bo'lgani.

Biroq bu safar ham yuksak mahorat maqsadiga erishdi. Tanaffusga o'n daqiqa qolganda u o'ng qanotni yorib o'tdi. So'ng birdan to'xtadi, oldinga va o'ng tomonga nazar tashlandi, to'pni markazga burdi va faqat bir o'zi qolgan o'yinchini aldab o'tib, to'pni to'g'ri darvozaga yo'lladi. Bungacha oyoqlariga va to'pga bir necha marta qaragan, yo'nalish tezligi va zarba muddatini mutanosib ravishda hisobga olgan edi.

Minbardan «o-o-o» degan uzluksiz hayqiriqlar yangradi.

Volodya, xuddi ko'rinmas bochkani tutib oladigandek to'pni ushlashga shaylangan edi. Getske zarba yo'llamay darvozaga yugurdi. Volodya uning oyoqlari tagiga yiqildi. Keyin hushtaklar ovozi, tomoshabinlarning dukurlagan oyoq tovushi maydonni egalladi. Ikkala tarafdin kinningdir zarbasi tufayli to'p yengil tarzda Getskening boshi uzra uchdi va u boshi bilan urib, uni darvozaga yo'lladi.

Sovet jamoasi shu tariqa golni qabul qilib oldi.

Stadion gumburladi. Durbinlar sovet darvozasiga burildi. Getske o'zining yaltirayotgan boshmoqlariga qaragancha markaz tomonga yugurdi.

O'rtoqlari Volodyani ko'tarib olishdi.

IX

Valya boshqalar bilan birga boshini burdi. Kavalerov uning yuzi o'ziga qaratilganini ko'rdi. Bunga shubha qilmasdi. U bezovtalanib, qandaydir jahli chiqdi. Atrofdagilar tashvishlanganini ko'rib, ustidan kulayotganga o'xshadi.

U yonida o'tirganlarga qaradi. Va bir burchakda Andrey Babichevning o'tirgani kutilmagan hol bo'ldi.

Yana nemislar hujum qildilar.

Kutilmaganda kimdir kuchli tepgan to'p baland ko'tarildi va yon tomonga uchdi, aylanib bir lahzada Kavalerovning oyoqlari tagiga tushdi. O'yin to'xtadi. O'yinchilar soviy boshladilar. Tasma uzilganda film shu tarzda to'xtatiladi, zalga chiroq berilganida va mexanik o'chirishga ulgurmaganida tomoshabinlar ekranda mo'jaz oq kadr va tezkor harakatdagi qahramonning shaklini mutlaq to'xtagan tarzda ko'radilar. Kavalerovning g'azabi kuchaydi. Tevarakda hamma kulardi. To'pning tomoshabinlar qatoriga tushishi hamisha kulgi tug'diradi: tomoshabinlar bu daqiqada hazilomuz haqiqatni anglab yetadilar, odamlar bir soat mobaynida koptok ortidan chopib, begona kishilar – tomoshabinlarni o'zlarining jiddiy bo'lmagan vaqt o'tkazishlarini qizg'in qabul qilishga majbur etadilar.

Kavalerov sustkashlik qilar edi. Ikki ulkan kaftlar to'pga cho'zildi. Kimdir to'pni olib, Babichevga uzatdi. U o'rnidan bor bo'yicha turdi, qornini chiqarib, to'pni tashlash uchun boshi uzra ko'tardi. Bunday paytda jiddiy bo'lish kerakligini anglar, ammo uddalay olmasdi.

Babichev oldinga kuchli tebranib, to'pni maydonga uloqtirdi. «U meni tanimaydi», – jahlini ichiga yutdi Kavalerov.

O'yinning birinchi yarmi bir-u nol hisobida nemislar foydasiga yakun topdi. O'yinchilar asta-sekin maydonni tark etdilar. Kavalerov minbardan maydonga tushib, chimga oyoq qo'ydi. Futbolchilarning xonasiga olomon yopirildi.

– Ura! Makarov! Ura! – degan ovozlar kelardi u yerdan. Muxlislar to'siq oshib o'tgan edilar.

Volodya Makarovni ko'tarib tebratishardi. Kavalerovning tantanali halqaga kirishga jur'ati yetmadi. U to'dadan qolmay, tirqishdan tikildi.

Volodya endi yerda turardi. U samimiy tarzda qo'llarini ko'kragi ustiga chatishtirib olgan edi.

Mana, Valya turibdi. Andrey Babichev u bilan.

Bekorchilar uchovlonning qo'lini siqadi.

Babichev Volodyaga tikilgandek edi go'yo.

Qayerdadir hakam hushtak chaldi. Marsh harakatga tushdi. Shu tarzda quvnoq sarosimalik to'xtatildi. O'yinning ikkinchi yarmini boshladilar. Volodya chopib ketdi.

– Nemislarga kamida ikkita gol, – deb qichqirdi Kavalerovning yonidan o'tib borayotgan bolakay.

Valya shamol bilan kurashni davom ettirdi. Etagini o'nlab marta tushirar ekan, joyini almashtirib nihoyat Kavalerovning yaqiniga kelib qoldi.

U oyoqlarini keng ochgancha turardi. Shamol itqitgan va ushlab olgan shlapasini qo'lida ushlab turardi. U Kavalerovga qarab uni ko'rmas, qizg'ish-qo'ng'ir sochli boshini xiyol egib olgan edi.

Quyosh nuri yelkalarini siypalar ekan, u tebrandi, o'mrovi xuddi xanjardek charaqlab ketdi. Tikilib qarash o'n soniyacha davom etdi va Kavalerov muzlab, bunday nigohdan unda bedavo g'am-g'ussa qolishini anglab yetdi. O'zga dunyo xilqati naqadar yoqimli, ajib tikilmasa! Biroq u yetib bo'lmas, chunki u Volodyani sevadi.

Babichev qo'l cho'zganicha uni kutib turardi.

– Valya, – dedi Kavalerov. – Men sizni bir umr kutdim. Menga rahmingiz kelsin...

Biroq u eshitmadi. U shamolga o'ranib olib yugurardi.

X

Kechqurun Kavalerov uyga mast bo'lib qaytdi.

U yo'lak bo'ylab o'tib, suv ichish uchun chanoqqa keldi. Jo'mrakni oxirigacha burab, ust-boshi jiqqa ho'l qildi. Shu tarzda qoldirdi. Anechkaning xonasiga kirib to'xtadi. Chiroq o'chirilmagan edi. Beva ayol o'zining ulkan karavotida oyoqlarini osiltirganicha o'tirardi. U uxlashga tayyor edi.

Kavalerov odimladi. Ayol sehrlangan kabi jim edi. U Kavalerovga kulib qo'ygandek, imo qilgandek tuyuldi.

Ayol tomon yurdi.

Anechka qarshilik ko'rsatmadi, hatto bag'rini ochdi...

U kechroq turdi. Judayam chanqagan edi. Uxladi. U suv haqida orzu qildi. Uxlayotganida beva ayol jo'mrakni yopdi, uni yechintirdi va shimini ko'tarib turadigan tasmani tuzatib qo'ygandi.

Ertalab bo'ldi. Dastlab Kavalerov hech nimani tushunmadi. Xuddi komediyadagi mast-alast qashshoq saroyga keltirilgani kabi notanish hashamat qo'ynida yotdi. O'zining aksini – oyog'ini oldinga cho'zgan holatda oynada ko'rdi. Qo'llarini boshining orqasiga qilganча qoyilmaqom uxlardi. Quyosh yon tomonidan yoritardi. U Anechkaning karavotida yotardi.

– Sen menga uni eslatyapsan, – deya shivirladi Anechka unga tomon engashib.

Karavot tepasida oynabandli portret ilingandi. Kimningdir yosh buvasi ilingan, u savlatli kiyingan – egnida zamonaning so'nggi syurtuk'laridan biri. Ellik yetti yoshlardagi erkak.

Kavalerov kiyimini almashtirayotgan otasini esladi...

– Sen menga judayam erimni eslatib yubording, – takrorladi Anechka Kavalerovni quchib. Shavq va ehtiros ayolda jo'sh urardi...

Kavalerov uni urdi.

Ayol dovdirab qoldi. Kavalerov karavotdan irg'ib tushdi, choyshab orqasidan tortildi. Ayol eshikka tashlandi, qo'llari yordamga cho'zildi. Sava tushib ketdi, stul qiyshayib qoldi.

U Anechkaning jir ko'pchigan orqasiga, beliga bir necha marta urdi. Stul bir oyog'ida turardi.

– U ham meni urardi, – dedi ayol ko'z yoshlari aralash kulib.

Kavalerov karavotga qaytdi. U kasal bo'lishini his etib, ko'rpaga burkandi... Kun bo'yi behush holda yotdi. Kechqurun beva ayol yoniga cho'zildi. U xurrak otdi. Kavalerov bezovta bo'ldi va yig'ladi. Ayol uning peshanasiga nam sochiq qo'ydi. Kavalerov namlik istadi, sochiqni paypaslab topib, yuziga bosdi, g'ijimlab o'pib shivirladi:

– Uni o'g'irlashdi. Bu dunyoda yashashim qanchalik qiyin... Qanchalik qiyin...

Beva ayol esa yotib ulgurmay, shu zahoti pinakka ketdi. Xuddi kampir singari og'zini ochganча qulqullab uxladi. Qandalalar shitirlar,

¹ Syurtuk – erkaklarning uzun belburma kamzuli.

xuddi bir-biri bilan sirlashayotgandek edi. Ularning sirli maskanlari namoyon bo'ldi. Karavot yog'ochi o'sib, shishib bordi. Deraza tokchasini qizara boshladi. Karavot tegrasini g'ira-shiralik egalladi. Tungi sirlar devorlarning burchagidan tushib, uxlayotganlar yonidan o'tib, karavot tagiga o'rmaladi. Kavalerov birdan qaddini rostlab, ko'zlari katta-katta ochib o'tirdi. Karavot ostida Ivan turardi.

XI

Kavalerov zudlikda otlana boshladi.

Anechka arka tagida o'tirgan holda qo'llarini qomiga qo'yganча uxlardi. Kavalerov ehtiyotkorona tarzda, xuddi plash kiydirgandek, uning ustiga adyol yopib, Ivanning qarshisida turdi.

– Juda yaxshi, – dedi Ivan. – Siz kaltakesak kabi jilvalanib ko'rinasiz. Shunday holda xalqqa namoyon bo'lasiz. Ketdik, ketdik! Shoshilish kerak.

– Men og'ir betobman, – xo'rsindi Kavalerov; xuddi ov uchun shimi, kastumi va boshmoqlari yo'qligidan kechirim so'ragan kabi muloyim kuldi. – Oyoq yalang bo'lsam, hech nima qilmaydimi?

Ivan yo'lakda edi. Kavalerov uning ortidan shoshildi. «Men uzoq va besabab uqubat chekdim, – deb o'yladi Kavalerov. – Bugun istig'for kuni keldi». Odamlar oqimi uni olib ketdi. Yaqin oradagi burchakda yorqin yo'l ochildi.

– Mana u! – dedi Ivan, Kavalerovning qo'lini siqib. – Mana, «Yigirma besh tiyinlik»!

Kavalerov bog'larni, yaproqlarning sharsimon gumbazini, yengil, kumushrang toshlardan tiklangan ravoqlarni, galereya, yashil maysazor uchra uchayotgan to'pni ko'rdi.

– Bu yoqqa, – buyruq berdi Ivan.

Ular devor bo'ylab yugurishdi, keyin sakrashga to'g'ri keldi. Moviy adyol Kavalerovning sakrashini yengillashtirdi, u havo uzra suzib, keng tosh zina supachasiga qo'ndi. Shu zahoti qo'rqib ketib, xuddi qanotini yig'ishtirib ololmagan hasharot kabi adyoli tagida o'rmalay boshladi. Uni sezmadilar. U devorning pastki qismida o'tirdi.

Ko'plab odamlar bilan o'ralgan zina tepasida Andrey Babichev turardi. U Volodyani quchoqlab olgan edi.

– Hozir uni olib kelishadi, – dedi Andrey do'stlariga kulimsirab.

Shunda Kavalerov zinaga eltadigan asfalt yo'l bo'ylab kelayotgan orkestr va ortidan parvoz qilayotgan Valyani ko'rdi. Asboblar sadosi uni havoda ushlab turardi. Shunga ko'ra, goh ko'tarilar, goh tushardi. So'nggi musiqiy ijro Valyani zina tepasiga itqitdi va u Volodyaning qo'lga yiqildi. Hamma surilib, davrada faqat ikkisi qoldi.

Qolganini Kavalerov ko'rmadi. Uni kutilmagan dahshat qamrab oldi. O'tloqda Ofeliya o'tirardi.

– A-a-a! – g'alati qichqirdi u. Qochishga urindi. Ofeliya uni adyolidan ushlab oldi. U qulayotib toshga urildi va zinaga tirmashib chiqib oldi. Ular tepadan qarab turishardi. Valya engashgan edi.

– Ofeliya, orqaga! – Ivanning ovozi eshitildi. – U menga quloq solmayapti... Ofeliya, to'xta!

– Ushlang uni!

– Uni o'ldiradi!

– O!

– Qarang! Qarang! Qarang!

Kavalerov zina o'rtasida burilib qaradi. Ivan devorga chirmashdi. Qo'rqinchli temir anjom o'tloq bo'ylab unga tomon harakat qildi. Bosh qismida yaltiragan igna ko'rinardi. Ivan bo'zlab yubordi. Qo'llar ushlab turolmadi. U tushib ketdi. Bosh kiyimi momaqaymoqlar orasiga kirib ketdi. Mashina momaqaymoqlarni bosib, unga tomon siljir edi.

Kavalerov qaddini rostlab bor ovozda baqirdi:

– Uni qutqaring! Nahotki sizlar mashina odamni o'ldirishiga qo'yib bersangiz?!

Javob bo'lmadi.

– Mening joyim uning yonida! – dedi Kavalerov. – Ustoz! Men siz bilan birga o'laman!

Biroq kech bo'lgan edi. Ivanning quyonga xos qichqirig'i uni yiqilishga majbur qildi. Yiqilayotib u Ivanni Devorga igna bilan parchinlangan holda ko'rdi. Ivanning boshi engashib qolgan edi.

Kavalerov boshqa hech nimani ko'rmaslik va eshitmaslik uchun boshini changallab oldi. Ammo baribir qo'ng'iroq tovushini eshitdi. Mashina zina bo'ylab chiqar edi.

– Men istamayman! – qichqirdi u. – U meni o'ldiradi! Kechiringlar! Kechiringlar! Menga rahm qiling! Mashinani men buzmadim. Men aybdor emasman! Valya! Valya! Meni qutqar!

Kavalerov uch kun kasal bo'lib yotdi. Sog'aygach, qochdi.

U burchakdagi bir nuqtaga tikilganча karavotdan tushib, tagiga kirdi. Avtomatdek kiyinib, birdan shim tasmalarida yangi halqani ko'rib qoldi. Beva ayol ingliz to'g'nag'ichini olib tashlagan edi. U yangi halqani qayerdan oldi? Erining eski tasmalaridan olganmikan? Kavalerov o'zining holatidagi noxushlikni yaqqol sezib qoldi. U kastumsiz yo'lakka yugurdi. Yo'l-yo'lakay tasmalarni tashlab yubordi.

Maydonga kirish joyida ushlanib qoldi. Hovlidagi gap-so'zlar eshilib turardi. Shunda maydonga qadam qo'ydi va barcha fikrlar qorishib ketdi. Shodumonlik, xursandchilik kabi totli tuyg'ular paydo bo'ldi. Tong bag'oyat go'zal edi. Mayin shabada esardi (aniq kitob varaqlardi), Kavalerov iflos joyda turardi. Uning shiddatidan qo'rqqan mushuk axlat qutisidan otilib chiqib ketdi, qandaydir bo'lmag'ur narsa ustiga to'kilgan edi. Ko'pchilik tomonidan la'natlangan bu puchmoqda shoirona nima bo'lishi mumkin? U esa boshini baland ko'targanча qo'lini cho'zib turardi.

O'sha soniyada u ikki xilqat o'rtasidagi chegara tortish vaqti – halokat fursati yetganini his etdi. Yo'q qilish, nima bo'lsa, hammasini yo'q qilish kerak... Hozir, shu zahoti, ikkita astoydil silkinish, ko'p emas, chegarani bosib o'tish kerak va hayot jirkanch, yoqimsiz, uniki emas, o'zganiki, zo'rma-zo'raki hayot – ortda qoladi.

U o'zining qulash darajasini anglab yetdi. Shunday bo'lishi kerak edi. U juda yengil, o'ziga ortiq darajada ishonib hayot kechirdi, o'zi haqida haddan ziyod yuqori fikrda edi – u ishyoqmas, irkit va shahvatparast...

Kavalerov xilvat joy uzra uchayotib hammasini angladi.

U qaytdi, tasmalarni oldi, kiyindi. Kirish-chiqishdagi qo'ng'iroq jarangladi – beva ayol ortidan chiqdi – biroq u burilmay, uyni tark etdi. Yana xiyobonda tunadi. Va yana keyin qaytdi. Biroq u qat'iy qaror qildi!

«Men bevaning esini kiritib qo'yaman. Nima bo'lganini, hatto du-duqlanib ham aytmaydigan qilaman. Mastlikda nimalar bo'lmaydi, axir! Ko'chada yashashni esa men istamayman!»

Beva ayol plitaga payraha yoqardi. Unga qarab mag'rurona kulimsiradi. Xonaga kirdi. Javon burchagiga Ivanning bosh kiyimi ilingan edi.

Ivan karavotda o'tirardi, ukasiga o'xshar, faqat kichikroq edi. Adyol uni xuddi ko'rpadek o'ragan edi. Stolda vino shishasi turardi. Ivan stakandagi qizil vinoni ho'plab ichdi. U, aftidan, boyagina turgan; uyqudan so'ng yuzi hali tekislanmagan va uyqusirab adyol tagidan qayerinidir qashlar edi.

– Bu nimasi? – deb savol berdi Kavalerov.

Ivan baralla kuldi.

– Bu degani, do'stim, biz ichishimiz kerak, degani. Anechka, stakan!

Anechka ketdi. Javonni titkiladi.

– Sen rashk qilma, Kolya, – dedi Anechka, Kavalerovni quchib. – U xuddi sen kabi judayam yolg'iz. Men ikkalangizga ham achinaman.

– Bu nima degani? – jimgina so'radi Kavalerov.

– Nega chaynalasizlar? – jahli chiqdi Ivanning. – Hech nima degani emas.

U karavotdan tushdi va Kavalerovga vino quyib berdi.

– Ichamiz, Kavalerov... Biz tuyg'ular haqida ko'p gapirdik... Va asosiysi, do'stim, biz unutdik... Loqaydlik haqida... To'g'ri emasmi? Aslini olganda... Mening o'ylashimcha, loqaydlik inson aqlining eng muhim bo'g'ini. Loqayd bo'lamiz, Kavalerov! Qarang! Biz osoyishtalik kasb etdik, azizim. Iching. Loqaydlik uchun. Ura! Anechka uchun! Bugun, darvoqe... quloq soling: men... yoqimli gap aytaman... Bugun, Kavalerov, sizning Anechka bilan yotish navbatingiz. Ura!

MUNDARIJA

Uch baqaloq (<i>Qodir Mirmuhamedov tarjimasi</i>)	3
Hasad (<i>Anvar Namozov tarjimasi</i>)	141

20 811, 5530

Rus adabiyoti durdonalari

Adabiy-badiiy nashr

YURIY KARLOVICH OLESHA

UCH BAQALOQ

Romanlar

Nashr uchun mas'ul *A. Boboniyozov*

To'plab, nashrga tayyorlovchi *T. Mirzayev*

Muharrir *T. Mirzayev*

Rassom-dizayner *B. Zufarov*

Texnik muharrir *Y. Stepanova*

Kichik muharrir *M. Salimova*

Musahhih *G. Pattaxova*

Kompyuterda tayyorlovchi *F. Botirova*

Nashriyot litsenziyasi AI № 158, 14.08.2009.

Bosishga 2021-yil 29-oktabrda ruxsat etildi.

Bichimi 60×90^{1/16}. Ofset qog'ozi. «Times New Roman» garniturasida
ofset usulida bosildi. Shartli bosma tabog'i 14,0.

Nashr tabog'i 13,93. Adadi 10 000 nusxa. Buyurtma № 21-431.

«O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyi.

100011, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.

Telefon: (371) 244-87-55, 244-87-20

Faks: (371) 244-37-81, 244-38-10.

e-mail: uzbekistan@iptd-uzbekistan.uz

www.iptd-uzbekistan.uz





Y.K. Olesha

«O'ZBEKISTON»

ISBN 978-9943-7605-5-4

